



B. DJALILOV, X.T. YO'LDASHEV, J.M. IBROXIMOV

# O'LCHASH ÜSULLARI VA VOSITALARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKASIYALARINI  
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
FARG'ONA FILIALI

B. DJALILOV,  
X.T. YO'LDashev, J.M. IBROXIMOV


# O'LCHASH USULLARI VA VOSITALARI

(*I-kitob*)

1-2-qism. Elektr va fizikaviy-kimyoviy o'lchashlar.

(O'quv qo'llanma)

TOSHKENT – 2020



**UO'K: 006.9(075.8)**

**KBK: 30.10**

**B. Djalilov, X.T. Yo'idashev, J.M. Ibroximov. O'Ichash usullari va vositalari. (I-kitob). 1-2-qism. Elektr va fizikaviy-kimyoviy o'Ichashlar. (o'quv qo'llanma). – T.: «Aloqachi» 2020, 240 b.**

**ISBN 978-9943-5899-8-8**

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lif Davlat standartlari va fan dasturiga moslashtirilgan holda yozilgan bo'lib, u energetika, elektrotexnika, avtomatika, radiotexnika va elektr aloqa sohalariga oid ta'lif yo'nalishlari talabalari uchun xam mo'ljallangan. Undan ishlab chiqarish sohalarining mutaxassislari, muhandislar, magistrantlar va ilmiy-texnik xodimlar ham foydalanishlari mumkin.

O'quv qo'llanmada o'Ichovshunoslik va elektr o'Ichashlar cohasiga oid asosiy ta'riflar, tushunchalar, o'Ichash usullari va turlari hamda turli elektr o'Ichash asboblari va vositalari, shu jumladan, zamonaviy mikroprotsessorli o'Ichash vositalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga ishlab chiqarishni tashkil etish va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirishda, sifat tizimini joriy etishda fizikaviy-kimyoviy o'Ichashlarning muhimligi, mahsulot sifat ko'rsatkichlarini aniqlash, o'Ichash sifat menejmenti asoslaridan biri bo'lib qaralishiga katta ahamiyat beriladi.

**UO'K: 006.9(075.8)**

**KBK: 30.10**

**Taqrizchilar:**

Ergashev S.F. – t.f.d. prof.  
Rasulov A.M. – f.m.f.d., prof.

**ISBN 978-9943-5899-8-8**

**© «Aloqachi» nashriyoti, 2020.**

## SO‘Z BOSHI

So‘nggi yillarda Respublikamiz Oliy o‘quv yurtlarida jiddiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida fanilarni o‘qitish va uning uslubiyatiga yangi pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda.

Ishlab chiqarishning texnik darajasi o‘sishi natijasida, texnologik jarayonlarni samarali boshqarishda yangi turdagি mashinalar, apparatlar va o‘lhash vositalaridan foydalanilmoqda.

Ushbu O‘quv qo‘llanma 2-qismdan iborat bo‘lib, har bir qismda mavzuga tegishli o‘lhash asboblari va vositalarining tuzilish hamda ishslash prinsiplari bayon etilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada metrologiya asoslari, elektrik, noelektrik kattaliklarni o‘lhash usullari, texnik vositalarning tuzilishi, ishslash prinsipi, asosiy metrologik xossalari, afzalliklari hamda ularning kamchiliklarini bartaraf etish yo‘llari batafsil yoritilgan.

Kitobdagи ma’lumotlar hozirgi zamon metrologiyasi hamda elektr o‘lhashlariga doir bo‘lib, ularning texnik yechimlari xalq xo‘jaligida keng qo‘llanilayotgan axborot-o‘lhash tizimlari va majmualaridagi elektrik va noelektrik kattaliklarni o‘lhashda ishlatilayotgan birlamchi o‘lhash o‘zgartkichlari – datchiklarning xossalari, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Amaliy va laboratoriya ishlari nazariy bilimlarning mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq tushunishga hamda mustahkamlashga imkon beradi. O‘z-o‘zini sinash savollari, masalalar, referativ mavzular talabalarning mustaqil ta’lim olishi va fikrlash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Talabalarni O‘zbekistonda elektr o‘lhashlar yo‘nalishida olib borilayotgan ilmiy - tadqiqot ishlaridan ma’lum darajada xabardor qilish maqsadida mavzyga tegishli fan dasturi doirasidagi umumiylar ma’lumotlardan tashqari o‘zbekistonlik olimlar yaratgan o‘lhash o‘zgartkichlari va asboblarining konstruksiyalaridan namunalar berib borilgan.

Ushbu ma’lumotlardan “Telekommunikatsiyalar” – ta’lim yo‘nalishining talabalari “Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” fanining “Metrologiya” asoslarini o‘rganishlarida va ish faoliyatlarida, undan tashqari sohaviy malaka oshirish kurslarida foydalanish mumkin.

O‘quv qo‘llanma ba’zi kamchiliklardan holi bo‘lmasligi sababli qo‘llanmaning keyingi nashrlarida fikr va mulohazalaringiz inobatga olinadi.

## **I-QISM. ELEKTR O'LCHASHLAR.**

### **1-BOB. “ELEKTR O'LCHASH USULLARI VA ASOSLARI” TO‘G‘RISIDA.**

#### **1.1. ELEKTR O'LCHASHLAR BO‘YICHA UMUMIY MA’LUMOTLAR.**

Sanoat, transport, qishloq va suv xo‘jaligi, kimyoviy texnologiya va boshqa sohalardagi ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida texnologik, agrokimyoviy va biologik nazorat bilan birga turli o‘lhash ishlari ham olib boriladi. Shuning uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati boshqarishda qo‘llanilayotgan nazorat va o‘lhash vositalariga bevosita bog‘liq. Har bir yetuk mutaxassis o‘z ish joyida texnologik jarayon parametrlarini, ularning o‘lhash usullarini, o‘lhash asboblari va qurilmalarining texnik xarakteristikalarini bilishi kerak. Bakalavriatni tugatgan har bir kishi o‘lhash asboblari bilan ishslashda o‘lhash sxemalari va asboblarini ishlatish bilan bog‘liq bo‘lgan bilim va malakaga ega bo‘lishi, elektr, magnit, noelektrik kattaliklarni bilishi, ularni o‘lhashi, nazorat qilishi, o‘lhash asboblarini to‘g‘ri tanlay olishi, xatoliklarning sababini aniqlashi lozim.

Transport, issiqlik texnikasi, elektroenergetika, qishloq va suv xo‘jaligi, geologiya va geofizika, tibbiyat, biologiya, atrof-muhit ekologiyasi sohalarida yuzaga keladigan muammolarni yechishda turli parametrlarni o‘lhash va axborot olish sezilarli darajada murakkablashib bormoqda. Bu holat yangi o‘lhash usullari va vositalarini yaratishni va birlamchi o‘lhash o‘zgartirkichlari – datchiklarga, umuman olganda, o‘lhash texnikasiga bo‘lgan talabni kuchaytirmoqda. Shuning uchun o‘lhash asboblarining texnik imkoniyatlarini hisoblash, texnika vositalari yordamida kengaytirish va turli sharoitlarga moslashtirish hozirgi o‘lhash texnikasining dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda.

«Elektr o‘lhashlar» talabalarga elektromagnit hodisasi va jarayonlarini, elektr, magnit kattaliklar va parametrlarini hamda texnologik jarayonlarni boshqarishda yuzaga keladigan muammolarni hal etishga imkon beradi.

Metrologiya va elektr o‘lhashlardan olingan bilim va ko‘nikmalar kasb-hunar kollejlarining elektrotexnik yo‘nalishdagi

talabalariga «Sanoat korxonalarining elektr jihozlari va qurilmalari», «Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish», «Elektrotexnologiya» va boshqa fanlarni o'zlashtirishlarida yordam beradi. «Elektr o'lchashlar» sanoat, qishloq va suv xo'jaligi hamda boshqa sohalar yo'nalishida bakalavr va mutaxassislar tayyorlashda o'qitilishi lozim bo'lgan fandir. Davlat ta'lim standartlari, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan kelib chiqqan holda, bu fan kollej talabalarida metrologiya va elektr o'lchashlar bo'yicha zarur va yetarli bo'lgan bilim hamda ko'nikmalarni shakllantiradi.

«Elektr o'lchashlar»ni o'rganish natijasida talabalar olgan bilimlari hamda tajribalarini ishlab chiqarishda qo'llashlari lozim bo'ladi. Har bir talaba bilimlarini respublikamiz oldida turgan o'ta muhim masalalarni yechishga, jahon andozalariga mos keluvchi texnologik jarayonlarni samarali boshqarish hamda mahsulotlarni ishlab chiqarishga safarbar etishi kerak.

Moddiy dunyoni bilish usullaridan biri – o'lchashdir. «Har qanday fan o'lchashdan boshlanadi», – degan edi buyuk rus olimi D.I.Mendeleyev. Bizga ma'lum bo'lgan tabiiy fanlardagi barcha qonunlar zamirida o'lchash yotadi.

Elektrik va noelektrik kattaliklarni elektrik usul bilan o'lchashlar katta ahamiyatga ega. Elektr o'lchash usullari boshqa o'lchash turlaridan soddaligi, ishonchliligi, aniqligi, sezgirligi, qayta o'zgartirish va uzoq masofaga uzatish imkonini bilan ajralib turadi.

Elektr o'lchashlar yer qatlaming namligi, sho'rланishi, zichligini aniqlashda, shuningdek, yer osti ruda konlarini samolyotdan turib magnit usullar bilan razvedka qilishda qo'llaniladi. Hattoki sayyoralar va yulduzlar sirtidagi harorat ham fotoelementlar yordamida elektrik usul bilan aniqlanadi.

Murakkab ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish ko'p jihatdan elektr o'lchashlarga tayanadi, chunki ular o'lchash qurilmasi bilan bevosita ishlab chiqarish obyektlariga avtomatik ravishda ta'sir etish, o'lchangan kattaliklar ustida hisoblash operatsiyalarini avtomatik bajarish imkonini beradi.

Ishlab chiqarishning barcha sohalarida mexanizatsiyalashtirish, elektrlashtirish va avtomatlashtirishni yuqori darajaga ko'tarish uchun hozirgi zamon talablariga javob beradigan sodda, puxta, mukammal, arzon, yuqorianiqlik va sezgirlikka ega, har qanday

sharoitda o‘z ish qobiliyatini saqlab turadigan o‘lchov asboblarini loyihalashtirish, ishlab chiqarish va ularni to‘g‘ri ekspluatatsiya qilish zarur. Shu bilan birga, ishlab chiqarishni jadallashtirish, mahsulotlarni ko‘paytirish va sifatini oshirish uchun davlat tizimiga tegishli metrologik birlik va metrologik ta’midot tizimini qonun talablari darajasida ishlab chiqish zarur.

O‘lchovshunoslik fani ming yillik tarixga ega, chunki ibtidoiy odamlar ham o‘z ehtiyojlariga ko‘ra masofa, yer maydoni, ishlatgan uy-ro‘zg‘or asbob- uskunalarining o‘lchamlarini antropometrik, ya’ni o‘zining muayyan a’zolari yoki tabiiy o‘lchovlarni qo‘llagan holda o‘lchay boshlaganlar. Misol uchun: qarich, quloch, qadam va hokazo tarzda.

Tabiiy o‘lchovlardan qimmatbaho toshlarning o‘lchov birligi sifatida «no‘xatcha» ma’nosini anglatuvchi «karat», «bug‘doy doni» ma’nosini anglatuvchi «gran» yuzaga kelgan. Astronomlarning Quyosh, Yer, Oyni ko‘p yillik kuzatishlari natijasida vaqt birligi sifatida yil, oy, soat, minut va sekund birliklari shakllangan.

Sanoat, qishloq xo‘jaligi, ilm-fanning rivojlanishi ularga bog‘liq bo‘lgan maxsus texnika, o‘lchash usullari va vositalarini ham kashf etishga sabab bo‘ldi. Metrologiya xizmati va metrologik ta’midotning dastlabki shakllari turli tarzda vujudga kela boshlagan. Masalan, rus knyazi Svyatoslav Yaroslavichning oltin kamaridan uzunlikni namunaviy o‘lchashda foydalanilgan. O‘rta asrlarda Italiyada mamlakat cherkov va butxonalarida saqlanadigan marvarid donalaridan sochiluvchan moddalarning hajmi va massa birliklari o‘lchangan.

Ishlab chiqarish, tovar ayirboshlash, tabiat va koinot hodisalarini kuzatish hamda tahlil qilish sohalari zamirida o‘lchovshunoslik, o‘lchov vositalari va usullarini yaratish, taklif etish, ularni takomillashtirish borasida Sharq, xususan, Markaziy Osiyo olimlarining hissasi ulkan.

VIII-XI asrlarda yashab ijod qilgan al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk vatandoshlarimiz o‘lchovshunoslik va o‘lchash birliklariga oid asarlar yozib qoldirganlar. Al-Xorazmiy «O‘lchashlar haqida»gi risolasida uzunlik, yuza, hajmlarni hisoblash va o‘lchash usullarini amalda qanday qo‘llashni bayon etgan. Buyuk alloma «Quyosh to‘g‘risida»gi risolasida vaqt ni aniq o‘lchashga katta ahamiyat

bergan. Hamyurtimiz Ahmad Farg‘oniy dunyoda birinchi bo‘lib 861- yilda Nil daryosi sathini o‘lchaydigan asbobni kashf qilgan va daryo suvi sathini o‘lchash natijalariga ko‘ra qishloq xo‘jalik ekinlarining u yoki bu turini ekish bo‘yicha tavsiyalar bergan, ya’ni suv sathi maxsus belidan past bo‘lganda kam suv talab qiladigan ekinlar, belgi ichida bo‘lganda o‘rtacha suv talab qiladigan o‘simpliklar va belidan yuqori bo‘lganda ko‘p suv talab qiladigan ekinlar ekish tavsiya qilingan. Davlat tomonidan dehqonlarga soliq belgilashda ham ushbu asbob ko‘rsatkichlariga asoslanishgan. Bu asbob puxtaligi va aniqligi jihatidan hozirgi zamon asboblaridan sira qolishmaydi. Bundan tashqari, Ahmad Fargoniy «Quyosh soatini yasash haqida kitob» asarida o‘lchovshunoslikka oid muhim ma’lumotlar bergan. Uning astronomik kuzatishlar uchun mo‘ljallangan o‘lchash asbobi – usturlob yasash va undan foydalanish, quyosh tutilishini oldindan bashorat qilish va boshqa muhim kashfiyotlari o‘z davrida o‘lchovshunoslik fanini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Alloma Abu Rayhon Beruniy birinchi bo‘lib tajribalar asosida Yer sharining radiusini o‘lchagan. Buyuk faylasuf va tabib Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarida dori-darmon tayyorlash uchun tavsiya etilgan miqdor va hajm birliklaridan Sharq va G‘arb davlatlarida XVII-XVIII asrlargacha foydalanib kelingan. Yusuf Xos Xojib 1069- yilda o‘z asarlarining birida metrologiya sohasi haqida fikr yuritib, qimmatbaho metall sofligini sinash, bozordagi tosh va tarozilarining to‘g‘riligini, muomaladagi pullarning sofligi va og‘irligini kuzatib turish kerakligini qayd etgan. Falakiyot qonunlarini o‘rganishda, unga tegishli o‘lchashlarni takomillashtirishda Mirzo Ulug‘bekning hissasi nihoyatda ulkandir. Uning astrolyabiya yordamida o‘z rasadxonasida amalga oshirgan astronomik o‘lchashlari natijasida tuzgan «Ziji jadidi Guragoniy» asaridagi ma’lumotlar hozirgi zamonda qo‘llanilayotgan ma’lumotlardan juda kam farq qiladi.

O‘lchash texnikasining asosiy tarkibiy qismlaridan bo‘lgan elektr o‘lchash usullari va asboblarini yaratishda G‘arb olimlarining hissalari kattadir. 1745- yilda M.V.Lomonosovning safdoshi, akademik G.R.Rixman atmosfera elektrlanishini tatbiq qilish uchun birinchi bo‘lib potensiallar farqini o‘lchovchi elektrometr yasadi.

XVIII asrning oxirida A.Volta va L.Galvani tomonidan elektr toki kashf etilganidan so‘ng tok kuchini o‘lhash zarurati paydo bo‘ldi. X.Ersted kashf etgan elektr tokining magnit ta’siridan foydalanib, nemis fizigi G.Om 1826- yilda o‘tkazgichdan o‘tadigan tok kuchi va magnit maydoni ta’sirida turgan strelkaning og‘ishi orasidagi bog‘lanishni e’tirof etdi va shu prinsip asosida asbob yaratib, o‘z nomiga qo‘yilgan qonunga ta’rif berdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida elektr mashinalari yaratildi. Ularning elektr o‘lhash asboblarisiz amaliyatga tatbiq etilishi mumkin emas edi. Bunday asboblar (elektromagnit ampermetrlar va voltmetrlar, vattmetrlar va fazometrlar) yaratilishida rus injeneri O.M.Dolivo-Dobrovolskiyning hissasi ayniqsa katta. 1872- yilda magnit maydon kuchlanganligi va materialni magnit singdiruvchanligi orasidagi bog‘lanishni kashf etgan rus fizigi A.G.Stoletov magnit kattaliklarini o‘lchovchi asboblarni yaratdi va takomillashtirdi. Rus olimi, akademik B.S.Yakobi elektr zanjirning parametrlarini o‘lchaydigan qator usullar va asboblar kashf etdi hamda elektrik kattaliklarni o‘lhashda o‘lhash birligi tizimini ta’minalash kerakligini asoslab berdi. Bunday tizim 1881- yili Parijda o‘tkazilgan birinchi xalqaro elektrotexnik kongressda tasdiqlandi. Rus olimi D.I.Mendeleyev o‘lchov va vaznlar sohasida 1892- yilda fundamental ishlarni amalga oshirdi, uning tashabbusi bilan Rossiyada metrik sistemani tadbiq etish olg‘a surildi.

Elektr o‘lchov texnikasi elektronikaning element bazasi hamda avtomatika va hisoblash texnikasiga asoslangan holda qator texnologik masalalarni muvaffaqiyatli yechish zamirida tez sur’atlar bilan rivojlandi va takomillashtirildi. Misol uchun, o‘lhash asboblari (ampermetr, voltmetr va hoka-zolar)ning harakatlanuvchi qismini kernlarda mahkamlash o‘rniga tortkich (rastyajka)dan foydalanish ularning sezgirligi va aniqligini sezilarli darajada oshirdi.

Mikroelektronikaning element bazasidan foydalanish analogli harakatlanuvchi qismi bo‘lmagan elektr o‘lhash asboblarni ishlab chiqarish imkonini berdi. O‘tgan asrning 50- yillarida o‘lchov asboblari yaratilishida keskin burilish yasaldi – hisoblash texnikasi prinsiplari asosida raqamli o‘lhash asboblari ishlab chiqildi. Ular yuqori aniqligi, tezkor ishlashi, o‘lchanayotgan obyektdan kam quvvat olishi va avtomatlashtirilgan tarmoqlarga bevosita ulanishi bilan ajralib turadi.

O'lhash asboblarining keyingi yillardagi takomillashishi mikroprotsessorlarni qo'llash bilan bog'liqdir. XX asrning 70- yillarida sobiq Ittifoqda ko'zga ko'ringan olimlardan B.N.Sotskov, K.B.Karandeyev, L.F.Kulikovskiy, D.I.Ageykin, F.B.Grinevich, V.Yu.Kneller, N.Ye.Konyuxov, M.A.O'rakseev va boshqalar elektrik va noelektrik kattaliklarning avtomatik o'lhash nazariyasiga asos soldilar va analog hamda raqamli o'lhash vositalarini ommaviy (seriyaviy) ravishda ishlab chiqarishga ko'maklashdilar. Bu asboblar ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqotlar o'tkazishda keng ishlatiladi.

O'zbekistonda ham bu sohada keng ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Ayniqsa, elektroenergetik tizimlar rejimlarini tavsiflovchi kattaliklarni shakllantirish va o'lhash bo'yicha akademiklar H.F.Fozilov va J.A.Abdullayevlarning ishlari diqqatga sazovordir. Shu bilan birga, respublikamizda parametrlari tarqoq bo'lgan tizimlarning nazariyasi, uning bazasida elektr va magnit kattaliklarni o'lhash usullari hamda birlamchi o'zgartkichlarni yaratish bo'yicha ilmiy mакtab asoschisi professor M.F.Zaripov, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish hamda fizikkimyoviy jarayonlar parametrlarini va gidravlik kattaliklarni o'lhashda, o'lhash bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda faol qatnashgan akademik N.R.Yusupbekov, professorlar P.R.Ismatullayev, R.K.Azimov, A.A. Azimov, dotsent A.A.A'zamovning tadqiqotlari, elektrik va noelektrik kattaliklarning chastotasi avtomatik ravishda o'zgaradigan o'ta sezgir muvozanatlanuvchi ko'prik sxemalarini taklif etgan Sh.Sh.Zohidovlarning ishlari, O'lchovshunoslik va eliktr o'lhashlarga oid o'zbek tilida o'quv adabiyotlar yaratgan dotsent N.A.Ahrorov ishlari e'tiborga loyiqidir. O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki yillaridayoq korxonalarning metrologik ta'minoti, ularni standartlashtirish, sertifikatlashtirishga doir huquqiy va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Mamlakatimizda xalqaro hujjatlar bilan uyg'unlashtirilgan 50 dan ortiq asosiy hujjatlar, 85 dan ortiq mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha tashkilot va idoralar, 250 dan ziyod laboratoriylar ishlamoqda

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda bir necha million o'lhash asboblaridan foydalanilmoqda. Ularning har biri bilan har kuni ko'plab o'lhashlar bajariladi. Bunday sharoitda o'lhash birligini ta'minlash katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Bu masalalar bilan

O‘zbekiston Respublikasi Davlat standartlashtirish idorasi va uning tizimlari shug‘ullanadi. 1993- yilning 28- dekabrida O‘zbekiston Respublikasida «Standartlashtirish to‘g‘risida», «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatsiyalashtirish to‘g‘risida» hamda «Metrologiya to‘g‘risida» Qonunlar qabul qilindi. Natijada barcha o‘lchovlar va o‘lhash asboblari ustidan davlat nazorati o‘rnatildi, o‘lchovlarning kerakli darajada, aniq va sifatli o‘lchanishiga kafolat berildi.

1996–2003- yillar davomida 24 ta davlat etalon, 85 ta yuqori aniqlikka ega bo‘lgan I va II darajali o‘lhash vositalari, 46 ta namunaviy o‘lchovlar va uskunalar o‘rnatilib, xalq xo‘jaligida foydalaniladigan o‘lhash asboblarining davlat metrologik xizmati bilan ta’minlandi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy etalon bazasi yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi 1994- yil 1-yanvardan Xalqaro standartlashtirish tashkilotiga a’zodir. Bu faoliyat respublikaning xalqaro miqyoslarda tovar ayirboshlashini ta’minlab, mamlakatni dunyo ko‘lamida standartlashtirishni rivojlantiradi.

## **1.2. FIZIKAVIY KATTALIKLAR VA ULARNING SIFAT VA MIQDORIY TAVSIFLARI.**

Atrofimizdagи hayot uzlusiz tarzda kechadigan muayyan jarayonlar, voqealar, hodisalarga nihoyatda boy bo‘lib, ularni ko‘pini aksariyat hollarda sezmaymiz yoki e’tiborga olmaymiz. Chetdan qaraganda ularning orasida bog‘liqlik yoki uzlusizlik bilinmasligi ham mumkin. Ba’zilariga esa shunchalik ko‘nikib ketganmizki, aniq bir so‘z bilan ifodalash kerak bo‘lsa, biroz qiynalib turamizda, “...mana shu-da!” deb qo‘yamiz. Butun suhbat barchamiz bilib-bilmaydigan, ko‘rib-ko‘rmaydigan va sezib-sezmaydigan **kattaliklar** haqida boradi.

Kattaliklarning ta’rifini keltirishdan oldin ularning mohiyatiga muqaddima keltirsak. Yon-veringizga bir nazar tashlang, har xil buyumlarni, jonli va jonsiz predmetlarni ko‘rasiz. Balki oldingizda do‘stlaringiz ham o‘tirishgandir (albatta dars tayyorlab!). Garchi bu sanab o‘tilganlar bir-birlaridan tubdan farq qilsa ham hozir ko‘rishimiz kerak bo‘lgan xossalari va xususiyatlar bo‘yicha ulardagи muayyan umumiyligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, ruchka, stol va do‘stingizni olaylik. Bular bir-biridan qanchalik o‘zgacha bo‘lmisin, lekin o‘zlarida shunday bir umumiyligini kasb etganki, bu umumiylig ularning uchallasida ham bir xilda tavsiflanadi. Agarda gap ularning

katta-kichikligi xususida boradigan bo‘lsa, biror bir yo‘nalish bo‘yicha olingan va aniq chegaraga (oraliqqa) ega bo‘lgan makonni yoki masofani tushunamiz. Aynan mana shu xossa uchala ob’ekt uchun bir xil ma’noga ega. Ushbu ma’no nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, ular orasidagi tafovut faqat qiymatdagina bo‘lib qoladi. Yoki og‘irlik tushunchasini, ya’ni misol tariqasida olingan ob’ektlarning Yerga tortilishini ifodalaydigan xususiyatini oladigan bo‘lsak ham, mazmunan bir xillikni ko‘ramiz. Bunda ham ular orasidagi tafovut ularning Yerga tortilish kuchining katta yoki kichikligida, ya’ni qiymatidagina bo‘ladi. Biz buni oddiygina qilib **og‘irlik** deb atab qo‘yamiz. Bu kabi xususiyatlar talaygina bo‘lib, ularga **kattalik** nomi berilgan.

Kattaliklar juda ko‘p va turli-tuman, lekin ularning barchasi ham ikkitagina tavsif bilan tushuntiriladi. Bu sifat va miqdor tavsiflari. Sifat tavsifi olingan kattalikning mohiyatini, mazmunini ifodalaydigan tavsif hisoblanadi. Gap masofa borasida ketganda muayyan olingan ob’ektning o‘lchamlarini, uzun-qisqaligini yoki baland-pastligini bildiruvchi xususiyatni tushunamiz, ya’ni ko‘z oldimizga keltiramiz. Buni oddiygina bir tajribadan bilishimiz mumkin. Bir daqiqaga boshqa ishlaringizni yig‘ishtirib, ko‘z oldingizga og‘irlik va temperatura nomli kattaliklarni keltiring. Xo‘s, ularning sifat tavsiflarini sezsa oldingizmi. Bir narsaga ahamiyat bering-a, og‘irlik deganda qandaydir bir mavhum, og‘ir yoki yengil ob’ektni, aksariyat, tarozi toshlarini ko‘z oldiga keltirgansiz, temperatura to‘g‘risida gap borganda esa, issiq-sovuqlikni bildiruvchi bir narsani gavdalantirgansiz. Aynan mana shular biz sizga tushuntirmoqchi bo‘lgan kattalikning sifat tavsifi bo‘lib hisoblanadi. Endi olingan ob’ektlarda biror bir kattalik to‘g‘risida so‘zlaydigan bo‘lsak, bu ob’ektlar o‘zida shu kattalikni ko‘p yoki kam “mujassamlashtirganligini” shohidi bo‘lamiz. Bu esa kattalikning miqdor tavsifi bo‘ladi. Mana endi kattalikning ta’rifini keltirishimiz mumkin:

**Kattalik** - sifat tomonidan ko‘pgina fizikaviy ob’ektlarga (fizikaviy tizimlarga, ularning holatlariiga va ularda o‘tayotgan jarayonlarga) nisbatan umumiyligi bo‘lib, miqdor tomonidan har bir ob’ekt uchun xususiy bo‘lgan xossadir. Ta’rifda keltirilgan xususiylik biror ob’ektning xossasi ikkinchisini keltirilgan xususiylik bilan chambarchas bog‘liqidir. “Kattalik” atamasidan xossaning faqat miqdoriy

tomonini ifodalash uchun foydalanish to‘g‘ri emas (masalan, “massa kattaligi”, “bosim kattaligi” deb yozish), chunki shu xossalarning o‘zi kattalik bo‘ladi. Bunda “kattalik o‘lchami” degan atamani ishlatish to‘g‘ri hisoblanadi. Masalan, ma’lum jismning uzunligi, massasi, elektr qarshiligi va hokazolar.

Har bir fizikaviy ob’ekt bir qancha ob’ektiv xossalalar bilan tavsiflanishi mumkin. Ilm-fan taraqqiyoti va rivojlanishi bilan bu xossalarni bilishga talab ortib bormoqda. Hozirga kelib zamonaviy o‘lchash vositalari yordamida 70 dan ortiq kattalikni o‘lchash imkoniyati mavjud. Bu ko‘rsatkich 2050 yillarga borib 200 dan ortib ketishi bashorat qilinmoqda. Ko‘pincha kattalikning o‘rniga parametr, sifat ko‘rsatkichi, tavsif (xarakteristika) degan atamalarni ham qo‘llanishiga duch kelamiz, Lekin bu atamalarning barchasi mohiyatan kattalikni ifodalaydi.

Muayyan guruhlardagi kattaliklarning orasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lib, uni fizikaviy bog‘lanish tenglamalari orqali ifodalash mumkin. Masalan, vaqt birligidagi o‘tilgan masofa bo‘yicha tezlikni aniqlashimiz mumkin. Mana shu bog‘lanishlar asosida kattaliklarni ikki guruhga bo‘lib ko‘riladi: asosiy kattaliklar va hosilaviy kattaliklar.

**Asosiy kattalik** deb ko‘rilayotgan tizimga kiradigan va shart bo‘yicha tizimning boshqa kattaliklariga nisbatan mustaqil qabul qilib olinadigan kattalikka aytildi. Masalan, masofa (uzunlik), vaqt, temperatura, yorug‘lik kuchi kabilalar.

Har bir xossa ko‘p yoki kam darajada ifodalaniishi, ya’ni miqdor tavsifiga ega bo‘lishi mumkin ekan, demak bu xossani o‘lchash ham mumkin. Bu haqda buyuk italiyalik olim Galileo Galiley “O‘lchash mumkin bo‘lganini o‘lchang, mumkin bo‘lmajaniga esa imkoniyat yarating” degan edi. Kattaliklarning sifat tavsiflarini rasmiy tarzda ifodalashda o‘lchamlikdan foydalanamiz.

**Kattalikning o‘lchamligi** deb, shu kattalikning tizimdagagi asosiy kattaliklar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadigan va proporsionallik koeffitsienti 1 ga teng bo‘lgan ifodaga aytildi. Kattaliklarning o‘lchamligini dimension - o‘lcham, o‘lchamlik ma’nosini bildiradigan (ingl.) so‘zga asoslangan holda dim simvoli bilan belgilanadi. Odatda, asosiy kattaliklarning o‘lchamligi mos holdagi bosh harflar bilan belgilanadi,  $\dim l = L$ ;  $\dim m = M$ ;  $\dim t = T$ .

Hosilaviy kattaliklarning o‘lchamligini aniqlashda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

1. Tenglamaning o‘ng va chap tomonlarining o‘lchamligi mos kelmasligi mumkin emas, chunki, faqat bir xil xossalargina o‘zaro solishtirilishi mumkin. Bundan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, faqat bir xil o‘lchamlikka ega bo‘lgan kattaliklarnigina algebraik qo‘shishimiz mumkin.

2. O‘lchamliklarning algebrasi ko‘payuvchandir, ya’ni faqatgina ko‘paytirish amalidan iboratdir.

2.1. Bir nechta kattaliklar ko‘paytmasining o‘lchamligi ularning o‘lchamliklarining ko‘paytmasiga teng, ya’ni:  $A, B, C, Q$  kattaliklarining qiymatlari orasidagi bog‘lanish  $Q = ABC$  ko‘rinishda berilgan bo‘lsa, u holda

$$\dim Q = (\dim A)(\dim B)(\dim C).$$

2.2. Bir kattalikni boshqasiga bo‘lishdagi bo‘linmaning o‘lchamligi ularning o‘lchamliklarining nisbatiga teng, ya’ni  $Q = A/B$  bo‘lsa, u holda  $\dim Q = \dim A / \dim B$ .

2.3. Darajaga ko‘tarilgan ihmoyoriy kattalikning o‘lchamligi uning o‘lchamligini shu darajaga oshirilganligiga tengdir, ya’ni,  $Q = An$  bo‘lsa, u holda,  $\dim Q = \dim An$ . Masalan, agar tezlik  $v = l/t$  bo‘lsa, u holda  $\dim v = \dim l / \dim t = L/T = LT-1$ .

Shunday qilib, hosilaviy kattalikning o‘lchamligini ifodalashda quyidagi formuladan foydalanishimiz mumkin:

$$\dim Q = LnMmTk\dots,$$

bunda,  $L, M, T\dots$ , - mos ravishda asosiy kattaliklarning o‘lchamligi;  $n, m, k\dots$ , - o‘lchamlikning daraja ko‘rsatkichi.

Har bir o‘lchamlikning daraja ko‘rsatkichi musbat yoki manfiy, butun yoki kasr songa yoxud nolga teng bo‘lishi mumkin. Agar barcha daraja ko‘rsatkichlari nolga teng bo‘lsa, u holda bunday kattalikni **o‘lchamsiz kattalik** deyiladi. Bu kattalik bir nomdagi kattaliklarning nisbati bilan aniqlanadigan nisbiy (masalan, dielektrik o‘tkazuvchanlik), logarifmik (masalan, elektr quvvati va kuchlanishining logarifmik nisbati) bo‘lishi mumkin. O‘lchamliklarning nazariyasi odatda hosil qilingan ifoda (formula)larni tezdan tekshirish uchun juda qo‘l keladi. Ba’zan esa bu tekshiruv noma’lum bo‘lgan kattaliklarni topish imkonini beradi.

Muayyan ob’ektni tavsiflovchi kattalik shu ob’ekt uchun xos bo‘lgan miqdor tavsifiga ega ekan, bu kabi ob’ektlar o‘zaro birgalikda ko‘rilayotganda faqat mana shu miqdor tavsiflariga ko‘ra tafovutlanadi. Buning uchun esa solishtirilayotganda ob’ektlararo biror bir asos bo‘lishi

lozim. Bu asosga solishtirish birligi deyiladi. Aynan mana shunday tavsiflash asoslariga kattalikning birligi deb nom berilgan.

**Kattalikning o'lchami** - Ayrim olingan moddiy ob'ekt, tizim, hodisa yoki jarayonga tegishli bo'lgan kattalikning miqdori bo'lib hisoblanadi.

**Kattalikning qiymati** - qabul qilingan birliklarning ma'lum bir soni bilan kattalikning miqdor tavsifini aniqlash. Qiymatning sonlar bilan ifodalangan tarkibiy qismini kattalikning sonli qiymati deyiladi. Sonli qiymat kattalikning o'lchami noldan qancha birlikka farqlanadi, yoki o'lhash birligi sifatida olingan o'lchamdan qancha birlik katta (kichik) ekanligini bildiradi yoki boshqacha aytganda  $Q$  kattaligining qiymati uni o'lhash birligining o'lchami  $[Q]$  va sonli qiymati q bilan ifodalanadi degan ma'noni anglashimiz lozim:  $Q = q[Q]$ .

**Kattalikning birligi deb** - ta'rif bo'yicha soniy qiymati 1ga teng qilib olingan kattalik tushuniladi Ushbu atama kattalikning qiymatiga kiradigan birlik uchun ko'paytiruvchi sifatida ishlataladi. Muayyan kattalikning birliklari o'zaro o'lchamlari bilan farqlanishi mumkin. Masalan, metr, fut va dyuym uzunlikning birliklari bo'lib, quyidagi har xil o'lchamlarga ega - 1 fut = 0,3048 m, 1 dyuym = 25,4 mm ga tengdir. Kattalikning birligi ham, kattalikning o'ziga o'xshash asosiy va hosilaviy birliklarga bo'linadi: ihtiroyiy ravishda tanlangan asosiy kattalikning birligiga aytiladi. Bunga misol qilib, LMT - kattaliklar tizimiga to'g'ri kelgan MKS birliklar tizimida metr, kilogramm, sekund kabi asosiy birliklarni olishimiz mumkin.

**Hosilaviy birlik** deb, berilgan birliklar tizimining birliklaridan tuzilgan, ta'riflovchi tenglama asosida keltirib chiqariluvchi hosilaviy kattalikning birligiga aytiladi. Hosilaviy birlikka misol qilib 1 m/s - xalqaro birliklar tizimidagi tezlik birligini;  $1 \text{ N} = 1 \text{ kg. m/s}^2$  kuch birligini olishimiz mumkin.

**Xalqaro birliklar tizimi** 1960 yili o'lchov va og'irliklarning XI Bosh konferensiyasi Xalqaro birliklar tizimini qabul qilgan bo'lib, mamlakatimizda buni SI (SI - Systeme international) xalqaro tizimi deb yuritiladi. Keyingi Bosh konferensiyalarda SI tizimiga bir qator o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, hozirgi holati va birliklarga qo'shimchalar va ko'paytirgichlar haqidagi ma'lumotlar 2.1- va 2.2-jadvallarda keltirilgan.

### **Birliklarni va o'lchamlarni belgilash va yozish qoidalari**

1. Kattaliklarning birliklarini belgilash va yozish borasida standartlar asosida me'yorlangan tartib va qoidalar mavjud. Bu qoidalar va tartiblar GOST 8.417-81 da atroficha yoritilgan. 1. Kelvin temperaturasidan (belgisi T) tashqari  $t=T-T_0$  ifoda bilan aniqlanuvchi Selsiy temperaturasi (belgisi t) qo'llaniladi, bu yerda ta'rifi bo'yicha  $T=273,15$  K. Kelvin temperaturasi kelvinlar bilan Selsiy temperaturasi – Selsiy graduslari bilan ifodalanadi (xalqaro va o'zbekcha belgisi  $^{\circ}\text{S}$ ). O'lchovi bo'yicha Selsiy gradusi kelvinga teng. Selsiy gradusi bu «kelvin» nomi o'rniga ishlatiladigan maxsus nom.

2. Kelvin temperaturalarining ayirmasi yoki oralig'i kelvinlar bilan ifodalanadi. Selsiy temperaturalarining ayirmasi yoki oralig'i kelvinlar bilan ham, selsiy graduslari bilan ham ifodalashga ruxsat etiladi.

3. Xalqaro amaliy temperatura belgisini 1990 yilgi xalqaro temperatura shkalasida ifodalash uchun, agar uni termodinamik temperaturadan farqlash lozim bo'lsa, unda termodinamik temperatura belgisiga «90» indeksi qo'shib yoziladi (masalan,  $T_{90}$  yoki  $t_{90}$ ) SI ning hosilaviy birlıklari SI ning kogerent hosilaviy birlıklarini hosil qilish qoidalariga muvofiq keltirib chiqariladi. O'lchovlar va tarozilar XVII Bosh konfernsiyasining – O'TBK (1983 y.) qarorlariga muvofiq uzunlik birligi - metrni yangi ta'rifi bo'yicha, tekis elektromagnit to'lqinlarining vakuumda tarqalish tezligini qiymati  $s_0 = 299792458$  m/s (aniq) ga teng deb qabul qilingan. Bu tenglamaga shuningdek qiymati  $8,854187817 \times 10^{-12} \text{ F/m}$  teng deb qabul qilingan vakuumning elektrik doimiyligi  $\epsilon_0$  kiradi.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Aynan atrofingizda mavjud turgan kattaliklarni sanab bering va ularni guruhlang.
2. Kattalikning sifat va miqdor tavsiflari nima asosida izohlanadi?
3. SI birliklar tizimi haqida so'zlab bering.
4. O'lhash birlıklariga qo'shimchalar deganda nimani tushunasiz?

## **1.3. ELEKTR O'LCHASH TURLARI VA USULLARI.**

### **O'lhashlar to'g'risida asosiy ta'riflar, tushunchalar.**

Kattalikning sonli qiymatini odatda o'lhash amali bilangina topish mumkin, ya'ni bunda ushbu kattalik miqdori birga teng deb

qabul qilingan shu turdag'i kattalikdan necha marta katta yoki kichik ekanligi aniqlanadi.

**O'lhash deb**, shunday solishtirish, anglash, aniqlash jarayoniga aytiladiki, unda o'lchanadigan kattalik fizik eksperiment yordamida, xuddi shu turdag'i, birlik sifatida qabul qilingan miqdori bilan o'zaro solishtiriladi.

Bu ta'rifdan shunday xulosaga kelish mumkinki: birinchidan, o'lhash bu har xil kattaliklar to'g'risida informatsiya hosil qilishdir; ikkinchidan, bu fizik eksperimentdir; uchinchidan - o'lhash jarayonida o'lchanadigan kattalikning o'lchov birligining ishlatalishidir. Demak, o'lhashdan maqsad, o'lchanadigan kattalik bilan uning o'lchov birligi sifatida qabul qilingan miqdori orasidagi (tafovutni) nisbatni topishdir. Ya'ni, o'lhash jarayonida o'lhashdan ko'zda tutiladigan **maqsad**, ya'ni izlanuvchi kattalik (bu shunday asosiy kattalikki uni aniqlash butun izlanishni, tekshirishni vazifasi, maqsadi hisoblanadi) va **o'lhash ob'ekti** ishtirot etadi. O'lhash ob'ekti (o'lchanadigan kattalik) shunday yordamchi kattalikki, uning yordamida asosiy izlanuvchi kattalik aniqlanadi, yoki bu shunday qurilmaki, uning yordamida o'lchanadigan kattalik solishtiriladi.

Shunday qilib, uchta tushunchani bir-biridan ajrata bilish kerak; o'lhash, o'lhash jarayoni va o'lhash usuli.

**O'lhash** - bu umuman har xil kattaliklar to'g'risida informatsiya qabul qilish, o'zgartirish demakdir. Bundan maqsad izlanayotgan kattalikni son qiymatini qo'llash, ishlatalish uchun qulay formada aniqlashdir.

**O'lhash jarayoni** - bu solishtirish eksperimentini o'tkazish jarayonidir (solishtirish qanday usulda bo'lmasin).

**O'lhash usuli esa** - bu fizik eksperimentning aniq ma'lum struktura yordamida, o'lhash vositalari yordamida va eksperiment o'tkazishning aniq yo'li, algoritmi yordamida bajarilishi, amalga oshirilishi usulidir.

O'lhash odatda o'lhashdan ko'zlangan maqsadni (izlanayotgan kattalikni) aniqlashdan boshlanadi, keyin esa shu kattalikning xarakterini analiz qilish asosida bevosita o'lhash ob'ekti (o'lchanadigan kattalik) aniqlanadi. O'lhash jaraeni yordamida esa shu o'lhash ob'ekti to'g'risida informatsiya hosil qilinadi va nihoyat ba'zi matematik qayta ishslash yo'li bilan o'lhash maqsadi haqida yoki izlanayotgan kattalik haqida informatsiya (o'lhash natijasi) olinadi.

**O'lhash natijasi** - o'lchanayotgan kattalikning son qiymatini o'lhash birligiga ko'paytmasi tariqasida ifodalanadi.

**X=n[x]**, bu yerda X - o'lchanadigan kattalik;

n - o'lchanayotgan kattalikning qabul qilingan o'lchov birligidagi son qiymati; [x] - o'lhash birligi


O'lhash jarayonini avtomatlashtirish munosabati bilan o'lhash natijalari o'zgarmasdan to'g'ridan-to'g'ri elektron hisoblash mashinalariga yoki avtomatik boshqarish tizimlariga berilishi mumkin. Shuning uchun, keyingi paytlarda, ayniqsa, kibernetika sohasidagi mutaxassislarda o'lhash haqidagi tushuncha quyidagicha ta'riflanadi.

**O'lhash** – bu izlanayotgan kattalik haqida informatsiya qabul qilish va o'zgartirish jarayonidir. Bundan ko'zda tutilgan maqsad shu o'lchanayotgan kattalikning ishlatish, o'zgartirish, uzatish yoki qayta ishlashlar uchun qulay formadagi ifodasini ishlab chiqishdir.

O'lhash fan va texnikaning qaysi sohasida ishlatilishiga qarab u aniq nomi bilan yuritiladi: elektrik, mexaniq, issiqlik, akustik va x.k.

### O'lhash turlari

O'lchanayotgan kattalikning sonli qiymatini topishning bir necha xil turlari (yo'llari) mavjuddir. Quyida shu yo'llar bilan tanishib chiqamiz.



**Bevosita o'lhash** - O'lchanayotgan kattalikning qiymatini tajriba ma'lumotlaridan bevosita topish. Masalan, oddiy simobli termometrda yoki lineyka yordamida o'lhash.

$$u = s \cdot x;$$

Bunda: u - muayyan birlikda ifodalanyotgan o'lchanayotgan kattalikning qiymati;

s - shkalaning bo'lim qiymati;

x - shkaladan olingan qaydnomasi.

**Bilvosita o'lhash** - bevosita o'lchanangan kattaliklar bilan o'lchanayotgan kattalik orasida bo'lgan ma'lum bog'lanish asosida katalikning qiymatini topish. Masalan, tezlikni o'lhash.

$$u = f(x_1 x_2 \dots x_n).$$

**Majmuiy o'lhash** - bir necha nomdosh kattaliklarning birikmasini bir vaqtta bevosita o'lhashdan kelib chiqqan tenglamalar tizimini yechib, izlanayotgan qiymatlarni topish. Masalan, har xil tarozi toshlarining massasini solishtirib, bir toshning ma'lum massasidan boshqasining massasini topish uchun o'tkaziladigan o'lhashlar, haroratni qarshilik termometri orqali o'lhash.

**Birgalikdagi o'lhash** - turli nomli ikki va undan ortiq kattaliklar orasidagi munosabatni topish uchun bir vaqtda o'tkaziladigan o'lhashlar. Misol, rezistorning  $20^{\circ}\text{S}$  dagi elektr qarshiligi qiymatini turli temperaturalarda o'lhab topish.

**Mutlaq o'lhash** - bir yoki bir necha asosiy kattaliklarni bevosita o'lchanishini va (yoki) fizikaviy doimiylikning qiymatlarini qo'llash asosida o'tkaziladigan o'lhash.

**Nisbiy o'lhash** - kattalik bilan birlik o'rnila olingan nomdosh kattalikning nisbatini yoki asos qilib olingan kattalikka nisbatan nomdosh kattalikning o'zgarishini o'lhash.

### O'lhash usullari

**O'lhash usuli** – deganda o'lhash qonun-qoidalari va o'lhash vositalaridan foydalanim, kattalikni uning birligi bilan solishtirish usullarini tushunamiz.


O'lhashning quyidagi usullari mavjud:

**Bevosita baholash usuli** - bevosita o'lhash asbobining sanash qurilmasi yordamida to'g'ridan to'g'ri o'lchanayotgan kattalikning qiymatini topish. Masalan, prujinali manometr bilan bosimni o'lhash yoki ampermetr yordamida tok kuchini topish.

**O'lchov bilan taqqoslash (solishtirish) usuli** - o'lchanayotgan kattalikni o'lchov orqali yaratilgan kattalik bilan taqqoslash (solishtirish) usuli. Masalan tarozi toshi yordamida massani aniqlash. O'lchov bilan taqqoslash usulining o'zini bir nechta turlari mavjud:

**Ayirmali o'lhash (differensial) usuli** - o'lchov bilan taqqoslash usulining turi hisoblanib, o'lchanayotgan kattalikning va o'lchov orqali yaratilgan kattalikning ayirmasini (farqini) o'lhash asbobiga ta'sir qilish usuli. Misol qilib uzunlik o'lchovini qiyoslashda


uni komparatorda namunaviy o'lchov bilan taqqoslab o'tkaziladigan o'lchash. Yoki, voltmetr yordamida ikki kuchlanish orasidagi farqni o'lchash, bunda kuchlanishlardan biri juda yuqori aniqlikda ma'lum, ikkinchisi esa izlanayotgan kattalik hisoblanadi. (1-rasm).



1-rasm.


$U_x$  bilan  $U_0$  qanchalik yaqin bo'lsa, o'lchash natijasi ham shunchalik aniq bo'ladi. (2-rasm).

**Nolga keltirish usuli** - bu ham o'lchov bilan taqqoslash usulining bir turi hisoblanadi. Bunda kattalikning taqqoslash asbobiga ta'siri natijasini nolga keltirish lozim bo'ladi. Masalan, elektr qarshiligini qarshiliklar ko'prigi bilan to'la muvozanatlashtirib o'lchash.



2-rasm.

**Almashlash usuli** - o'lchov bilan taqqoslash usulining turi hisoblanib, o'lchanayotgan kattalikning o'lchov orqali yaratilgan ma'lum qiymatli kattalik bilan o'rinni almashishiga asoslangan. Misol, o'lchanadigan massa bilan tarozi toshini bir pallaga galma-gal qo'yib o'lchash yoki qarshiliklar magazini yordamida tekshirilayotgan rezistorning qarshiliginini topish: (3-rasm).



3-rasm.

Bunda “ $K$ ” ni ikkala holatda (1,2) qo‘yganda  $\alpha_1=\alpha_2$  shart bajarilishi kerak.

$$I_1 = U / R_o \rightarrow \alpha_1$$

$$I_2 = U / R_k \rightarrow \alpha_2$$

**Mos kelish usuli** - o‘lchov bilan taqqoslash usulining turi. O‘lchanayotgan kattalik bilan o‘lchov orqali yaratilgan kattalikning ayirmasini shkaladagi belgilar yoki davriy signallarni mos keltirish orqali o‘tkaziladigan o‘lchash. Masalan, kalibr yordamida val diametrini moslash.


Har bir tanlangan usul o‘z usuliyatiga, ya’ni o‘lchashni bajarish usuliyatiga ega bo‘lishi lozim. O‘lchashni bajarish usuliyati deganda, ma’lum usul bo‘yicha o‘lchash natijalarini olish uchun belgilangan tadbir, qoida va sharoitlar tushuniladi.

O‘lchanadigan kattalikning o‘lchash jarayonida o‘zgarish xarakteriga ko‘ra **statik** va **dinamik** o‘lchashlarga ajratiladi. **Statik o‘lchash** deganda qiymati o‘lchash jarayoni mobaynida o‘zgarmaydigan kattalikni o‘lchash tushuniladi. Bundan tashqari, davriy o‘zgaruvchan kattaliklarning turg‘un rejimidagi o‘lchashlar ham kiradi. Masalan, o‘zgaruvchan kattalikning amplituda, effektiv va boshqa qiymatlarini turg‘un rejimida o‘lchash.

**Dinamik o‘lchashlarga** qiymatlari o‘lchash jarayonida o‘zgarib turadigan kattaliklarni o‘lchashlar kiradi. Dinamik o‘lchashga vaqt bo‘yicha o‘zgaradigan kattalikning oniy qiymatini o‘lchash misol bo‘la oladi.


## Diskret o'lhash usuli

Yuqorida ko'rilgan o'lhash usullaridan tubdan farq qiluvchi **diskret** o'lhash usuli ham mavjud. Diskret o'lhash usuli shundan iboratki, unda vaqt bo'yicha uzlusiz o'zgaradigan kattalik vaqt bo'yicha diskretlanadi, miqdor bo'yicha esa kvantlanadi yoki boshqacha qilib aytganda vaqt bo'yicha uzlusiz o'zgaradigan kattalik vaqtning ayrim momentlariga tegishli uzuq qiymatlariiga o'zgartiriladi (4-rasm).



4-rasm.

$X(t)$  – vaqt bo'yicha uzlusiz o'zgaradigan kattalikning o'zgarish grafigi;  $X_k$  – kvant miqdorlari ya'ni o'lchanadigan  $X=f(t)$  kattaligining  $t_1, t_2, t_3, \dots, t_n$  momentlariga tegishli uzuq qiymatlari. Demak, diskret o'lhash usuli bo'yicha o'lchanadigan kattalikning



5-rasm.

hamma qiymati ( $0 \div t$ ) emas, balki, ayrim momentlarga tegishli qiymatigina ma'lum bo'ladi. Diskretlash bu muayyan diskret (juda qisqa) vaqt oralig'ida qadnomalarni olishdir.  $t_1, t_2, t_3, \dots, t_n$  – diskretlash momentlari deyiladi va  $t_1 \div t_2$  gacha oraliq diskretlash momentlari deyiladi. Kvantlash esa,  $X(t)$  kattalikning uzluksiz qiymatlarini  $X_k$  diskret qiymatlarining to'plami (nabori) bilan almashtirishdir. O'lchanadigan kattalikning uzluksiz qiymatlari muayyan tartiblar asosida kvantlash darajalarining qiymatlari bilan almashtiriladi. Kodlashtirish esa, muayyan ketma-ketlikda ifodalangan sonli qiymatlarni tavsiya etishdan iborat.

Uzluksiz o'zgaruvchan kattalikning diskret usuli asosida uzuk diskret qiymatlariga, kodlarga o'zgartirilishi asosan 3 xil usulda amalga oshiriladi. (5-rasm. a, b, v):

- a) ketma-ket hisob usuli;
- b) taqqoslash (solishtirish) usuli;
- v) sanoq usuli;

### **Nazorat sinov savollari**

1. O'lhash usuli deb nimaga aytildi?
2. Qanday o'lhash turlarini bilasiz?
3. Majmuuy, birgalikda o'lhash turlarini tushuntiring? Misol keltiring.
4. Bevosita baholash usulini tushuntiring?
5. Qanday solishtirish usullari mavjud?
6. Nolga keltirish, o'rindoshlik usullariga misol keltiring?
7. Differensial, mos kelish usullarini tushuntiring?
8. Absolyut nisbiy o'lhash deb nimaga aytildi?
9. Diskret o'chash usulini tushuntiring?
10. Statik va dinamik o'lhash deb nimaga aytildi?

## **1.4. O'LCHASH XATOLIKLARI VA ULARNI BAXOLASH**

### **O'lhash xatoliklari, ularning tabaqlanishi.**

O'lhash xatoliklari turli sabablarga ko'ra turlicha ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Bu sabablar qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- o'lhash vositasidan foydalanishda uni sozlashdan yoki sozlash darajasini siljishidan kelib chiquvchi sabablar;

- o‘lhash ob’ektini o‘lhash joyiga (pozitsiyasiga) o‘rnatishdan kelib chiquvchi sabablar;
- o‘lhash vositalarining zanjirida o‘lhash ma’lumotini olish, saqlash, o‘zgartirish va tavsiya etish bilan bog‘liq sabablar;
- o‘lhash vositasi va ob’ektiga nisbatan tashqi ta’sirlar (temperatura yoki bosimning o‘zgarishi, elektr va magnit maydonlarining ta’siri, turli tebranishlar va hokazolar) dan kelib chiquvchi sabablar;
- o‘lhash ob’ektining xususiyatlaridan kelib chiquvchi sabablar;
- operatorning malakasi va holatiga bog‘liq sabablar va shu kabilar.

O‘lhash xatoliklarini kelib chiqish sabablarini tahlil qilishda eng avvalo o‘lhash natijasiga salmoqli ta’sir etuvchilarini aniqlash lozim bo‘ladi.

O‘lhash xatoliklari u yoki bu xususiyatiga ko‘ra quyida keltirilgan turlarga bo‘linadi:

I. O‘lhash xatoliklari ifodalanishiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

**Absolyut (mutlaq) xatolik.** Bu xatolik kattalik qanday birliklarda ifodalanayotgan bo‘lsa, shu birlikda tavsiflanadi. Masalan,  $0,2 \text{ V}$ ;  $1,5 \mu\text{m}$  va h.k. Mutlaq xatolik quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta = A_x - A_{ch} \approx A_x - A_o;$$

bunda,  $A_x$  - o‘lhash natijasi;

$A_{ch}$  - kattalikning chinakam qiymati;

$A_o$  - kattalikning haqiqiy qiymati.

Absolyut xatolikni teskari ishora bilan olingani tuzatma (- popravka) deb ataladi.

$$-\Delta = \delta;$$

Odatda, o‘lhash asboblarining xatoligi keltirilgan xatolik bilan belgilanadi.

Absolyut xatolikni asbob ko‘rsatishining eng maksimal qiymatiga nisbatini protsentlarda olinganiga keltirilgan xatolik deb ataladi.

$$\beta_k = \frac{\Delta}{A_{x_{max}}} \cdot 100\%;$$

**2. Nisbiy xatolik** - absolyut xatolikni haqiqiy qiymatga nisbatini bildiradi va foiz (%) larda ifodalanadi:

$$\beta = [(A_x - A_o)/A_o] \cdot 100 = (\Delta/A_o) \cdot 100\%.$$

II. O‘lhash sharoiti tartiblariga ko‘ra xatoliklar quyidagilarga bo‘linadi:

1. **Statik xatoliklar** - vaqt mobaynida kattalikning o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lman xatoliklar. O‘lhash vositalarining statik xatoligi shu vosita bilan o‘zgarmas kattalikni o‘lhashda hosil bo‘ladi. Agar o‘lhash vositasining pasportida statik sharoitlardagi o‘lhashning chegaraviy xatoliklari ko‘rsatilgan bo‘lsa, u holda bu ma’lumotlar dinamik sharoitlardagi aniqlikni tavsiflashga nisbatan tadbiq etila olmaydi.
2. **Dinamik xatoliklar** - o‘lchanayotgan kattalikning vaqt mobaynida o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lgan xatoliklar sanaladi. Dinamik xatoliklarning vujudga kelishi o‘lhash vositalarining o‘lhash zanjiridagi tarkibiy elementlarning inersiyasi tufayli deb izohlanadi. Bunda o‘lhash zanjiridagi o‘zgarishlar oniy tarzda emas, balki muayyan vaqt davomida amalga oshirilishi asosiy sabab bo‘ladi.

III. Kelib chiqishi sababi (sharoitiga) qarab:

- asosiy;
- qo‘shimcha xatoliklarga bo‘linadi.

Normal (graduirovka) sharoitda ishlatiladigan asboblarda hosil bo‘ladigan xatolik asosiy xatolik deyiladi. Normal sharoit deganda temperatura  $20^{\circ}\text{S} \pm 5^{\circ}\text{S}$  havo namligi  $65\% \pm 15\%$ , atmosfera bosimi ( $750 \pm 30$ ) mm.sim.ust., ta’minalash kuchlanishi nominalidan  $\pm 2\%$  o‘zgarishi mumkin va boshqalar.

Agar asbob shu sharoitdan farqli bo‘lgan tashqi sharoitda ishlatilsa, hosil bo‘ladigan xatolik qo‘shimcha xatolik deyiladi.

IV. Mohiyati, tavsiflari, o‘zgarish xarakteriga qarab va bartaraf etish imkoniyatlariga ko‘ra:

1. Muntazam xatoliklar;
2. Tasodifiy xatoliklar;
3. Qo‘pol xatoliklar yoki yanglishuv xatoliklarga bo‘linadi.

**Muntazam xatolik** deb umumiyligi xatolikning takroriy o‘lhashlar mobaynida muayyan qonuniyat assosida hosil bo‘ladigan, saqlanadigan yoki o‘zgaradigan tashkil etuvchisiga aytildi. (6-rasm).


Umumiyligi xatolikni quyidagicha tasvirlashimiz mumkin:

Bunda:

$\Delta_m$  – muntazam xatolik

$\Delta_t$  – tasodifiy xatolik

$\Delta_q$  – qo‘pol xatolik



### 6- rasm. O'lchash xatoliklari

Muntazam xatoliklarning kelib chiqish sabablari turli tuman bo'lib, tahlil va tekshiruv asosida ularni aniqlash va qisman yoki butkul bartaraf etish mumkin bo'ladi. Muntazam xatoliklarning asosiy guruhlari quyidagilar hisoblanadi:

- Uslubiy xatoliklar;
- Asbobiy (qurilmaviy) xatoliklar;
- Sub'ektiv xatoliklar.

O'lchash usulining nazariy jihatdan aniq asoslanmaganligi natijasida uslubiy xatolik kelib chiqadi.

O'lchash vositalarining konstruktiv kamchiliklari tufayli kelib chiqadigan xatolik asbobiy xatolik deb ataladi. Masalan: asbob shkalasining noto'g'ri graduirovkalanishi (darajalanishi), qo'zg'aluvchan qismning noto'g'ri mahkamlanishi va hokazolar.

Sub'ektiv xatolik - kuzatuvchining aybi bilan kelib chiqadigan xatolikdir.

### **Muntazam xatoliklar va ularni kamaytirish usullari. Additiv va multiplikativ xatoliklar.**

Umuman, muntazam xatolikni yo'qotish yo'li bir aniq ishlab chiqilmagan. Lekin, shunga qaramay, muntazam xatolikni kamaytirishni ba'zi bir usullari mavjud.

1. **Xatoliklar chegarasini nazariy jihatdan baholash**, bu uslub o'lchash uslubini, o'lchash vositalarining xarakteristikalarini, o'lchash tenglamasini va o'lchash sharoitlarini analiz qilishga asoslanadi. Masalan: o'lchash asbobining parametrlari yoki tekshirilayotgan zanjirning ish rejimini bilgan holda biz uning tuzatmasini (xatoligi) topishimiz mumkin. Xatolik, bunda, asbobning iste'mol qiluvchi

quvvatidan, o'lchanayotgan kuchlanishning chastotasini oshishidan hosil bo'lishi mumkin.

2. *Xatolikni o'lhash natijalari bo'yicha baholash.* Bunda o'lhash natijalari har xil prinsipdagi usul va o'lhash apparaturasidan (vositalardan) olinadi. O'lhash natijalari orasidagi farq - muntazam xatolikni xarakterlaydi. Bu uslub yuqori aniqlikdagi o'lhashlarda ishlatiladi.

3. *Har xil xarakteristikaga ega bo'lgan, lekin bir xil fizikaviy prinsipda ishlaydigan apparatura yordamida o'lhash usuli.* Bunda o'lhash ko'p marotaba takrorlanib, o'lhash natijalari muntazam statistika usuli yordamida ham ishlanadi.

4. *O'lhash apparatusini ishlatishdan oldin sinovdan o'tkazish.* Bu usul ham aniq o'lhashlarda ishlatiladi.

5. *Muntazam xatoliklarni keltirib chikaruvchi sabablarni yo'qotish yo'li.* Masalan: tashqi muhit temperaturasi o'zgarmas qilib saqlansa, o'lhash vositasini tashqi maydon ta'siridan himoyalash maqsadida ekranlashtirilsa, manba kuchlanishi turg'unlashtirilsa (stabillashtirilsa) va h.k.

6. *Muntazam xatolikni yo'qotishning maxsus usulini qo'llash:* o'rin almashlash (o'rindoshlik), differensial usuli, simmetrik kuzatishlardagi xatoliklarni kompensasiyalash usuli.

O'lhash vositalarining absolyut xatoligi o'lchanadigan kattalikning o'zgarishiga bog'liq, shuning uchun ham absolyut xatolik ifodasi ikki tashkil etuvchidan iborat deb qaraladi. Masalan: absolyut xatolikning maksimal qiymati quyidagicha ifodalanadi:

$$|\Delta|_{max} = |a| + |b \cdot x|$$

Xatolikning birinchi tashkil etuvchisi o'lchanadigan kattalikning qiymatiga bog'liq bo'lmaydi va u additiv xatolik deyiladi. Ikkinci tashkil etuvchisi esa o'lchanadigan kattalikning qiymatiga (o'zgarishiga) bog'liq bo'lib, **multiplikativ xatolik** deb ataladi.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Muntazam xatolikni keltirib chiqaruvchi sabablar nimalardan iborat?
2. Muntazam xatoliklar qanday tashkil etuvchilardan iborat?

## 1.5. TASODIFIY XATOLIKLARNI TAQSIMLANISH QONUNIYATLARI.

### Tasodifiy xatolik va ularning taqsimlanishi

Tasodifiy xatolik biror fizikaviy kattalikni takror o'lchaganda hosil bo'ladigan, o'zgaruvchan, ya'ni ma'lum qonuniyatga bo'ysinmagan holda kelib chiqadigan xatolikdir. Bu xatolik ayni paytda nima sababga ko'ra kelib chiqqanligi noaniqligicha qoladi, shuning uchun ham uni yo'qotish mumkin emas. Haqiqatda o'lhash natijasida tasodifiy xatolikni mavjudligi takror o'lhashlar natijasida ko'rinadi va uni hisobga olish, o'lhash natijasiga uni ta'siri (yoki o'lhash aniqligini baholash) matematik statistika usuli yordamida amalga oshiriladi.

**Bevosita o'lhashlar** natijasining xatoliklarini baholashda quyidagi funksiyadan foydalaniladi:

$$y=f(x_1, x_2, \dots, x_n),$$

bu yerda  $f$  - aniq funksiyadir,  $x_1, x_2, \dots, x_n$  - bevosita o'lhash natijasi.

Xatolikni baholash uchun esa xatolikning taxminiy formulasidan foydalaniladi.

Absolyut (mutlaq) xatolikning maksimal qiymati quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$\Delta y = \sum_{i=1}^m \left| \frac{\partial y}{\partial x_i} \right|_{x_i=x_0} \cdot \Delta x_i$$

Xatolikning nisbiy qiymati esa quyidagi formuladan topiladi:

$$\delta_y = \frac{\Delta y}{y} = \sum_{i=1}^m \left| \frac{\partial y}{\partial x_i} \right|_{x_i=x_m} \cdot \frac{x_i}{y} \cdot \delta_{x_i}$$

Tasodifiy xatolik esa (uning dispersiyasi) quyidagicha hisoblanadi:

$$\sigma_y^2 = \sum_{i=1}^m \left( \frac{\partial y}{\partial x_i} \right)_{x_i=x_m}^2 \cdot \sigma_i^2$$

O'lhash vositalarini aniqligini, qanchalik aniq o'lhashini baholash uchun o'lhash vositalarining aniqlik klassi (sinf) degan tushuncha kiritilgan. **Aniqlik klassi** - bu o'lhash vositalarini shunday umumlashgan xarakteristikasi bo'lib, ularning yo'1 qo'yishi mumkin

bo‘lgan asosiy va qo‘shimcha xatoliklari chegarasi (doirasi) bilan aniqlanadi. Demak aniqlik klassi o‘lchash vositasining aniqlik ko‘rsatkichi emas, balki uning hususiyatlari bilan belgilanadi, aniqlanadi.

### **Tasodifiy xatolikning normal qonun bo‘yicha taqsimlanishi va uni ehtimoliy baholanishi.**

O‘lchash natijalarini qayta ishlash usullarini o‘rganishdan maqsad, o‘lchash natijasini o‘lchanadigan kattalikni asli (chinakam) qiymatiga qanchalik yaqin ekanligini aniqlash, yoki uning haqiqiy qiymatini topish, o‘lchashda hosil bo‘ladigan xatolikning o‘zgarish xarakterini aniqlash va o‘lchash aniqligini baholashdir.

Bir narsaga alohida ahamiyat berishga to‘g‘ri keladi. Yuqorida oldingi mavzularda aytilganidek, muntazam xatoliklarni chuqur tahlili asosida aniqlashimiz va maxsus choralarni ko‘rib, so‘ngra ularni bartaraf etishimiz, yoki kamaytirishimiz mumkin ekan. Tasodifiy xatoliklarda esa bu jumla o‘rinli emas. Bu turdagи xatoliklarni faqat baholashimiz mumkin.

Har kanday fizikaviy kattalik o‘lchanganda, uning taxminiy qiymati aniqlanadi. Bu qiymatni esa tasodifiy kattalik deb hisoblash kerak va u ikki tashkil etuvchidan iborat bo‘ladi. Birinchi tashkil etuvchisi takror o‘lchashlarda o‘zgarmaydigan yoki ma’lum qonun bo‘yicha o‘zgaradigan (ko‘payadigan yoki kamayuvchi) bo‘lib, uni muntazam (sistematik) xatolik deyiladi. Bu tashkil etuvchini - **matematik kutilish** deb yuritish mumkin. Ikkinci tashkil etuvchi esa, **tasodifiy xatolik** bo‘ladi.

Agar o‘lchashda hosil bo‘ladigan xatolik normal qonun bo‘yicha (Gauss qonuni) taqsimlanadi desak, u holda uni matematik tarzda quyidagicha yozish mumkin:

$$y(\Delta) = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{\Delta^2}{2\sigma^2}},$$

bu yerda  $y(\Delta)$  - tasodifiy xatolikning o‘zgarish ehtimolligi;  $\sigma$ - o‘rtacha kvadratik xatolik;  $\Delta(\delta)$  - tuzatma yoki  $\Delta = \bar{X} - X_i$  bo‘lib,  $X_i$  - alohida o‘lchashlar natijasi,  $\bar{X}$  - esa o‘lchanadigan kattalikning ehtimoliy qiymati, yoki uning o‘rtacha arifmetik qiymatidir.

O‘lchanadigan kattalikning o‘rtacha arifmetik qiymati quyidagicha topiladi:

$$\bar{x} = \frac{x_1 + x_2 + x_3 + \dots + x_n}{n},$$


bu yerda  $x_1, x_2, \dots, x_n$ - alohida o'lhashlar natijasi;  $n$ - o'lhashlar soni.

O'rtacha kvadratik xatolik (o'zgarish) quyidagicha topiladi:

$$\sigma = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (\bar{x} - x_i)^2}{n-1}}$$

Quyida keltirilgan chizmada o'rtacha kvadratik xatoliklarning har xil qiymatlarida xatolikning o'zgarish egri chiziqlari ko'rsatilgan. Grafikdan ko'rinish turibdiki, o'rtacha kvadratik xatolik qanchalik kichik bo'lsa, xatolikning kichik qiymatlari shunchalik ko'p uchraydi, demak, o'lhash shunchalik yuqori aniqlikda olib borilgan hisoblanadi. O'lhash aniqligini baholash, ehtimollik nazariyasining qonun va qoidalariiga asoslanib baholanadi; ya'ni **ishonchli interval** va uni xarakterlovchi **ishonchli ehtimollik** qabul qilinadi.

Odatda, ishonchli interval ham, ishonchli ehtimollik ham konkret o'lhashlar sharoitiga qarab tanlanadi. (7-rasm).



7-rasm.

Masalan: tasodifiy xatolikning normal qonuni bo'yicha taqsimlanishida (o'zgarishida) ishonchli interval  $+3\sigma \div -3\sigma$  gacha, ishonchli ehtimollik esa 0,9973 qabul qilinishi mumkin. Bu degan so'z 370 tasodifiy xatolikdan bittasi o'zining absolyut qiymati bo'yicha  $3\sigma$  dan katta bo'ladi va uni qo'pol xatolik deb hisoblab, o'lhash natijalarini qayta ishlashda hisobga olinmaydi.

O'lhash natijasining aniqligini baholashda ehtimoliy xatolikdan foydalaniladi. Ehtimoliy xatolik esa, shunday xatolikki, unga nisbatan, qandaydir kattalikni qayta o'lchaganda tasodifiy xatolikning bir qismi absolyut qiymati bo'yicha ehtimoliy xatolikdan ko'p, ikkinchi qismi esa undan shuncha kam bo'ladi.

Bundan chiqadiki, ehtimoliy xatolik, ishonchli intervalga teng bo'lib, bunda ishonchli ehtimollik  $R=0,5$  ga teng bo'ladi

Tasodifiy xatolik normal qonun bo'yicha taqsimlanganda ehtimoliy xatolik quyidagicha topilishi mumkin

$$\varepsilon = \frac{2}{3} \sigma_n = \frac{2}{3} \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (\bar{x} - x_i)^2}{n(n-1)}},$$

bu yerda  $\sigma_n = \frac{\sigma}{\sqrt{n}}$  - o'rtacha arifmetik qiymat bo'yicha kvadratik xatolikdir. Ehtimoliy xatolik bu usulda, ko'pincha o'lhashni bir necha o'n, xattoki yuz marotaba takrorlash imkoniyati bo'lgandagina aniqlanadi.

Ba'zida o'lhashni juda ko'p marotaba takrorlash imkoniyati bo'lmaydi, bunday holda ehtimoliy xatolik St'yudent koeffitsienti yordamida aniqlanadi. Bunda, koeffitsient o'lhashlar soni va qabul qilingan ishonchli ehtimollik qiymati bo'yicha maxsus jadvaldan olinadi. Bu holda, o'lchanadigan kattalikning haqiqiy qiymati quyidagi formula bo'yicha hisoblab topiladi

$$\chi = \chi \pm t_n \sigma_n,$$

bu yerda,  $t_n$  - Ct'yudent koeffitsienti.

Shunday qilib, o'rtacha kvadratik xatolik o'lchanadigan kattalikning xaqiqiy qiymati istalgan uning o'rtacha arifmetik qiymati atrofida bo'lish ehtimolini topishga imkon beradi,  $n \rightarrow \infty$ , bo'lganda  $\sigma_n \rightarrow 0$  yoki o'lhash sonini ko'paytirish bilan  $\sigma_n \rightarrow 0$  ga intilib boradi. Bu esa o'z navbatida o'lhash aniqligini oshiradi.

Albatta, bundan o'lhash aniqligini istalgancha oshirish (ko'tarish) mumkin degan xulosaga kelmaslik kerak, chunki o'lhash aniqligi, tasodifiy xatolik to muntazam xatolikka tenglashguncha oshadi.

Shuning uchun, tanlab olingan ishonchli interval va ishonchli ehtimolik qiymatlari bo'yicha kerakli o'lhashlar sonini aniqlash

mumkinki, bu esa tasodifiy xatolikning o'lhash natijasiga ham ta'sir ko'rsatishini ta'minlasin.

Uning nisbiy birlikdagi qiymati esa quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi:

$$\varepsilon = \frac{\Delta \chi}{\chi} \cdot 100\%,$$

bu yerda  $\Delta \chi = t_n \sigma_n$

### **Bilvosita o'lhash natijalarini qayta ishslash.**

Bilvosita usulda o'lhash natijalarini xatoligini aniqlaymiz. Agar izlanaetgan kattalikni bevosita usulda o'lchanigan kattaliklarning funksiyasi desak:

$$A = F(B, C) \quad (1)$$

B va C kattaliklarni o'lchashdagi xatoliklari ma'lum bo'lsa izlanayotgan A kattaligini xatoligini topish mumkun.

V va S kattaliklarni o'zgaruvchan deb hisoblab (1.1) ifodani logarifmlab va differensiallab quyidagiga esa bo'lamic:

$$\frac{dA}{A} = F_1(B, C) \frac{dB}{B} + F_2(B, C) \frac{dC}{C}, \quad (2)$$

bu yerda:  $F_1(B, C)$  va  $F_2(B, C)$  o'zgaruvchan V va S larning funksiyasi.

$dA$ ,  $dB$  va  $dC$  differensiallarni absolyut xatoliklar deb hisoblab, ularni kichik orttirmalar bilan almashtiramiz:

$$\frac{\Delta A}{A} = F_1(B, C) \frac{\Delta B}{B} + F_2(B, C) \frac{\Delta C}{C}, \quad (3)$$

yoki

$$\delta_A = F_1(B, C) \delta_B + F_2(B, C) \delta_C, \quad (4)$$

bu yerda:  $\delta_A = \frac{\Delta A}{A}$ ;  $\delta_B = \frac{\Delta B}{B}$ ;  $\delta_C = \frac{\Delta C}{C}$  – lar A, V, S kattaliklarining nisbiy xatoliklari.

(6.4) ifoda V va S kattaliklarining xatoliklarini bilgan xolda izlanayotgan A kattaligining xatoligini aniqlash imkonini beradi. Ko'pincha  $\delta_V$  va  $\delta_S$  xatoliklarining ishorasi noaniq bo'lib,  $F_1(B, C)\delta_B$  va  $F_2(B, C)\delta_S$  qo'shiluvchilarning ishorasi bir xil deb hisoblanadi.

Izlanayotgan A kattaligini o'lhash xatoligi o'lchanigan V va S kattaliklari bilan bog'liq bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

$$A = B^n \cdot C^m,$$

bu yerda:  $n$  va  $m$  – daraja ko'rsatkichlari bo'lib, ular butun son, kasr son, musbat va manfiy bo'lishi mumkin.

Tenglamaning o'ng va chap tomonlarini logarifmlab uni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\ln A = n \ln B + m \ln C.$$

Ifodani differensiallaymiz va quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\frac{dA}{A} = n \frac{dB}{B} + m \frac{dC}{C}$$

$dA$ ,  $dB$  va  $dC$  differensiallarni kichik orttirmalar bilan almashtiramiz.

$$\frac{dA}{A} = n \frac{\Delta B}{B} + m \frac{\Delta C}{C};$$

yoki

$$\delta_A = n \delta_B + m \delta_C, \quad (5)$$

bu yerda  $\delta_A = \frac{\Delta A}{A}$ ;  $\delta_B = \frac{\Delta B}{B}$ ;  $\delta_C = \frac{\Delta C}{C}$  A, V, S kattaliklarining nisbiy xatoliklari.

Shunday qilib, izlanayotgan A kattaligini V, S va D kattaliklari orqali uning eng yuqori nisbiy xatoligini aniqlash mumkin:

$$A = B + C - D$$

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Tasodify xatoliklar deganda nimani tushunasiz?
2. Nima sababdan faqat tasodify xatoliklar baholanadi?
3. Matematik kutilish va dispersiya nima?
4. Ehtimoliy xatolik nima va u qanday topiladi?
5. Styudent koeffitsienti qanday tanlanadi?

## **1.6. O'LCHASHLAR NOANIQLIGI.**

### **O'lhash noaniqligi bo'yicha atamalar va ta'riflar**

**Atamalar va ta'riflar.** O'z Dst 8.010.1, O'z DSt 8.010.2, O'z DSt 8.010.3, O'zDSt 8.010.4 ga muvofiq o'lhashlar noaniqligi bo'yicha quyidagi atamalar va tushunchalar qo'llaniladi:

**O'lhashlar noaniqligi:** o'lhash natijalari bilan bog'liq bo'lgan va o'lchanayotgan kattalikka yetarli asos bilan qo'shib yozilishi mumkin bo'lgan qiymatlar tarqoqligini (sochilishini) tavsiflovchi parametr.

## **Izohlar**

1. Parametr, masalan, standart og‘ish (yoki unga karrali son) yoki ishonch intervali (oralig‘i) kengligi bo‘lishi mumkin.

2. O‘lhash noaniqligi odatda ko‘plab tashkil etuvchilarni o‘z ichiga oladi. Bu tashkil etuvchilarning ba’zilari qator o‘lhashlar natijalarining statistik taqsimlanishidan baholanishi mumkin va eksperimental standart og‘ishlar bilan tavsiflanishi mumkin. Standart og‘ishlar bilan tavsiflanishi mumkin bo‘lgan boshqa tashkil etuvchilar ham tajribaga yoki boshqa axborotlarga asoslangan ehtimolliklarning taxmin qilingan taqsimlanishidan baholanadi.

3. Shubhasiz, o‘lhash natijasi o‘lchanayotgan kattalik qiymatining eng yaxshi bahosi bo‘lib hisoblanadi va tuzatishlar va taqqoslash etalonlari bilan bog‘liq bo‘lgan, tartibli (sistematik) ta’sirlardan yuzaga keladigan tashkil etuvchilarni o‘z ichiga olgan holda noaniqlikning tashkil etuvchilari dispersiyaga hissa qo‘shadi.

**Standart noaniqlik:** standart og‘ish sifatida ifoda etilgan o‘lhash natijasining noaniqligi.

**A xil bo‘yicha (noaniqlikni) baholash:** Qator kuzatuvlarni statistik tahlil qilish yo‘li bilan noaniqlikni baholash metodi.

**V xil bo‘yicha (noaniqlikni) baholash:** Qator kuzatuvlarni statistik taxlil qilishdan farq qiluvchi usullar bilan noaniqlikni baholash metodi .

**To‘liq noaniklik:** CHegarasida o‘lchanayotgan kattalikka yetarli asos bilan qo‘shib yozilishi mumkin bo‘lgan qiymatlar taqsimotining katta qismi joylashgan o‘lhash natijasi atrofidagi oraliqni aniqlovchi kattalik.

## **Izohlar**

1. Taqsimotning bu qismiga qamrov ehtimoli yoki oraliq uchun ishonch darjasini sifatida qaralishi mumkin.

2. To‘liq noaniqlik, shuningdek, **umumiyl noaniqlik** deb ham atalishi mumkin.

**qamrov koeffitsienti:** To‘liq noaniqlikka erishish uchun yakuniy standart noaniqlikning ko‘paytiruvchisi sifatida foydalilaniladigan son bilan ifodalangan koeffitsient.

**kuzatib borish:** Belgilangan noaniqliklarga ega bo‘lgan solishtirishlarning ajralmas zanjiri vositasida muvofiq etalonlar, ko‘pincha milliy va xalqaro etalonlar bilan aloqa o‘rnatish imkoniyatidan iborat bo‘lgan o‘lhash natijalari yoki etalon qiymatlarining xossalari

**pretsizionlik:** Sinovlarning kelishilgan sharoitlarda olingan mustaqil natijalarining bir biriga yaqinligi.

### **Izohlar**

1. Pretsizionlik faqatgina tasodifiy xatoliklarning taqsimlanishiga bog'liq va o'lchanayotgan kattalikning haqiqiy yoki qabul qilingan qiymatiga bog'liq emas.

2. Miqdoriy pretzizionlik ko'pincha noaniqlik sifatida ifodalanadi va sinov natijalarining standart og'ishi ko'rinishida hisoblanadi. Kamroq pretzizionlikka ko'proq standart og'ish muvofiq keladi.

3. «Sinovlarning mustaqil natijalari» ifodasi, bu natijalar xuddi shu yoki aynan o'xhash sinov ob'ektlaridan olingan qandaydir avvalgi natijalar ta'sir ko'rsatmaydigan tarzda olinganligini bildiradi. Pretzizionlikning miqdoriy tavsiflari hal qiluvchi tarzda kelishilgan shartlarga bog'liq.

**SI:** Xalqaro birliklar tizimi

**SO:** Standart namuna

**MVI:** O'lchashlarni bajarish metodikasi

### **Umumiy qoidalar**

#### *Metodlar yaroqliliginibaholash*

Izoh - Bu yerda va bundan keyin metod (metodlar) deyilganda o'lchashlarni bajarish metodikalari va sinovlar metodikalari tushuniladi.

Amaliyotda eskirgan o'lchashlar uchun qo'llaniladigan aniq maqsadning metodlarini ko'proq ularning yaroqliliginini baholash bo'yicha tadqiqotlar jarayonida belgilanadi.

Bunday tadqiqotlarning natijalari metodlarning umumiy tavsifnomalari bo'yicha ham, unga ta'sir etuvchi alohida faktorlar bo'yicha ham axborot beradi va bu axborotdan noaniqlikni baholashda foydalanish mumkin.

Izoh - Metodlar yaroqliliginibaholash (validation of methods) chet elda qabul qilingan o'lchashlar sifatini ta'minlash tizimining muhim tashkil etuvchisi bo'lib hisoblanadi. «Validation» atamasi tegishli tushunchalarning turli mazmuni sababli milliy metrologiyada qabul qilingan «attestatlash» atamasi bilan teng ma'noga ega emas. Qonuniy metrologiya protsedurasi sifatida amalga oshiriladigan metodikalarni attestatlash metodikaning unga qo'yilgan metrologik talablarga muvofiqligini o'rnatishni maqsad qilib qo'yadi. Bunda diqqat

markazida olingan natijalar xatoliklarining tavsifnomalari bo‘ladi. Metodning yaroqlilagini baholash odatda samaradorlikning qator ko‘rsatkichlarini belgilashdan (topish va aniqlash chegarasi, selektivlik/spetsifiklik, yaqinlashish va qayta ishlab chiqarish, barqarorlik va boshqalar) va ular asosida aniq o‘lchash masalasini yechish uchun metodning yaroqlilagini muhokama qilishdan iborat bo‘ladi. Yaroqlilikni baholash bo‘yicha tadqiqotlar natijalaridan noaniqlikni (xatolik tavsifnomalarini) topishda foydalanish mumkin.

Metodning yaroqlilagini baholash bo‘yicha tadqiqotlar samaradorlikning umumiy ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadiga egadir. Ularni metodni ishlab chiqish va uning laboratoriyalararo tadqiqoti jarayonida yoki ichki laboratoriya tadqiqoti dasturiga rioya etgan holda belgilaydilar. Xatolikning yoki noaniqlikning alohida manbalari odatda pretcisionlikning umumiy tavsiflari bilan solishtirilganda ahamiyatliroq bo‘lganidagina ko‘rib chiqiladi. Bunda tirkak tahlil natijalariga tegishli tuzatishlarni kiritishdan ko‘ra, muhim samaralarning aniqlanishi va yo‘qotilishiga qilinadi. Bu potensial muhim ta’sir o‘tkazuvchi faktorlar umumiy pretcisionlik bilan solishtirilganda ahamiyatlilikka belgilanganda, tekshirilganda bu faktorlarga e’toborsizlik bilan qarash holatiga olib keladi. Bu sharoitlarda tadqiqotchilar ko‘pchilik tartibli samaralarning ahamiyatsizligi isboti va qolgan ahamiyatli samaralarning ba’zi baholanishlari bilan bir qatorda umumiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishadilar.

Metodlar yaroqlilagini baholash bo‘yicha tadqiqotlar odatda quyidagi tavsifnomalarning ba’zilari yoki barchasining aniqlanishini o‘z ichiga oladi:

### **Pretcisionlik**

Pretcisionlikning asosiy tavsifnomalari yaqinlashish va qayta ishlab chiqarishning standart og‘ishlarini (GOST ISO 3534-1 va GOST ISO 5725-2), shuningdek oraliq pretcisionlikni (GOST ISO 3534-3) o‘z ichiga oladi. Yaqinlashish laboratoriya, qisqa vaqt oralig‘ida bitta operator tomonidan, bir nushadagi uskunada kuzatilgan o‘zgaruvchanlikni tavsiflaydi va uni ushbu laboratoriya chegarasida yoki laboratoriyalararo tadqiqotlar doirasida baholash mumkin. Muayyan metod uchun qayta ishlab chiqarishning standart og‘ishini bevosita laboratoriyalararo tadqiqotlar yordamida baholash mumkin va u xuddi shu namunani bir necha laboratoriyalarda tahlil qilinganda

natijalar o‘zgaruvchanligini tavsiflaydi. Oraliq pretsizionlik bir yoki ko‘prok faktorlar, jumladan vaqt, uskuna yoki bitta laboratoriya chegarasidagi operator o‘zgarganida kuzatiladigan natijalar variatsiyasini tavsiflaydi; bunda qaysi faktorlar muttasil turishidan qat’iy nazar turli ko‘rsatkichlarga erishadilar. Oraliq pretsizionlikni ko‘proq bitta laboratoriya doirasida baholaydilar, lekin uni laboratoriyalararo tadqiqotlar yordamida belgilash mumkin. Analitik metodikaning pretsizionligi u alohida dispersiyalarni jamlash orqali yoki metodikani to‘liq tadqiqot qilish yo‘li bilan aniqlanishidan kat’iy nazar umumiy noaniqlikning muhim tashkil etuvchisi bo‘lib hisoblanadi.

### ***Siljish***

Qo‘llanilayotgan metodga bog‘liq bo‘lgan siljish odatda solishtirishning munosib namunalarini yoki ma’lum qo‘sishimchali namunalarni o‘lhash yordamida belgilanadi. Muvofiq tayanch qiymatlarga tegishli umumiy siljishni aniqlash qabul qilingan etalonlarga kuzatib borishni belgilashda muhimdir. Siljishni ajratib olish (kutilgan qiymatga bo‘lingan kuzatilgan qiymat) ko‘rinishida ifodalanishi mumkin. Analitikning vazifasi siljishga e’tibor bermasdan qarash yoki unga tuzatish kiritishni ko‘rsatishdan iboratdir, lekin har qanday holda ham siljishni belgilash bilan bog‘liq noaniqlik umumiy noaniqlikning ajralmas tashkil etuvchisi bo‘lib qoladi.

### ***Chiziqlilik (To‘g‘ri mutanosiblik)***

CHiziqlilik ba’zi diapazonda o‘lhash uchun foydalaniladigan metodlarning muhim xossasi bo‘lib hisoblanadi. Javob chiziqliligin toza moddalarda va real namunalarda aniqlash mumkin. Odatda chiziqlilikni miqdoriy aniqlanmaydi, uni ko‘z bilan yoki nochiziqlilik ahamiyatliligining mezonlari yordamida tekshiriladi. Ahamiyatli nochiziqlilikni odatda nochiziqli darajalovchi tavsifnomalar yordamida hisobga olinadi yoki torroq ishchi diapazonni tanlash yo‘li bilan bartaraf etiladi. CHiziqlilikdan qolgan har qanday og‘ishlar odatda bir qancha o‘lchanayotgan qiymatlarni qamrovchi umumiy pretsizionlik bahosiga kiradi yoki darajalash bilan bog‘liq bo‘lgan noaniqlik chegarasida qoladi.

### ***Topish chegarasi***

Metodning yaroqliliginи baholash jarayonida topish chegarasi odatda ishchi diapazonning quyi chegarasini belgilash uchungina aniqlanadi. Ammo topish chegarasi yaqinidagi noaniqliklar alohida ko‘rib chiqishni va maxsus talqin etilishni talab etishi mumkin, topish

chegarasi qanday aniqlanganidan qat’iy nazar uning noaniqlikni baholashga to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqasi yo‘q.

### ***Barqarorlik***

Ko‘p hujjatlar tahlil metodlarining yaroqlilagini baholash va ishlab chiqish bo‘yicha aniq parametrlarni o‘zgartirishga natijalar sezuvchanligini bevosita tadqiqot qilishni talab etadi. Odatda bu bir yoki bir necha faktorlarni o‘zgartirish bilan chaqirilgan ta’sirlar tadqiqot qilinadigan «mustahkamlikka sinash» yordamida amalga oshiriladi. Agar bunday sinov ahamiyatli bo‘lsa (o‘z pretcisionligi bilan solishtirganda) u holda bu ta’sirning kengligini aniqlash va muvofiq yo‘l qo‘yilgan ishchi diapazonni tanlash uchun mufassalroq tadqiqot olib boriladi. Barqarorlik bo‘yicha ma’lumotlar muhim faktorlarning o‘zgarish natijalariga ta’siri haqida axborot berish mumkin.

### ***Selektivlik/ spetsifiklik***

Qandaydir o‘lchash metodi aniq o‘lchash parametrlariga bir ma’noda javob beradigan daraja. Selektivlik tadqiqotlarida odatda mumkin bo‘lgan halal beruvchi komponentlar ta’sirini bu moddalarni bo‘s sh namunalarga ham, ishchi namunalarga ham qo‘sghan holda va javobni kuzatgan holda o‘rganiladi. Olingan natijalar odatda haqiqiy halal beruvchi ta’sirlar unchalik ahamiyatga ega emasligini ko‘rsatish uchun foydalaniladi. Bunday tadqiqotlarda bevosita javob o‘zgarishi aniqlanganligi uchun bu ma’lumotlardan potensial halaqitlar bilan bog‘liq noaniqlikni baholash uchun foydalanish mumkin, bundan tashqari bunda halaqit beruvchi moddalar konsentratsiyalari diapazoni haqida axborot olinadi.

### ***Kuzatib borish***

Turli laboratoriyalarda yoki har xil vaqtida olingan natjalarni ishonch bilan solishtirish imkoniga ega bo‘lish muhim. Bu barcha laboratoriylar bir xil o‘lchash shkalasi yoki bir xil «sanash nuqtasi» dan foydalanishlari bilan ta’milanadi. Ko‘p hollarda bunga dastlabki milliy yoki xalqaro etalonlarga, mukammal hollarda esa (uzoq muddatli kelishuv maqsadida). Xalqaro birliklar tizimi (SI) ga olib boruvchi kalibrlash zanjirini o‘rnatish bilan erishiladi. Yaxshi misol bo‘lib analistik tarozilar hisoblanadi. Har bir tarozi etalon toshlari yordamida kalibrланади, ular esa o‘z navbatida (oqibatda) milliy etalonlarga nisbatan kalibrланади, shu tarzda kilogrammning dastlabki etalonini bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Ma’lum boshlang‘ich qiymatga olib boruvchi taqqoslashlarning uzilmas zanjiri umumiylashtirish sanash nuqtasiiga

«kuzatib borish»ni ta'minlaydi va bu turli insonlarning bir xil o'lhash vositalaridan foydalanishlarini kafolatlaydi. Oddiy o'lhashlarda turli laboratoriylar o'rtasidagi o'lhashlarning kelishilganligiga (yoki bir vaqtida o'lhashlarning kelishilganligi) o'lhashlar natijasini olish yoki tekshirish uchun foydalaniladigan, bunga tegishli bo'lgan barcha oraliq o'lhashlarni kuzatib borishni belgilash tufayli erishiladi. Shuning uchun kuzatib borish o'lhashlarning barcha sohalarida muhim tushuncha bo'lib hisoblanadi.

Kuzatib borish noaniqlik bilan chambarchas bog'liq va kuzatib borish o'zaro bog'liq bo'lgan barcha o'lhashlarni kelishilgan o'lhash shkalasida joylashtirishga yo'l qo'yadi, bunda noaniqlik bu zanjir xalqalarining «chidamliligi» ni va o'xhash o'lhashlarni bajaruvchi laboratoriylar o'rtasidagi kutilgan kelishuv darajasini tavsiflaydi.

Umuman, aniq etalonga kuzatib boriladigan bo'lib hisoblanuvchi natija noaniqligi bu etalon noaniqligi va bu etalonga tegishli o'lhash noaniqligi sifatida ifodalanadi.

Analitik metodika natijasining kuzatib borilishi umuman quyidagi protseduralarning (muolajalarning) qo'shilishi bilan belgilanishi lozim:

- kuzatib borilayotgan etalonlardan o'lhash uskunasini kalibrlash uchun foydalaniladi;
- dastlabki metodni realizatsiya qilish yoki dastlabki metod natjalari bilan solishtirish;
- taqqoslash namunalaridan toza moddalar sifatida foydalanish;
- matritsa jihatidan mos keluvchi standart namunalardan foydalanish;
- ma'lum, yaxshi aniqlangan metodika bilan solishtirish.

### ***O'lhash uskunasini kalibrlash***

Barcha hollarda foydalanayotgan o'lhash uskunasini kalibrlash muvofik etalonga kuzatib borilishi lozim. Metodning o'lhash bosqichi ko'pincha mikdoriy tavsifnomasi SI ga kuzatib boriladigan taqqoslash namunasi yordamida darajalanadi. Bunday amaliyot metodikaning bu qismi uchun natjalarning SI ga kuzatib borilishini ta'minlaydi. Biroq, o'lhash bosqichidan oldin bo'ladigan operatsiyalar uchun kuzatib borishni belgilash ham zarurdir.

### ***Taqqoslash namunalaridan toza moddalar sifatida foydalanish***

Kuzatib borishni ma'lum mikdordagi toza moddani tarkibiga oluvchi toza modda yoki namuna ko'rinishidagi taqqoslash namunasi yordamida ko'rsatish mumkin. Buni, masalan, ma'lum qo'shimchalarini bo'sh namunalarga yoki tahlil qilinayotgan namunaga qo'shish bilan qilish mumkin. Biroq, har doim foydalilanilgan etalon va tahlil qilinayotgan namuna uchun o'lhash tizimi javobidagi farqni baholash zarur. Afsuski, ko'p hollarda, xususan, ma'lum ko'shimchalarini qo'shishda, javoblardagi bu farqni tuzatish bu tuzatishning noaniqligidek katta bo'lishi mumkin. Bu tarzda, natijaning kuzatib borilishi umuman olganda SI birliklariga o'rnatilishi mumkin bo'lsa ham amaliyotda eng oddiy holatlardan tashqari natija noaniqligi nomaqbul bo'lishi yoki miqdoriy aniqlanmagan bo'lishi mumkin. Agar noaniqlikni miqdoriy aniqlash mumkin bo'lmasa, u holda kuzatib borish o'rnatilmaydi.

### ***Standart namunani qo'llash***

Kuzatib borishni matritsa jihatdan yaqin bo'lgan standart namuna (SN) da, bu SN ning attestatlangan qiymati (qiymatlari) bilan olingan o'lhash natijalarini solishtirish yo'li bilan ko'rsatiladi. Bu mos keluvchi «matritsa» SN mavjud bo'lganda, taqqoslash namunasini toza modda ko'rinishida qo'llash bilan taqqoslaganda noaniqlikni kamaytirishi mumkin. Agar SN qiymati SI ga kuzatib borilgan bo'lsa, u holda bu o'lhashlar SI birliklariga kuzatib borishni ta'minlaydi. Biroq xatto shu holda ham natija noaniqligi ayniqsa namuna tarkibi va SN tarkibi o'rtasida yetarli muvofiqlik bo'limgan hollarda nomaqbul katta yoki xatto mikdoriy aniqlab bo'lmaydigan bo'lishi mumkin.

### ***Ma'lum metodika bilan solishtirish***

Natijalarning aynan bir xil taqqoslana olinishiga ko'pincha faqatgina yaxshi aniqlangan va umum qabul qilingan metodikaga nisbatan erishilishi mumkin. Odatda bu metodika kirish parametrlari atamalarida aniqlanadi; masalan, ekstraksiyaning aniq vaqtining, zarralar o'lchovining vazifalari va boshqalar. Bunday metodikani qo'llash natijalari ushbu kirish parametrlarining qiymatlari muvofiq etalonlarga kuzatib borilganda kuzatib boriladigan bo'lib hisoblanadi. Natija noaniqligi me'yorlangan kirish parametrlarining noaniqliklaridan ham, me'yorlanishning to'liq emasligidan ham, shuningdek metodikani bajarishda o'zgaruvchanlikdan ham yuzaga kelishi mumkin. Agar, kutilayotganidek, alternativ metodika natijalari umum qabul qilingan metodika natijalari bilan taqqoslansa, u holda qabul qilingan qiymatlarga

kuzatib borishga umum qabul qilingan va alternativ metodikalar bo‘yicha olingan natijalarni taqqoslash yo‘li bilan erishiladi.

### **O‘lhash noaniqligini baholash**

Umuman olganda noaniqliklarni baholash oddiy bo‘lib hisoblanadi. Qandaydir o‘lhash natijasiga xos bo‘lgan noaniqlikni baholash uchun quyidagi amallarni bajarish zarur.

#### ***1-bosqich. O‘lchanayotgan kattalikni tasvirlash.***

O‘lhash kattaligi va u bilan bog‘liq bo‘lgan parametrlar o‘rtasidagi nisbatni kiritgan holda aynan nima o‘lchanayotganligini aniq ifodalash zarur (masalan, o‘lhash kattaliklari, konstantalar, darajalash uchun etalonlar qiymatlari va boshqalar). Mumkin bo‘lgan joyda ma’lum sistematik effektlarga tuzatishlar kiritiladi. Bunday tasviriy axborot odatda muvofiq hujjatda metodikaga yoki metodning boshqa tasvirida keltiriladi.

#### ***2-bosqich. Noaniqlik manbalarini aniqlash.***

Noaniqlik manbalarining ro‘yxati tuziladi. U 1 bosqichda belgilangan xuddi o‘sha nisbatda parametrlar noaniqligiga hissa qo‘shadigan manbalarни o‘z ichiga oladi, lekin noaniqlikning boshqa manbalarini, masalan, ximiyaviy taxminlardan kelib chiqadigan manbalarни ham o‘z ichiga olishi mumkin.

#### ***3-bosqich. Noaniqlikni tashkil etuvchilarining miqdoriy tasvirlanishi.***

Har bir aniqlangan potensial manbaga xos bo‘lgan noaniqlik qiymati aniqlanadi va baholanadi. Ko‘pincha noaniqlikning bir qancha manbalar bilan bog‘liq bo‘lgan yagona hissasini baholash yoki aniqlash mumkin. Shuningdek mavjud ma’lumotlar noaniqlikning barcha manbalarini yetarli darajada hisobga olayotganligini ko‘rib chiqish muhim va noaniqlikning barcha manbalarining adekvat hisobga olinishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan qo‘srimcha eksperimentlar va tadqiqotlarni puxta rejalshtirish zarur.

#### ***4-bosqich. Yakuniy noaniqlikni hisoblash.***

3-bosqichda olingan axborot umumiyl noaniqlikka bo‘lgan yoki alohida manbalar bilan yoki bir qancha manbalarning yakuniy effektlari (samaralari) bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha mikdoriy tasvirlangan xossalardan iboratdir. Bu xossalarni standart og‘ishlar ko‘rinishida ifodalash va mavjud qoidalarga muvofiq yakuniy standart noaniqlikni olish uchun ularni jamlash zarur. Kengaytirilgan noaniqlikni olish uchun tegishli qamrov koeffitsientidan foydalanish zarur.

## **O‘lchanayotgan kattalikning tasvirlanishi**

Noaniqlikni baholash kontekstida “o‘lchash kattaligini tasvirlash” aynan o‘lchanayotgan nafaqat bir ma’noli narsaning ifoda qilinishini, balki o‘lchash kattaligini u bog‘liq bo‘lgan parametrlar bilan bog‘lovchi mikdoriy ifodalanishini taqdim etishni ham talab etadi. Bu parametrlar boshqa o‘lchash kattaliklari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchanmaydigan kattaliklar yoki konstantalar bo‘lishi mumkin. Shuningdek namuna tanlash bosqichi metodikaga kiritilganmi yoki yo‘qmi aniq belgilanishi lozim. Agar u kiritilgan bo‘lsa, u holda namuna tanlash metodikasi bilan bog‘liq bo‘lgan noaniqlikni baholash ham zarur. Bu barcha axborotlar metodikaga hujjatda bo‘lishi lozim.

Analitik o‘lchashlarda ayniqsa foydalanilayotgan metodga bog‘liq bo‘limgan natijalarni olish uchun mo‘ljallangan va bunga mo‘ljallanmagan o‘lchashlar o‘rtasidagi farqni o‘tkazish muhim. Oxirgilar ko‘pincha empirik metodlar kontekstida ko‘rib chiqiladi.

### **Noaniqlik manbalarining namoyon bo‘lishi**

Eng avvalo, noaniqlikning mumkin bo‘lgan manbalari ro‘yxatini tuzish zarur. Bu bosqichda mikdoriy aspektlarni hisobga olishga zarurat yo‘q; faqatgina aynan ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan narsaga nisbatan to‘liq aniqlikni ta’minlash maqsad bo‘lib hisoblanadi.

Noaniqlik manbalarining ro‘yxatini tuzishda odatda oraliq kattaliklardan natijalarni hisoblash uchun foydalaniladigan asosiy ifodalardan boshlash qulaydir. Bu ifodadagi barcha parametrlar o‘z noaniqliklariga ega bo‘lishlari mumkin va shuning uchun ular noaniqlikning potensial manbalari bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari, aniq ko‘rinishda o‘lchanayotgan kattalik qiymatini topish uchun foydalaniladigan ifodaga kirmaydigan, lekin shunga karamay natijaga (masalan, ekstraksiya vakti yoki temperatura) ta’sir qiladigan boshqa parametrlar ham bo‘lishi mumkin. Noaniqlikning yashirin manbalari ham bo‘lishi mumkin. Bu barcha manbalar ro‘yxatga kiritilishi lozim.

Noaniqlik manbalari ro‘yxati tuzilgandan so‘ng ularning natijaga ta’sirini asosan har bir ta’sir ba’zi bir parametrlar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘lchashlarning rasmiy modeli deb yoki tenglamada o‘zgaruvchan deb tasvirlash mumkin. Bunday tenglama natijaga ta’sir etuvchi individual omillar atamalarida ifodalangan o‘lchash jarayonining to‘liq modelini tashkil etadi. Bu funksiya juda murakkab bo‘lishi mumkin va uni ko‘pincha aniq ko‘rinishda yozish mumkin emas. Biroq, u mumkin bo‘lgan joyda bunday ifodalanish shakli umumiyl holda noaniqlikning

individual tashkil etuvchilarini jamlash usulini aniqlaganligi sababli uni bajarish zarur.

Noaniqlikning muvofiq bahosini olish uchun ulardan har birini alohida baholash mumkin bo‘lganda o‘lchash metodikasini operatsiyalarning muntazamligi ko‘rinishida ko‘rib chiqish (ba’zida ayrim operatsiyalar deb ataladigan) foydali bo‘lishi mumkin. Bu ayniqa o‘lchashlarning bir xildagi metodikalari bitta ayrim operatsiyalarni o‘z ichiga olganda foydali yondashuv bo‘ladi. Har bir operatsiyaning alohida noaniqliklari u holda umumiy noaniqlikka hissa qo‘shadi.

Amaliyotda tahliliy o‘lchashlarda ko‘proq odatiy bo‘lib kuzatilayotgan pretsizionlik va solishtiruvning mos keluvchi namunalariga nisbatan siljish kabi metodning umumiy effektivligi elementlari hisoblanadi. Bu tashkil etuvchilar odatda noaniqlik bahosiga ortiqroq hissa qo‘shadi va natijaga ta’sir etuvchi alohida effektlar ko‘rinishida yaxshiroq tuziladi. Bunday holda boshqa mumkin bo‘lgan hissalarни faqatgina ularni ahamiyatliliginи tekshirish uchun, ulardan faqatgina ahamiyatlilarini miqdoriy aniqlab baholash lozim,

Noaniqlikning tipik manbalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

### ***Namuna tanlash***

Laboratoriyada yoki bevosita tahlil ob’ektida bajariladigan namuna tanlash operatsiyalari taxliliy metodika qismi bo‘lgan hollarda namunalar o‘rtasidagi tasodifiy farqlar va namuna tanlash protsedurasida siljish (sistematik xatolikning) yuzaga kelishi uchun har qanday imkoniyatlar kabi effektlar so‘nggi natija noaniqligining tashkil etuvchilarini shakllantiradi.

### ***Namunalarni saqlash shartlari***

O‘lchanayotgan (sinalayotgan) namunalar o‘lchashlar bajarilgunga qadar qandaydir vaqt davomida saqlansa, saqlash shartlari natijaga ta’sir etishi mumkin. Shuning uchun, saqlash davomiyligi, shuningdek saqlash shartlari noaniqlik manbalari sifatida ko‘rilishi lozim.

### ***Apparatura effektlari***

Bunday effektlar, masalan, analitik tarozilar aniqlik chegaralarini; ro‘yxatga olinganlaridan farq qiluvchi (berilgan chegaralarda) o‘rtacha temperaturani ushlab turaoladigan temperatura rostlagichining mavjudligini; ortiqcha yuklash effektlariga duchor qilinishi mumkin bo‘lgan avtomatik analizatorni o‘z ichiga olishi mumkin.

### ***Reaktivlar tozaligi***

Hattoki boshlang‘ich reaktiv tekshirilgan bo‘lsa ham bu tekshiruv metodikasi bilan bog‘liq bo‘lgan qandaydir noaniqlik qolganligi sababli titrlash uchun eritma konsentratsiyasi absolyut aniqlikda belgilanishi mumkin emas. Ko‘p reaktivlar, masalan, organik bo‘yoqlar 100 % ga toza bo‘lib hisoblanmaydi va tarkibida izomerlar va anorganik tuzlar bo‘lishi mumkin. Bunday moddalar tozaligi tayyorlovchi tomonidan kamida o‘shanday darajada ko‘rsatiladi. Tozalik darajasiga tegishli bo‘lgan har qanday taxminlar noaniqlik elementini kiritadi.

### ***Taxmin qilingan stexiometriya***

Tahliliy jarayon aniqlangan stexiometriyaga bo‘ysunadi deb taxmin qilingan hollarda kutilayotgan stexiometriyadan og‘ishlarni yoki reaksiyaning to‘liq emasligini yoki yordamchi reaksiyalarni hisobga olish zarur bo‘lishi mumkin.

### ***O‘lchashlar shartlari***

O‘lchovli shisha idish, masalan, u kalibrlangan temperaturadan farq qiluvchi temperaturada qo‘llanilishi mumkin. Katta temperatura effektlari tuzatishlar kiritish bilan hisobga olinishi lozim, biroq bu holda ham suyuqlik va shisha temperaturasi qiymatlaridagi har qanday noaniqlik ko‘rib chiqilishi lozim. Shunga o‘xhash, agar qo‘llanilayotgan materiallar namlikning mumkin bo‘lgan o‘zgarishlariga sezuvchan bo‘lsa atrofdagi havoning namligi ahamiyatga eta bo‘lishi mumkin.

### ***Namunaning ta’siri***

Murakkab matrisa tarkibi aniqlanayotgan komponentning chiqarib olinishiga yoki asbobning javobiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Aniqlanayotgan komponentni topish shakliga sezuvchanlik bu ta’sirni yanada kuchaytirish mumkin.

Namuna yoki aniqlanayotgan komponent barqarorligi tahlil jarayonida issiqlik rejimining yoki fotolitik effektning o‘zgarishi sababli o‘zgarishi mumkin.

CHiqarib olish darajasini baholash uchun ba’zi «mashhur qo‘sishimcha» ishlatilganda aniqlanayotgan komponentning namunadan aniq chiqishi qo‘sishimchani chiqarib olish darajasidan farq qilishi mumkin, bu esa baholash lozim bo‘lgan qo‘sishimcha noaniqlikni kiritadi.

### ***Hisoblash effektlari***

Darajalash vaqtida mos kelmaydigan modelni tanlash, masalan, nochiziq javobda chiziqli darajalashdan foydalanish juda yomon moslashtirishga va ko‘proq noaniqlikka olib keladi.

Raqamlarni olib tashlash va yaxlitlash oxirgi natijaning

noto‘g‘riligiga olib kelishi mumkin. Modomiki bu vaziyatlarni oldindan aytish qiyin ekan ba’zi bir noaniqlikka joizlik to‘g‘ri deb topilishi mumkin.

### ***Bo‘sh namunaga tuzatish***

Bo‘sh namunaga tuzatish qiymatining ba’zi bir noaniqligi bu tuzatishning zarurligiga shubha bilan barobar o‘ringa ega bo‘ladi. Bu ayniqsa izlarni tahlil qilishda muhimdir.

### ***Operatorning ta’siri***

O‘lchash asboblarining pasaytirilgan yoki ko‘tarilgan ko‘rsatkichlarini ro‘yxatga olish mumkinligi.

Metodika interpretatsiyasida ahamiyatga ega bo‘lmagan farqlarning mumkinligi.

### ***Tasodifiy effektlar***

Tasodifiy effektlar barcha aniqlashlarda noaniqliklarga hissa qo‘shadi. Bu bandni o‘z-o‘zidan ma’lum narsa sifatida noaniqlik manbalari ro‘yxatiga kiritish lozim.

## **Noaniqlikni taqdim etish**

### ***Umumiylar***

O‘lchash natijasi bilan birga taqdim etiladigan axborot uning keyingi foydalanish maqsadiga bog‘liq. Bunda quyidagi prinsiplarni qo‘llash lozim:

- agar yangi axborot yoki yangi ma’lumotlar paydo bo‘lsa noaniqlik bahosini aniqlashtirishni o‘tkazish uchun yetarli axborotni taqdim etish;

- yetarli bo‘lmagan axborotga qaraganda keragidan ortiq axborotni taqdim etish afzalroqdir.

Agar o‘lchash tafsilotlari, noaniqlik qanday baholanganligini o‘z ichiga olib, chop etilgan hujjatlarga tavsiyalar ko‘rinishida berilgan bo‘lsa bu hujjatlar dolzarblashtirilishi va laboratoriyada qo‘llanilayotgan metodga muvofiq bo‘lishi lozim.

### ***Talab qilinayotgan axborot***

- o‘lchash natijasini va uning noaniqligini eksperimental kuzatishlar va kirish kattaliklari haqidagi ma’lumotlar asosida hisoblash uchun foydalaniladigan metodlarni tasvirlash;

- hisoblashda ham, noaniqliklarni tahlil qilishda ham foydalaniladigan barcha tuzatishlar va doimiyliklarning qiymatlari va manbalari;

- noaniqlikning barcha tashkil etuvchilarining ularning xar-

biriga tegishli to‘liq hujjatlari bilan ro‘yxati.

Ma’lumotlar va ularning tahlili barcha muhim bosqichlarni oson kuzatib turish va zaruriyat bo‘lganda so‘nggi natijani hisoblashni qaytarish mumkin bo‘ladigan tarzda taqdim etilishi lozim. Oraliq qiymatlarni o‘z ichiga olgan natijani bat afsil taqdim etish talab etilgan hollarda hisobot quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

- har bir kirish kattaligining qiymati, uning standart noaniqligi va uning qanday olinganligining ta’rifi;

- natija va kirish kattaliklari, shuningdek, bu effektlarni hisobga olish uchun foydalanilgan ayrim hosilalar, kovariatsiyalar yoki korrelyatsiya koeffitsientlari o‘rtasidagi o‘zar munosabat;

- har bir kirish kattaligining standart noaniqligi uchun erkinlik darajalari soni.

Izoh - Funksional bog‘liqlik juda murakkab bo‘lgan yoki aniq ko‘rinishda mavjud bo‘lmasan hollarda (masalan, u faqatgina komp’yuter dasturi sifatida mavjud bo‘lishi mumkin) u umumiyoq ko‘rinishda yoki muvofiq manbaga tavsiya yo‘li bilan ifodalanishi mumkin. Bunday hollarda kimyoviy taxlil natijasi va uning noaniqligi qanday qilib olinganligi har doim aniq bo‘lishi lozim.

Oddiy tahlillar natijalarini taqdim etishda faqatgina kengaytirilgan noaniqlik qiymatini va *k* qiymatni ko‘rsatish yetarli bo‘lishi mumkin.

### **Standart noaniqlikni taqdim etish**

1. Noaniqliknin *i<sub>s</sub>* yakuniy standart noaniqlik ko‘rinishida ifodalasangiz (ya’ni, bitta standart og‘ish ko‘rinishida) yozuvning quyidagi shakli tavsiya etiladi:

«(Natija): *i<sub>s</sub>* (birliklar) standart noaniqlikda X (birliklar), [standart noaniqlik Metrologiya sohasidagi asosiy va umumiyoq atamalar Xalqaro lug‘ati, 2-nashr, ISO, 1993y. ga muvofiq aniqlanadigan va bir standart og‘ishga muvofiq keladigan joy]».

### **Standart namunalar noaniqligi**

Ko‘pchilik SN lar uchun, ayniqsa laboratoriyalararo eksperiment metodi bilan attestatlanayotgan SN lar uchun metrologik tavsifnomalar sifatida xatolik tushunchasidan ko‘ra noaniqlik tushunchasidan foydalanish mantiqiyroqdir. Shu sababli SN ishlab chiquvchilar, ayniqsa G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining SN ishlab chiquvchilarini SN ga sertifikatda ko‘rsatilganidek ularning attestatlangan qiymatlarini belgilash noaniqligi tavsifnomalarini keltiradilar.

SN ning attestatlangan qiymatlarining noaniqligi quyidagi tarzda

ifodalanishi mumkin:

Sertifikatda «kengaytirilgan» yoki «jamlangan» sifatlarsiz noaniqlik belgilangan. Masalan, «MVN Analytical Ltl» (Angliya) firmasi chiqargan O'z DSN 03.0305:2004 SN «Noaniqlik» tavsifnomasiga ega.

Sertifikatda qandaydir ( $R$ ) ishonchli ehtimolligida va ( $K$ ) qamrov koeffitsientida kengaytirilgan noaniqlik belgilangan. Masalan, «Raragon Scientific Ltd» (Angliya) firmasi chiqargan O'z DSN 03.0241:2004 SN « $R=95\%$  ishonchli ehtimolligida va  $K=2$  qamrov koeffitsientida ( $U$ ) kengaytirilgan noaniqliq tavsifnomasiga ega.

Sertifikatda qandaydir ( $R$ ) ishonchli ehtimolligida qamrov koeffitsientini ko'rsatmasdan kengaytirilgan noaniqlik belgilangan. Masalan, «Petrolet Analyzer Corporation Gmbn» (Germaniya) firmasining SN « $(S_{(p)})$  o'rtacha kvadrat og'ishga ega bo'lgan metodika bo'yicha ( $R$ ) ishonchli ehtimolligi laboratoriylar ( $n$ ) ishtirokida olingan  $U = (t \cdot S_{(p)}) / \sqrt{n}$  o'rtacha qiymatning kengaytirilgan noaniqligi».

Xatolik va noaniqlik tavsifnomalarining to'g'ridan-to'g'ri taqqoslanishi to'g'ri emas, shuning uchun qoidaga ko'ra bu metrologik asboblarning statistik baholari taqqoslanadi.

Agar standart yoki yakuniy noaniqlik berilgan bo'lsa, u holda ularning baholariga o'rtacha kvadratik og'ishlar mos bo'ladi:

$$\sigma(A) = u(A),$$

yoki

$$\sigma(A) = u_c(A),$$

bu yerda  $u(A)$  va  $u_c(A)$  - SN ning attestatlangan qiymatini belgilashning mos standart va yakuniy noaniqligi;

$A$  - SN ning attestatlangan qiymati;

$\sigma(A)$  - SN ning attestatlangan qiymatining o'rtacha kvadratik og'ishi.

Agar qandaydir ( $R$ ) ishonchli ehtimolligida qamrov koeffitsientini ko'rsatmasdan kengaytirilgan noaniqlik berilgan bo'lsa va bunda yoki laboratoriylar, standart namunalarning metrologik tavsifnomalarini baholash bo'yicha laboratoriylararo eksperiment qatnashchilari soni yoki erkinlik darajasining muvofiq soni bilan ( $t$ -kriteriy) St'yudent kriteriyisi ko'rsatilgan bo'lsa, u holda uning bahosiga o'rtacha kvadratik og'ish mos keladi:

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. O‘lhashlar noaniqligi nima?
2. Standart noaniqlik nima?
3. O‘lhashlar noaniqligi qanday baholanadi?
4. Noaniqliknini baholash jarayoni necha bosqichdan iborat?

## **1.7. ELEKTR O‘LCHASH VOSITALARI TO‘G‘RISIDA UMUMIY MA’LUMOTLAR.**

**Elektr o‘lhash vositalari** – deganda elektr, magnit, noelektrik kattaliklarni, elektr zanjir parametrlarini o‘lhashda qo‘llaniladigan qurulmalar majmuasiga aytiladi.

Elektr o‘lhash vositalari ularni bajaradigan funksiyasiga qarab quyidagi guruhlarga bo‘linadi: o‘lchovlar, etalonlar, o‘lhash o‘zgartkichlari, o‘lhash asboblari, o‘lhash qurilmalari va informatsion – o‘lhash tizimlari.

**O‘lchov deb** – kattalikning aniq bir qiymatini hosil qiladigan (tiklaydigan), saqlaydigan texnik vositaga aytiladi. O‘lchovlar o‘zgarmas va o‘zgaruvchan qilib ishlanadi, ya‘ni bir qiymatli, masalan: qarshiligi **0.1 Om** bo‘lgan g‘altak yoki normal element, tarozi toshi, o‘zgarmas yoki bir qiymatli o‘lchovdir; har xil sig‘imni olishga imkon beruvchi o‘zgaruvchan sig‘imli kondensator esa o‘zgaruvchan, yani ko‘p qiymatli o‘lchovdir. Bir qiymatli o‘lchovlar birikmasi o‘lchovlar to‘plamini tashkil etadi.

**Standart namunalar** va namunaviy moddalar ham o‘lchovlar turkumiga kiritilgan.


**Standart namuna** – modda va materiallarning xossalalarini va xususiyatlarini tavsiflovchi kattaliklarni hosil qilish uchun xizmat qiladigan o‘lchov sanaladi. Masalan, g‘adir – budrlikning namunalari, namlikning standart namunalari.

**Namunaviy modda** – esa, muayyan tayyorlash sharoitiga hosil bo‘ladigan va aniq xossalarga ega bo‘lgan modda sanaladi. Masalan, “toza suv”, “toza metal” va h.k.

Kattalik birligini qayta tiklash va saqlash uchun mo‘ljallangan o‘ta yuqori (metrologik) aniqlikdagi maxsus o‘lhash vositalari **etalon** deb ataladi va birlik o‘lchamini uzatishda metrologik zanjirning oliy zvenosi hisoblanadi. talon (o‘lhashlar shkalasi yoki birligi etaloni) – kattalikning o‘lchamini qiyoslash sxemasi bo‘yicha quyi tabaqa

vositalarga uzatish maqsadida, shkalani yoki kattalik birligini qayta tiklash va (yoki) saqlash uchun mo‘ljallangan va belgilangan tartibda etalon sifatida tasdiqlangan o‘lhash vositasi yoki o‘lhash vositalarining majmui. Etalonlar konstruktiv ishlanishiga va tarkibiga qarab bo‘linadi: etalon kompleks, yakka etalon, guruhli etalon, etalon to‘plami. Birlikni qayta tiklash aniqligining darajasi bo‘yicha va metrologik tobelligi bo‘yicha etalonlar birlamchi, ikkilamchi va ishchi etalonlarga bo‘linadi.

Davlat uchun boshlang‘ich etalon sifatida xizmat qilishi rasmiy qaror bilan tan olingan etalon milliy (davlat) etalon deb ataladi. O‘lhash o‘zgartkichi – deb, o‘lhash informatsiyasi signalini ishlab berish, uzatish, keyinchalik o‘zgartirish, ishlab berish va uni saqlashga mo‘ljallangan, lekin kuzatuvchining ko‘rishi (kuzatishi uchun moslanmagan o‘lhash vositasiga aytiladi).



$Y=f(x)$ , ba‘zida o‘lhash o‘zgartkichining kirishiga bir qancha  $X_1, X_2, \dots, X_n$  kattaliklar kiritiladi va u holda  $Y$  quyidagicha ifodalanadi  $Y=f(X_1, X_2, \dots, X_n)$ . Odatta, o‘lhash zanjirida birinchi bo‘lgan, yani o‘lchanayotgan kattalik signalini qabul qiladigan o‘lhash o‘lhash o‘zgartkichiga birlamchi o‘lhash o‘zgartkichi deyiladi. Undan keyingi joylashgan o‘lhash o‘lhash o‘zgartkichlariga esa oraliq o‘zgartkichlar nomi beriladi. O‘lhash o‘zgartkichlarining keng tarqalgan turlariga masshtabli va parametrik o‘lhash o‘zgartkichlari kiradi. Birlamcha o‘lhash o‘zgartkichlari, ko‘pincha datchik deb yuritiladi. Uning bevosita o‘lchanayotgan kattalik ta‘siridagi qismi sezuvchan element deyiladi. Masalan, termoelektrik termometrda – termojuftlik, monometrik termometrda, termoballon ana shunday elementlardir. Bazida datchik bitta yoki bir nechta o‘lhash o‘zgartkichlarining konstruktiv yig‘ilmasidan iborat bo‘ladi. O‘lchanadigan kattalikning xarakteriga qarab, o‘lhash o‘zgartgichlari quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Elektr kattaliklarni yana elektr kattaliklarga o‘zgartiruvchi o‘zgartgichlar ( $E \Rightarrow E$ ).
2. Noelektrik kattaliklarni elektr kattaliklarga o‘zgartiruvchi o‘zgartgichlar ( $NE \Rightarrow E$ ).

1- turdagি o‘zgartgichlarga masshtabli (shunt qarshiligi, qo‘shimcha rezistorlar, kuchlanish bo‘lgichlari, o‘lchash tok va kuchlanish transformatorlari, kuchaytirgichlar va h.k) o‘zgartkichlar, hamda to‘g‘irlagichli o‘zgartgichlar (yarim o‘tkazgichli elementlardan ishlangan (diodli) o‘zgartkichlar) kiradi.

2 – turdagи o‘lchash o‘zgartgichlariga noelektrik (elektrmas) kattaliklarni (masalan, mexanik, issiqlik, kimyoviy, optik va boshqa turdagи) elektr kattaliklariga (tok, E.Yu.K., qarshilik kabi) o‘zgartiruvchi o‘zgartkichlar datchiklar deb yuritiladi va o‘lchanayotgan kattalikning turiga qarab tegishli nomlarga ega bo‘ladi. Masalan, bosim datchigi, moment datchigi, siljish datchigi, sath datchigi, issiqlik datchigi va h.k. Ta‘kidlab o‘tilgan parametrik o‘lchash o‘zgartkichlarida kirishdagi signal (mexanik siljish, bosim, o‘g‘irlik kabi) bo‘lib, chiqishdagi esa faqat elektr signali (elektr qarshiligi, elektr sig‘imi, elektr yurituvchi kuch va boshqalar) bo‘ladi. Bulardan tashqari elektromexanik turidagi elektr o‘lchash asboblarining asosiy qismi bo‘lib hisoblanuvchi turli tuzimga oid o‘lchash mexanizmlari ham o‘lchash o‘zgartkichlari qatoriga kiradi. Chunki o‘lchash mexanizmlarining ishlashi shunga asoslanganki, ularda o‘lchanadigan kattalik (ya‘ni elektr energiya) mexanizm qo‘zg‘aluvchan qismini harakatlanishiga, yani burchakli yoki chiziqli surilishiga (mexanik energiyaga) o‘zgartiriladi.


Telemexanika va teleo‘lchash tizimlarida (masofadan o‘lchashlar va boshqarishda) me‘yorlovchi o‘lchash o‘zgartkichlari keng qo‘llaniladi. Bu o‘zgartkichlarda har – xil elektr (kuchlanish, chastota, quvvat) va noelektrik (bosim, harorat va boshqalar) kattaliklar unifikatsiyalangan (umumlashtirilgan) elektr signaliga (odatda o‘zgarmas tok signaliga) o‘zgartiriladi. Bunga — Sapfir turidagi bosim o‘zgartkichi misol bo‘la oladi.

O‘lchash o‘zgartkichlarining chiqishidagi o‘lchash informatsiyasining signali kuzatuvchining ko‘rishi (kuzatishi) uchun moslanmagan bo‘lganligi sababli, bu o‘zgartkichlar alohida (mustaqil) o‘lchash vositasi sifatida ishlatilmaydi. O‘lchash o‘zgartkichlari faqat o‘lchash asboblari bilan birgalikda yoki o‘lchash qurilmalari yoki o‘lchash tizimlarining tarkibida ishlatiladi.

O‘lchash asboblari – deb, kuzatish (kuzatuvchi) uchun qulay ko‘rinishli shaklida o‘lchash informatsiyasi signalini ishlab berishga mo‘ljallangan o‘lchash vositasiga aytiladi.


O'lchash asboblari struktura sxemasining turi bo'yicha (o'lchash vositasiga o'lchash informatsiyasi signalini o'zgartirish ketma – ketligini ifodalovchi sxema) bevosita ta'sirdagi (baholaydigan) va solishtirib o'lchaydigan asboblarga bo'linadi.

O'lchanadigan kattalikni asbobning oldindan darajalab qo'yilgan darajasi (shkalasi) bo'yicha kuzatishga hisoblashga imkon beruvchi o'lchash asbobi bevosita ta'siridagi asbob deb ataladi. Bunday asboblarda o'lchash informatsiyasining signalini to'g'ri yo'nalishda qator ketma – ketlikdagi o'zgartirishlardan o'tadi. Asboblarning strukturali sxemasi quyida keltirilgan:



Sxemada:  $X$  va  $Y$  lar o'lchash asboblarining kirishidagi va chiqishidagi kattaliklari;  $O_1, O_2, \dots, O_n$  – o'lchash informatsiyalarining alohida o'zgartkichlari.

O'lchanadigan kattalikni uni o'lchovi bilan avtomatik yoki operator ishtirokida solishtirish natijadisa olinadigan o'lchash asboblari ***solishtirish asboblari*** deyiladi. Boshqacha aytganda, bu asboblarda o'lchanadigan kattalik bevosita uning o'lchovi bilan yoki o'lchov sifatida qabul qilingan aniq qiymati bilan o'zaro solishtiriladi. Solishtirish asboblarida chiqish kattaligi  $Y$  teskari bog'lanish zanjiridagi maxsus o'zgartkich yordamida (***O' tesk***) o'lchanadigan kattalik  $X$  bilan bir turdagи  $X_k$  ga o'zgartiriladi va keyin  $X$  va  $X_k$  kattaliklar asbobning kirishida solishtiriladi (ayriladi). Solishtirish asboblarining strukturali sxemasi (berk zanjirli bo'ladi) quyidagi rasmda ko'rsatilgan.



Teskari bog'lanish zanjirining mavjudligi asbobning aniqligini ko'tarishi mumkin, lekin ko'pincha uning tezkorligi va umumiyligiga sezgirlingiga teskari ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Solishtirish asboblariga teng yelkali torozilar, o'zgarmas tok ko'priklari, potensiometrlar misol bo'lishi mumkin.

Ko‘p hollarda, o‘lchanadigan kattalik bilan uning aniq qiymatlari emas, balki shu kattaliklar hosil qilgan effektlar solishtiriladi. Masalan, o‘zgarmas tok ko‘priklarida o‘lchanadigan va aniq qarshiliklarining zanjirlaridan o‘tadigan elektr toki solishtiriladi. Teng yelkali tarozilarda o‘lchanadigan ob‘yekt va toshlarning massasi emas, balki shu jismlar hosil qilgan aylantiruvchi momentlar solishtiriladi.

O‘lhash asboblari ularning ko‘rsatishi, chiqishdagi kattalik bilan o‘lchandigan kattaliklarning o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha ***analogli*** va ***raqamli*** asboblarga bo‘linadi.

**Analogli asboblar.** Analogli asboblarda ularning ko‘rsatishi o‘lchanadigan kattalikning uzluksiz o‘zgarish funksiyasiga bog‘liq bo‘ladi.

Analogli asboblar yuqori tezkorlikka ega, bundan tashqari asbobning ko‘rsatishi bo‘yicha o‘lchanadigan kattalikning o‘zgarishi (raqamliga qaraganda) psixologik jihatdan oson qabul qilinadi (kuzatiladi). Lekin, analogli (asosan strelkali) asboblarning aniqligi uning shkalasi bo‘yicha kuzatish xatoligi bilan cheklanadi (xatolik odatda 0.05-1% dan kichik bo‘lmaydi).

**Raqamli asboblar.** Raqamli o‘lhash asbobi deb, o‘lhash borasida uzluksiz o‘lchanadigan kattalikning natijasi raqamli qayd etish qurilmasida yoki raqamlarni yozib boruvchi qurilmada diskret tarzda o‘zgartirilib, indikasiyalanadigan asboblarga aytildi. Raqamli asboblar, diskret o‘lhash usuliga asoslangan bo‘lib, asbobning ko‘rsatishi raqam ko‘rinishida bo‘ladi, shu sababli ularning ko‘rsatuvlari osongina qayd qilinadi, ularni *EHM* ga kiritish juda qulay. Elektr o‘lhash asboblarini qayd qiluvchi, o‘ziyozar, bosmalovchi, integrallovchi va jamlovchi turlari ham mavjud.

**Qayd** qiluvchi elektr o‘lhash asboblarda – ko‘rsatuvlarni yoki diagrammali qog‘ozda yozib olish yoki raqamli tarzda qayd etish ko‘zda tutiladi.

**Integrallovchi elektr o‘lhash asboblari** – berilgan (o‘lchanadigan) kattalikni vaqt bo‘yicha yoki boshqa mustaqil o‘zgaruvchi ko‘rsatkich bo‘yicha integrallash xususiyatiga ega. Bunga misol qilib elektr energiya hisoblagichini ko‘rsatish mumkin.

Jamlovchi elektr o‘lhash asboblarda – ko‘rsatishlar turli kanallar orqali berilgan ikki yoki bir necha kattaliklarning yig‘indisi bilan funksional bog‘langan bo‘ladi. Bunga bir necha generatorlar quvvati yig‘indisini o‘lhash uchun mo‘ljallangan vattmetrlar misol bo‘la oladi.

**O“lhash asboblari ishlatilishi xususiyatiga ko‘ra, ko‘chma va ko‘chirib yuritilmaydigan (statsionar) asboblarga bo‘linadi.**

O“lchanadigan kattalik turiga qarab, elektr o‘lhash asboblari ampermetr, vol‘tmetr, vattmetr, ommetr, fazometr, chastomer va shu kabi asboblarga bo‘linadi.

**Ishlatilish sharoitiga qarab elektr o‘lhash asboblari A,B,V** va **T** guruhlarga ajratiladi. Masalan, **A** guruhdagi asboblар havoning nisbiy namligi **80%** gacha yetadigan, harorati **+10°+35°C** gacha bo‘lgan quruq va isitiladigan yopiq xonalarda ishlatishga mo‘ljallangan. **T** – guruhga kiruvchi asboblар esa quruq va nam, eng issiq iqlim (tropik) sharoitida foydalanishga mo‘ljallab tayyorlangan.

Elektr o‘lhash asboblari mexanik ta‘sirlarga bardoshligiga qarab chidamli, mustahkam asboblarga bo‘linadi. Mexanik ta‘sirlar (silkinish, tebranish yoki zarbali silkinish)ning salbiy oqibatlarga bardosh berib, so‘ngra (ularning ta‘siridan keyin), maromida ishslash xususiyatini saqlab qolgan asboblari **chidamli elektr o‘lhash asboblari jumlasiga** kiradi. Silkinish, tebranish sharoitida maromida ishslash imkoniyatini saqlagan asboblari silkinish yoki tebranishga **mustahkam elektr o‘lhash asboblari** deb ataladi.

**Toklarning turiga qarab** elektr o‘lhash asboblari o‘zgarmas va o‘zgaruvchan hamda ikkala xil tok zanjirlarida ham ishlatiladigan (o‘lchay oladigan) asboblarga bo‘linadi.

Ko‘rsatuvchi o‘lhash asboblari keltirilgan xatoliklarning ruhsat etilgan qiymati bo‘yicha sakkizta aniqlik klassiga bo‘linadi:

$$\Delta_{\text{an.kl.}} \in \{4; 5.2; 2; 5.1; 1; 5.0; 2.0; 1.0; 05.0; 02.0\}$$

O‘lhash qurilmalari – bir joyda joylashgan ham funksional, ham konstruktiv bog‘langan o‘lhash vositalarining (o‘lchovlar, o‘lhash o‘zgartgichlari, o‘lhash asboblari) va yordamchi vositalar yig‘ilmasidan iborat bo‘lib, o‘lhash jarayonini ratsional tashkil etishda xizmat qiladi.

O‘lhash qurilmalariga, suyuqlik va gazlarni sarfini o‘lhash uchun ishlatiladigan o‘lhash komplekslari, elektr o‘lhash asboblari sinovdan o‘tkazish va darajalash (graduirovkalash) qurilmalari misol bo‘ladi.

**O‘lhash tizimlari** – bir – biri bilan maxsus aloqa kanallari orqali yig‘ilgan va funksional bog‘langan o‘lhash vositalari (o‘lchovlar, o‘lhash o‘zgartgichlari va o‘lhash asboblari), yordamchi qurilmalar va hisoblash texnikasi vositalari majmuidan iborat bo‘lib,

o'lhash informatsiyasi signalini avtomatik tarzda qayta ishlash uchun qulay formada ishlab berish uchun mo'ljallangan.

### **Nazorat sinov savollari**

1. O'chash vositasi deb nimaga aytildi?
2. O'lchov deb qanday o'lhash vositasiga aytildi? Uning qanday turlari mavjud?
3. Etalon deb nimaga aytildi, qanday tabaqlanadi?
4. O'lhash o\_zgartkichlari deb qanday vositaga aytildi?
5. Datchik deb nimaga aytildi, uning funksiyasi nimadan iborat?
6. Qanday vosita o'lhash asboblari deyiladi?
7. Elektr o'lhash asboblarining qanday turlarini bilasiz?
8. Analogli, raqamli, qayd qiluvchi, integrallovchi, jamlovchi asboblar deganda qanday asboblarga aytildi?

## **1.8. ELEKTR O'LCHASH VOSITALARINING METROLOGIK XUSUSIYATLARI.**

### **O'lhash vositalarining xususiyatlari to'g'risida umumiy tushunchalar.**

O'lhash vositalari, boshqa texnik qurilmalar kabi ularning vazifasi va qo'llanilishini belgilovchi qator texnik tavsiflar (xususiyatlar)ga ega. O'lhash vositalarining sifatini, ularning texnik darajasini baholashda xizmat qiladigan va o'lhash natijalariga ta'sirini va xatoliklarini baholash maqsadida ularning ba'zi xususiyatlari ajratiladi. O'lhash vositalarining bunday tavsiflari ***metrologik xususiyatlar*** deyiladi. O'lhash vositalarining ishslash rejimiga qarab ular statik va dinamik xususiyatlarga bo'linadi.

**Statik xususiyati** deganda o'lhash vositalarining statik ish rejimidagi parametrlari tushuniladi, yoki boshqacha qilib aytganda kirish kattaligi o'lhash olib borilgan vaqt davomida o'zgarmaydi.

**Dinamik xususiyati** deganda esa, o'lhash vositasining dinamik rejimidagi xususiyatlarini esa aks ettiruvchi parametrlari tushuniladi yoki boshqacha aytganda o'lhash vositasining kirish kattaligi o'lhash jarayonida o'zgaradi.

O'lhash vositasining asosiy statik xususiyatlari

Asosiy statik xususiyatlariiga o‘zgartirish funksiyasi, sezgirlik, sezgirlik ostonasi kiradi.

O‘zgartirish funksiyasi – bu o‘lhash vositasining kirishdagi ( $X$ ) va chiqishdagi ( $Y$ ) kattaliklari qiymatlarining o‘zaro funksional bog‘liqligidir. O‘zgartirish funksiyasi analitik ifoda bo‘yicha  $[Y=f(X)]$ , grafik tarzda va jadval ko‘rinishida berilishi mumkin. O‘zgartirish funksiyasi ko‘pincha o‘lhash vositasining graduirovkali xarakteristikasi deyiladi. O‘lhash vositasi uchun (yoki o‘lhash vositasining konkret turi uchun) ko‘rsatilgan o‘zgartirish funksiyasini uning nominal o‘zgartish funksiyasi  $Y=fn(X)$  deyiladi.

**Sezgirlik** – bu o‘lhash vositasining tashqi signalga nisbatan ta‘sirchanligi, sezuvchanligidir. Umumiy holda **sezgirlik** o‘lhash vositasining chiqish sigali o‘zgarishini shu o‘zgarishning sababchisi – kirish signaliga olingan nisbati o‘lchanayotgan kattalikka nisbatan asbobning sezgirligini belgilaydi.

$$S = \lim_{x \rightarrow 0} \frac{\Delta Y}{\Delta X} \approx \frac{\Delta Y}{\Delta X}$$

Sezgirlikning o‘lchamligi kirish va chiqishdagi kattaliklarning o‘lchamliklaridan aniqlanadi. O‘lhash vositalarining sezgirligini teskari qiymati, ularning **doimiyligi** deyiladi va u o‘lhash o‘zgartikchilari, o‘lhash asboblarining asosiy xususiyatlardan biri bo‘lib hisoblanadi.  $C = 1/S$  Ko‘rsatuvchi strelkali asboblarining (ko‘rsatkichi) sanoq qurilmasi shkala va ko‘rsatkichdan tuzilgan. Shkaladagi sonli qiymatlar ko‘rsatilgan belgilar shkalaning sonli belgilari deyiladi. Shkalaning ikki qo‘shti belgilari orasidagi oraliq shkalaning bo‘linmasi deyiladi. Shkalaning ikki qo‘shti belgisi mos kelgan kattalik qiymatlari ayirmasi shkala bo‘linmasining qiymati deyiladi.

Sezgirlik ostonasi – bu o‘lchanadigan kattalikning shunday eng kichik (boshlang‘ich) qiymatiki, u o‘lhash asbobining chiqish signalini sezilarli o‘zgarishiga olib keladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$S = \frac{X_{\min}}{X_{\text{nom}}} \cdot 100\%,$$

bu yerda:  $X_{\min}$  – o‘lchanadigan kattalikning eng kichik (boshlang‘ich) qiymatidir.

Integrallovchi asboblar uchun —sezgirlik tushunchasi ishlatilmaydi va o‘z navbatida —sezgirlik ostonasi tushunchasi esa

istalgan o‘lhash o‘zgartkichlari va asboblari uchun qo‘llanishi mumkin.

**Xususiy energiya sarfi.** Bu xususiyat ham muhim hisoblanib, asbobning o‘lhash zanjiriga ulanganidan so‘ng kirishi mumkin bo‘lgan xatoliklarni baholashda ahamyatli sanaladi. Ayniqsa, kam quvvatli zanjirlarda o‘lhashlarni bajarishda juda muhimdir.

Xususiy energiya sarfi o‘lhash asbobining tizimiga, konstruktiv ishlanishiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘lhash vositalarining muhim metrologik xususiyatlaridan biri o‘lhash diapazonidir. O‘lchanadigan kattalikning o‘lhash vositalari uchun yo‘l qo‘yiladigan xatoliklarini me‘yorlangan qiymatlari oralig‘i o‘lhash asbobi yoki o‘lhash o‘zgartkichining o‘lhash diapazoni deyiladi.

Texnik asboblarda, odatda, o‘lhash diapazoni bilan ko‘rsatuvalar diapazoni mos keladi. O‘lhash diapazonining eng kichik va eng katta qiymatlari o‘lhash chegarasi deyiladi. Masalan, statsionar o‘lhash kuchlanish transformatorlarining o‘lhash diapazoni  $0.8 \text{ U1 n}$  dan to  $1.2 \text{ U1 n}$  gacha bo‘lib nominal kuchlanishining  $0.8 \text{ U1 n}$  dan kichik va  $1.2 \text{ U1 n}$  dan yuqori, kuchlanishlari uchun xatoliklar me‘yorlanmaydi.

**Xatolik** – o‘lhash vositalarining muhim xususiyati hisoblanadi va u quyidagi turlarga bo‘linadi: absolyut, nisbiy va nisbiy keltirilgan. Bu xatoliklar xususida keyingi mavzularda yetarli ma‘lumot beriladi. O‘lhash vositalarining yana muhim xususiyatlaridan biri – chiqish signaling variatsiyasidir. (O‘lhash asboblar uchun- **asbob ko‘rsatishining variatsiyasi** deyiladi).

**Variatsiya** deganda biror kattalikni sharoitini o‘zgartirmagan holda, takror o‘lchanganda hosil bo‘ladigan eng katta farqga tushuniladi va quyidagicha aniqlanadi. Variatsiya kattalikni kirish qiymatlari (kirish bo‘yicha variatsiyasi) yoki chiqish qiymatlari (chiqish bo‘yicha variatsiyasi) dan aniqlashnish mumkin.

$$\gamma = \frac{A'_0 - A''_0}{A_{\max}} \cdot 100\%,$$

**O‘lhash vositalarning aniqlik klassi** – bu muayyan turdagi o‘lhash vositasining umumlashgan xarakteristikasi bo‘lib, uning aniqlik darajasini aks ettirib, asosiy va qoshimcha xatoliklarining chegarasi bo‘yicha hamda o‘lhash vositasining aniqligiga ta‘sir etuvchi boshqa tavsiflari bo‘yicha aniqlanadi. Aniqlik klassi muayyan o‘lhash vositasida bajarilgan o‘lhashlarning bevosita aniqlik

ko'rsatkichi bo'lib hisoblanmaydi. Aniqlik klassi umumiy holda o'lhash vositasining metrologik xossalaring majmuini xarakterlaydi. O'lhash vositalarining aniqlik klasslari ularga qo'yilgan talablarga asosan standart qiymatlarda o'rnatiladi va keltirilgan nisbiy xatolik bilan quyidagichabog'liqlikda bo'ladi.

$$\delta_{an.kl} = \beta_{k \max} \geq \beta_k$$

## O'lhash vositalarining dinamik **xususiyatlari**

**Dinamik metrologik xususiyatlari** – o'lhash vositasining inersion xususiyatlarini aks ettiradi va o'lhash vositasida chiqish signali bilan vaqt bo'yicha o'zgaradigan kattaliklarning o'zaro bog'liqligidan aniqlanadi. Vaqt bo'yicha o'zgaruvchan kattaliklar bular kirish signalining parametrlari, tashqi ta'sir etuvchi kattaliklar va boshqalar. O'lhash vositalarining dinamik xususiyatlarini to'la ifodalash maqsadida ularni to'la va xususiy dinamik xususiyatlarga bo'lamiz.

To'la dinamik xususiyat – bu o'lhash vositasining kirishidagi istalgan informativ yoki noinformativ parametrlari  $X(t)$  va chiqish signallarining  $Y(t)$  o'zgarishidan aniqlanadi.

To'la dinamik xususiyatlarga quyidagilar kiradi: o'tish xarakteristikasi, impulsli o'tish xarakteristikasi, amplituda – faza xarakteristikasi, amplituda –chastotaviy va faza chastotali xarakteristikalar majmui, uzatish funksiyasi.

**Xususiy dinamik xususiyat** – bunga o'lhash vositasining ta'sirlanish vaqt (asbob ko'rsatishining to'xtash vaqt), dempfirlash koeffitsienti, xususiy rezonans chastotasining qiymati kabilar kiradi. O'lhash vositalarining yana muhim xususiyatlaridan biri – **ishonchliligi**

(chidamliligi) bo'lib, u o'lhash vositasining ma'lum o'lhash sharoitida, belgilangan vaqt mobaynida o'z metrologik xususiyatlarini (ko'rsatkichlarini) saqlashidir. Bu ko'rsatkichlarni chegaradan chiqib ketishi abobni layoqatligi pasayib ketganligidan dalolat beradi. O'lhash asbobining ishonchliligi, odatda, buzilmasdan ishslash ehtimolligi bilan baholanadi.

## Nazorat sinov savollari




1. O'lhash vositalarining metrologik xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
2. O'zgartish funksiyasi, o\_zgartish koeffisienti nima?
3. Sezgirlik, sezgirlik ostonasi deb nimaga aytildi?
4. Aniqlik klassi deb nimaga aytildi?
5. O'lhash diapazoni, shkalaning bir bo linma qiymati deganda nimani tushunasiz?
6. Ishonchliligi, buzilmasdan ishlash ehtimolligi deb nimaga aytildi?

## 1.9. ELEKTR O'LHASH O'ZGARTKICHLARI

### O'lhash zanjirlari parametrlarini rostlash vositalari

Tok va kuchla-nishni talab qilingan martaga o'zgartiradigan o'lhash o'zgartkichlari masshtab o'zgartkichlari (MO') deb ataladi. Bu o'zgartkichlar o'lhash asbobi bo'lmadasa, o'lhash natijalariga ta'sir ko'rsatadi. MO'ga shuntlovchi va qo'shimcha qarshiliklar, o'lhash transformatorlari, o'lhash generatorlari va kuchaytirgichlar kiradi. O'lhash zanjirlaridagi tok va kuchlanishni rostlash uchun o'zgaruvchan reostatlar qo'llaniladi.

Zanjirdagi tok qiymatini rostlash uchun o'zgaruvchan rezistorlar zanjirga ketma-ket ulanadi (8- rasm: a – zanjirdan uzilgan holda; b – zanjirni uzmasdan ularash). Zanjirdagi kuchlanishni rostlash uchun potensiometrik sxemasi qo'llaniladi (9 - rasm).




**8-rasm**  
Zanjirdagi tok va kuchlanishlarni rostlash uchun qarshiliklar ruxsat etiladigan chegaraviy tok va nominal qarshilik bo'yicha tanlanadi.

**9-rasm**

Tokni rostlash uchun rezistorning nominal qarshiligi  $R_n \geq \frac{U}{I}$ , nominal toki  $I_n \geq I_{\max}$  shartlarn qanoatlantirish kerak, bu yerda:  $U$  – manba kuchlanishi,  $I_{min}$  va  $I_{max}$  – tokni rostlash diapazoni.

Zanjirdagi kuchlanishni karrali rostlash uchun o‘zaro ketma-ket ulangan qarshiliklar kuchlanish manbaiga parallel ulanadi (10- rasm).



**10-rasm. Kuchlanish bo‘lgich sxemalari.**

O‘zgaruvchan tok zanjirlarida fazalasi siljish burchagini bir tekis rostlash uchun fazoregulyator (buriluvchi transformator) lardan foydalilanadi. Fazoregulyator tormozlangan fazalasi rotorli uch fazalasi asinxron mashina bo‘lib, rotorni statorga nisbatan holatini o‘zgartirib, statordagagi kuchlanish bilan rostoring e.yu.k. vektorlari orasidagi fazalasi siljish burchagini  $0^\circ$  dan  $360^\circ$  gacha rostlash mumkin.

### Shuntlar va qo‘s himcha rezistorlar

Asboblarining o‘lchash diapazoni chegaralangan bo‘lgani uchun ularni har doim ham o‘lchash zanjirlariga bevosita ulab bo‘lmaydi. Ampermetr va voltmetrni o‘lchash chegarasini kengaytirish uchun tok va kuchlanish o‘lchash o‘zgartkichlaridan foydalilanadi.


Ampermetr o‘lchash diapazonini kengaytirish uchun unga parallel holda shuntlovchi rezistor ulanadi (11- rasm). Rezistor qarshiligi  $I_{sh}R_{sh} = I_{pA}R_{pA}$  tenglikdan topiladi, bu yerda:  $I_{sh}$ ,  $I_{pA}$  – shundan va ampermetrdan o‘tadigan toklar,  $R_{sh}$ ,  $R_{pA}$  – shunt va ampermetr ichki qarshiliklari. Yuqoridagi tenglikdan  $I = I_{sh} + I_{pA}$  ni hisobga olib, quyidagini keltirib chiqarish mumkin:

Sanoatda ishlab chiqariladigan ampermetrlar qutisida bir necha o‘n amperga mo‘ljallangan shuntlar joylashtirilgan bo‘ladi. O‘lchash

xatoligini kamaytirish maqsadida shuntlar haroratga mo‘tadil bo‘lgan qotishmadan (masalan, manganindan) yasaladi hamda potensial va tokli kontakt juftlari bilan ta’minlanadi. Shuntlar, odatda, magnitoelektrik asboblar bilan birga qo‘llaniladi. Boshqa turdagи asboblarda iste’mol qilinadigan quvvat katta bo‘lgani uchun shuntlarning qarshiliklarini katta qiymatlarga oshirishga to‘g‘ri keladi. Shuntlarning qarshiligi nominal qiymatiga nisbatan o‘zgarishiga qarab 0,02; 0,05; 0,1; 0,2 va 0,5 aniqlik klasslariga bo‘linadi.

$$R_{sh} = I_{pA} \frac{R_{pA}}{I_{sh}} = \frac{R_{pA}}{(I/I_{pA}) - 1} = \frac{R_{pA}}{n - 1},$$

bu yerda:  $n = I/I_{pA}$  – shuntlash koeffitsiyenti. Ampermetr yordamida o‘lchana-digan tok undan o‘tadigan tokning shuntlash koeffitsiyenti ko‘paytmasiga teng, ya’ni  $I = nI_{pA}$ .



12.-pacм.

Voltmetrlar o'lchash diapazonini kengaytirish uchun unga ketma-ket qo'shimcha qarshilik ulanadi (12- rasm). Qo'shimcha qarshiliklar qiymati quyidagi ifodadan topiladi:

O'zgarmas tok zanjirlari uchun qo'shimcha qarshiliklar yakka o'ramli g'altak ko'rinishida, o'zgaruvchan tok zanjirlarida esa bifilyar, ya'ni ikki buklanib o'ralgan bo'ladi. Aniqlik klasslari: 0,02; 0,05; 0,1; 0,2; 0,5 va 1,0.

$$I = \frac{U}{R_{pV} + R_q} = \frac{mU_{pV}}{R_{pV} + R_q}$$

yoki


$$R_q = \frac{U}{I} - R_{pV} = \frac{mU_{pV}}{I} - R_{pV} = R_{pV}(m - 1)$$

bu yerda:  $UpV$  – qo'llaniladigan voltmetrning nominal qiymati;  $RpV$  – voltmetrning ichki qarshiligi;  $Rq$  – qo'shimcha qarshilik,  $m = U/UpV$  – bo'lish koeffitsiyenti.

### O'lchash transformatorlari

Shuntlovchi va qo'shimcha qarshiliklardan foydalanib, o'lchash diapazonini kengaytirish imkoniyati chegaralangan: ular yordamida 5 kA gacha tokni va 30 kV gacha kuchlanishni o'lchash mumkin. Bundan katta tok va yuqori kuchlanishlarni o'lchashda ularning massasi va o'lchamlari juda oshib ketadi hamda foydalanish xavfli bo'lib qoladi. Bunday hollarda tok va kuchlanish o'lchash transformatorlaridan foydalaniladi. Tok o'lchash transformatorlari (TA) katta toklarni, odatda, 0 – 5 A gacha diapazonga kamaytirib berib, o'lchash xavfsizligini bemalol ta'minlaydi (9.5- rasm). TA birlamchi chulg'amning o'ramlari soni ikkilamchi chulg'amnikiga qaraganda ancha kam bo'ladi. Simlarning qarshiliklari ancha kichik bo'lgani sababli TA qisqa tutashish rejimiga yaqin rejimda ishlaydi. Tok transformatori vektor diagrammasini qurishni  $I2$  tok vektorini istalgan holatda joylashtirishdan boshlagan ma'qul (13-rasm, b).  $I2w2$  magnitlovchi kuch vektori  $I2$  vektor bilan ustama-ust joylashtiriladi. Transformator o'zagidagi ( $F$ ) magnit oqimi umumiyligi magnitlovchi kuch ( $Iw1$ ) hisobidan hosil bo'lib, transformatorlarning birlamchi va ikkilamchi zanjirlarining magnitlovchi kuchlarining vektor yig'indisiga proporsionaldir. Umumiy magnitlovchi kuch quyidagicha topiladi:

$$\underline{Iw}_1 = \underline{I}_1 w_1 + \underline{I}_2 w_2$$



13-pacM.

$\underline{Iw}_1$  MYuK o'zakdag'i uyurmaviy toklar va giserezisga sarf bo'ladigan quvvat isrofini belgilovchi  $\underline{I}_a w_1$  aktiv va magnitlanishga sarf bo'ladigan quvvatni belgilovchi  $\underline{I}_p w_1$  reaktiv tashkil etuvchilarning yig'indisidan iborat.

$I_1 w_1$  va  $I_2 w_2$  magnit yurituvchi kuch (m.yu.k.) lar o'zaro teng bo'lmaganligi sababli, transformatorning haqiqiy transformatsiya koeffitsiyentini o'ramlar sonining nisbati ifodasidan topib bo'lmaydi, ya'ni:

$$k_I = I_1 / I_2 \neq w_2 / w_1$$

Nominal transformatsiya koeffitsiyenti:


$$k_{In} = I_{1n} / I_{2n} \approx w_2 / w_1$$

TA tok kattaligi bo'yicha xatoligi:

$$\delta_I = \frac{k_{In} - k_I}{k_I} \cdot 100\%$$

Bu xatolikni kamaytirish maqsa-dida ferromagnit o‘zak magnit singdiruvchanligi maksimal qiymatiga erishguncha qo‘sishimcha magnitlanadi. Bunday TA lar kompensatsiyalangan TA lar deb ataladi. Vektor diagrammadan ko‘rinib turibdiki TA burchak xatoligini belgilovchi  $\alpha$  burchak ham  $\delta_I$  xatolik bog‘liq bo‘lgan parametrlerning qiymatlariga qarab o‘zgaradi.

TA o‘ta yuklanib ishlaganda,  $IwI$  m.yu.k. oshib,  $IwI$  ga teng bo‘lib qoladi va magnit oqimning yuz martalab oshishiga olib keladi. Bunday hoatda TA xatoligining ortishi kuzatiladi (14- rasm). Magnit oqimning ortishi  $E2$   $EYU$ K ni ham keskin oshishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham TA ishlab turganda uning ikkilamchi chulg‘amini ajratish qat’iyan man qilinadi. Aks holda chiqish chulg‘amidagi o‘ta kuchlanish uning izolyatsiyasini ishdan chiqaradi.




14-rasm.

O‘lchanayotgan tok  $50\text{ A}$  dan oshmasa, universal TA lar,  $10\text{ kV}$  kuchla-nishli zanjirlarda *TOPOL 10* rusumli TA lari qo‘llaniladi. Katta toklarni o‘lhash texnikasida magnit o‘tkazgichi ombursimon ajraladigan va ikkilamchi zanjiri ampermetrga ulanadigan tok transformatori – o‘lhash omburidan foydalilanadi (14- rasm).


Ko‘p funksiyali elektroenergiya sifatini operativ nazorat qiluvchi tok omburlari. Rossiya Federatsiyasining «Diagnost» kichik korxonasiida ishlab chiqilgan zamонавиј tok omburlarining F23 va F27 modellari tezkor tashxis va elektr kattaliklarni o‘lhash uchun mo‘ljallangan (15-rasm). Ular tok, kuchlanish, chastota, aktiv, reaktiv va to‘la quvvat; mavjud quvvat koeffitsiyenti  $\cos\phi$ ; elektr kuchlanish sifatini belgilovchi amplituda koeffitsiyenti va garmonik buzilishlarni o‘lchaydi. Misol uchun, tok omburining F27 modeli o‘zgarmas tokni va o‘zgaruvchan tokni 25-garmonikasigacha alohida

o'lchaydi. O'lchang'an kattaliklar display ekraniga o'rta kvadratik qiymatlarda chiqariladi. Bundan tashqari bu model *RS* – 232 standartidagi interfeysga ega bo'lib, shaxsiy kompyuterga yoki printerga ulanishi mumkin. Modelning dasturiy ta'minoti *WINDOWS* operatsion sistemada ishlaydi va kattaliklarni yozish hamda xotirlashni ta'minlaydi. Tok omburining qo'l dastagiga o'lchash sxemasi, boshqarish organlari va display joylashtirilgan. Manba sifatida  $4 \times 1,5$  V ishqoriy elementlar yoki akkumulyatoridan foydalaniladi. Elektr batareyalari 40 soat ishlashi mumkin va uning ish holati to'g'risida axborot ekranga chiqariladi.

Tok omburlari simmetrik uch fazali tarmoq uchun uchta faza mavjudligini avtomatik ravishda aniqlaydi va natijani displayga beradi. Nosimmetrik uch fazali tarmoqda o'lchashlar har bir faza uchun alohida bajariladi. Barcha holatlarda faza ketma-ketligi ko'rsatiladi, bu montaj jarayonida xato o'lchashlarning oldini oladi. Ichida raqamli soat borligi va quvvatni o'lchash imkonini bo'lgani uchun tok omburlari bilan energiya sarfini ham o'lchash mumkin. (16-rasm).



15- Ombursimon tok  
o'lchagichlar.



16- tok omburlarining F23(a) va  
F27(b) modellari

**Ko‘p funksiyali F27 tok omburining asosiy texnik xarakteristikalari:**

Tok o‘lchash diapazonи, $A$	0,3 – 1000.
Kuchlanishni o‘lchash diapazonи, $V$	0,05 – 600.
Amplituda koeffitsiyenti	1 – 10.
O‘zgarmas tok kuchlanishining pulsatsiyasi	2 – 1000.
Chastota, $Gs$	0,5 – 20 000.
Aktiv quvvat, $Vt$	10 – 600 000.
Reaktiv quvvat, $var$	10 – 600 000.
To‘la quvvat, $VA$	10 – 600 000.
Quvvat koeffitsiyenti, $\cos \varphi$	0 – 1.
Tok va kuchlanish fazalarining siljish burchagi ishorasi	– 1 — +1.
Koeffitsiyent, K(KF)	1 – 30.
Ayrim garmoniklarning 25-tartibgacha bo‘lgan qiymatlari	Absolut (A yoki B) yoki nisbiylar (%) da.
Buzilish koeffitsiyenti, %	0,2 – 100.
Axborotlarni kompyuterga avtomatik ravishda uzatish, vaqtı, min.	1 – 60.
Dasturlangan optik RS – 232 standartdagi interfeys mavjud.	
O‘lchash omburi yuklama tokini simni uzmasdan o‘lchashga imkon beradi.	

Sanoat miqyosida ishlab chiqarilayotgan tok transformatorlarining (TT) yuqori o'lhash chegarasi undagi po'lat o'zakni kuchli magnit maydonida to'yinib qolish xususiyati tufayli cheklangan bo'ladi. Bunday hollarda o'lhash chegarasini kengaytirish uchun po'lat o'zakdagi ishchi magnit oqimi qiymatini kamaytirishga harakat qilinadi. Bunda po'lat o'zak magnit qarshiligini sun'iy oshirish, o'zakda ishchi magnit oqimiga qarama-qarshi magnit oqimini hosil qilish va boshqa usullardan foydalaniladi.

### **O'lhash transformatorlari bilan ishlashda texnika xavfsizligi.**

O'lhash transformatorlari elektr qurilmalarining o'lhash asboblari va releli himoyalash zanjirlarida qo'llaniladi. Ma'lumki, kuchlanish transformatorlari yuqori kuchlanishning o'lhash zanjiriga ulangan bo'ladi, ishlab turgan tok transformatorlarining ikkilamchi chulg'amlari uzilganda, ularning uchlarida o'ta kuchlanish paydo bo'ladi. Shuning uchun iste'molchilar elektr qurilmalarining texnik ekspluatatsiyasi qoidalari va ulardan foydalanish texnika xavfsizligi qoidalari bo'yicha quyidagilarga rioya qilishlari shart:

1. O'lhash asboblari va releli himoyalash zanjirlarida bajariladigan ishlarning xavfsizligini ta'minlash uchun barcha tok va kuchlanish transformatorlarining ikkilamchi chulg'amlari doim yerga ulangan bo'lishi shart.

2. O'lhash asboblari va relaelarning tok zanjirlarini uzish zarurati tug'ilsa, o'lhash tok transformatorlarining ikkilamchi chulg'amlari avval bunga maxsus mo'ljallangan qisqichlar bilan qisqa tutashtirilgan bo'lishi shart.

3. Tok transformatorlari va ularning maxsus qisqa tutashtiruvchilarini uzilishiga olib keluvchi ishlarni bajarish taqiqlanadi.

4. Kuchlanish transformatorlarining zanjirlariga qo'shimcha manbadan kuchlanish berilayotganda, kuchlanishi yuqori va quyi tomonlaridagi uchta saqlagich olib tashlangan hamda ikkilamchi chulg'amlardan avtomatlar ajratilgan bo'lishi shart.

5. Ko'chma asboblar va tok o'lchovchi ombur (kleshchi)lar bilan o'lhash ishlari ikki kishi tomonidan bajarilishi kerak bo'lib, ulardan bittasining kvalifikatsiyasi IV guruhdan kichik bo'lmasligi lozim. Qo'llaniladigan o'lhash omburlarining ampermetrlari ishchi joyiga o'rnatilgan bo'lishi kerak, boshqa ampermetrlarni qo'llash taqiqlanadi. O'lhash tik oyoqda, egilmasdan, omburni ushlab turgan holda olib

boriladi, bunda dielektrik qo‘lqoplar, ko‘zoynak va rezina poyandozdan foydalaniladi. O‘lchayotganda asbob qarshiliklari va ularning simlariga tegish taqiqlanadi.

6. Kuchlanishi 1000 V gacha bo‘lgan shinalar toki maxsus belgilangan joylarda turib, tok omburlari bilan o‘lchanadi.

7. Yer tutashtirgichlari bo‘lgan havo liniyalarining tayanchlarida turib har qanday o‘lhash ishlarini bajarish qat’iyan man qilinadi.


### **Nazorat sinov savollari**

1. Shunt qarshiligi nima maqsadda ishlatiladi?
2. Shuntlash koeffitsienti nima?
3. Qo‘sishimcha qarshilik qiymati qanday hisoblanadi?
4. O‘lhash tranformatorlari nima maqsadda ishlatiladi?
5. Nominal transformasiyalash koeffisienti deb nimaga aytildi?
6. O‘lhash transformatorlarining qanday xatoliklari bor?
7. O‘lhash tok transformatorlarining normal ish rejimi deganda nimani tushunasiz?
- 8.O‘lhash transformatorlarining burchak xatoligi nimaga bog\_liq?

## **2-BOB. ELEKTR KATTALIKLARNI O'LCHOVCHI ASBOBLAR**

### **2.1. ANALOGLI ELEKTR O'LCHASH ASBOBLARI.**

Analogli o'lhash asboblari yoki bevosita ko'rsatuvchi asboblar elektr o'lhashlarda, umuman o'lhash texnikasida keng o'rinni olgan asboblardan hisoblanadi. Bu turdagilarda ko'rsatuv qaydnomasi uzluksiz (funksional) ravishda o'lchanayotgan kattalik bilan bog'liqlikda bo'ladi. Bevosita ko'rsatuvchi asboblarning soddalashtirilgan struktura sxemasi 17- rasmda ko'rsatilgan bo'lib, ularda o'lchanadigan kattalik yoki asbob kirishiga berilgan signal  $X$  to'g'ri yo'nalishda chiqish signaliga yoki mexanizm qo'zg'aluvchan qismining burlish burchagi  $\alpha$  ga o'zgartiriladi.



17-rasm. Analogli o'lhash asbobining struktura sxemasi.

Bevosita ko'rsatuvchi elektr o'lhash asboblari (xususan elektromexanik turidagi asboblar) ikki qismdan, ya'ni o'lhash zanjiri va o'lhash mexanizmidan iborat deb qarash mumkin.

**O'lhash zanjiri** o'lchanadigan elektr kattalikni (kuchlanish, quvvat, chastota va h.k) unga proporsional bo'lgan va o'lhash mexanizmiga ta'sir etuvchi kattalikka o'zgartirib beradi.

**O'lhash mexanizmi** unga beriladigan elektr energiyasini qo'zg'aluvchan qism va u bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkich harakatining mexanik energiyasiga aylantirib beradi. Elektromexanik o'lhash mexanizmlarining qo'zg'aluvchan qismini harakatlanishi elektromagnit energiyasining o'zgarishiga bog'liq.

Quyidagi jadvalda hozirda ishlatalib kelinayotgan va chiqarilayotgan o'lhash asboblarining guruhlari keltirilgan. Odatda, o'lhash asboblarining nomida ushbu guruh va modifikatsiya tartib raqamlari berilgan bo'ladi:


1-jadval

<b>Guruuh</b>	<b>Guruuh nomi</b>	<b>Kichik guruuh</b>	<b>Kichik guruuh nomi</b>
V	Kuchlanishni o'lhash asboblari	V1 V2 V3 V4 V7	Voltmetrlarni qiyoslash qurilmalari O'zgarmas tok voltmetrlari O'zgaruvchan tok voltmetrlari Impulsli voltmetrlar Universal voltmetrlar
E	Zanjir va uning elementlarining parametrlarini o'lhash asboblari	E1 E2 E3 E7 E8 CH1	Qiyoslash qurilmasi Aktiv qarshilik o'lchovlari Induktivlik o'lchovlari Induktivlik asboblari Sig'imni o'lhash asboblari Qiyoslash qurilmasi
CH	CHastotani o'lhash asboblari	CH2 CH3 CH5	Rezonans chastotomerlar Elektron hisoblash chastotomerlari Kvarsli chastotomerlar
S	Signal va spektrni o'lhash asboblari	S1 S2 S4	Elektron nurli ossillograflar Modulyatsiya chuqurligi asboblari Spektr analizatorlari

### **Elektromexanik turidagi analogli asboblar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar**

O'lhash asbobi deb, o'lhash uchun qo'llaniladigan va me'yorlangan metrologik xossalarga ega bo'lgan texnik vositaga aytildi. Analogli o'lhash asboblari yoki bevosita ko'rsatuvchi asboblar elektr o'lhashlar va umuman o'lhash texnikasida keng

o‘rin olgan asboblardan hisoblanadi. Bu turdagи asboblarda ko‘rsatuv qaydnomasi uzluksiz (funksional) ravishda o‘lchanayotgan kattalik bilan bog‘liqlikda bo‘ladi. Bu turdagи asboblarning struktura sxemasi 18-rasmda ko‘rsatilgan.



18- rasm. Analogli o'lchan asbobining struktura sxemasi

Bevosita ko‘rsatuvchi elektr o'lchan asboblari, (xususan elektromexanik asboblari) ikki asosiy qismdan, ya’ni o'lchan zanjiri va o'lchan mexanizmidan iborat deb qarash mumkin.

**O'lchan zanjiri** o'lchanadigan elektr kattalikni (kuchlanish, quvvat, chastota va xokazoni) unga proporsional bo‘lgan va o'lchan mexanizmiga ta’sir qiluvchi kattalikka o‘zgartirib beradi.

**O'lchan mexanizmi** unga beriladigan elektr energiyasini qo‘zg‘aluvchan qicm va u bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkich harakatining mexanik energiyasiga aylantirib beradi. Elektromexanik o'lchan mexanizmlari magnitoelektrik, elektromagnit, elektrodinamik, induksion va elektrostatik mexanizmlardan iborat bo‘ladi.

O'lchan asboblari qaysi tizimga taaluqli mexanizmdan iborat bo‘lishidan qat’iy nazar, asbob qo‘zg‘aluvchan qismining xarakatlanishi elektromagnit maydon energiyasining o‘zgarishiga bog‘liq.

O'lchanadigan kattalik ta’siri ostida hosil bo‘lib, asbob ko‘rsatkichini ko‘payish tomoniga og‘diruvchi moment aylantiruvchi moment deyilib, u umumiy holda quyidagicha ifodalanadi:

$$M = dW_e / d\alpha, \quad (1)$$

bu yerda  $W_e$  - elektromagnit maydon energiyasi,  $\alpha$  - asbob qo‘zg‘aluvchan qismining burilish burchagi.

Yuqoridagi ifodani (1) boshqacha ko‘rinishda yozish mumkin:

$$M = F(X_1 \alpha),$$


ya’ni aylantiruvchi momentni o'lchanadigan kattalik va asbob qo‘zg‘aluvchan qismining burilish burchagi funksiyasi deb qarash mumkin. O'lchan asbobining qo‘zg‘aluvchan qismiga aylantiruvchi momentdan tashqari aks (teskari) ta’sir etuvchi moment ham ta’sir

etishi lozim. Aks ta'sir etuvchi moment bo'lmaganda edi, asbobning strelkasi shkalasidan chetga chiqib ketgan bo'lar edi. Aks ta'sir etuvchi moment aylantiruvchi momentga qarama-qarshi yo'nalgan bo'lib, qo'zg'aluvchan qisminiig burilish burchagi kattalashishi bilan ortishi lozim. Aks ta'sir etuvchi moment  $M_\alpha$  aylantiruvchi momentga tenglashguncha ( $M=M_\alpha$ ) qo'zg'aluvchan qism aylantiruvchi moment tasiridan buriladi. Ko'p elektr o'lchash asboblarida aks ta'sir etuvchi moment tortqi, prujina va osmalarning buralishi bilan hosil qilinadi. Bunday qurilmada aks ta'sir etuvchi moment qo'zg'aluvchan qismning burilish burchagiga to'g'ri proporsional bo'ladi, ya'ni  $M_\alpha = W \cdot \alpha$ , bu yerda  $W$  tortqi yoki prujinaning materiali va uning o'lchamlariga bog'liq bo'lgan o'zgarmas kattalik, bu  $\alpha$  burchagini birligiga ( $1^\circ$  yoki 1 radianga) mos keluvchi moment bo'lib, solishtirma aks ta'sir etuvchi moment deb ataladi.

Asbob qo'zg'aluvchan qismining turg'un burilish holati aylantiruvchi va aks ta'sir etuvchi momentlarning tengligidan topiladi  $M=M_\alpha$  va u umumiy holda quyidagicha ifodalanadi:

$$\alpha = \frac{I}{W} \cdot F(X, \alpha) \quad (2)$$

bu holatni 19-rasmida ko'rsatilgan grafikdan ham kuzatish mumkin.



### 19- rasm

Asbob dinamik rejimda ishlaganida, boshqacha aytganda asbob ko'rsatkichi (surilishida) joyidan qo'zg'alayotganida, yuqorida aytilgan aylantiruvchi va aks ta'sir etuvchi momentlardan tashqari boshqa momentlar ham hosil bo'ladi. Bu momentlar qo'zg'aluvchan qismning inersiya momentidan, tashqi muhit qarshiligidan va metall elementlari bo'lgan holda hosil bo'ladigan uyurma tok va hokazolardan vujudga keladi.

Asbob qo‘zg‘aluvchan qismining harakatlanganida vujudga keladigan va uning harakatini tinchlantirishga intiluvchi moment - tinchlantiruvchi moment deyiladi.

$$M_T = R(d\alpha/dt) \quad (3)$$

Bu moment tinchlantirish koeffitsienti  $R$  ga va qo‘zg‘aluvchan qismning burchakli tezligiga  $d\alpha/dt$  proporsionaldir. Tinchlantiruvchi moment ma’lum darajada asbobning muhim ekspluatatsion parametrlaridan biri - tinchlanish vaqtini belgilaydi.

### **Elektromexanik turidagi o‘lchash asboblarining turlari, metrologik tavsiflari**

Elektromexanik turdagi asboblar magnitoelektrik, elektromagnit, elektrodinamik, ferrodinamik, elektrostatik va induksion tizimli asboblarga bo‘linadi. Bu tizimdagи asboblar nisbatan keng tarqalgan bo‘lib, quyidagi 2-jadvalda ularning tavsiflari keltirilgan.

**2-jadval.**

Asbob tizimi	SHartli belgisi		Tok turi	CHastota diapazoni	Aylantiruvchi moment tenglamasi	SHkala tenglamasi	Aniqlik klasslari	Vazifikasi
	$M_\alpha$	$M_{\alpha el}$						
ME			—	0	$BswI$	$KX$	,1;0,2;0,5	A, V, Ω, G
			—	0	$BswI$	$KX$	-/-	-/-
EM			$\approx$	kHz	$\frac{1}{2} I^2 \frac{dL}{d\alpha}$	$KX^2$	,5;1;1,5	A, V, Hz, φ
ED			$\approx$	ir necha o‘n kHz larda	$I_1 I_2 \frac{dM_{1,2}}{d\alpha}$	$KX_1 X_2$	,05;0,1;0,2	A, V, W, Hz, φ


FD			$\approx$	- // -	$KI_1 I_2$	$KX_1 X_2$	,5;1;1,5	-//-
ES			$\approx$	MHz	$\frac{1}{2} U^2 \frac{dC}{d\alpha}$	$KX^2$	,5;1;1,5	V
I			$\sim$	50 Hz	$c f \Phi_1 \Phi_2 \sin \psi$	$KN$	,1;1,5;2	W, Wh

### Nazorat sinov savollari

1. Analogli deb qanday asboblarga aytildi?
2. O'lhash zanjiri, o'lhash mexanizmining funksiyasi nimadan iborat?
3. O'lhash mexanizmining qo'zg'aluvchan qismiga qanday momentlar ta'sir etadi? Ularning umumiyligi holdagi ifodasini yozib tushuntiring?
4. Elektromexanik o'lhash mexanizmining ish prinsipi nimaga asoslanadi?
5. Elektromexanik o'lhash mexanizmlarining qo'zg aluvchan qismini harakatlanish tenglamasini yozib tushuntiring?

## 2.2. ELEKTROMEXANIK TURDAGI ASBOBLARNING ISHLANISHI, XUSUSIYATLARI VA UALAR YORDAMIDA ELEKTR KATTALIKLARINI O'LHASH

### Magnitoelektrik o'lhash asboblari



20-rasm. Magnitoelektrik o'lhash asbobi.

Magnitoelektrik o'lhash asbobi 1-doimiy magnit; 2-magnit qutb uchliklari; 3-o'zak; 4-chulg'am (qo'zg'aluvchan ramka); 5, 6-o'q; 7, 8-spiralsimon prujinalar; 9-strelka; 10-posongilardan tuzilgan. (20-rasm).

Ramkadan o'tayotgan tok bilan doimiy magnit maydonining o'zaro ta'sirida ramkani harakatga keltiruvchi juft kuch  $F=BIlw$  hosil bo'ladi. Ifodadagi  $V$ -qutb uchliklari va silindrsimon o'zak oralig'idagi magnit induksiyasi;  $w$ -ramkaning o'ramlar soni;  $I$ - magnit maydonida joylashgan ramka faol qismining uzunligi;  $I$ -ramkadan o'tadigan tok. Bu kuchlarning yo'nalishi chap qo'l qoidasiga binoan topiladi va ular hosil qilgan aylantiruvchi moment quyidagicha ifodalananadi:

$$M = 2F \frac{b}{2} = Fb = BIbw = BswI, \quad (4)$$

bu yerda  $b$ -ramkaning kengligi;  $s$ -ramkaning yuzasi.

Aylantiruvchi moment ta'sirida ramka o'q atrofida aylanganida spiral prujinalar buralib teskari ta'sir etuvchi moment  $M_\alpha$  –hosil qiladi.

$$M_\alpha = -W \cdot \alpha, \quad (5)$$

bu yerda  $W$ -solishtirma teskari ta'sir etuvchi moment bo'lib, spiral prujinaning materiali va o'lchamlariga bog'liq;  $\alpha$  - ramkaning burilish burchagi (asbob ko'rsatkichining shkala bo'ylab surilishini ko'rsatadigan burchak yoki bo'laklar soni.)

Ramkaga ta'sir etayotgan ikki moment (aylantiruvchi va teskari ta'sir etuvchi) o'zaro tenglashganda ( $M=M_\alpha$ ) ramka harakatdan to'xtab, muvozanat holatida bo'ladi (yoki bu holatni asbob qo'zg'aluvchan qismining turg'un muvozanat holati deyilali)

$$BswI = W\alpha, \quad (6)$$

bundan

$$\alpha = \frac{Bsw}{W} I \quad (7)$$

Oxirgi ifoda magnitoelektrik o'lhash asboblarining shkala tenglamasi deb ataladi. Agar magnit induksiyasi  $B$  ni, ramkaning yuzasi  $S$  ni, uning o'ramlar soni  $w$  va solishtirma teskari ta'sir etuvchi moment  $W$  larning o'zgarmasligini hisobga olib,  $Bsw/W=S_I$  desak, u holda  $S_I$  ni o'lhash mexanizmini tok bo'yicha sezgirligi deyiladi, ya'ni  $S_I=\text{const.}$

Shuni hisobga olib, (6.7) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$\alpha = S_I I, \quad (8)$$

ya'ni ramkaning burilish burchagi α o'lchanadigan tokning qiymatiga to'g'ri proporsional, bundan chiqadiki, tokning yo'nalishi o'zgarsa, α ning ham yo'nalishi o'zgaradi. Shu sababli magnitoelektrik o'lhash asboblari o'zgarmas tok zanjirida ishlatiladi va ularning shkalasi bir tekis darajalanadi.

Magnitoelektrik o'lhash mexanizmlari ampermetr, voltmetr, ommetr va galvanometrlar sifatida ishlatiladi.


### Afzalliklari:

- shkalasi to'g'ri chiziqli;
- sezgirligi yuqori;
- o'lhash xatoligi kichik.

### Kamchiliklari:

- faqat o'zgarmas tok zanjirlaridagina ishlay oladi;
- bevosita katta qiymatdagi toklarni o'lchay olmaydi;
- tannarxi baland.

## Elektromagnit tizimli o'lhash asboblari



### 21-rasm. Elektromagnit o'lhash asbobi

Elektromagnit o'lhash mexanizmi 1 - qo'zg'almas elektromagnit g'altagi; 2- o'zak; 3- spiralsimon prujina; 4-tinchlanirgichdan iborat.

**Elektromagnit o'lhash mexanizmlari** yassi (21-a rasm) va dumaloq (21-b rasm) g'altakli qilib tayyorланади. Bu g'altaklar

qo‘zg‘almas bo‘lib, ulardan o‘lchanuvchi tok o‘tadi. Bunda hosil bo‘lgan magnit maydoni qo‘zg‘aluvchan ikki o‘zakka ta’sir etishi oqibatida (*21-b rasm*) bu o‘zak g‘altak ichiga tortiladi. Natijada o‘q aylanib ko‘rsatkichni biror burchakka buradi. *21-b* rasmda ko‘rsatilgan mexanizmda qo‘zg‘almas va qo‘zg‘aluvchan o‘zaklar bir xilda magnitlanadi. Natijada qo‘zg‘aluvchan o‘zak qo‘zg‘almas o‘zakdan itarilib o‘qni aylantiradi.

Umuman aylantiruvchi moment  $M$  magnit maydoni energiyasidan qo‘zg‘aluvchan qismning burilish burchagi bo‘yicha olingan hosilasiga teng:

$$M = dW_e/d\alpha.$$

Ferromagnit o‘zakli g‘altak magnit maydonining energiyasi:

$$W_e = \frac{1}{2} \cdot L I^2,$$

bu yerda  $L$  g‘altak induktivligi, u o‘zakning holatiga va g‘altakning o‘lchamlariga bog‘liq.

$I$  – g‘altakdan o‘tayotgan doimiy tok.

Qo‘zg‘aluvchan qism muvozanat holatida bo‘lganda:

$$M = M_\alpha \text{ yoki } \frac{1}{2} \cdot L I^2 = W \alpha, \quad (9)$$

bundan

$$\alpha = \frac{1}{2W} \cdot I^2 \frac{dL}{d\alpha} \quad (10)$$

(10) ifoda elektromagnit o‘lhash mexanizmlarining shkala tenglamasi deb ataladi. Burilish burchagi  $\alpha$  o‘lchanayotgan tokning kvadratiga to‘g‘ri proporsional. G‘altakdan o‘zgaruvchan tok o‘tganda ham  $\alpha$  uchun bir xil (10) ifodaga ega bo‘lamiz. Bu holda (9) ifodadagi  $I$  – tokning effektiv qiymatidir, shu sababli elektromagnit o‘lhash asboblari o‘zgaruvchan va o‘zgarmas tok zanjirlarida qo‘llanilishi mumkin. Ularning shkalasi notekis bo‘lib, kvadratik xarakterga ega va bunday shkalaning boshlang‘ich qismidan foydalanish ancha noqulay.

Elektromagnit o‘lhash mexanizmlari ampermestr, voltmetr sifatida va logometrik mexanizmi prinsipida yasalganda esa fazometr, faradometr va chatotomerlar sifatida ishlatiladi.


### Afzalliklari:

- ham o‘zgaruvchan, ham o‘zgarmas tok zanjirlarida ishlatiladi;
- bevosita katta qiymatdagi toklarni ham o‘lhashi mumkin;
- konstruksiysi nisbatan sodda.

### Kamchiliklari:

- shkalasi notekis (kvadratik) darajalanadi;
- o'lchash xatoligi biroz katta (magnitoelektrikka nisbatan);
- sezgirligi yuqori emas.

### Elektrodinamik o'lchash asboblari



**22-rasm. Elektrodinamik o'lchash asbobi**

Elektrodinamik o'lchash asbobi 1, 1'-qo'zg'almas g'altaklar; 2- qo'zg'aluvchan g'altakdan iborat.

Ikkita bir xil 1 va 1<sup>1</sup> qo'zg'almas g'altaklardan, qo'zg'aluvchan 2 g'altakdan o'zgarmas toklar  $I_1$ ,  $I_2$  o'ttganda har bir o'ram atrofida magnit maydoni hosil bo'ladi (22-rasm).  $I_1$ ,  $I_2$  toklar hosil qilgan magnit maydonlarining o'zaro ta'sirida aylantiruvchi moment  $M$  hosil bo'ladi. Tokli qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan g'altaklarning elektromagnit maydon energiyasi quyidagiga teng

$$W_e = \frac{1}{2} L_1 I_1^2 + \frac{1}{2} L_2 I_2^2 \pm I_1 I_2 M_{12}, \quad (11).$$

bu yerda

$L_1$ - qo'zg'almas g'altakning induktivligi;

$L_2$  - qo'zg'aluvchan g'altak induktivligi bo'lib, ular g'altaklarning o'zaro holatiga bog'liq emas;

$M_{12}$  – o'zaro induktivlik koeffitsienti bo'lib, uning qiymati qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan g'altak o'qlari o'rtasidagi burchakka bog'liq.

$W_e$  qiymatini (1) ifodaga qo'yib aylantiruvchi moment ifodasini yozamiz.

$$M = I_1 I_2 \frac{dM_{12}}{d\alpha} \quad (12)$$

Aylantiruvchi va teskari ta'sir etuvchi momentlar o'zaro teng bo'lganlarida asbob qo'zg'aluvchan qismi uchun turg'un muvozanat holati vujudga keladi.

$$I_1 I_2 \frac{dM_{12}}{d\alpha} = W\alpha, \quad (13)$$

bundan

$$\alpha = \frac{1}{W} I_1 I_2 \frac{dM_{12}}{d\alpha} \quad (14)$$

(14) ifoda elektrodinamik o'lchash mexanizmlarining shkala tenglamasi deb ataladi. Toklar o'zgaruvchan bo'lsa quyidagi ifodaga ega bo'lamiz:

$$\alpha = \frac{1}{W} I_1 I_2 \cos \varphi \frac{dM_{12}}{d\alpha}, \quad (15)$$

bu yerda  $\varphi = I_1$  va  $I_2$  toklar o'rta sidagi faza siljish burchagi.  $I_1$  va  $I_2$  toklarning effektiv qiymati. Qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan g'altaklar ketma-ket ulanganda (15) ifoda quyidagicha yoziladi:

$$\alpha = \frac{1}{W} I^2 \cos \varphi \frac{dM_{12}}{d\alpha} \quad (16)$$

Bunday asboblarning shkalasi notejis (kvadratik) xarakterga ega bo'ladi. Elektrodinamik o'lchash mexanizmlari ampermetr va voltmetrlar sifatida kam ishlataladi. Ular asosan quvvatni o'lchash uchun vattmetr sifatida va logometrik mexanizmi prinsipida yasalganida esa fazometr va chastotomer sifatida ishlataladi.

### **Afzalliklari:**

- ham o'zgaruvchan, ham o'zgarmas tok zanjirlarida ishlataladi;
- yuqori darajadagi aniqlikka ega;
- elektr quvvati sarfini hisoblashda qo'llanilishi mumkin;
- bir vaqtning o'zida ikkita kattalikni tekshirish mumkin.


### **Kamchiliklari:**

- xususiy energiya sarfi katta;
- tashqi temperaturaga bog'liqligi kuchli;
- katta qiymatlarni bevosita o'lchay olmaydi.


## Elektrostatik o'lchash asboblari

Elektrostatik o'lchash mexanizmlari qo'zg'aluvchan va qo'zg'almas (plastinka) o'tkazgichlardan iborat bo'lib, ularda aylantiruvchi moment zaryadlangan ikki sistema plastinkalarining, o'tkazgichlarning o'zaro ta'sirlashuvidan hosil bo'ladi. Elektrostatik o'lchash mexanizmlarida qo'zg'aluvchan qismning harakatga kelishi (burilishi) sig'imning o'zgarishiga ya'ni plastinkalarning aktiv yuzasi yoki ular orasidagi masofani o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bu sistema asboblari faqat kuchlanishni o'lchashda ya'ni voltmetr sifatida ishlataladi.

Birinchi turdag'i elektrostatik o'lchash mexanizmlari asosan 10 va 100 voltlardagi kuchlanishlarni o'lchashda ishlataladi, ikkinchi turidagi esa yuqori, ya'ni kilovoltlardagi kuchlanishlarni o'lchashda ishlataladi.



**23-rasm.**



**24-rasm.**

23-rasmda elektrodlarning aktiv yuzasini o'zgarishiga bog'liq bo'lgan mexanizm ko'rsatilgan. Unda 1-bitta yoki bir nechta kameradan iborat bo'lib, har qaysi kamera bir-biridan ma'lum masofada joylashgan ikkita metall plastinkadan iborat bo'ladi. Agar qo'zg'aluvchan va qo'zg'almas plastinkalarga o'lchanadigan kuchlanish berilsa, ular teskari ishorada zaryadlanadi va natijada qo'zg'aluvchan plastinka elektrostatik tortish kuchi ta'sirida kamera ichiga tortiladi.

O'q (3) ga mahkamlangan qo'zg'aluvchan plastinkaning qo'zg'alishi (burilishi), teskari (aks ta'sir etuvchi) moment hosil qiluvchi spiral prujinani (yoki tortqini) buralishiga olib keladi. Aylantiruvchi va aks ta'sir etuvchi momentlar tenglashganda qo'zg'aluvchan qism harakatdan to'xtaydi va asbob shkalasining

ko'rsatkichi bo'yicha o'lchanadigan kuchlanish aniqlanadi. Elektrostatik o'lhash mexanizmining ikkinchi turi (elektrodlar orasidagi masofani o'zgarishiga bog'liq) 24-rasmda ko'rsatilgan bo'lib, ikkita qo'zg'almas plastinka (elektrod) lardan 1, yupqa metall lentasiga osib qo'yilgan qo'zg'aluvchan 2 plastinkadan iboratdir. Qo'zg'aluvchan elektron qo'zg'almas plastinkalarning biriga ulangan bo'lib, boshqasidan izolyatsiyalangan bo'ladi. Elektrodlar orasida potensiallar farqi hosil bo'lishi qo'zg'aluvchan plastinka qo'zg'almas plastinkadan itarilib teskari ishora bilan zaryadlangan plastinkaga tortiladi.

Plastinka burilishining yo'nalishi kuchlanishning ishorasiga bog'liq emas. Qo'zg'aluvchan plastinkaning harakatga kelishi qo'zg'aluvchan o'q 6 ni va nihoyat asbob ko'rsatkichi 5 ning shkala bo'ylab surilishiga olib keladi. Bunday mexanizmlarda aks ta'sir etuvchi moment qo'zg'aluvchan plastinkaning og'irligidan hosil bo'ladi.

Elektrostatik o'lhash mexanizmlarining qo'zg'aluvchan qismini og'ish burchagi quyidagilarga asoslanib topiladi.

Zaryadlangan jismlar sistemasini elektr maydoni energiyasi

$$W_e = CU^2/2, \quad (17)$$

bu yerda  $S$  – zaryadlangan jism sig'imi;  $U$  – ularga qo'yilgan kuchlanish

Aylantiruvchi moment ifodasini (8.17) asosan quyidagicha yozish mumkin

$$M = \frac{dW_e}{d\alpha} = \frac{1}{2} U^2 \frac{dc}{d\alpha} \quad (18)$$

Aks ta'sir etuvchi moment elastik element yordamida hosil bo'lishini hisobga olsak, turg'un burilish holati quyidagicha ifodalananadi.

$$\frac{1}{2} U^2 \frac{dC}{d\alpha} = W\alpha, \quad (19)$$

bundan

$$\alpha = \frac{1}{2W} U^2 \frac{dc}{d\alpha} \quad (20)$$

Ifodadan ko‘rinib turibdiki, elektrostatik voltmetrlar ham o‘zgarmas ham o‘zgaruvchan tok zanjirlarida qo‘llanilishi mumkin, chunki kuchlanish  $U$  ni qutbi o‘zgarishi bilan qo‘zg‘aluvchan qismini burilish yo‘nalishi o‘zgarmaydi.

Agar ifodadagi (20)  $dC/d\alpha=const$  bo‘lsa, elektrostatik voltmetrni shkalasi kvadratik xarakterda bo‘ladi(darajalanadi). Elektrostatik asbobini shkalasini bir tekis darajalashga qo‘zg‘aluvchan va qo‘zg‘almas plastinkalarni formasini tanlab olish bilan yoki sig‘imni qo‘zg‘aluvchan qismini og‘ish burchagi bo‘yicha ma’lum qonuniyat bo‘yicha o‘zgarishini ta’minalash bilan erishish mumkin. Bu usul amalda asbob shkalasini 15-20 % dan yuqori qismida bir tekis darajalanishiga imkon beradi.

Elektrostatik asboblarini ko‘rsatishiga o‘lchanadigan kuchlanish chastotasi, atrof-muhit temperaturasining o‘zgarishi va tashqi maydonlar deyarli ta’sir etmaydi. Bunga qarama-qarshi o‘laroq tashqi elektr maydonining ta’siri sezilarli darajada bo‘ladi. Elektrostatik asboblarining xususiy energiya sarfi juda kam: masalan, o‘zgarmas tokda u deyarli nolga teng.

Elektrostatik voltmetrlar kam quvvatli zanjirlarda juda keng, hattoki 30 MHz gacha bo‘lgan chastota diapazonida kuchlanish o‘lchashda ishlatiladi. Aniqligi bo‘yicha elektrostatik voltmetrlar ko‘pincha 1,0-1,5 klasslariga mo‘ljallab ishlanadi. Maxsus ishlangan aniqligi 0,1;0,05 bo‘lgan voltmetrlar ham mavjud.

Tashqi elektr maydon ta’sirini kamaytirish maqsadida elektrostatik ekran ishlatiladi.


### **Induksion tizimli o‘lchash asboblari**

Induksion o‘lchash mexanizmlari bir yoki bir nechta qo‘zg‘almas elektromagnitdan va qo‘zg‘aluvchan qismi alyumindan ishlangan diskdan iborat bo‘ladi. 25-rasmda ikki oqimli induksion mexanizm ko‘rsatilgan.

Disk yuzasiga perpendikulyar yo‘nalgan o‘zgaruvchan magnit oqimlar uni kesib o‘tishi natijasida uyurma toklar induktivlaydi. O‘zgaruvchan magnit oqimlari diskdagи induktivlangan toklar bilan o‘zaro ta’siridan qo‘zg‘aluvchan qismi aylanadi.

Induksion mexanizmlar qo‘zg‘aluvchan qismini kesib o‘tuvchi oqimlar soni bo‘yicha bir oqimli va ko‘p oqimli mexanizmlarga bo‘linadi.

O'lchash texnikasida ko'proq ko'p oqimli mexanizmlar ishlataladi. Elektromagnit 1 va 2 cho'lg'amlaridan o'tadigan  $I_1$  va  $I_2$  toklar elektromagnit o'zaklari bo'ylab yo'nalgan  $F_1$  va  $F_2$  oqimlarini hosil qiladi.  $F_1$  va  $F_2$  oqimlar diskni kesib o'tishi natijasida  $Y_{e1}$  va  $Y_{e2}$  - EYuK larini induktivlaydi.



25-rasm.

O'zgaruvchan magnit oqimi  $F_1$  va shu oqim diskni kesib o'tishi natijasida induktivlangan uyurma tokni o'zaro ta'siridan hosil bo'lgan aylantiruvchi momentning oniy qiymati quyidagicha ifodalanadi:

$$M_t = c\Phi_1 i_{12}, \quad (21)$$

bu yerda,  $s$  – proporsionallik koeffitsienti. Induksion mexanizmning qo'zg'aluvchan qismi aylantiruvchi momentning o'rtacha qiymati ta'siridangina xarakatga keladi, ya'ni

$$M_{yp} = \frac{1}{T} \int_0^T M_t dt = \frac{1}{T} c\Phi_{1m} I_{12m} \int_0^T \sin \omega t \cdot \sin(\omega t - \varphi) dt = c\Phi_1 I_{1,2} \cos \varphi. \quad (22)$$

Ikki oqimli induksion mexanizmlarning ko'zg'aluvchan qismi  $F_1$  va  $F_2$  oqimlaridan hosil bo'luvchi ikkita momentlarning summasi ta'sirida aylanadi va u quyidagicha ifodalanadi:

$$M = cf\Phi_1\Phi_2 \sin \psi, \quad (23)$$

bu yerda  $s$  - proporsionallik koeffitsienti,  $f$  – oqimlarning o'zgarish chastotasi;  $F_1$ ,  $F_2$  - o'zgaruvchan magnit oqimlar;  $\varphi$  -  $F_1$  va  $F_2$  oqimlar orasidagi faza farqi.

Yuqorida keltirilgan (23) ifoda ikki va ko'p oqimli induksion o'lchash mexanizmlari uchun umumiylaydi aylantiruvchi moment ifodasi hisoblanadi.

Induksion mexanizmlarda aylantiruvchi moment hosil bo‘lishi uchun kamida ikkita yoki ikki tashkil etuvchidan iborat bitta, faza jahatidan bir-biridan farq qiluvchi va bir-biriga nisbatan uzoqroq joylashgan o‘zgaruvchan magnit oqimlari bo‘lishi kerak.

O‘zgaruvchan magnit oqimlar orasidagi faza farqi  $90^0$  ga teng bo‘lganida aylantiruvchi moment o‘zining maksimal qiymatiga yetadi.

Aylantiruvchi moment o‘zgaruvchan tok chastotasiga bog‘liqdir.

Induksion tizimli o‘lchash mexanizmlari asosan quvvat o‘lchashda - vattmetr, elektr energiyasini hisoblashda – hisoblagich (schyotchik) sifatida ishlataladi.


### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Turli tizimda ishlaydigan analog o‘lchash asboblarining afzallik va kamchilik tomonlarini tushuntirib bering.
2. Elektr zanjiridagi tok kuchining qiymati 50 A. Uni o‘lchash uchun qanday asboddan foydalanish mumkin?
3. O‘lchash asbobining sezgirligi deganda nimani tushunasiz?

## **2.3. TO‘G‘RILAGICHLI ASBOBLAR. TO‘G‘RILAGICHLI ASBOBLAR TO‘G‘RISIDA UMUMIY MALUMOTLAR.**

### **Elektron to‘g‘rilagichlar va stabilizatorlar haqida umumiy tushuncha**

Ko‘pchilik zamonaviy qurilmalar uchun o‘zgarmas tok energiyasi zarur. Galvanik elementlar, akkumulyatorlar, o‘zgarmas tok generatorlari, termoelektrogeneratorlar va to‘g‘rilagichlar o‘zgarmas tok manbai bo‘lib hisoblanadi. O‘zgaruvchan tok energiyasini o‘zgarmas tok energiyasiga aylantirib beruvchi qurilma *to‘g‘rilagich* deb ataladi. To‘g‘rilagichlar boshqa o‘zgarmas tok manbalari bilan solishtirilganda jiddiy ustunlikka ega: tuzilishi sodda va ishonchli, FIK yuqori, uzoq muddatgacha ishlaydi. To‘g‘rilagichning tuzilish sxemasi 26-rasmda keltirilgan.



26-rasm. *To‘g‘rilagichning tuzilish sxemasi*

Transformator-1 talab etilgan qiymatdagi o'zgaruvchan tok kuchlanishini hosil qilish uchun ishlatiladi. To'g'rilaqich 2 yordamida o'zgaruvchan tok kuchlanishini pulsatsiyalanuvchi tok kuchlanishiga aylantiriladi. Filtr 3 to'g'rilaqichdan chiqqan pulsatsiyalangan tok kuchlanishini sillqlash uchun mo'ljallangan. Ayrim hollarda tuzilish sxemasida keltirilgan ba'zi qismlar uchramasligi mumkin, asosiy elementlar bundan mustasno. Masalan, to'g'rilaqich tok tarmog'iga transformatorsiz ulanishi yoki to'g'rilaqich filtrsiz ishlatilishi mumkin. Ko'pincha to'g'rilaqich tarkibiga kuchlanish yoki tok stabilizatori kiradi. Elektr qurilmalar ko'p hollarda o'zgaruvchan tokning bir fazali tarmog'ida ishlovchi kichik quvvatli to'g'rilaqichlar yordamida energiya bilan ta'minlanadi. Ular bir fazali to'g'rilaqichlar deb ataladi va ular quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) bir yarim davrli (ularda o'zgaruvchan tok kuchlanishning bir yarim davri davomida ventil orqali o'tadi);
- b) ikki yarim davrli (ularda o'zgaruvchan tokning ikkala yarim davri ventil orqali o'tadi);
- v) kuchlanishni ko'paytiruvchi sxemali to'g'rilaqich.


Katta quvvatga ega bo'lgan sanoat qurilmalarini ta'minlash uchun uch fazali tarmoqda ishlaydigan o'rtacha va katta quvvatli to'g'rilaqichlardan foydalaniladi. Zamonaviy to'g'rilaqichlarda ventil sifatida yarimo'tkazgichli diodlar ishlatiladi.

Elektron qurilmalarda biror qiymatli o'zgarmas tok kuchlanishini boshqa qiymatli o'zgarmas tok kuchlanishiga yoki biror qiymatli o'zgarmas tok kuchlanishini boshqa qiymatli o'zgaruvchan tok qiymatiga aylantirishda kuchlanish o'zgartirgichlardan foydalaniladi.

## To'g'rilaqichlar

**Bir yarim davrli to'g'rilaqichlar.** Aktiv yuklamali bir yarim davrli to'g'rilaqichlar sxemasi (27-rasm) ma'lum bo'lgan to'g'rilaqichlaridan eng soddasi hisoblanadi. Tahlilni soddalashtirish maqsadida diod va transformatorni ideal deb hisoblaymiz, ya'ni diodning to'g'ri yo'nalishdagi qarshiligi nolga teng, teskari yo'nalishdagisi esa cheksiz, transformator cho'lg'amlarining aktiv va reaktiv qarshiliklarini nolga teng deb hisoblaymiz. Kuchlanishning birinchi yarim davri davomida transformatorning ikkilamchi cho'lg'amining yuqori qismi musbat past qismi esa manfiy ishoraga

ega bo'lsin. Shunda diod VD ning anodiga musbat, kotodiga manfiy potensiallar tushuvi hosil bo'lib, diod ochiq holatda bo'ladi hamda uning qarshiligi nolga tengdir.



27-rasm. a) yarim davrli to'g'rilaqich sxemasi.  
b) VD zanjiridagi tok va kuchlanishning grafik ko'rinishi.

Transformatorning ikkilamchi cho'lg'amida hosil bo'lgan kuchlanish  $U_2$  to'liqligicha yuklama qarshiligi  $R_{yu}$  ga tushadi va zanjirdan  $I_2$  toki oqib o'tib uning shakli transformatorning ikkinchi cho'lg'amidagi kuchlanishning shakli bilan bir-xil bo'ladi. Ikkinchi yarim davr davomida VD diod anodidagi potensial katodga nisbatan manfiy bo'ladi va diod yopiladi, yuklamadagi tok esa nolga teng bo'lib qoladi. Yuklamadagi to'g'rilaqan kuchlanishning o'rtacha qiymatini uning davr chegarasida  $U_0 = U_{yu}$  o'zgarmas tashkil etuvchisini quyidagi tenglikdan topish mumkin (24-rasmga qarang):

$$U_0 = \frac{1}{2\pi} \int_0^\pi U_2 dt \quad (24)$$

Agar  $U_2$  kuchlanish  $U_2 = U_{2m} \sin \omega t$  sinusoida qonuniga binoan o'zgarsa, u holda

$$U_0 = \frac{1}{2\pi} \int_0^\pi U_{2m} \sin \omega t dt = \frac{U_{2m}}{\pi} \quad (25)$$

Kuchlanishning  $U_{2m}$  amplituda qiymatini effektiv ( $U_{2m} = \sqrt{2}U_2$ ) qiymat bilan almashtirsak, quyidagi ko'rinish kelib chiqadi:

$$U_0 = \sqrt{2} \frac{U_2}{\pi} = 0,45U_2 \quad (26)$$

Bundan

$$U_2 = \frac{\pi U_0}{\sqrt{2}} = 2,22U_0 \quad (27)$$

Ya'ni, transformatorning ikkilamchi cho'lg'amidagi kuchlanish yuklamada hosil bo'lgan kuchlanishdan 2,22 marta yuqori bo'ladi. To'g'rilangan tokni o'zgarmas tashkil etuvchisi  $I_0$  ning qiymati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$I_0 = \frac{U_0}{R_n} = \frac{U_{2m}}{\pi R_n} = \frac{I_{2m}}{\pi} = 0,318 I_{2m} \quad (28)$$

Odatda  $U_0$  va  $I_0$  larning qiymatlari asosida hisoblash ishlari olib boriladi.

Agar tarmoq kuchlanishi  $U_1$  ma'lum bo'lsa, kerak bo'lgan  $U_0$  kuchlanishni olish uchun transformatori transformatsiya koefitsienti quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$n = \frac{U_1}{U_2} \quad (29)$$

Sxemadan ko'rinadiki, keyingi yarim davrda diodning anodiga manfiy potensial berilishi jarayonida diodning qarshilik qiymati cheksiz bo'ladi va zanjirdan tok oqib o'tmaydi. Bunday kuchlanishni teskari kuchlanish deyiladi va uning qiymati quyidagiga teng:

$$U_{mec} = U_{2m} = 3,14U_0 \quad (30)$$

Formuladan ko'rinadiki, diodga tushayotgan teskari kuchlanishning qiymati yuklamadagi kuchlanishdan 3 marta katta bo'lar ekan.

Bir yarim davrli to'g'rilaqichlarni hisoblashda diod turini tanlash muhim ahamiyatga egadir. Diodni tanlashda 2 ta maqsad ko'zda tutiladi:

Birinchidan, teskari kuchlanish ta'siriga elektrik chidamlili bo'lishi shart ya'ni shunday turdag'i diodni tanlash kerakki, uning teskari kuchlanishga chidamliligi quyidagi qiymatda bo'lishi kerak:

$$U_{mecmax} \geq U_{mec} \quad (31)$$

unda,  $U_{mec,max}$  - diodning ruxsat etilgan teskari kuchlanish qiymati,  $U_{mec}$  - transformatorning ikkilamchi cho'lg'amida hosil bo'lган teskari kuchlanish.

Agarda (31) tengsizlik bajarilmayotgan bo'lsa, tengsizlikni ta'minlash maqsadida diodni katta teskari qiymatli diodga almashtirish yoki zanjirga 2 va undan ortiq diodlarni ketma-ket ulash kerak. Ikkinchidan, diod o'tkaza oladigan tokning qiymati zanjirdagi  $I_0$  tokning qiymatidan katta bo'lishi shart:

$$I_{o,rt,max} \geq I_0 \quad (32)$$

Agarda (32) tengsizlik bajarilmayotgan bo'lsa, tengsizlikni bajarilishini ta'minlash maqsadida katta qiymatdagi tokni o'tkaza oladigan diod turini tanlash kerak yoki zanjirga 2 va undan ortiq diodlarni parallel ulash kerak. 24-rasmdan ko'rindan, yuklamada kuchlanish pulsatsiyalanib, bir davrda bir marta maksimal qiymatga ega bo'lar ekan. Bunday ko'rinishdagi kuchlanish qatorlarga yoyilsa, u o'zgarmas tashkil etuvchi  $U_0$  va bir qancha har-xil chastotali (garmonikali) va amplitudali o'zgaruvchan tashkil etuvchilarning yig'indisidan iborat bo'ladi. Bu tashkil etuvchilarning birinchi garmonikasi eng katta amplitudaga ega bo'ladi. Demak, bir yarim davrli to'g'rilaqich sxemasida birinchi garmonikaning amplituda qiymati quyidagi tenglikka teng bo'ladi:

$$U_{1rm} = 1,57 U_0 \quad (33)$$

Birinchi garmonikaning chastotasi  $f_r$ , tarmoq chastotasi  $f_t$  ga teng bo'ladi. Yuklamadagi kuchlanishning pulsatsiyalanishi pulsatsiya koeffitsienti bilan xarakterlanadi:

$$k_n = \frac{U_{1rm}}{U_0} \quad (34)$$

bir yarim davrli to'g'rilaqich sxemasining pulsatsiya koeffitsienti 3.10 va (35) formulalarga asosan quyidagi tenglikka teng bo'ladi:

$$k_n = \frac{1,57 U_0}{U_0} = 1,57 \quad (35)$$

Formuladan ko‘rinadiki, to‘g‘rilangan kuchlanishga nisbatan birinchi garmonikaning amplituda qiymati 1,57 marta katta bo‘lar ekan.

Sxemada transformatorning ikkilamchi cho‘lg‘amidan yuklamaning o‘zgarmas tashkil etuvchi toki  $I_0$  oqib o‘tadi. Natijada, bu tok transformator o‘zagini magnitlab salt tokini oshiradi. Bu esa transformatorning energiya isrofini oshishiga hamda FIK ini kamayishiga sabab bo‘ladi. Transformatorning salt toki va energiya isrofini kamaytirish uchun transformator o‘zagining ko‘ndalang kesim yuzasini orttirish kerak. Bu esa o‘z navbatida to‘g‘rilagichning o‘lchamlari va massasini ortishiga olib keladi.

Transformatorning birlamchi cho‘lg‘amidagi  $i_1$  tokning amplitudasi va shaklini aniqlash uchun transformatorning diodsiz sxemasi uchun bo‘lgan formulaga murojaat qilamiz ya’ni  $i_1 = \frac{i_2}{n}$ . Lekin diod ulangan sxemada transformatorning ikkilamchi cho‘lg‘amida 2 ta tok mavjud bo‘lib, ular  $i_2$  va  $I_0$  dan tashkil tashkil topadi. Shu sababli formuladagi  $i_2$  ning qiymati  $i_2 = i_2 - I_0$  ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Shunday holatda  $i_1$  ning qiymati quyidagi ko‘rinish oladi:

$$i_1 = \frac{(i_2 - I_0)}{n}$$

Yoki

$$I_1 = \frac{1}{n} \sqrt{I_{2m}^2 - I_0^2}$$

Bunda  $n$ -tranformatsiya koeffitsienti. (35) formulaga asosan  $I_{2m} = 1,57I_0$  ga teng bo‘lganligi sabali  $I_1$  ning qiymati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$I_1 = \frac{1}{4} \sqrt{(1,57I_0)^2 - I^2} = \frac{I_0}{n} \sqrt{1,57 - 1} = 1,21 \frac{I_0}{n} \quad (36)$$

Bundan ko‘rinadiki, transformatorning birlamchi cho‘lg‘amidagi tok nosinusoidaldir.

To‘g‘rilagichning foydali quvvati:

$$P_0 = U_0 I_0 \quad (37)$$

ga teng.

Transformator quvvatini aniqlashda nafaqat o‘zgaruvchan tashkil etuvchi tok va kuchlanishlarni, shu bilan birga o‘zgarmas tashkil

etuvchilarini ham hisobga olish kerak. Bunday quvvatlar elektrotexnikada hajmiy quvvat deb yuritilib tok va kuchlanishlarning effektiv qiymatlari orqali aniqlanadi:

$$S_1 = U_2 I_2; \quad S_1 = U_1 I_1; \quad S_{TP} = 0,5(S_1 + S_2) \quad (38)$$

Bunda  $S_2$ -ikkilamchi cho‘lg‘amning hajmiy quvvati,  $S_1$ -birlamchi cho‘lg‘amning hajmiy quvvati,  $S_{tr}$ -transformatorning hajmiy quvvati.

Bir yarim davrli to‘g‘rilagichlarda ikkilamchi cho‘lg‘amida o‘zgarmas tashkil etuvchisi bo‘lganligi sababli birlamchi cho‘lg‘am quvvatidan katta bo‘ladi. Shu sababli transformatorning hajmiy quvvati ortadi. Bunday hol bir yarim davrli to‘g‘rilagich sxemalarining kamchiligidir.

Ko‘pincha, transformatorlardan foydalanish koefitsienti kattaligi ishlatalib, u quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$k_T = \frac{P_0}{S_{TP}} \quad (39)$$

Bir yarim davrli sxema uchun  $S_1=2,69R_0$ ,  $S_2=3,49 R_0$ ,  $S_{TR}=3,09 R_0$ ,  $k_{TR}=0,324$  ga teng bo‘ladi. Bu qiymatdan ko‘rinadiki, transformatorlardan foydalanish koefitsienti kichik.


Bir yarim davrli to‘g‘rilagich sxemalarida pulsatsiya koefitsienti katta, transformator o‘lchamlari va massasi katta diodga tushayotgan teskari kuchlanish katta hamda transformatorlardan foydalanish koefitsienti kichik bo‘lganligi sababli uning tuzilishining sodda bo‘lishiga qaramay bu sxema juda kam ishlataladi.

**Ikki yarim davrli to‘g‘rilagichlar.** Ikki yarim davrli to‘g‘rilagich sxemasi 2 turli bo‘ladi:

- transformator ikkilamchi cho‘lg‘amining o‘rta klemmasi mavjud bo‘lgan sxema;
- ko‘priksimon sxema.

Transformatorning o‘rta klemmasi chiqarilgan ikki yarim davrli to‘g‘rilagich sxemasi 28.a-rasmda ko‘rsatilgan bo‘lib, quyidagi elementlardan tashkil topadi: ikkilamchi cho‘lg‘ami o‘rta klemmaga ega bo‘lgan transformator, VD1, VD2 diodlar va  $R_{yu}$  yuklama. Bu sxema ikkita bir yarim davrli sxemali to‘g‘rilagichlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning yuklamasi umumiyydir. Sxemada

transformator ikkilamchi cho‘lg‘amining birinchi qismi VD1 eanjirni, ikkinchi qismi esa VD2 zanjirini hosil qiladi. transformator ikkilamchi cho‘lg‘amining birinchi qismida  $U'_2$  ikkinchi qismida  $U''_2$  kuchlanishi hosil bo‘ladi.  $U'_2$  va  $U''_2$  kuchlanishlarning qiymati teng bo‘lib, fazalari  $180^\circ$  ga siljigandir (28.b-rasmga qarang). Sxemadan ko‘rinadiki,  $U'_2$  kuchlanishning birinchi yarim davrida VD1 anodiga musbat potensial uzatilib, o‘rta klemmadan esa Ryu orqali VD1ning katodiga manfiy potensial uzatiladi. Bunday holatda VD1 diod ochiladi va undan  $R_{yu}$  yuklama qarshiligi orqali  $i_{VD1}$  toki oqib o‘tadi. Shu vaqt oralig‘ida



28-rasm. a) ikki yarim davrli to‘g‘rilagich sxemasi.  
b) to‘g‘rilagich sxemasidagi tok kuchlanishlarining grafik  
ko‘rinishi.

esa VD2 ning anodiga  $U''_2$  kuchlanishning manfiy ishorali potensiali uzatilib, katodiga esa musbat ishorali potensiali uzatiladi ya’ni VD2 berkdir. Keyingi yarim davr oralig‘ida VD1 ga  $U'_2$  teskari kuchlanish uzatilib, VD2 ga esa to‘g‘ri kuchlanish  $U''_2$  uzatiladi ya’ni anodiga musbat katodiga manfiy ishorali potensial uzatiladi. Diod VD2 va yuklama qarshiligi  $R_{yu}$  orqali  $i_{VD2}$  toki oqib o‘tadi. Shunday qilib, to‘liq bir davrda yuklamadan bir yo‘nalishga ega bo‘lgan ikkala yarim davrning toki ( $i_{VD1}$  va  $i_{VD2}$ ) oqadi va yuklama qarshiligi  $R_{yu}$  da pulsatsiyalanuvchi tok kuchlanishi  $U_n$  hosil bo‘ladi. Yuklamada hosil bo‘lgan kuchlanishning o‘zgarmas tashkil etuvchisi  $U_0$  ning qiymati to‘liq bir davr ichida bir yarim davrli to‘g‘rilagichda hosil bo‘lgan  $U_0$

ning qiymatidan 2 marta katta bo‘ladi va 3.3 formulani inobatga olgan holda uning qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$U_0 = 2 \frac{\sqrt{2}U_2}{\pi} = 0,9U_2 \quad (40)$$

Bunda  $U_2$  –ikkilamchi cho‘lg‘amning birinchi yoki ikkinchi qismida hosil bo‘lgan kuchlanishning effektiv qiymati. Diodlarga tushuyotgan maksimal teskari kuchlanish (25-rasmga qarang) transformatorida ikkilamchi cho‘lg‘amining umumiyligi kuchlanishi (ikkilamchi cho‘lg‘amning birinchi va ikkinchi qismida hosil bo‘lgan kuchlanishlarning yig‘indisi) ga tengdir. Sxemadan ko‘rinadiki, kuchlanishning birinchi yarim davrida VD1 ning anodiga ikkilamchi cho‘lg‘amning yuqori nuqtasidan musbat ishorali potensial berilganligi sababli VD1 ochiq ya’ni uning qarshiliqi kichik  $R \rightarrow 0$ , VD2 ning anodiga esa ikkilamchi cho‘lg‘amning pastki nuqtasidan manfiy ishorali potensial uzatilganligi sababli VD2 berk bo‘ladi. Uning qarshiliqi esa cheksizdir. Shunday ekan, sxemada ikkilamchi cho‘lg‘amning yuqori nuqtasi bilan pastki nuqtasi orasida hosil bo‘lgan teskari kuchlanish to‘liqligicha VD2 ga tushadi. Keyingi yarim davrda esa VD1 ga tushadi. 3.17 formuladan foydalanib quyidagini hosil qilamiz:

$$U_{mec} = 2\sqrt{2}U_2 = \pi U_0 = 3,14U_0 \quad (41)$$

Formuladan ko‘rinadiki, ikki yarim davrli to‘g‘rilagichlar sxemasida diodga tushayotgan teskari kuchlanish 3 martadan ko‘proq ekan.

Sxemadan ko‘rinadiki, VD1 dioddan birinchi yarim davr oralig‘ida tok oqib o‘tadi, ikkinchi yarim davrda esa tok VD2 diodidan oqib o‘tadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, yuklamadan oqib o‘tayotgan  $I_0$  tokning miqdoridan har bir dioddan oqib o‘tayotgan tokning o‘rtacha miqdori  $I_{diod,o,r}$  2 marta kichik bo‘ladi, ya’ni

$$I_{diod,\bar{y}p} = 0,5I_0 \quad (42)$$

Ikki yarim davrli to‘g‘rilagich sxemasida transformatorning ikkilamchi cho‘lg‘amidagi effektiv tok  $I_2 = 0,785 I_0$  ga teng. Bu qiymatdan ko‘rinadiki, bir yarim davrli to‘g‘rilagich sxemasiga nisbatan uning qiymati 2 marta kichik bo‘ladi. 25-rasmdan ko‘rinadiki, yuklamada hosil bo‘lgan pulsatsiyalanuvchi kuchlanishning maksimum qiymati manba kuchlanishi davri oralig‘ida 2 ga teng bo‘ladi. Shu sababli pulsatsiyalanayotgan kuchlanishning birinchi garmonikasining chastotasi manba kuchlanishining chastotasidan 2 marta katta bo‘ladi.

Ikki yarim davrli to‘g‘rilagich sxemasining pulsatsiya koeffitsienti  $k=0,67$  ga teng bo‘lib, uni silliqlash ko‘rsatkichi bir yarim davrli to‘g‘rilagichlarga nisbatan sifatli bo‘ladi. Ikki yarim davrli to‘g‘rilagichlarda transformator o‘zagi magnitlanmaydi, chunki birinchi yarim davrda  $I_0$  tok hisobiga transformator o‘zagi magnitlansa, ikkinchi yarim davrda esa transformator o‘zagidan  $I_0$  tok teskari oqib o‘tib o‘zakni magnitsizlantiradi. Shu sababli transformator birlamchi cho‘lg‘amida tok shakli sinusoidal bo‘ladi.


To‘g‘rlanishi kerak bo‘lgan tok transformator ikkilamchi cho‘lg‘amining u yoki bu qismidan davriy ravishda olinadi. Ya’ni transformator to‘laligicha ishlatilmaydi. Shu sababli transformator cho‘lg‘amlaridan foydalanish koeffitsienti kichik bo‘ladi va  $S_1=1,23R_0$ ;  $S_2=1,74R_0$ ;  $S_{tr}=1,48R_0$ ;  $k_{tr}=0,685$  ga teng bo‘ladi. Shunday qilib, ikki yarim davrli to‘g‘rilagich sxemasi bilan bir yarim davrli to‘g‘rilagich sxemasini solishtirsak quyidagi xulosaga kelamiz:

- Diodlardan oqayotgan o‘rtacha tokning miqdori 2 marta kichik;
- Pulsatsiya koeffitsienti kichik;
- transformatordan yaxshi foydalilanildi.

Kamchiligi:

- Transformator ikkilamchi cho‘lg‘amining o‘rtasidan chiqish klemmasiga ega bo‘lishi kerak;
- Ikkiti diod ishlatiladi.

Amaliyotda ikki yarim davrli ko‘priksimon to‘g‘rilagichlar sxemasi



29-rasm.  
Ko‘priksimon  
to‘g‘rilagich

keng qo'llaniladi. Uning sxemasi 29-rasmida berilgan bo'lib, unda oddiy transformator va ko'priksimon sxemada yig'ilgan 4 ta diod ishlatilgan. O'zgaruvchan tok kuchlanishi diod ko'prigining 1-diagonaliga berilsa, to'g'rilangan tok kuchlanishi 2-diagonaldan olinadi.

**Ikki yarim davrli ko'priksimon to'g'rilagich.** Aytaylik, birinchi yarim davrda transformator ikkilamchi cho'lg'amidan A nuqtaga berilayotgan kuchlanish potensiali  $U_2$  musbat ishoraga, V nuqtada esa manfiy ishoraga ega bo'lsin. U holda zanjirdan oqib o'tayotgan tokning yo'nalishi quyidagicha: transformator ikkilamchi cho'lg'amining birinchi klemmasidan A nuqtaga, so'ng VD4 orqali G nuqtaga, so'ng yuklama qarshiligi  $R_{yu}$  orqali B nuqtaga, so'ng VD2 orqali V nuqta zanjirlaridan transformator ikkilamchi cho'lg'amining ikkinchi klemmasiga tok oqadi (ko'priksimon sxemada birinchi yarim davrdagi tokning yo'nalishi uzluksiz strelka bilan ifodalangan). Ikkinci yarim davrda esa  $U_2$  ning musbat potensiali V nuqtaga manfiy potensiali A nuqtaga uzatiladi. U holda zanjirdan oqib o'tayotgan tokning yo'nalishi quyidagicha: transformator ikkilamchi cho'lg'amining ikkinchi klemmasidan V nuqtaga, so'ng VD3 orqali G nuqtaga, so'ng yuklama qarshiligi  $R_{yu}$  orqali B nuqtaga va VD1 orqali A nuqta zanjirlaridan transformator ikkilamchi cho'lg'amining birinchi klemmasiga tok oqadi. Bu xulosalardan ko'rinaldiki, yuklama qarshiligi  $R_{yu}$  dan o'tayotgan ikkala yarim davrlar toki bir xil yo'nalishga ega bo'ladi. Shu sababli ko'priksimon sxema uchun ham  $U_0=0,9U_2$ . Har bir dioddan oqib o'tayotgan o'rtacha tok miqdori  $I_{\text{duoa,}yp}=0,5I_0$  ga teng bo'ladi. Bu sxemada to'g'rilangan tok transformatorning ikkilamchi cho'lg'amidan birinchi yarim davrda bir tomonga ikkinchi yarim davrda ikkinchi tomonga oqib o'tganligi sababli transformator o'zagi magnitlanmaydi. Bu esa transformator o'lchami va massasini kamaytirish imkonini beradi. Ko'priksimon sxema uchun  $S_I=S_2=S_{tr}=1,23R_0$ ;  $k_{tr}=0,81$  ga teng.

VD1 dan tok o'tayotgan holatda uning anodiga transformator ikkilamchi cho'lg'amining birinchi klemmasidan musbat potensial uzatilib, katodiga esa VD2 orqali transformator ikkilamchi cho'lg'amining ikkinchi klemmasidan manfiy potensial uzatiladi. Shunday ekan, tok o'tmaydigan yo'nalishda (VD1 berk xolatida)

VD1 diodga transformator ikkilamchi cho‘lg‘amida hosil bo‘lgan kuchlanish qiymati to‘liqligicha tushadi:

$$U_{mec} = U_{2m} = \sqrt{2}U_2 = 1,57U_0 \quad (43)$$

Ya’ni ko‘priksimon sxemada diodga tushayotgan teskari kuchlanishning qiymati ikkilamchi cho‘lg‘amning o‘rtaliklari ikki yarim davrli to‘g‘rilagich sxemasiga nisbatan 2 marta kichik bo‘ladi. Pulsatsiya koeffitsienti esa  $k_p=0,67$  ga teng. Ko‘priksimon sxema transformator ikkilamchi cho‘lg‘amining o‘rtaliklari to‘g‘rilagich sxemasiga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

- Ishlamay turgan vaqt oralig‘ida diodga tushayotgan teskari kuchlanish 2 marta kichik;
- Transformatorning tuzilishi sodda;
- Transformatorsiz ham ishlatish mumkin. Agarda ko‘prik dioganaliga berilayotgan kuchlanish manba kuchlanishiga teng bo‘lgan hollarda;
- Transformatorning o‘lchami va massasi kichik.


Kamchiligi:

- 4 ta diod ishlatilishi.

### Kuchlanishni

**ko‘paytiruvchi to‘g‘rilagich.**  
Bunday to‘g‘rilagichlar sxemalarida yuklamada hosil bo‘lgan kuchlanish qiymati transformator ikkilamchi cho‘lg‘amida hosil bo‘lgan kuchlanish qiymatidan bir necha marta katta bo‘ladi. Kuchlanishni ko‘paytirish to‘g‘rilagich sxemasi 30-rasmda keltirilgan. U transformator ikkilamchi cho‘lg‘amidan iste’mol qiladigan 2 ta bir yarim davrli to‘g‘rilagichlardan tuzilgan.

Birinchi to‘g‘rilagich diod VD1 va kondensator  $S1$  dan, ikkinchi to‘g‘rilagich esa diod VD2 va kondensator  $S2$  dan tashkil topadi. Yuklama qarshiligi  $R_{yu}$   $S2$  ga parallel ulangan. Sxemada ko‘rsatilganidek, birinchi yarim davrda transformator ikkilamchi



30-rasm. *Kuchlanishni ko‘paytiruvchi to‘g‘rilagich.*

cho‘lg‘amining pastki qismi musbat ishoraga, yuqori qismi esa manfiy ishoraga ega bo‘lsin. Bunda VD1 diod va  $S1$  kondensator orqali tok oqib o‘tib,  $S1$  kondensatorni zaryadlaydi. Ikkinchchi yarim davrda transformator ikkilamchi cho‘lg‘amining yuqori qismi musbat ishoraga ega bo‘lib, transformator kuchlanishi bilan  $S1$  ning zaryad kuchlanishlarining qiymatlari qo‘shilib  $VD2$  orqali tok oqa boshlaydi. Bu kuchlanishlarning yig‘indisi  $S2$  kondensatorni zaryadlaydi va yuklama qarshiligidan tok oqib o‘tadi. Natijada kondensator  $S2$  va yuklama qarshiligi  $R_{yu}$  da hosil bo‘lgan kuchlanishning amplituda qiymati transformator ikkilamchi cho‘lg‘amida hosil bo‘lgan kuchlanishning amplituda qiymatidan 2 marta katta bo‘ladi. Bu sxema bir yarim davrli to‘g‘rilagichlar sxemasiga xos bo‘lgan kamchiliklarga ega. Bir yarim davrli kuchlanishni ko‘paytiruvchi sxema asosida ko‘p marta kuchlanishni ko‘paytiruvchi to‘g‘rilagichlar sxemasi hosil qilinadi.


Sanoatda kuchlanishni 5-10 va unda ortiq marotaba ko‘paytiruvchi to‘g‘rilagichlar ishlatiladi. Bunday kuchlanishni ko‘paytiruvchi to‘g‘rilagichlar kichik quvvatli to‘g‘rilagichlar bo‘lib, bir necha o‘ng ming volt kuchlanishda ishlaydigan elektron nur trubkalar, elektron mikroskop, televizion trubkalarning anodini kuchlanish bilan ta’minlash uchun xizmat qiladi.

**Uch fazali to‘g‘rilagichlar.** Uch fazali tok to‘g‘rilagichlari asosan o‘rtta va katta quvvatli iste’molchilarni ta’minlashda ishlatiladi. Bunda ular uch fazali tok tarmog‘ini bir tekis yuklaydi. Uch fazali to‘g‘rilagichlarning ko‘pchilik sxemalari ichida 31.a-rasmda keltirilgan nol chiqishli uch fazali sxema eng soddasi hisoblanadi.

Bu sxemaning aktiv yuklama holidagi ishini ko‘rib chiqamiz. 3.6.a- rasmdan ko‘rinib turibdiki, sxema Tr uch fazali transformator uchta diod hamda  $R_{yu}$  yuklama qarshiligidan iborat. Transformatorning birlamchi cho‘lg‘ami yulduz yoki uchburchak ko‘rinishida, ikkilamchi cho‘lg‘ami esa faqat yulduz ko‘rinishida ulanishi mumkin. O‘zaro ulangan VD1, VD2 va VD3 diodlarning katodlari uzaro ulangan va u musbat potensialga ega bo‘lib, Ryu yuklama qarshiligiga ulangan. Anodlari esa uch fazali transformator cho‘lg‘amlarining uchiga ulangan bo‘lib, ularning nol nuqtasi yuklama qarshigi  $R_{yu}$  ga ulangandir va uning potensiali manfiy potensialga egadir. Keltirilgan sxemada diodda navbat bilan har biri davrning uchdan bir qismi davomida, bir diod anodining potensiali

qolgan ikkita diodlar anodlarining potensialidan musbatroq bo‘lganda ya’ni tegishli fazalar kuchlanish musbat va qolgan ikkita fazalar kuchlanishidan kattaroq bo‘lganda ishlaydi. Masalan  $t_1$  va  $t_2$  vaqt oralig‘ida (31.b-rasm)  $U_{2a}$  kuchlanish musbat,  $U_{2V}$  va  $U_{2S}$  kuchlanishlar manfiy yoki musbat bo‘lib, lekin  $U_{2a}$  ga nisbatan kichik qiymatga ega bo‘lganida tok ikkilamchi cho‘lg‘amning “a” fazasi bo‘ylab VD1 diod va  $R_yu$  yuklama qarshiligi orqali o‘tadi. Davrning keyingi uchdan bir qismida ya’ni  $t_2$  va  $t_3$  vaqt oralig‘ida VD2 diod ishlaydi, chunki uning anodi VD1 va VD3 diodlarning anodiga nisbatan yuqoriroq musbat potensialga ega bo‘ladi. Transformator ikkilamchi cho‘lg‘amining “v” fazasi bo‘ylab VD2 diod va  $R_yu$  yuklama qarshiligi orqali o‘tadi. Bunda yuklama qarshiligidan oqib o‘tayotgan tokning yo‘nalishi avvalgi uchdan bir davrdagi tokning yo‘nalishi bilan bir xil bo‘ladi. Shundan so‘ng VD3 diod keyin esa yana VD1 diod va hokzo ketma-ketlikda ishlaydi.

31.b-rasmda fazalar kuchlanishlarining sinusoidal tok hisobiga hosil qilgan to‘g‘rilangan (pulsatsiyalovchi) kuchlanishi qalin chiziq bilan ko‘rsatilgan. Bu rasmdan ko‘rinib turibdiki, to‘g‘rilangan tok kuchlanishining pulsatsiyalanishi bir fazali tok to‘g‘rilagichlarida hosil qilinadigan pulsatsiyaga nisbatan ancha kichikdir hamda ularning chastotasi manba chastotasiga nisbatan 3 marta katta bo‘lib, filtrlash oson kechadi. Agarda diodlar ko‘p bo‘lgan sxemadan foydalanilsa, u holda pulsatsiyalanish kamayadi va shuning uchun ham ba’zi hollarda silliqlovchi filtdan foydalanmasa ham bo‘ladi. Uch fazali to‘g‘rilagichlar uchun asosiy hisob-kitob munosabatlarini keltiramiz:



31-rasm. a) uch fazali t¢grilagich. b) uch fazali pulsatsiyalovchi kuchlanishlar

to‘g‘rilangan kuchlanishning o‘rtacha qiymati:

$$U_0 = 0,827U_{2m} = 1,17U_2 \quad (44)$$

To‘g‘rilangan tokning o‘rtacha qiymati:

$$I_0 = \frac{U_0}{R_u}$$

(3.21) ni hisobga olgan holda

$$I_0 = 0,827I_{2m} \quad (45)$$

dioddan oqib o‘tayotgan tokning o‘rtacha qiymati:

$$I_{out, ypm} = \frac{I_0}{3} \quad (46)$$

teskari kuchlanishning maksimal qiymati:

$$U_{mec} = \sqrt{3}U_{2m} = 2,09U_0 \quad (47)$$

pulsatsiya koeffitsienti  $k_p = 0,25$

Diodlarga kichik kuchlanish tushuvi sababli bu sxema ko‘pincha past to‘g‘rilangan kuchlanishlar olish uchun ishlataladi. Sxemaning kamchiliklariga quyidagilar kiradi:

- katta qiymatli teskari kuchlanish;
- transformatordan foydalanish koeffitsienti kichik;
- to‘g‘rilangan tokning o‘zgarmas tashkil etuvchisining transformator ikkilamchi cho‘lg‘amidan o‘tishi jarayonida transformator o‘zagini magnitlashi.

### Nazorat sinov savollari

1. O‘zgarmas tok potensiometrining ish prinsipi nimaga asoslanadi?
- 2. Ish toki qanday o\_rnatiladi? Va uni o‘rnatish nimaga kerak?
- 3. O‘zgarmas tok potensiometrining prinsipial sxemasini chizib, tushuntiring?
- 4. O‘zgarmas tok potensiometrida ish tokini aniq o‘rnatilishi nimaga bog‘liq va
- u qanday ta‘minlanadi?
- 5. O‘zgarmas tok potensiometrining qanday turlari mavjud, ularning qanday
- imkoniyatlari bor?

- 6. O‘zgarmas tok potensiometrlarining o‘lchash diapazoni qanday (qanday)
- qurilma yordamida) qilib kengaytiriladi?

## **2.4. ELEKTRON ASBOBLAR. O‘ZGARMAS VA O‘ZGARUVCHAN TOK ZANJIRLARIDA ISHLATILADIGAN ELEKTRON VOLTMETRLAR.**

### **Elektr o‘lchov asboblarining umumiyl tavsiflari**

Elektrik va noelektrik kattaliklarni o‘lchash uchun elektron o‘lchov asboblari ishlataladi. Ular o‘z ichiga elektron kuchaytirgichlar, elektron generatorlar, to‘g‘rilagichlar va Impuls qurilmalarini o‘z ichiga oladi. Ko‘pincha ularga elektromexanik o‘lchov asboblari (magnielektrik tizimli) ham kiradi.

Elektron o‘lchov asboblari mexanik o‘lchov asboblaridan quyidagi sifatlari bilan ajralib turadi.

1. Sezgirligi yuqori. Uning sezgirlik chegarasi o‘lchanayotgan kattalikning shovqiniga bog‘liq. Ko‘pincha elektron voltmetrlarning sezgirlik qiymati  $0,1 - 10$  mV oralig‘ida bo‘ladi.

2. O‘lchanayotgan kattalik zanjiridan elektr o‘lchash asbobi kichik qiymatda energiya iste’mol qiladi ya’ni, uning kirish qarshiligi kattaligidir. Elektron o‘lchov asboblari bo‘lmish elektronvoltmetr, elektron ossillograf va hakazolarning kirish qarshiliklari  $0,5 - 1$  mOm atrofida bo‘ladi. Ayrim maxsus o‘lchov asboblarida esa  $10^8 - 10^9$  Om larni tashkil qilish mumkin. Unda katta kirish qarshilik o‘lchov asboblari kichik quvvatli va yuqori chiqish qarshilikli zanjirlar uchun ishlataladi.

3. Sezgirligi juda keng chastota oralig‘ida ham o‘zgarmaydi. Masalan: sifatli keng chastota oralig‘ida ishlay oladigan elektromexanik asboblar (elektrodinamik tizimli) ning chastota ish kengligi 45-1500 Gts oralig‘ida yotadi.

Ko‘pincha elektron o‘lchov asboblarida esa chastota ish diapazoni 10-50 mGts ni tashkil qiladi. Ayrim maxsus elektron o‘lchov asboblarining chastota ish diapozoni bir necha ming mGts gacha boradi.

Elektron o‘lchov asboblarining yuqoridagi afzalliklaridan tashqari uning ayrim kamchiliklari ham mavjuddir.

1. Sxematik murakkabligidir. Bu esa katta sonli radioelementlarni ishlatalishidir. Shu sababli hajmi, massasi, tannarxi qimmatdir. Shunga qaramay ayrim raqamli o‘lchov asboblari masalan: elektron raqamli voltmetr, ampermestr v raqamli soatlar massasi, hajmi jihatdan mexanik o‘lchov asboblaridan ancha kichikdir.

2. Elektron o‘lchov asboblarini ishlatalish uchun o‘zgarmas tok manbaikerak.


3. Ishga chidamliligi kichik, lekin, bunday kamchilikni hozirgi kunda zamonaviy elektr o‘lchov asboblarida integral mikrosxema ishlatalilib chidamligi keskin oshmoqda.

Elektron o‘lchov asboblari, mexanik o‘lchov asboblari o‘lchay olmaydigan, ko‘pchilik kattaliklarni o‘lchay oladi. Masalan: vaqt bo‘yicha o‘zgaradigan signallarni tezkor ossillograflashtirish, chastota xarakteristikasini aniqlash spektrial taxlil, juda tez takrorlanadigan Impulslarni sanash va hakozolar. Elektron o‘lchov asboblari elektron qurilamalar turkumiga kiritilib, ular markazlashgan axborotni yozish, axborotlarni saqlash, qayta ishlash va hakazolar uchun ishlataladi. Bu turkum qurilmalarni informatsion o‘lchov tizimlari (IO‘T.) deyiladi. IO‘T turkumiga elektron hisoblash mashinalari ham kiradi.

## **Elektron ossillograflar**

Elektron ossillograflar deb—elektr signallarni vaqt bo‘yicha o‘zgarishini, uning ko‘rinishini, chastotasini, amplitudasini ekranda ko‘rsatib va uning kuchlanishini, tok qiymati, chastotasini, faza siljishini o‘lchaydigan qurilmaga aytildi. 32-rasmda elektron nurli ossolografning blok-sxemasi tasvirlangan. Uning asosiy elementi bo‘lib elektron nur trubka xizmat qiladi.

Sxemada  $R_1$ ,  $R_2$  kuchlanishning bo‘luvchi qarshiliklari orqali elektron nur trubkaga o‘garmas tok manbaidan yuqori kuchlanish uzatiladi.  $R_1$  potensiometr. ENT ekranining yoritilganlik darajasining hosil qiladi.  $R_2$  potensiometr esa ENT ning ikkinchi anod kuchlanishini o‘zgartirish yo‘li bilan elektron nurni fokuslaydi. Elektron nurni vertikal og‘diruvchi kanal (U) ga chastotali vertikal og‘diruvchi kuchaytirgich “U” kirish qurilmaisdan tashkil topadi.



32–rasm. Elektron nur ostsillografining struktura sxemasi

Kirish qurilmasi–kuchlanishni bo‘luvchi zanjirdan va signalni kechiktiruvchi qurilmadan tashkil topadi. Kuchlanishni bo‘luvchi zanjir “U” kuchaytirgichning sezgirligini boshqaradi signalni kechiktiruvchi qurilma ENT ning gorzantal plastinkasiga berilayotgan yoyuvchi kuchlanish signaldan oldinroq kelishini hosil qiladi, bu esa ekranda jarayon boshlanishini ko‘rishni ta’minlaydi. Tekshirilayotgan signal ossillografning “U” klemmasiga uzatiladi. Signal kirish qurilmasi orqali “U” kuchaytirgichga beriladi. “U” kuchaytirgichning chiqishida signalga proporsional qiymatda kuchlanish xosil bo‘lib, uni elektr trubkaning “U” plastinkasiga uzatadi. Plastinka kuchlanish ta’sirida elektron nurni “U” o‘qi bo‘yicha og‘diradi. “U” kuchaytirgichining sezgirligi juda ham katta bo‘lib, uning qiymati 2500 mV gacha bo‘ladi. Elektron trubkaning sezgirligi esa 0,1-0,4mm/V ga tengdir.

Elektirn nurni gorzantal og‘diruvchi “X” kanali quyidagi bloklardan tashkil topadi. Kirish qurilma kanalini sinxronlovchi

kuchaytirgich, yoyuvchi generator va gorizantal “X” o‘qi bo‘yicha yoyuvchi kuchaytirgichdan tashkil topadi. Kirish qurilma va “X” o‘qi bo‘yicha yoyuvchi kuchaytirgich vertikal og‘diruvchi kanaldan farqlanmaydi, faqatgina unda signalni kechiktiruvchi qurilma bo‘lmaydi.

Yoyuvchi generator chiziqli o‘zgaruvchi (arrasimon) kuchlanishni ishlab chiqaradi va “X” kuchaytirgichga uzatiladi. Kuchaytirgichdan chiqqan arrasimon tebranish ENT ning “X” bo‘yicha og‘diruvchi plastinkasiga uzatiladi. Yoyuvchi generatorni sinxronlash uchun “X” yoki “U” kirish qurilmalari orqali sinxronlovchi kuchaytirgichga signal uzatiladi, undan chiqqan signal yoyuvchi generatorni boshqaradi.

Z kuchaytirgich Z kirishiga uzatilgan signalni kuchaytirib P kalibrator orqali ENT ning modulyatoriga o‘zatadi, u ekran yoritilganligini o‘zgartiradi.

Kalibrator: birinchidan “U” kanalni sezgirligini belgilaydi. Buning uchun “U” kirishiga standart o‘zgaruvchan kuchlanish beriladi; ikkinchidan yoyish meyorini belgilaydi. Buning uchun “U” kirishiga standart davrli Impuls kuchlanishi beriladi, u modulyatorga uzatiladi. Modulyator ENT ning ekranida yorqin uzlusiz chiziqlar hosil qiladi

Kolibrator orqali noma’lum kuchlanish qiymatini va chastotasini aniqlashda xatoligi 3 – 10 % ni tashkil qiladi.

P<sub>4</sub> kalit “X” zanjiriga ulangan yoyuvchi generatorni o‘chirib kirishdan signalni to‘g‘ri “X” kuchaytirgichga o‘zatish imkonini beradi.

29-rasmda ko‘rsatilgan P–kalitning holati uchun ossolografning ishlashni ko‘rib chiqamiz: og‘diruvchi generator ishlab chiqqan arrasimon ko‘rinishdagi tebranish “X” kuchaytirgichi orqali ENT ning gorizontal (“X” o‘qi) og‘diruvchi plastinkasiga uzatiladi. ENT ning katodidan ekranga qarab nur ko‘rinishida harakatlanayotgan elektronlarni gorizontal (“X” o‘qi bo‘yicha) og‘diriladi va ekranda, arrasimon tebranishning bir davr ichida, elektronlar hisobiga chiziq ko‘rinishdagi yoritilgan chiziq hosil bo‘ladi. Tebranishning bir davri tugashi bilan tebranishning boshlang‘ich qiymati nolga teng bo‘ladi. Bu paytda elektron nur boshlang‘ich holatiga qaytadi. Bu jarayon davriy ravishda qaytarilib, ekranda doim yoritilgan chiziq hosil bo‘lib turadi. Shunday qilib “X” o‘qi bo‘yicha bir tekisda xarakatlanuvchi

nurning siljishi vaqtga proporsional bo‘lib uning siljishi  $X = Kt$  bilan aniqlanadi. Agarda ossillografning vertikal og‘diruvchi plasastinkasiga kuchlanish berilmasa ekranda gorizontal to‘g‘ri chiziqli yoritilganlik hosil bo‘ladi.

Agarda ossillografning “U” kirishga tekshirilayotgan  $U_c(t)$  kuchlanish berilib gorizontal plastinkaga esa kuchlanish berilmasa elektron nur  $U_c(t)$  qiymatda vertikal xarakatlanadi va uning ekranida vertikal to‘g‘ri chiziq yoritiladi.

Agarda bir vaqtda  $U_c(t)$  signali ossillografning “U” kirishiga gorizontal og‘diruvchi plastinkaga esa ichki yoyuvchi generatordan  $U_r$  arrasimon kuchlanish berilsa u xolda ossillograf ekranda  $U_c(t)$  qonuniyat bo‘yicha o‘zgarayotgan kuchlanishning ko‘rinishini aks ettiradi (33-rasm qarang).

Davriy o‘zgaradigan jarayonni tekshirishda signal bilan gorizontal yoyuvchi generator tebranishi bilan tekshirilayotgan signalni sinxronlashtirish kerak, aks holda ekrandagi tasvir turg‘un bo‘lmaydi. Aytaylik tekshirilayotgan signal kuchlanishi  $U_c$  vaqt bo‘yicha sinusoidal o‘zgarsin uning  $T_s$  davri yoyuvchi generator kuchlanishning  $T_r$  davridan farqlansin (34-rasm). Bunda Impuls tugaganda nur o‘zining boshlang‘ich holatiga qaytib kelaolmaydi, chunki  $U_c(t)$  yoyuvchi tebranishning ikkinchi davrida ekrandagi ikkinchi egri chiziq mos keladi. U birinchi egri chiziqdan  $T_s - T_r$  qiymatga siljigan bo‘ladi, va hakazo. Shunday qilib ekranda turg‘un bo‘lмаган “yuguruvchi sinusoida” hosil bo‘ladi. Ekranda tasvir turg‘un bo‘lishi uchun


$$T_r = n T_c \quad (48)$$

shart bajarilishi kerak.

Bunda:  $n$  – butun son.

Agarda  $n = 1$  bo‘lsa ekranda bitta davrli signal hosil bo‘ladi,  $n=2$  bo‘lsa ekranda signalning ikkita davri yoritiladi.

Amaliyotda yoyuvchi generator tebranishini tekshirilayotgan signal orqali sinxronlanadi. Yoyuvchi generator tebranishini maxsus



33-rasm. Razvertkaning vaqt bøyicha æzgarishi


tashqi signal orqali ham sinxronlash mumkin buning uchun  $P_5$  kalitni 2 chi holatga qo‘yiladi.

Ko‘pincha zamonaviy ossillograflarda uzluksiz ishlash rejimidan tashqari kutuvchi rejim ham ishlatiladi. Bunda yoyuvchi generator tekshirilayotgan signal orqali yoki tashqi sinxronlovchi Impuls orqali ishga tushuriladi. Bu rejimda kirish signali yoki sinxronlovchi Impuls bo‘limganda, elektorn nur hali ekranga tushmaydi—ekran yoritilmaydi.

Bir paytning o‘zida ikkita jarayonni tekshirish uchun ikki elektron nurli ossillograflar ishlatiladi. Ularning elektron nur trubkasida bir – biriga bog‘liq bo‘lmagan holda ishlay oladigan ikkita elektron nur qurilmasi joylashtirilgan.

Eslab qolish va signalni ekranda ko‘rsatish uchun eslovchi ossillograflardan foydalaniladi. Ularning elektron nur trubkalarida eslab qoluvchi qurilma mavjuddir. Signalning kerak bo‘lgan qismi elektron nur trubkasida tasvir ko‘rinishida 10 soatdan 170 soatgacha eslab tura oladi.

Yuqori chastotali signallarni tekshirish uchun stroboskopik ossillograflar ishlatiladi. Ularning chastota o‘tkazish oralig‘i taxminan noldan  $(1-5) \cdot 10^9$  Gts gacha bo‘ladi. Elektron ossillograflar signallarning ko‘rinishini ularning kattaliklarini tekshirishdan tashqari garmonik tebranishli signallarni chastotalarni ham o‘lchay oladi. O‘lchash uchun ekranda lissaju shaklidan foydalaniladi, buning uchun ossillografni “U” kirish zanjiriga chastotasi aniqlanadigan signal kuchlanishi beriladi. “X” kirishiga esa tashqi generatordan chastotasi ma’lum tebranish kuchlanish beriladi, bunday holda ossillograf kaliti  $P_4$  orqali yoyuvchi generator o‘chiriladi. Generatordan berilayotgan tebranishning chastotasini o‘zgartirib elektron nur trubkada lissaju shaklini hosil qilamiz. Agarda ekrandagi lissaju shakli ellips aylana yoki to‘g‘ri chiziqdandan iborat bo‘lsa aniqlanayotgan signalning chastotasi, chastotasi ma’lum generator chastotasi  $f_0$  ga teng bo‘ladi. Shu bilan birga lissaju shakliga qarab bu



34-rasm. Signalarni sinxronizatsiyalash.

ikki tebranishlar kuchlanishlarning orasidagi faza siljishlarni aniqlash mumkin.

### **Elektron voltmetrlar**


Elektron voltmetrlar o‘zgarmas va o‘zgaruvchan kuchlanishlar qiymatini o‘lhash uchun ishlataladi. Voltmetrlar kuchlanish qiymatini 2 xil ifodalash mumkin:

1. Analogli-bunda magnitoelektrik va elektromagnit qurilmalarning strelkasi orqali kuchlanish qiymatni ko‘rsatadi.

2. Raqamli-kuchlanish qiymatini tablo orqali raqamlarda ifodalaydi.

Elektron voltmetrlar o‘zgaruvchan tokli, o‘zgarmas tokli va universal bo‘ladi. Universal voltmetrlar o‘zgaruvchan, o‘zgarmas tok kuchlanishlarini va zanjir qarshiligini o‘lchaydi.

**Analogli elektron voltmetrlar.** O‘zgarmas tok kuchlanish voltmetrining blok sxemasi 35-rasmda ifodalangan. Unga kuchlanishni bo‘luvchi qurilma orqali voltmetrning o‘lhash chegarasi o‘rnataladi. O‘zgarmas tok kuchaytirgich orqali kuchaytirilgan kuchlanish analogli indikatorga uzatiladi. Kuchlanishni bo‘luvchi qurilmaning dastagi elektron voltmetrning old qismiga joylashtirilgan bo‘lib, u kirishiga berilayotgan kuchlanishning qiymatini boshqaradi, shu yo‘l bilan elektron voltmetrning o‘lhash chegarasini orttirish yoki kamaytirish mumkin.




35– rasm. *Analogli elektron voltmestr struktura sxemasi*

**O‘zgaruvchan tok kuchlanish voltmetri.** 36-rasmdagi voltmetrning ishlash prinsipi o‘zgaruvchan kuchlanishni o‘zgarmas tok kuchlanishiga aylantirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. 36.a-rasmda kirishga berilgan o‘zgaruvchan kuchlanish to‘g‘rilagich (Detektor) orqali o‘zgarmasga aylantirilib, so‘ng o‘zgarmas tok kuchaytirgichi orqali kuchaytirilib, analogli indikatorga uzatiladi. 36 b-rasmdagi sxemada esa kirishga berilgan o‘zgaruvchan tok

kuchlanish kirish qurilmasi orqali keng chastotali kuchaytirgichga uzatiladi. Kirish qurilmasi birinchidan, kuchlanishni bo‘luvchi qurilmalardan tashkil topgan bo‘lib, dastagi orqali voltmetrning o‘lchash chegarasini orttiradi.

Ikkinchidan, o‘lchanayotgan kuchlanish manbaining katta qarshiligi bilan



36–rasm. O‘zgaruvchan kuchlanish analogi elektron voltmetrining struktura sxemasi.

kuchlanish bo‘luvchining kichik qarshilagini moslash uchun qo‘llaniladi. Keng chastotali kuchaytirgichda kuchaytirilgan o‘zgaruvchan kuchlanish Detektorga (to‘g‘rilagichga) uzatilib, so‘ng analogli indikator qurilma orqali uning qiymati ko‘rsatiladi.

36–rasmda ko‘rsatilgan sxemali voltmetrning chastota bo‘yicha o‘lchash chegarasi  $10^9$  Gts gacha bo‘ladi. Uning kamchiligi esa sezgirligi kichiklidadir tahminan 0.5 V ni tashkil qiladi.

36, b–rasmdagi sxemali voltmetrning sezgirligi bir necha mikrovoltlarni tashkil etadi. CHastota bo‘yicha o‘lchash chegarasi mGts larda yotadi (30 mGts gacha).

O‘zgaruvchan kuchlanish voltmetrining asosiy elementi–Detektor bo‘lib u texnik kattaliklarni belgilaydi. Detektor–to‘g‘rilagich va filtrlardan tashkil topgandir. To‘g‘rilagichda yuqori chastotali diodlar ishlatilib, G va P sxema ko‘rinishidagi filtrlar ishlatiladi. Keng chastotali kuchaytirgichlarda esa kaskadlar bir-biri bilan galvanik bog‘langan ko‘p kaskadli tranzistorli kuchaytirgichlar ishlatiladi. Kuchlanishni bo‘luvchi element vazifasida rezistor bo‘lgichlar ishlatiladi.


## Universal voltmetr.

(37-rasmga qarang) o‘zgarmas kuchlanishni o‘lchash kalit P “U” – holatga utkaziladi. Bu esa 8.4-a-rasmdagi ifodani beradi. O‘zgaurvchan kuchlanishni o‘lchashda esa kalit P “U~” ga ulanadi. U esa 8.5-rasmdagi sxemaning ifodasini beradi. Avtiv qarshilikni o‘lchash uchun kalit P “R” holatga utkaziladi. Bunda o‘lchanadigan rezistor  $R_x$  bilan namunaviy qarshilik  $R_{oi}$  ketma-ket ulanib kuchlanishni buluvchi qarshilikli zanjirini hosil qiladilar. Namunuviy qarshilikka tushayotgan kuchlanish  $R_x$  ning qiymatiga bog‘liq bo‘lib  $R_{oi}$  da hosil bo‘lgan kuchlanish o‘zgarmas tok kuchaytirgich orqali analogli indikatorga ulanadi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan elektron voltmetrlardan tashqari maxsus voltmetrlar ham sanoatda ishlab chiqarilib, ular Impuls kuchlanishli voltmetr faza sezgir va selktor voltmetrlar deb yuritiladi.

**Impulsli kuchlanish voltmetrlar.** Ular video va radio Impulslarni hamda sinusoidal kuchlanishlarning amplitudalarini o‘lchsh uchun ishlatiladi sanoatda V4–12, V4 – 14, V4–17, V4–20 markali voltmetirlar ishlab chiqariladi.

**Faza sezgir voltmetrlar.** Ular kompleks qiymatlardagi kuchlanishning birinchi garmonikasini, kvadrat tashkil etuvchisini o‘lchash uchun xizmat qiladi. Voltmetr ikkita indikator bilan ta’minlangan. Ulardan biri kompleks kuchlanishning aktiv va ikkinchisi reaktiv tashkil etuvchilarini o‘lchaydilar. Faza sezgir voltmetrlar 4 qutbli zanjirlarning amplituda–faza xarakteristikasini tekshirish uchun ishlatiladi, masalan: kuchaytirgichlarni amplituda faza xarakteristikalarini o‘lchaydi. Bu voltmetrlarning chastota ish oralig‘i 0,5 Gts – 100 kGts gacha bo‘ladi, sezgirligi esa 0,1–1 mV oralig‘ida bo‘lib, xatoligi 2,5–4 % oralig‘ida yotadi.




37-rasm. Universal analogli elektron voltmetrining struktura sxemasi.

**Selektor voltmetrlar** tor chastota oralig‘idagi sinusoidal kuchlanishlarni o‘lchash uchun xizmat qiladi. Bunday voltmetrlarda rezonans sxemali kuchaytirgichlar ishlatalib, ularning rezonans chastotasini o‘zgartirish mumkindir. Shu sababli shovqinli signallarni o‘lchash uchun qulaylik yaratadi. Uning kirishiga beriladigan signalning qiymati 1 mV dan 1 V gacha bo‘lish mumkin. Voltmetr kuchaytirgichni 20 Gts dan 30 mGts gacha sozlash mumkin bo‘lib, uning chastota kengligini 1 yoki 10 kGts ga teng qilib olish mumkin. O‘lchash xatoligi 10–16 % ni tashkil qiladi. Bunday voltmetrlar sanotda V6–9, V6–10 markalarda ilab chiqariladi.

**Raqamli voltmetrlar.** Ular raqamli o‘lchov asboblari turkumiga kirib, diskret ko‘rinishdagi kattaliklarni o‘lchaydilar. Har qanday vaqt bo‘yicha uzluksiz signallarni diskret (raqamli) ko‘rinishga aylantiriladi.

38.a–rasmda vaqt bo‘yicha uzluksiz signalning qiymati bo‘yicha kvantlash yo‘li bilan diskret ko‘rinishga aylantirilgan. Rasmda  $X_i$  va  $X_i + 1$  diskret signallarning qiymati bir – biridan kvant kattalikka farqlanadi.

38.b–rasmda esa uzluksiz signalni vaqt bo‘yicha kvantlash  $\Delta t = t_{i+1} - t_i$  yo‘li bilan diskret ko‘rinishga keltirilgan. Signalni aniqligini oshirish uchun kvantlash vaqtini kamaytirish yo‘li bilan hosil qilinadi. Demak, har qanday diskert ko‘rinishdagi signalni Impulsli qurilmalar orqali ishlov berish mumkin.



38– rasm. Signallarni kvantlash yo‘li bilan diskret ko‘rinishga aylantirish


Shunday qilib diskert ko‘rinishdagi o‘lchov asboblarni raqamli o‘lchov asboblar deb yuritiladi. Har qanday diskert ko‘rinishdagi signalni ikki raqam (0 yoki 1, ya’ni Impuls bor, Impuls yo‘q) kombinatsiya yo‘li bilan ishlov beriladi.

O'lchanadigan kuchlanish, raqamli voltmetrlarning  $U_{\text{kir}}$  klemmasiga berilib, so'ng kirish qurilmasiga uzatiladi. U kuchlanishni bo'luvchi qarshiliklardan tashkil topgan bo'lib, qarshilikni o'zgartirish avtomatik yoki mexanik yo'l bilan bajariladi. Ya'ni kirish qurilmasi, kirish signaling qiymati qanday darajada bo'lishidan qat'iy nazar, uning chiqishida sIGNALning talab etilgan qiymatini hosil qilish uchun ishlataladi (Masalan, kirish qurilmalari chiqishidagi talab etilgan kuchlanish 0–1 V bo'lishi kerak).

Kirish qurilmaning chiqishidagi signal analog – raqamli qurilmaga uzatiladi va analog raqamli qurilmaning chiqishda esa raqamli kodlangan Impuls hosil bo'ladi. Raqamli indikator qurilma analog – raqamli qurilmadan kodlangan Impulsni qabul qilib dishefrator orqali indikator kodiga aylantirib beradi va indikator o'lchanayotgan signaling qiymatini ifodalaydi. Shu bilan birga agar kerak bo'lsa, printer orqali yozma ko'rinishda ifodalaydi. Boshqaruv bloki raqamli voltmetrlarning barcha bloklarini boshqarish uchun xizmat qiladi. Boshqaruv bloki raqamli qurilmalarda mikroprotsessor deb nomlanadi. Raqamli voltmetrlarda har xil tipli analog – raqamli qurilmalar ishlatalishi mumkin.

## 2.5. O'ZGARUVCHAN TOK KO'PRIKLARI YORDAMIDA INDUKTIVLIK, SIG'IM, O'ZARO INDUKTIVLIKLARNI O'LCHASH

Bunday chizmalar ko'priklar; qarshilik va kichik kuchlanishlarni katta aniqlik bilan o'lchashda ishlataladi. Ular bevosita ko'priklar va potensiometrlar kabi ikki guruxga bo'linadi. Umumiy holda ko'priklarning prinsipial chizmasi quyidagicha  
Bu chizmada  $Z_1$ ,  $Z_2$ ,  $Z_3$ ,  $Z_4$  - ko'priklar yelkalari;  $a$ ,  $v$  - manba diagonali;  $-s$ . 6. - o'lchov diagonali.



Agar yelka qarshiliklari quyidagi munosabatda bo'lsa  $Z_1 * Z_4 = Z_2 * Z_3$  ko'prik muvozanat holda hisoblanadi va o'lchov diagonali bo'yicha tok O ga teng bo'ladi. Shu yerning o'zida  $s$  va o nuktalar potensiallari bir xil bo'ladi. Umumiy holda yelkalar

qarshiliklari kompleks bo‘lishi mumkin. Aktiv qarshiliklarni o‘lchashga mo‘ljallangan ko‘prik YELkalari aktiv qarshiliklardan tuzilgan bo‘lib, uning muvozanat tenglamasi.  $R_1 \cdot R_4 = R_2 \cdot R_3$  ko‘rinishga ega. Agar qarshiliklardan birortasi o‘zgarib muvozanat buzilsa bu o‘zgarish sezgir magnitoelektrik o‘lchash mexanizmi (MUM) strelkasining oshishiga olib keladi. Strelkaning holatiga qarab o‘zgarish qiymati baxolanadi. Strelkaning holatiga qarab kuzatilaetgan qarshilikni baxolash, Ya’ni ko‘prik muvozanatdan chiqqan paytda natija olish muxim kamchilikka ega. Bunday ko‘prik aniqligi manba kuchlanishiga bog‘liq, chunki muvozanati buzilgan ko‘prikda, manba kuchlanishining o‘zgarishi strelkaning siljishiga olib keladi va o‘lchashga xatolik kiradi, bunday ko‘priklar muvozanatlasmagan ko‘priklar deyiladi va ko‘p qo‘llanilmaydi.

### **Muvozanatlashgan ko‘priklar**

Yuqoridagi kamchilik muvozanatlashgan ko‘priklarda yo‘q. CHunki bunday ko‘priklarda o‘lchanayotgan qarshilik turgan yelkadan boshqa yelkalardagi qarshiliklar rostlanuvchan, aniq qiymatlarga ega kilib tayyorlanadi. Natija doim ko‘prik muvozanat holida o‘qiladi, bunday holga rostlanuvchan qarshiliklar yordamida erishiladi.

Masalan: R4 o‘lchanayotgan nom’alum qarshilik, u o‘zgarib muvozanat buzilsa, R2 rostlanib muvozanat tiklanadi. Strelka O ga keladi. Natija esa R2 ning holatiga qarab o‘qiladi.

### **Sig‘imni o‘lchash uchun ishlataladigan ko‘priklar**

Bunday ko‘prikning eng oddiy chizmasi suratda keltirilgan. Ular o‘zgaruvchan tok manbasi yordamida ishlaydi. Suratda – R1, R2 – namunaviy aktiv qarshiliklar,  $S_0$  – namunaviy sig‘im,  $S_x$  – noma’lum sig‘im. Agar sig‘imda isroflar bo‘lmasa ( $\text{tg}\delta \Rightarrow 0$ ) ko‘prikning muvozanat sharti:

$$\frac{1}{j\omega C_x} \cdot R_4 = \frac{1}{j\omega C_0} R_2 \text{ ya’ni } C_x = \frac{R_4}{R_2} C_0$$

Sig‘imli yelkalarda birgina sig‘im qarshiliqi bo‘lib, aktiv qarshilik bo‘lmasa, ko‘prik bittagina muvozanat tenglamasiga ega. Bu holda faqat birgina parametrni rostlash bilan ( $R_2, R_4$  yoki  $S_0$ ) natijani topish mumkin.

Aktiv isroflari bor kondensatorning sig‘imi o‘lchash uchun ( $\text{ty}\delta > 0$ ) quyidagi ko‘prik chizmasidan foydalilaniladi.

Uning muvozanat tenglamasi  $(Rx - jXx)R4 = (R_0 - jX_0)R2$  ikkiga bo'linib ketadi:


$$\begin{cases} RxR4 = R_0R2 \\ XxR4 = X_0R2 \end{cases} \text{ bundan}$$

Aktiv qarshilikni  $R_x = \frac{R^2}{R4}R_0$ ,

$$\text{sig'im qarshiligidini } X_c = \frac{1}{\omega Cx} = \frac{R^2}{R4}X_0$$

ifodalari bilan topamiz. Noma'lum

$$\text{sig'imni topish uchun } C_x = \frac{R^2}{R2}C_0 \text{ ifodasidan foydalanamiz.}$$



Agar rostlanadigan qarshiliklar  $S_0$  va  $R_0$  bo'lsa natijalar alohida – alohida o'qiladi.  $S_0$  ning millari  $S_x$  qiymatida,  $R_0$  ning millari  $R_x$  qiymatlarida natija ko'rsatadi. Ushbu ko'prik kondensatorining  $\operatorname{tg}\delta$  sini (dielektrik isroflar burchagi tangensini) topish uchun ham xizmat qilishi mumkin.

$$\operatorname{tg}\delta_x = \frac{Rx}{Xx} = Rx \cdot \omega \cdot Cx$$

Amalda dielektriklarning ishchi kuchlanish ta'siridagi isroflarini  $\operatorname{tg}(\delta)$  topish katta ahamityaga ega.


Katta kuchlanish ta'sirida  $\operatorname{tg}\delta$  ni topish uchun quyiidagi ko'prik chizmasi keng tarqalgan:

Qarshiliklar quyidagi shartni qanoatlantiradilar:  $Zx \gg R2$ ;  $Z_0 \gg Z4$ ;

Shuning uchun

$$U_{ac} \gg U_{cb} \quad U_{ad} \gg U_{db};$$

O'lchanayotgan ob'ekt ( $S_x$  va  $R_x$ ) xamda namunaviy kondensator  $S_0$  katta kuchlanish ta'sirida bo'ladi. Rostlanuvchi elementlar esa ( $R2$   $R4$  va  $C4$  lar) kichik kuchlanishlar ta'sirida bo'lib, xavfsizlik uchun (b) nuqta yerga ulanib qo'yiladi. Ko'prikning



muvozanat tenglamasi:


$$\frac{Zx}{Zz} = \frac{Z_0}{Z4} = Z_0 Y_4 \quad Y4 = \frac{1}{R4} + j\omega cC$$

ekanligini nazarda tutib, quyidagini yozish mumkin:

$$\frac{Rx + \frac{1}{j\omega Cx}}{R2} = \frac{1}{j\omega Cx} \left( \frac{1}{R4} + j\omega C4 \right)$$

Kompleks ifodani ikki tenglamaga ajratib yuboramiz (haqiqiy va mavhum qismlari alohida – alohida teng bo‘lishi kerak); ular chastotaga bog‘liq emas:

$$\frac{Rx}{R2} = \frac{C4}{C_0} \quad \text{ba} \quad \frac{1}{R2Cx} = \frac{1}{R4C_0}$$



Bu yerdan o‘lchanayotgan sig‘im  $S_x$ , qarshilik  $R_x$  va  $\operatorname{tg}\delta_x$  lar:

$$\left. \begin{aligned} Cx &= \frac{R4}{R2} C_0 \\ Rx &= R2 \frac{C4}{C_0} \end{aligned} \right\}$$

$$\operatorname{tg}\delta_x = \frac{Rx}{Xx} = \frac{Rx}{\frac{1}{\omega Cx}} = Rx \cdot \omega Cx = \omega C4 \cdot R4$$

Alohida – alohida hisob uchun rostlanuvchi parametrlar sifatida  $R4$  va  $C4$  ni tanlanadi: CHunki ular faqat bittadan ifoda bor.

### Induktivlikni o‘lchanash uchun ko‘prik chizmasi

Induktivlikni o‘lchanash uchun quyidagi chizma asosida qurilgan ko‘prikdan foydalanish mumkin. R qarshilik no‘malum  $L_x, R_x$  lar bilan yoki namunaviy  $R_0, L_0$  lar bilan ketma-ket ulab ko‘yilishi mumkin. Bunga ehtiyoj quyidagicha tushuntiriladi: masalan  $R=0$  bo‘lsin. Muvozanat tenglamasidan:

$$( (Rx + j\omega Lx) \cdot R4 = (R_0 + jL_0 \omega) \cdot R2 )$$

ushbu ifodalarni olish mumkin

$$Rx = \frac{R2}{R4} R_0; \quad Lx = \frac{R2}{R4} L_0$$

Ish davomida namunaviy induktivlikni o‘zgartiradigan qilib yasash juda qiyin. Lekin  $L_0=\text{const}$ ,  $R_0=\text{const}$  bo‘lsa,  $L_x$  va  $R_x$  noma’lumli ikki tenglamadan o‘zgaruvchan (rostlanuvchan) bo‘lib

R<sub>2</sub>/R<sub>4</sub> munosabat xizmat kiladi. Bu munosabat (R<sub>2</sub>/R<sub>4</sub>) bir vaqtning o‘zida ikkala tenglamani ham qondirish uchun

$$\frac{Lx}{L_0} = \frac{Rx}{R_0}$$

shart bajarilishi kerak.

Shuning uchun  $R_x > \frac{R^2}{R^4} R_0$  bo‘lsa-yu, bu yerda R<sub>2</sub>/R<sub>4</sub> ikkinchi tenglamani qanoatlantiruvchi shart bo‘lsa, ko‘prikni muvozanatlash uchun R<sub>x</sub> ga qandaydir qarshilik R qo‘shish kerak, ya’ni:

$Rx + R = \frac{R^2}{R^4} R_0$       (ëku       $Rx = \frac{R^2}{R^4} R_0 - R$ ) Bu tenglamalarni tiklash uchun R  
ham

rostlanuvchan bo‘lishi kerak. Agar  $Rx > \frac{R^2}{R^4} R_0$

bo‘lsa, R karshilik namunaviy qarshilik R<sub>0</sub> ga ketma-ket ulanishi kerak. Unda  $Rx = \frac{R^2}{R^4} R_0 + R$  ifodaga asosan Rx topiladi. Rostlanuvchi R<sub>2</sub>/R<sub>4</sub> karshilikning va R ning millari natijani ko‘rsatadi. Bu ko‘prik L<sub>x</sub> va R<sub>x</sub> larni aloxida-aloxida topishga imkon bermaydi, chunki R<sub>2</sub>/R<sub>4</sub> nisbat ikkala ifodaga (tenglamaga) ham kiradi. Ko‘prikning yechimini topish qiyin; ayniqsa kichik ko‘ngilchanlik (dobrotnostp) da  $Q = \frac{\omega L}{R}$ . R<sub>x</sub> va L<sub>x</sub> larning qiymati R<sub>2</sub>/R<sub>4</sub> nisbatning va R ning ko‘prik muvozanat holidagi qiymatlariga, hamda P ulagichning holatiga qarab yuqoridagi ifodalardan topiladi.

Amalda noma'lum induktivlikni o‘lchash uchun namunaviy element sifatida induktivlik emas kondensator olinadi. Unda sig‘imni rostlash oson va arzon bo‘ladi, o‘lchashlari ixcham bo‘ladi. Muvozanat hosil bo‘lishi uchun noma'lum L<sub>x</sub> va namunaviy rostlanuvchi sig‘im S<sub>0</sub> qarama-qarshi yelkalarga joylshtiriladi. Rostlanuvchi va namunaviy qarshilik ham S<sub>0</sub> ga parallel bo‘lib, alohida – alohida natija olish va rostlash uchun shunday qilinadi. X<sub>S0</sub>/R<sub>0</sub> ning to‘la qarshiligining ifodasi

$$Z_0 = \frac{1}{Y_0} = \frac{1}{\frac{1}{R_0} + j\omega C_0}$$

ekanligini e’tiboriga olib, muvozanat tenglamasini quyidagicha yozamiz:

$$(Rx + j\omega Lx) \frac{1}{(1/R_0) + j\omega C_0} = R2R3$$

$$\text{yoki } Rx + j\omega Lk = \frac{R2R3}{R_0} + j\omega C_0 R2R3$$

Tenglamadagi haqiqiy va mavhum qismlari o‘zaro teng bo‘lsagina, kompleks sonlar o‘zaro teng bo‘lishini e’tiborga olib, yozish mumkin:

$$Rx = \frac{R2R3}{R_0}; \quad Lx = C_0 R2R3$$

CHo‘lg‘amning ko‘ngilchanligi (dobrotnost):

$$Qx = \frac{\omega Lx}{Rx} = \omega R_0 \cdot C_0$$

Alovida –alovida rostlash sharti rostlanuvchi elementlar sifatida  $S_0$  va  $R_0$  ishlatilganda bajariladi.  $R_0$  ning shkalasi  $Rx$  larni,  $S_0$  ning shkalasi  $L_x$  larni beradi.

#### NAZORAT SAVOLLARI:

1. Ko‘prik o‘lhash chizmalari yordamida nimalar o‘lchanadi?
2. Muvozanatlashmagan ko‘prikning kamchiliklari ?
3. Muvozanatlashgan ko‘prikning afzalliklari nima?
4. O‘zgarmas va o‘zgaruvchan tok ko‘priklarining qo‘lanilish sohasi?
5. Ko‘prikning muvozanat tenglamasi qanday?
6. Qay hollarda muvozanat tenglamasi kompleks qarshiliklar orqali ifodalanadi?


## **2.6. RAQAMLI O‘LHASH ASBOBLARI VA UALAR YORDAMIDA HAR XIL KATTALIKLARNI O‘LHASH.**

### **Umumiy ma’lumotlar**

Raqamli o‘lhash asbobi deb, o‘lhash borasida uzluksiz o‘lchanayotgan kattalikni natijasi raqamli qayd etish qurilmasida yoki raqamlarni yozib boruvchi qurilmada diskret tarzda o‘zgartirilib, indikatsiyalanadigan asboblarga aytildi. Raqamli o‘lhash asboblari hozirgi kunda juda keng tarqalgan.

Raqamli o‘lhash asbobining funksional chizmasi 35-rasmda keltirilgan.

**KAO‘ - analog o‘zgartkich; ARO‘ – analog-raqamli o‘zgartkich; RQQ - raqamli qayd etish qurilmasi. (39-rasm).**



### 39-rasm. Raqamli o‘lhash asbobining funksional chizmasi

“X” analog signali kirishdagi analog o‘zgartkich KAO‘ da keyingi o‘zgartirish uchun qulay formaga o‘zgartiriladi, so‘ngra analog-raqamli o‘zgartkich (ARO‘) yordamida diskretlashtiriladi va kodlanadi. Va nihoyat, raqamli qayd etish qurilmasi RQQ o‘lchanayotgan kattalik bo‘yicha kodlangan ma’lumotni raqamli qaydnoma tarzida, operatorga qulay formada ko‘rsatadi. Tavsiya etiladigan ma’lumotni qulayligi va aniqligi sababli raqamli o‘lhash asboblari ilmiy-teshirish laboratoriylaridan keng o‘rin olgan.

Raqamli o‘lhash asboblari analog o‘lhash asboblariiga nisbatan quyidagi afzallikkarga egadir:

- yuqori aniqlik;
- keng ish diapazoni;
- tezkorlik;
- o‘lhash natijalarini qulay tarzda tavsiya etilishi;
- avtomatlashtirilgan tarmoqlarga ulash mumkinligi;
- o‘lhash jarayonini avtomatlashtirish imkoniyati mavjudligi va hokazolar.

Lekin, har to‘kisda bir ayb deganlaridek, raqamli o‘lhash asboblarning ham muayyan kamchiliklari mavjud:

- murakkabligi;
- tannarxining balandligi;
- nisbatan ishonchliliqi pastroq.

Lekin, integral sxemalarning tezkor rivoji natijasida yuqoridagi kamchiliklar tobora chekinib bormoqda.

Raqamli o‘lhash asbobining asosi bo‘lib ARO‘ hisoblanadi. Unda ma’lumot diskretlashtiriladi, so‘ngra kvantlanib kodlanadi. Diskretlashtirish - bu muayyan (juda qisqa) diskret vaqt oralig‘ida qaydnomalarni olishdir. Odatda, diskretlash qadamini doimiy qilishga harakat qilinadi. Kvantlash esa,  $X(t)$  kattaligining uzluksiz

qiymatlarini  $X_n$  diskret qiymatlarning to‘plami bilan almashtirish hisoblanadi. Kattalikning uzluksiz qiymatlari muayyan tartiblar asosida kvantlash darajalarining qiymatlari bilan almashtiriladi. Kodlashtirish esa, muayyan ketma-ketlikda ifodalangan sonli qiymatlarni tavsiya etishdan iborat.


Diskretlashtirish va kvantlash raqamli o‘lchash asbobining asosiy xatolik manbalari hisoblanadi. Bundan tashqari, kvantlash darajalarining soni ham o‘ziga yarasha xatoliklar kiritadi.

Suyuq kristalli indikatorlarning tezkor rivoji raqamli o‘lchash asboblarining ixchamlashuviga, energiya sarfining kamayishiga zamin yaratmoqda.

### **Kombinatsiyalangan raqamli o‘lchash asboblari**

Hozirgi zamon elektronikasining elementlar bazasi keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan raqamli o‘lchash asboblarini yaratishga imkon beradi.

Kombinatsiyalangan raqamli asboblar (KRA) ning asosiy qismi integrallovchi xossaga ega o‘zgarmas tok kuchaytirgichidan iborat. Kombinatsiyalangan raqamli asboblarning kirish qismiga o‘zgaruvchan tokni o‘zgarmas tokka aylantiruvchi, qarshilik, induktivlik va sig‘imni kuchlanishga o‘zgartiruvchi o‘zgartkichlar ulanadi.



**40-rasm Kombinatsiyalangan raqamli**

40-rasmida rezistor qarshiligini o‘lchovchi raqamli asbob sxemasi keltirilgan bo‘lib,  $R_x$  kuchaytirgich  $K$  ning manfiy teskari bog‘lanish zanjiriga ulanadi. Kuchaytirgichni kuchlanish bo‘yicha kuchaytirish koeffitsienti juda katta bo‘lgani uchun rezistor  $R_x$  kuchaytirgichga ulanganda kuchaytirgichning chiqish qismida kuchlanish hosil bo‘ladi. Kuchaytirgichning kirish qismidan o‘tuvchi

tok kichik bo‘lganligi tufayli asosiy tok  $R_x$  rezistor qarshilik orqali o‘tadi.

Shuning uchun kuchaytirgichning chiqish kuchlanishi:


$$U_{chiq} = IR_x$$

bo‘ladi. Kombinatsiyalangan SHCH-4313 rusumli raqamli asboblar 5 mV dan 500 V gacha o‘zgarmas va o‘zgaruvchan kuchlanishni, 5  $\mu\text{A}$  dan 500 mA gacha o‘zgarmas va o‘zgaruvchan tokni, 50 Om dan 5000 kOm gacha qarshilikni o‘lchashga mo‘ljallangan. Yuqoridagi qayd etilgan parametrlarni 45-20000 Hz chastota diapazonida o‘lchash mumkin. Bu asbobning og‘irligi 3kg, gabarit o‘lchamlari 300x70x300 mm. bo‘lib, u 220 V o‘zgaruvchan kuchlanishli tarmoqdan yoki 17,5 V li avtonom manbadan ta’minlanadi.

### **Mikroprotsessor bilan boshqariladigan raqamli o‘lchash asboblari**

Raqamli o‘lchash asboblari tarkibida mikroprotsessorni qo‘llash o‘lchash jarayonini soddalashtiradi, ularni qiyoslashni va kalibrlashni avtomatlashtiradi, o‘lchash natijalariga (axborotiga) statistik ishlov beradi va asboblarning metrologik xarakteristikalarini yaxshilaydi.

41-rasmda raqamli **mikroprotsessorli voltmetrni** sxemasi keltirilgan.



**41-rasm Raqamli mikroprotsessorli voltmetr sxemasi.**

Raqamli mikroprotsessorli voltmetrning kirish bloki mashtabli o‘zgartkich ( $MO'$ )dan iborat bo‘lib, u bir yo‘la o‘zgaruvchan ( $U_x$ ) kuchlanishni o‘zgarmas kuchlanishga o‘zgartiradi. Keyin esa o‘zgarmas tok kuchlanishi analog – raqamli o‘zgartkich ( $ARO'$ ) ga beriladi va u yerda raqam shakliga keltiriladi. Hozirgi zamон mikroprotsessorli asboblarda  $ARO'$  larning ikki bosqichda integrallaydigan turlari keng tarqalgan.

Kirish kuchlanishiga proportsional bo‘lgan ma’lum ketma – ketlikdagi Impulslar soni  $ARO'$ dan **mikroprotsessoring** (MP)


interfeysiiga uzatiladi. Masshtabli o‘zgartkich (MO‘) va mikroprotsessor (MP) lar o‘zaro tokli Impuls orqali bog‘lanadi.

Mikroprotsessor integrallash jarayonini boshqaradi va raqamli axborotni *raqamli displayga* (RD) chiqarib beradi. Raqamli display (RD) o‘lchangan kattalikni va unga tegishli matnli axborotni ham yozib chiqaradi.

Mikroprotsessorli voltmetrlar ko‘p dasturli asboblar hisoblanib, ular yordamida o‘lchangan kattaliklar ustida barcha *arifmetik* va *algebraik* amallarni, o‘rtacha kvadratik chetlanish (og‘ish), dispersiya, matematik kutilishlarni hisoblash hamda xotirlash amallarini bajarish mumkin.

Hozirgi paytda Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqariladigan SH 1531. SH 1612. V7-39, V7-40 rusumli hamda Germaniyada ishlab chiqariladigan 7055, 7065 turdagи mikroprotsessorli voltmetrlar keng ko‘lamda ishlatilmoqda.

**Mikroprotsessorli chastotomerda** (42-rasm) o‘lchash ketma-ket hisoblash usulida bajariladi.



**42-rasm. Mikroprotsessorli chastotomer sxemasi**

O‘lchanayotgan kuchlanish chastotasi *masshtabli o‘zgartkich* (MO‘) orqali *impuls shakllantirgich* (ISH) ga uzatiladi. ISH da kuchlanish Impulslarning davriy ketma-ketligiga o‘zgartirilib, *vaqt selektori* (VS)ga beriladi. **Mikroprotsessor** (MP) ma’lum davomiylari (misol uchun 1s bo‘lgan) Impulslar ishlab chiqaradi va ularni *vaqt selektori* (VS) ning ikkinchi kirish qismlariga uzatadi. Bu Impulslarning davomiyligi *Impulsli generator* (IG) bilan belgilanadi. Vaqt selektor (VS) ning ikkala kirishiga ta’sir qilayotgan signalga ko‘ra, uning mikroprotsessor belgilaydigan vaqt davomiyligi bilan chegaralangan Impulslar soni hosil bo‘ladi. Vaqt davomida ishlab

chiqarilgan Impulslar *impuls hisoblagich* (IH) da sanaladi va mikroprotsessor xotirasidagi chastota konstantasi (doimiyligi) bilan solishtiriladi. Solishtirish natijasi *raqamlı display* (RD) ga beriladi.

Raqamli o'lhash asboblari turli kattaliklar va parametrlarni o'lhashda ishlataladigan eng zamonaviy va istiqbolli o'lhash vositasi hisoblanadi. Raqamli o'lhash asboblarining narxi analogli asboblarga qaraganda qimmat bo'lishiga qaramay, ularga bo'lgan talab juda yuqori.

### **Takrorlash uchun savollar.**

1. Raqamli o'lhash asboblarda o'lhash signalini qanday o'zgartirishlar qilinadi?
2. Raqamli o'lhash asboblarining struktura sxemasini chizing va uning ishlashini tushuntiring.
3. Raqamli va analogli o'lhash asboblari nima bilan farqlanadi?
4. Mikroprotsessorli raqamli o'lhash asboblarining imkoniyatlarini va xususiyatlarini tushuntiring.
5. Mikroprotsessorli raqamli asboblar analogli asboblarga qaraganda qanday afzalliliklarga ega?

## **II-QISM. FIZIKAVIY-KIMYOVİY O'LCHASHLAR**

### **1-BOB. FIZIKAVIY- KIMYOVİY O'LCHAS USULLARI VA VOSITALARI.**

#### **2.1. "FIZIKAVIY- KIMYOVİY O'LCHASHLAR"NING MAQSADI VA VAZIFALARI**

Atrofimizdagi ihtiyyoriy olingan biror bir ob'ekt (predmet, jarayon yoki hodisa) to'g'risida gap borganda albatta ularni tavsiflovchi muayyan xossa (xossalar)ni ko'z oldimizga keltiramiz. Bu xossalar ko'p yoki kam darajada namoyon bo'lishi, boshqacharoq aytganda, miqdoriy baholanishi mumkin. Odatda miqdoriy baholashni o'lhash amali orqali bajarish mumkin.

O'lhashlar inson faoliyatining ajralmas bir bo'lagi bo'lib, uning hayotini o'lhashlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Kishi erta bilan uyg'ongan zahoti, birinchi navbatda vaqtini baholaydi, choy ichganda esa haroratni, ishga yoki o'qishga ketayotganda masofani baholaydi. O'lhashlar uzlucksiz, takroriy yoki davriy ravishda, ba'zan bilgan holda, ba'zan esa bilmagan holda sodir bo'lib turadi. Ona tabiat insonni shunday bir, ajoyib, faqat o'zigagina xos bo'lgan xususiyat, ya'ni hissiyot bilan ta'minlaganki, bu nafaqat insonlar uchun, balki barcha tirik mavjudot uchun ham xos bo'lgan bebaho in'omdir. Hissiyotni o'ta murakkab bir o'lhash asbobi sifatida tushunishimiz mumkin. Ammo shuni ta'kidlash joizki, atrofimizdagi muhitni, borliqni faqat hissiyot vositasidagina bilish bugungi kunga kelib, yetarli bo'lmay qoldi.

Faraz qilaylik, elektr tarmog'idagi kuchlanishning qiymatini bilmoqchisiz deb. Tabiiyki, faqatgina his etish organlari orqali buni amalga oshirib bo'lmaydi. Buning uchun bizga "voltmetr" deb ataladigan vosita lozim bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu o'lhash asbobidan foydalanish uchun mavjud tartib-qoidalarni ham bilish lozim bo'ladi.

Aksariyatingiz portfelda lineyka olib yurasiz. Odatda hammamiz bir narsaga odatlanib qolganmiz-ki, ushbu lineykada shkala bo'lishi, turli lineykalalardagi shkalalar bir xildagi bo'laklarga bo'linganligi biz uchun tabiiy hisoblanadi. Modomiki, ushbu lineykalarni ishlab chiqarish, ulardagi shkala belgilarini bir xil qilib tayyorlash tagida katta mehnat yotadi. Shu mehnat mobaynida ham bir qancha o'lhashlarni amalga oshirish kerak bo'ladi.

Hozirgi vaqtarda xech bir mutaxassis yo‘q-ki, o‘z ish faoliyati mobaynida o‘lchashlarni qo‘llamas. Uning oldida turgan muammo qanchalik murakkab bo‘lsa, o‘lchashlarning ahamiyati shunchalik salmoqli bo‘ladi. YuNESKO ma’lumotiga ko‘ra, hozirda inson faoliyatining 3000 dan ortiq sohasi aynan o‘lchashlar bilan chambarchas bog‘liq sanalar ekan.

Har bir ishda muayyan tartib-qoidalar mavjudligi kabi o‘lchashlarning ham o‘ziga xos bo‘lgan qoidalari, usullari va bu usullarni amalga oshirish uchun ko‘rsatma bo‘lib xizmat qiluvchi uslublari mavjud bo‘lib, bularning bari muayyan me’yoriy xujjatlar asosida bir tizimga keltirilgan.

Mana shu yuqorida aytilgan o‘lchashlar, hoh oddiy, hoh murakkab bo‘lsin, hoh bir martada o‘lchanadigan, hoh ko‘p martada o‘lchanadigan bo‘lsin, hoh oddiygina lineyka vositasida, hoh juda katta o‘lchamli maxsus qurilmalarda o‘lchanadigan bo‘lsin, barchasi uchun taalluqli bo‘lgan va aynan shu masalalar bilan shug‘ullanadigan alohida fan mavjud bo‘lib, unga **metrologiya** nomi berilgan. Metrologiya fani ham o‘z navbatida bir nechta tarmoqlarga bo‘linadi. Bu tarmoqlar o‘zining mohiyati, mazmuni, faoliyat doirasi va ob’ektlari bilan o‘zaro farqlanadi. Ushbu, "Fizikaviy-kimyoviy o‘lchashlar" fani ham metrologianing bir tarmoq fanlaridan hisoblanadi.

### **O‘lchashlar nazariyasi va texnikasining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati**

O‘lchash vositalari shunchalik rang-barang va har xil sohalarda ishlatalidiki, ular ishlatilmaydigan biror inson faoliyatini eslash juda qiyindir. Shunga qaramasdan, o‘lchashlar nazariyasi va texnikasining ijtimoiy ishlab chiqarishga ta’siri bo‘yicha uchta asosiy yo‘nalishni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Falsafiy nuqtai nazarda o‘lchash vositalari dunyoni bilish quroli deb tasavvur qilinadi;
2. Ilmiy nuqtai nazarda o‘lchash texnikasi tabiatni tekshirish amaliyoti va nazariyasi orasidagi bog‘lovchi vosita deb qaraladi;
3. Muxandislik- texnikasi nuqtai nazarida o‘lchash texnikasi texnologik jarayonlarni boshqarishning eng qulay vositasi deb tushuniladi.

O'lchash vositalari ishlatiladigan barcha sohalarda ularga muayyan talablar qo'yiladi. Masalan, ilmiy ishlarda qo'llaniladigan o'lchash vositalariga yuqori aniqlik, qishloq xo'jaligidagilari uchun - murakkab ob-havo sharoitlarida ishlash qobiliyatlarining mavjudligi va yuqori ishonchliligi, tibbiyotdagilari uchun- mijoz a'zolarining tavsiflari va o'lchanayotganda uning havfsizligi va boshqa talablar qo'yiladi.

Hech qanday bo'rttirmasdan aytish mumkinki, har qanday tajribaning asosida biror kattalikni o'lchash yotadi. Bu nafaqat, avvaldan tajribaga asoslangan fizika, kimyo yoki boshqa fanlarga tegishli. Hattoki, nazariy fanlar malikasi riyoziyotda ham o'lhashlar ishlatiladi. Bu xususda buyuk olim Dmitriy Mendeleevning quyidagi so'zlarini eslatib o'tish joiz bo'ladi - «Har qanday fan o'lhashlar bilan boshlanadi». Ma'lumki, o'lchash-axborot vositalarining rivoji ilm-fan va texnikaning, jumladan sanoatning rivoji va yutuqlarini belgilaydi.

Ilmiy izlanishlarda fizikaviy kattaliklarni o'lchash har xil hodisalarini tekshirishda ishlatiladi va bu natijalar keyinchalik texnikada, qishloq ho'jaligida, tibbiyotda va boshka sohalarda qo'llaniladi. Shuning uchun odatda ilmiy tekshirishlar uchun mo'ljallangan asboblar prinsipial yangiliklari, tafovutlari bilan ajralib turadi.

Tajriba maqsadidan uning natijasigacha bo'lgan yo'l qanchalik qisqa bo'lsa, bu natija shunchalik qimmatroq bo'lib, atrofimizdagi dunyo qonuniyatlarini tezroq aniqlab, bizga, jamiyatga muayyan darajada ko'prok foyda keltiradi. Ilmiy asboblar yaratishdagi tezkorlik va yangilik talablarining uyg'unligi ilmiy izlanishlarda avtomatlashtirilgan usullardan va prinsiplardan foydalanish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Ilmiy ishlar avtomatlashtirilgan tizimlarining (IIAT) afzalliklari shundan iboratki, ulardan olinayotgan ma'lumot qayta ishlangan va umumlashtirilgan tajriba natijalari, hamda tekshirilayotgan hodisalarning matematik modelini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

IIATlarni yaratishdagi modul (ya'ni agregat) prinsipidagi qurilmalar uchun umumlashtirilgan o'lhashlar hisoblash komplekslarining asosi hisoblanadi. Agregatlashtirish va umumlashtirish - ko'p maqsadli o'lchash o'zgartkichlari va ular to'plamidan talab qilingan funksional imkoniyat va tavsifli o'lchash

vositalarini tashkil qilish maqsadida foydalanishdan iboratdir. Asosan quyidagilar umumlashtiriladi: oraliq o‘zgartkichlar, o‘lchash axborotlarini qayta ishlagichlar va ko‘rsatkichlar, kuchaytirgichlar, berilgan qiymatlarni uzatuvchi qurilmalar, analog-raqamli o‘zgartkichlar, tutashtirish qurilmalari. Kerakli o‘lchash vositasini yig‘ish uchun umumlashtirilgan modullar xar xil tuzilishga ega bo‘lgan agregatlarga birlashtirilishi mumkin. Hozirgi paytda ilmiy ishlarda qo‘llanilayotgan har xil umumlashtirilgan tizimlar ishlab chiqilgan.

Shuni eslatib o‘tish joizki, umumlashtirilgan tizimlar o‘zlarining mutloq afzalliklari bilan birgalikda ba’zi bir kamchiliklarga ham ega. Bulardan birinchisi- umumiylikni yuzaga keltiruvchi har xil asboblarning ko‘pligi. Bu kamchilik geofizik, kosmik, okeanografik va boshqa tekshirishlar uchun dinamik o‘lchash tizimlarini tashkil etishda asosiy to‘siquidlardan biridir, chunki bu asboblar ihchamlik, yengillik, kam iste’mol quvvati, yuqori ishonchlilik kabi talablarga javob bermaydi.

Asboblarning ko‘pligidan tashqari, ilmiy asbobsozlikda o‘lchash axborotlarini idrok qiluvchi vositalar (birlamchi o‘lchash o‘zgartkichlari)ning noyob va nodir ekanligini ta’kidlab o‘tish kerak. Bunga sabab, yangi hodisalar va qonuniyatlarni tekshirishning modda ichki tuzilishiga yanada chuqurrok kirib borishga bog‘likligi bo‘lib, avval yasalgan va ishlatilayotgan o‘lchash axborotlarini idrok qiluvchi vositalar imkoniyatining cheklanganligidir. Bundan tashqari, ilmiy tekshirishlarda o‘lchash kerak bo‘ladigan fizikaviy kattaliklar miqyosi sanoat, qishloq ho‘jaligi, tibbiyot va boshqa sohalarda uchraydiganlariga nisbatan ancha kengdir.

## Sanoatdagi o‘lchashlar

O‘lchash vositalaridan asosan texnikaviy o‘lchashlarda qo‘llaniladi. Hozirgi vaqtida o‘lchash vositalari to‘plami bilan jihozlanmagan zamonaviy stanoklar yoki avtomatik yo‘nalishlarni uchratish qiyin. Sanoatda ishlatiladigan o‘lchash vositalarining ko‘p qirraligiga qaramasdan, quyidagi asosiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- texnologik qurilmalar holatini baholovchi vositalar;
- ob‘ektning avtomatik tizim va avtomatlashtirilgan boshqaruvdagi holatini baholovchi vositalar;

- moddalar tarkibini o‘lhash vositalari;
- sanoat robotlarining "his etuvchi" vositalari;
- jismlar va moddalarning xususiyatlarini o‘lhash vositalari;
- ishlab chiqarilgan buyumlar sifatini baholovchi vositalar;
- mahsulotlarning sifatini va miqdorini o‘lhash vositalari.

Sanoatda ham ilmiy tekshirishlarda o‘lchangani kabi, fizikaviy kattaliklarni o‘lhash ehtiyoji mavjuddir. Ammo, bu holatda o‘lhash sharti va diapazoni keskin farq qiladi. Masalan, ilmiy tekshirishlarda o‘lchamlar atom qismiga teng o‘lchamlardan, to yulduzlar va galaktikalararo masofalargacha o‘lchanadi. Temperatura Kelvin gradusining o‘nli ulushlaridan, to o‘nlab million gradusgacha teng oraliqda o‘lchanadi. Massa esa elementar zarracha massasidan, to yulduzlar massasigacha o‘lchanadi. Ilmiy tekshirishlarda o‘lhashlarni bajarishda diapazonni qanchalik o‘zgarishini quyidagi misollarda ko‘rishimiz mumkin:

Antarktidagi o‘lhash asboblaridan past temperaturalarda (-60<sup>o</sup>S gacha) muqobil ishlay olish qobiliyati talab etilsa, Sahroi Kabirdagi o‘lhash asboblariga esa birmuncha issiqroq (60<sup>o</sup>S gacha) bo‘lgan sharoitda me’yorli ishlay olish talablari qo‘yiladi. Yoki shunga o‘xhash, atrof muhitdagi bosimi yuzlab *atm*. bo‘lgan okean tubini tadqiq etishga mo‘ljallangan o‘lhash asboblari bilan koinotning fazo bo‘shlig‘idagi turli tadqiqot maqsadlaridagi o‘lhash asboblari.

Odatda sanoatdagi o‘lhash vositalarining imkoniyat chegaralari birmuncha torroq bo‘ladi. Ammo, bu sohada ham o‘lhash vositalariga bir qator alohida talablar qo‘yiladiki, ularning butkul bajarilishi muayyan to‘siqlarni yengishga bog‘liqdir. Birinchi navbatda sanoat asboblarining ilmiy tekshirish asboblaridan farqli ravishda seriyali ishlab chiqarishga va ko‘plab korxonalarda ishlatilishga mo‘ljallanganligini eslash kifoyadir. Bu talab sanoat asboblarida seriyali ishlab chiqarish sharoitida faqat iqtisodiy foyda keltiradigan texnik yechimlardan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu yerda qimmatbaho materiallar va elementlarni, juda murakkab texnologik jarayonlarni qo‘llash mumkin emas. Bundan tashqari, sanoat asboblari yetarli darajada ishlatish va ta’mirlash uchun sodda bo‘lishligi kerak, chunki hamma sanoat korxonalarida

ham murakkab o‘lhash asboblarini ishlata oladigan yuqori malakali mutaxassislar bo‘lavermaydi.

Sanoat asboblari doimo rivojlanishdadir. Har yili seriyali ishlab chiqarishga yangi o‘lhash asboblari va to‘plamlari joriy qilinadi. Lekin oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tekshirish oliygohlaridagi olimlarning, loyihalash oliygohlari va loyihalash byurolaridagi loyihachilarning hamma urinishlariga qaramasdan sanoatda o‘lhash va nazorat vositalari tanqisligi sezilarlidir. Ushbu jihatdan o‘lhash va nazorat vositalarining ishlab chiqarilishini ko‘paytirishga mo‘ljallanganligi texnologik jarayonlar foydaliligi, mahsulot sifatini hamda ishlab chiqarish salmog‘i va madaniyatining oshishiga olib keladi.

### **Nazorat savollari.**

1. Turli kasb yo‘nalishlarida o‘lhashlarning qo‘llanishiga misollar keltiring.
2. «Oddiy» va «murakkab» o‘lhashlar deganda nimani tushunasiz?
3. O‘lhashlar nazariyasi va texnikasining ijtimoiy ishlab chiqarishga ta’siri o‘lhash vositalarining turlari.
4. Sanoatdagi o‘lhashlar haqida ma’lumot bering.
5. Ihtiyoriy olingan 5 ta soha yo‘nalishiga tegishli o‘lhashlarga misollar keltiring.
6. Mahsulot sifatini o‘lhashni qanday tushunasiz?
7. «Qobusnom» kitobida o‘lhashlarga oid juda ko‘p eslatmalar bor. Shulardan bir nechtasiga izoh bering.
8. Inson o‘lhash vositasi sifatida qurilishi mumkinmi?
9. Sanoatda o‘lhashlar qaysi sifatlarda namoyon bo‘ladi?
10. O‘zbekiston sharoitida ishlatilinuvchi o‘lhash asboblarini Germaniya va Polshadagilaridan farqi bormi?

## **2.2.O‘LHASHLAR, O‘LHASH TURLARI, O‘LHASH VOSITALARI, ULARNING ELEMENTLARI VA PARAMETRLARI**

O‘lhash — fizik kattaliklarning qiymatlarini maxsus texnik vositalar yordamida tajriba usuli bilan topishdir.

Ko‘p hollarda o‘lhash jarayonida o‘lchanayotgan kattalikni shunday fizik kattalik bilan taqqoslanadiki, unga 1 ga teng bo‘lgan qiymat beriladi va u fizik kattalik birligi yoki o‘lchov birligi deyiladi. O‘lhash natijasi— kattalikning uni o‘lhash usuli bilan, masalan, kattalikni o‘lchov birligi bilan taqqoslash usuli yordamida topilgan qiymatidan iborat. O‘lhash natijasini tenglama ko‘rinishida quyidagicha yozish mumkin:

$$U = \frac{Q}{q} \text{ yoki } Q = Ug, \quad (1)$$

bunda  $Q$  — o‘lchanayotgan fizik kattalik,  $U$  — o‘lhash natijasi yoki o‘lchanayotgan kattalikning son qiymati,  $q$  — fizik kattalik birligi. Mazkur (1) tenglama o‘lhashning asosiy tenglamasi deyiladi. Uning o‘ng tomoni o‘lhash natijasi deb yuritiladi. O‘lhash natijasi doimo o‘lchamli kattalik bo‘lib, u o‘z nomiga ega bo‘lgan  $q$  birlikdan hamda ayni birlikdan o‘lchanayotgan kattalikda nechta borligini anglatadigan  $U$  sondan tashkil topgan.

O‘lchanayotgan kattalikning son qiymati bevosita, bilvosita birlashtirib va birgalikda o‘lhash usullari yordamida topiladi. Laboratoriya amaliyotida va ilmiy tekshirishlarda birlashtirib va birgalikda o‘lhash usullaridan foydalaniadi.

Bevosita o‘lhash deb shunday o‘lhashga aytildiki. unda o‘lchanayotgan kattalikning izlanayotgan qiymati tajriba ma’lumetlaridan bevosita aniqlanadi. Masalan, temperaturani termometr bilan, bosimni manometr bilan, uzunlikni CHizg‘ich bilan o‘lhash va hokazo bevosita o‘lhashdan iborat.

Bevosita o‘lhash tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$Qn=Cn \quad (2)$$

bunda  $Qn$ — o‘lchanayotgan kattalikning uning uchun qabul qilingan o‘lchov birliklaridagi qiymati;  $S$  — raqamli hisoblash qurilmasi shkalasi bo‘linmalarinnng yoki bir marta ko‘rsatishining o‘lchanayotgan kattalik birliklaridagi qiymati;  $p$  — shkala bo‘linmalari hisobida nidikatorli qurilma bo‘yicha olingan sanoq.

Bilvosita o‘lhash deb shunday o‘lhashga aytildiki, unda o‘lhash nagijasini o‘lchanayotgan kattalik bilan ma’lum munosabat yordamida bog‘langan kattaliklarni bevosita o‘lhashga asoslangan bo‘ladi. Bilvosita o‘lhash tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$Qk = F(Q1, Q2, \dots, Qn) \quad (3)$$

bunda Qk— o‘lchanayotgan kattalikning izlangan qiymati; Q1 , Q2 ....Qn - bevosita o‘lchanadigan kattaliklarning son qiymatlari.

Bilvosita o‘lchashga o‘tkazgichning solishtirma elektr qarshilagini uniig qarshiligi, uzunligi va ko‘ndalang kesimi yuzi bo‘yichi topiish, jism zichligini uning massasi va hajmini o‘lchash natijasi bo‘yicha topish va boshqalar misol bo‘la oladi. Bilvosita o‘lchashlar bevosita o‘lchashlarning iloji bo‘lmagan ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda keng qo‘llaniladi.

Birlashtirib o‘lchash bir necha bir nomli kattalikkarni bir vaqtda o‘lchashdan iboratki, unda izlangan kattaliklarning qiymatlari bevosita o‘lchashda hosil qilingan tenglamalar sistemasidan topiladi.

Bir vaqtda ikki yoki bir necha turli nomli kattalikkarni ularning orasidagi funksional munosabatlarni topish uchun olib borilgan o‘lchashlar birgalikda o‘lchash deyiladi. Jumladan o‘lchash rezistorining  $20^{\circ}$  S dagi elektr qarshiligi va temperatura koeffitsientlari uning qarshilagini turli temperaturalarda bevosita o‘lchash ma’lumotlari bo‘yicha topiladi.

O‘lchashlar yana absolyut va nisbiy o‘lchashlarga bo‘linadi.

Bitta yoki bir necha asosiy kattalikkarni fizik konstantalar qiymatlaridan foydallnb yoki foydalanmasdan bevosita o‘lchash absolyut o‘lchash deb ataladi. Masalan, shtangensirkul yordamida bajarilgan o‘lchashlar absolyut o‘lchashdir, chunki unda o‘lchanayotgan kattalik qiymati bevosita olinadi.

Biror kattalikning shu ismli birlik rolini o‘ynayotgan kattalikka nisbatnni o‘lchash yoki kattalikni shu ismli birlik kattalik deb qabul qilingan kattalik bo‘yicha o‘lchash nisbiy o‘lchash deb ataladi. Masalan, optmetr yoki pishangli skoba yordamidagi o‘lchashlar nisbiyidir: avval oxirgi o‘lchov yoki oxirgi o‘lchov bloki qo‘yiladi va o‘lchash vositalari shkaladagi ko‘rsatkich nolga teng bo‘ladigan qilib sozlanadi, so‘ngra o‘lchanadigan detalni joylashtiriladi va sanoq olinadi, ya’ni strelka detal o‘lchamining oxirgi o‘lchov yoki blokning ma’lum o‘lchamidan chetga chiqishini ko‘rsatadi. Temperaturani termo - elektr effektdan foydalanishga asoslangan o‘lchash yoki massani tertish usuli bilan, ya’ni massaga proporsional bo‘lgan og‘irlik kuchidan foydalanish usuli bilan o‘lchash ham nisbiy o‘lchashdan iborat. Nisbiy o‘lchashdan katta aniklik zarur bo‘lgan hollarda foydalaniladi.

O'lchashlar o'lhash prinsipini aniqlab beradigan fizik hodisalarga asoslanib olib boriladi. Masalan, moddaning kengayishi bo'yicha temperaturani o'lhash, muvozanatlashtiruvchi suyuqlik ustuning ko'tarilishi bo'yicha vakuumni o'lhash O'lhashning biror prinsipini amalga oshirish uchun turli texnik vositalar qo'llaniladi. O'lhashlarda qo'llaniladigan va normallashgan metrologik xossalarga ega bo'lgan texnik vositalar o'lhash vositasi deyiladi. O'lhash prinsipini va vositasini belgilab beradigan usullar majmui o'lhash usuli deyiladi.

O'lhashlarda bevosa (to'g'ridan-to'g'ri) baholash, differensial, o'lchov bilan taqqoslash va nol (kompensatsiey) usullar keng tarqalgan.

Bevosita baholash usuli o'lchanayotgan kattalik miqdorini bevosa o'lhash asbobining hisoblash qurilmasi bo'yicha bevosa topish imkonini beradi. Masalan, bosimni prujinali manometr bilan, massani siferblatli tarozida, tok kuchini ampermetr bilan o'lhash va h. Bu usulda o'lhash aniqligi uncha katta bo'lmasa ham, o'lhash jarayonining tezligi uni amalda qo'llanishda tengi yo'q usulga aylantiradi.

Differensial (ayirmali) usul o'lchanayotgan va ma'lum kattaliklarning ayirmasini o'lhashni xarakterlaydi. Masalan, gaz aralashmasi tarkibini havoning issiqlik o'tkazuvchanligiga taqqoslash yo'li bilan issiq o'tkazuvchanlik bo'yicha o'lhash.

G'oyatda aniq o'lhashlarda o'lchov bilan taqqoslash usuli qo'llaniladi. Bunda o'lchanayotgan kattalik o'lchov yordamida topilgan kattaliklar bilan taqqoslanadi. Masalan, o'zgarmas tokning kuchlanishini elektr yurituvchi kuchi normal element EYuK iga teng bo'lgan taqqoslash kompensatorida o'lhash yoki massani pishangli tarozilarda muvozanatlashtiruvchi toshlar bilan o'lhash. Bu usul ta'sir etuvchi kattaliklarning o'lhash natijasida ta'sirini kamaytirishga imkon beradi, chunki ular o'lchanayotgan kattaliklarni o'zgartirish zanjirida ham, o'lchov natijasida topilgan kattaliklar zanjirida ham o'lhashga doyr signallarni ko'pmi yoki ozmi tekis buzadi.

Nol (kompensatsion) usul o'lchanayotgan kattalikni qiymati ma'lum bo'lgan kattalik bilan taqqoslashdan iborat, ammo ular orasidagi ayirma ma'lum kattalikni o'zgartirish usuli bilan nolga keltiriladi. Potensiometrlar, muvozanatlashtirilgan ko'priklar va

boshqalar nol usulga asoslangan asboblarga misol bo‘la oladi. Nol usul o‘lchashning yuqori aniqligini ta’minlaydi.

### **O‘lchash vositalari, ularning elementlari va parametrlari**

O‘lchash vositalari o‘lchashlarda ishlataladi va ular normallashgan metrologik xossalarga, ya’ni kattaliklarning ma’lum sonli qiymatlariga hamda o‘lchash natijalarining aniqligi va ishonchliliginu ifodalovchi xossalarga ega bo‘ladi.

O‘lchash vositalarining asosiy turlariga o‘lchovlar, o‘lchash asboblari, o‘lchash o‘zgartkichlari va o‘lchash qurilmalari kiradi.

O‘lchov — berilgan o‘lchamdagи fizik kattalikni qayta o‘lchash uchun mo‘ljallangan o‘lchash vositasi. Masalan, qadoqtosh — massa o‘lchovi; o‘lchov rezisteri—elektr qarshilik o‘lchovi; yoritish lampasi—yorug‘lik o‘lchovi va h.

Vir xil o‘lchamli fizik kattalikni qayta o‘lchaydigan bir qiymatli hamda turli o‘lchamdagи qator bir nomli kattaliklarni qayta o‘lchaydigai ko‘p qiymatli o‘lchovlar bor. Ko‘p qiymatli o‘lchovlarga bo‘linmali chizgichlar, induktivlik variometri va boshqalar misol bo‘la oladi. Maxsus tanlangan, faqat alohidagina emas, balki turli birikmalarda turli o‘lchamli qator bir nomli kattaliklarni qayta o‘lchash maqsadida ko‘llaniladigan o‘lchovlar komplekta o‘lchovlar to‘plamini tashkil etadi. Masalan, qadoqtoshlar to‘plami, uchlikli uzunlik o‘lchovlari to‘plami, o‘lchov kondensatorlari to‘plami va h. O‘lchovlar magazini — sanoq qurilmalari bilan bog‘langan maxsus qayta o‘lagichlarga ega bo‘lgan bitta konstruktiv butun qilib bir lashtirilgan o‘lchovlar to‘plami. O‘lchovlar magazini elekgro - texnikada teng qo‘llaniladi: qarshnlik magazini, sig‘imlar magazini, indukvliklar magazini.

O‘lchovlarga standart namunalar va namuna moddalar ham kiradi.

Standart namuna — modda va materiallarning xossalalarini yoki tarkibini xarakterlovchi kattaliklarning birligini qayta tiklash uchun o‘lchov. Masalan, tarkibidagi ximiyaviy elementlari ko‘rsatilgan ferromagnit materiallar xossalalarining standart namunasi.

Namuna modda — tasdiqlangan spetsifikatsiyada ko‘rsatilgan tayyorlash shartlariga rioya qilinganda tiklanadigan ma’lum xossalarga ega bo‘lgan moddadidan iborat o‘lchov. Masalan, „toza“ gazlar, „toza“ metallar, „toza“ suv.

Kuzatuvchi idrok qilishi uchun qulay shakldagi o‘lchov informatsiyasi signalini ishlab chiqishga xizmat qiladigan o‘lchash vositasi o‘lchovasbobi deyiladi. O‘lchsv asbobida kuzatuvchi o‘lchanayotgan kattalikning son qiymatini o‘qishi yoki sanashi mumkin. O‘lchov asboblari analog va raqamli bo‘lishi mumkin. Analog o‘lchov asboblari asbobning ko‘rsatishi o‘lchanayotgan kattalik o‘zgarishining o‘zluksiz funksiyasidan iborat bo‘ladi, raqamli ulchov asboblari esa ko‘rsatishlar o‘lchov informatsiyasi signalini diskret o‘zgartirish patijasidan iborat bo‘lgan raqamli shaklda ifodalangan bo‘ladi.

Keyingi vaqtarda raqamli asboblар borgan sari kengroq qo‘llana boshlandi, chunki ularning ko‘rsaguvlari osongina qayd qilinadi, ularni EHMga kiritish uchun qulay. Raqamli asboblarning tuzilishi o‘lchashda analog asboblarga qaraganda katta aniqlikka erishishga imkon beradi. Shu bilan birga rakamli asboblар qo‘llanganda o‘qish xatoligi bo‘lmaydi. Ammo analog asboblар raqamli asboblarga qaraganda anchagina sodla va arzondir.

O‘lchov asboblari ko‘rsatuvchi, qayd qiluvchi, kombinatsiyalangan, integrallovchi va jamlovchi asboblarga bo‘linadi. Ko‘rsatuvchi asboblarda raqamli qiymatlar shkala yoki raqamli tablodan o‘qiladi. Qayd qilunchi asboblarda ko‘rsatuvlarni yo diagramma qog‘ozida yozib olish yoki raqamli tarzda chop etish ko‘zda tutiladi. Kombinatsiyalangan asboblар o‘lchanayotgan kattalikni bir vaqtning o‘zida ko‘rsatadi hamda qayd qiladi. Integrallovchi asboblarda o‘lchanayotgan kattalik vaqt bo‘yncha yoki boshqa erkli o‘zgaruvchi bo‘yicha ingegrallanadi. Jamlov-chi asboblarda ko‘rsatishlar turli kanallar bo‘yicha unga keltirilgan ikki yoki bir necha kattaliklarning yig‘indisi bilan funksional bog‘langan bo‘ladi.

O‘lchashga doir axborotni uzatish, o‘zgartish, ishlov berish va saqlash uchun qulay bo‘lgan, ammo kuzatuvchi bevosita idrok qilishi mumkin bo‘lmaydigan shakldagi signalni ishlab chiqish uchun xizmat qiladigan o‘lchash vositasi o‘lchash o‘zgartkichi deb ataladi. Inson o‘zining sezgi organlari bilan o‘lchash o‘zgartkichi signallarini qabul qila olmaydi. O‘zgartiriladigan fizik kattalik kirish kattaligi, uning o‘zgartirilgani esa chiqish kattaligi deyiladi. Kirish va chiqish kattaliklari orasidagi bog‘lanishni o‘zgartkich funksiyasi qaror toptiradi. O‘lchash o‘zgartkichlari o‘lchov asboblарining, turli o‘lchov

sistemalarining, biror jarayonlarni avtomatik nazorat qilish yoki boshqarish sistemalarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ulchanayotgan kattalik keltirilgan o‘lchash o‘zgartkichi birlamchi o‘zgartkich deyiladi. Birlamchi o‘lchash o‘zgartkichlari, ko‘pincha, datchik deb yuritiladi. Uning bevosita o‘lchanayotgan kattalik ta’siridagi qismi sezuvchan element deyiladi. Masalan, termoelektrik termometrda termopara, manometrik termometrda termoballon ana shunday elemeptlardir. O‘lchov asboblari va o‘zgartkichlari o‘lchanayotgan kattalikning turiga qarab tegishli nomlarga ega bo‘ladi, masalan, termometrlar, manometrlar, difmanometrlar, sarf o‘lchagichlar, satx o‘lchagichlar, gaz analizatorlari, konsentratorler, nam o‘lchagichlar va h.

Ko‘rsatuvchi analog o‘lchov asboblarining sanoq qurilmasi shkala va (strelkali yoki nurli) ko‘rsatkichdan tuzilgan 1-rasmida o‘lchov asbobining shkalasi ko‘rsatilgan. SHkaladagi sonli qiymatlar ko‘rsatilgan belgilar shkalaning sonli belgilari deyiladi. SHkalaning ikki qo‘shti belgilari orasidagi oraliq shkalaning bo‘linmasi deyiladi. SHkalaning ikki qo‘shti belgisi mos kelgan kattalik qiymatlari ayirmasi shkala bo‘linmasining qiymati deyiladi. O‘zgarmas bo‘linmali va o‘zgarmas qiymatli shkala tekis shkala deyiladi.




1 O‘lchov asbobi - shkalasi

O‘lchanayotgan kattalikning sanoq kurilmasi bilan aniqlanadigan hamda o‘lchanayotgan kattalik uchun qabul qilingan birliklarda ifodalangan qiymatlari o‘lchov asbobining ko‘rsatishlari deyiladi. O‘lchanayotgan kattalikning shkalada ko‘rsatilgan eng kichik qiymati shkalaning boshlang‘ich qiymati, eng katta qiymati esa shkalaning oxirgi kiymati deyiladi. SHkalaning uning boshlangich va oxirgi qiymatlari bilan chegaralangan qiymatlari sohasi (oraligi) ko‘rsatuvlar diapazoni deyiladi. O‘lchanayotgan kattalikning o‘lchov vositalari uchun yo‘l qo‘yiladigan xatoliklar normalangan qiymatlari

sohasi o'lchov asbobi yoki o'lchov o'zgartkichining o'lchov diapazoni deyiladi. Texnik asboblarda, odatda, o'lchov diapazoni bilan ko'rsatuvlar diapazoni mos keladi. O'lchov dipiazonining eng kichik va eng katta kiymatlari o'lchov chegaralari deyiladi.

Shkaladan sanoq olishda shkala qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan bo'lishi mumkin. SHkalalarda belgilar to'g'ri chiziq bo'y lab yoki yassi yoxud silindrsimon sirtdagi aylana yoyi bo'y lab joylashgan bo'ladi. 44-rasmida o'lchov asboblari shkalalarining eng ko'p uchraydigan turlari ko'rsatilgan



44-rasmda

a – to'g'ri ichiziqli; b – yoysimon (yoy burchagi 180 gacha)

g – yoysimon (yoy burchagi 180 dan yuqori) d – silindrsimon.

Asboblarning shkalalari bir tomonlama, ikki tomonlama va nolsiz bo'lishi mumkin. Bir tomonlama shkalalarda o'lchov asbobi chegaralaridan biri nolga teng bo'ladi (masalan, ko'rsaguvar chegaragi 0 dan 100° S gacha bo'lgan simob termometri) Agar shkalada nol belgisi uning boshlang'ich va oxirgi chegarasi bilap ustma-ust tushmasa, u ikki tomonlama shkala deyiladi (masalan, ko'rsatuvlar chegarasi —0,1 ... 0 ... 0,15 MPa bo'lgan manometr). Agar shkala nol belgisiga ega bo'lmasa, u nolsiz shkala deyiladi (masalan, ko'rsatuvlar chegarasi 200 dan 400° S gacha bo'lgan termometr).

Ko'rsatkichning vaziyati uning shkala boshidan chiziqli yoki burchakli siljishi bilan aniqlanadi. Ko'rsatkich vaziyati bilan sanoq orasidagi bog'lanish shkala xarakteristikasi deyiladi. Ko'rsatkichi burchakli siljiydigan asboblarning shkala xarakteristikasi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:


$$n = F(\phi) \quad (4)$$

bunda  $\phi$ — ko'rsatkichning shkala boshidan burilish burchagi.

To'g'ri chiziqli shkalali asboblar uchun

$$n = f(L) \quad (5)$$

bunda L — ko'rsatkichning shkala boshidan chiziqli siljishi. 45-rasmda shkalalari sanoq qurilmalari sxematik ko'rsatilgan.



45- rasm. Qayd kiluvchi qurilmalari: a—qutb koordinatalarida; b—to'g'ri chiziqli koordinatalarda; v—davriy kayd qiluvchi.

Qayd qiluvchi o'lchov asboblari qog'oz lentalarga yoki diskka o'lchanayotgan kattalikning hozirgi qiymatini vaqt bo'yicha avtomatik yozib beruvchi moslama bilan ta'minlanadi. Bir holda qogoz lentada (diskda) uzluksiz chiziq pero bilan chiziladi, boshqa holda lentada davriy ravishda sanoqlarning sonli qiymatlari chop egiladi. Bitta qog'oz lentada bir necha egri chiziq yozilishi (chizilnshi) mumkin. Bu holda o'lchov asbobining ichiga yantomatik uzbekich-ulagich o'rnatiladi, u o'lchovning bir necha nuktalarida joylashgan birlamchi o'zgartkichlardan birini o'lchov sistemasiga navbat bilan ulaydi. Z-rasmda qayd qiluvchi tipik qurilmalarning sxemalari keltirilgan.

Qayd kiluvchi qurilmalarning xarakteristikasi shkalalik sanoq qurilmalari xarakteristikasiga o'xshash va (4), (5) tenglamalar bilan ifodalanadi. Qayd qiluvchi kurilmalar uchun (3-rasm, a, b) bu tenglamalarda  $\varphi$  va L tegishli burilish burchagini hamda pero ushlagichning diagramma to'ri CHizig'ining nolli belgisidan siljishini, U esa to'r bo'yicha olingan sanoqni anglatadi. Davriy chop etuvchi kayd kiluvchi qurilma uchun xarakteristika (3-rasm, v) (4) tenglama bilan tasvirlanadi, unda  $\varphi$ —kirish valchasining burilish burchagi, U—chop etilgan son (sanoq).

Disksimon diagrammalar tekis va notekis bo'linmali bulishi mumkin Lentasimon diagrammalar ham ikki turli bo'ladi; o'lchash asbobi perosi to'g'ri chiziqli harakat qiladigan va perosi aylana yoyi bo'ylab harakat qiladigan. Ko'rsatkichi kam kuch bilan siljtiladigan asboblarda (masalan, o'zi yozuvchi millivoltmetrlarda) yozish yordamchi qurilma yordamida amalga oshiriladi.

Ayrim o‘lchov vositalari va o‘lchov sistemalaridan tashqari murakkab informatsion-o‘lchov sistemalari ham qo‘llaniladi. Ular ko‘plab nuktalarda avtomatik o‘lchashni amalga oshirishnigina ta’minlab qolmay (o‘lchov kanallari soni ming-minglab bo‘lishi mumkin). balki o‘lchash natijalarini berilgan algoritmlar buyicha zarur qayta ishslashni ham bajaradi. Shu munosabat bilan o‘lchash o‘zgartkichlarining informatsion-hisoblash mashinalarining va kirish qurilmalarining kirishiga keladigan signallarni unifikatsiyalashtirish zarurati tug‘ildi. Signallarni unifikatsiyalashtirish o‘lchov asboblari turlarini minimumga keltirish imkonini beradi, o‘lchov vositalarining o‘zaro almashinuvchanligini ta’minlaydi.

O‘lchov vositalari o‘lchash jarayonidagi bajarayotgan vazifasi, roliga qarab ish, namuna va etalon o‘lchov asboblariga bo‘linadi.

Ish o‘lchov vositalari xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida amaliy o‘lchashlar uchun mo‘ljallangan. Ular anikligi orttirilgan o‘lchov vositalariga va texnik o‘lchov vositalariga bo‘linadi.

Namuna o‘lchov vositalari ish o‘lchov asboblarini tekshirish va ularni o‘zları bo‘yicha darajalashga xizmat kidali.

Etalonlar fizik kattalik birliklarini kayta tiklash va saqlash, ularning o‘lchamlarini namuna o‘lchov asboblari orkali xalq xo‘jaligida qo‘llanadigan ish o‘lchov vositalariga o‘tkazishga xizmat qiladi. Fizik kattaliklarning birliklari o‘lchami shu usul bilan etalonlardan namuna o‘lchov asboblari yordamida boshqa o‘lchov asboblariga o‘tkaziladi.

O‘lchash vositalariигко‘rsashshlaridagi xatoliklarni aniqlash yoki ularning ko‘rsatishlariga tuzatish kiritish maqsadida o‘lchov vositalari kursatishlarini namuna o‘lchov asboblarinimg ko‘rsatishlariga taqqoslash asbobni tekshirish deb ataladi.

SHkala bo‘linmalariga qabul qilingan o‘lchov birliklarida ifodalangan qiymatlar berishdan iborat operatsiya darajalash deb ataladi.

## **Nazorat savollari**

1. O‘lchash-tushinchasiga tarif bering.
2. O‘lchov birligi-nima va qanday belgilanadi?
3. O‘lchash natijasi-deganda nimani tushinasiz?
4. O‘lchashning asosiy tenglamasiga tarif bering.
5. Bevosita o‘lchash- tushinchasiga tarif bering.
6. Bilvosita o‘lchash deganda nimani tushinasiz?

## **2.3. O'LCHASH ASBOBLARINING ISHONCHLILIGI HAQIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR VA MA'LUMOTLAR.**

Ishonchlilik elektron texnikani asosiy muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Kibernetikani barpo qilganlardan biri akademik A.I.Berg ishonchlilikni "zamonaviy texnikani birinchi raqamli muammosi" deb atagan. Ushbu tezzis xozirgi vaktda nafakat o'z qiymatini yo'kotdi, balki, EXM A.B.S. sistemalari, energetika transport, aloqa sistemalari murakkablashib borgan sari yana aktuallashib bormoqda. Ayniqsa ishonchlilik, yuqori xarorat tezlik, mexanik ta'sir yoki kuchli radiatsion nurlanish sharoitlarida ishlovchi murakkab sistema va qurilmalarda, katta axamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

Bunday sistemalarda konstruktor buyruqlariga bo'ysingan holda, zanjirning har bir tugunlari, barcha kichik elementlar buzilmay ishlashlari shart. Zamonaviy murakkab texnik sistemalardagi buzilishlar o'zining katta texnika va iqtisodiy yo'qolishlarga olib keladi. Ishonchlilik ommaviy muammo. Uning nazariy yechimi: material (eskirishini fizik kimyo jarayonlarini ichlariga kirishga, buzilishlarga olib keluvchi eskirish natijasidagi buzilishlar va boshqa shunga o'xhash xodisalarga bog'liq. Maxsulot ishonchliliga texnologik faktor ta'sirini yechish maqsadida ishlab chiqarish sharoitlarini keng – qamrovli analizi birlamchi axamiyatga ega)

Sistema ishonchliligining sintez va analizini matematik nazariyasi asosiylardan hisoblanadi (bunda o'ta zarurlarni kamaytirmasdan va ko'paytirmasdan o'ziga yaxshi tasavvur qilish kerek).

Zamonaviy muhandislik amaliyotida ishonchlilik harakteristikalariga aniq ishonch hosil qilish kerak.

### **Asosiy tushuncha va ta'riflar.**

Ishonchlilik nazariyasida mahsulot deganda elementlardan tashqil topgan element yoki tizim tushuniladi [2, 9].

Element- ma'lum vazifani bajaruvchi, mustaqil ishlashga mo'ljallanmagan qism tushuniladi.

Tizim o'zaro bog'langan elementlar yig'indisi bo'lib, ma'lum bir vazifani bajarilishini ta'minlaydi. Masalan, hisoblash mashinasi axborot ustida amallar bajarish uchun mo'ljallangan tizim.

Elektron qurilma berilgan funksiyalarni bajarish uchun mo‘ljallangan birgalikda ishlovchi elektro-radioelementlar to‘plami.

Ishonchlilik sohasining asosiy atamasi va tushunchalarini aniqlashda, “Texnikada ishonchlilik” Davlat standart tizimi GOST 27.002-89 va GOST 27.003-90 da keltirilgan xujjatlarga asoslangan.

Mahsulotlarning hususiyatlari – mahsulotning ob’ektiv o‘ziga xosligi bo‘lib, u yaratilishi va ishlatish vaqtida namoyon bo‘ladi.

Mahsulotning sifati – foydalanish uchun layoqatlilik darajasini aniqlovchi hususiyatlar yig‘indisi. Ushbu hususiyatlar jumlasiga texnologik, moliyaviy sarflar, ishlatish tavsiflari, ishonchliligi va boshqalar kiradi. Barcha ko‘rsatkichlar sonli qiymatga ega bo‘lib, har qaysi mahsulotni qo‘llanishidagi effektivligini aniqlaydi. Har bir sifat ko‘rsatkichi mahsulotning ma’lum bir hususiyatlarini aniqlaydi.

Ishonchlilik deb, mahsulotni ma’lum bir shart – sharoitda o‘rnatilgan vaqt mobaynida o‘ziga yuklangan vazifani bajara olish hususiyatiga aytiladi. Bu fizikaviy hususiyat bo‘lib, u qanday qurilganligi, undagi elementlarning sonli va sifatli, ishlab chiqarish texnologiyasi, nazorat sonlashishi va undagi foydalanish sharoitlari bilan aniqlanadi. Har qanday elektron mahsulotlar ishonchlilik talablariga javob bera oishlari shart. Ishonchlilikka bir qator tasodifiy holatlar ta’sir etishi mumkin, shu sababli ishonchlilik nazariyasi extimolligi nazariyasi va matematik statistikaga asoslanadi.

Ishonchlilik nazariyasini maqsadi ishonchliligin ta’minalash va ishonchlilikni hisoblash usullarini yaratishdir. Ishonchlilik nuqtai nazaridan mahsulotlar ta’mirlanadigan va ta’mirlanmaydiganlarga ajratiladi.

Ta’mirlanadigan mahsulotlar ishdan chiqqan holatda maxsus ta’mirlovchi mutaxasislarni jalb qilmagan holda ta’mirlanadi.

Ta’mirlanmaydigan mahsulotlar maxsus ta’mirlovchi mutaxasislar tomonidan tiklanadi yoki umuman tiklanmaydi.

Ishonchlilik nuqtai nazaridan mahsulotlar ikki xolatda bo‘lishi mumkin:

Ishlashga layoqatli xolatda va nosoz holatda.

1. Ishlashga layoqatli xolat deb tizimning shunday xolatiga aytiladiki, asosiy chiqish tavsiflari vaqtida yuklangan vazifani bajara olish uchun qo‘yilgan talabalarga javob bera oladi.
2. Nosoz xolat deb – mahsulotni to‘g‘ri ishlashi uchun kerak bo‘lgan va texnik xujjatlarda keltirilgan biron – bir

ko‘rsatkichga mos kelmasligi tushuniladi. Ishlashga layoqatlilik nosozlik xolatlari bir – biriga teskari xolatlar.

3. Tizimning buzilmay ishlashi – ayni vaqtdagi ishlatish sharoitida o‘zining ishga layoqatli xolatini saqlab qolishi.
4. Buzilish – bu tizimni ishga layoqatli xolatini qisman yoki to‘liq yo‘qotishi.

Barcha buzilishlar ikkiga ajratiladi: to‘satdan va asta sekin.

**To‘satdan buzilish – mahsulotning bir yoki bir nechta ko‘rsatkichini to‘satdan o‘zgarishi orqali sodir bo‘ladi.**

Buzilishlar kelib chiqish sabablariga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi.

a) past darajadagi ishonchlilikka ega bo‘lgan elektron texnikasi elementlarini natijasidagi buzilishlar;

b) sxemaviy – konstruktiv kamchiliklar oqibatida kelib chiqqan buzilishlar (elementlarni noto‘g‘ri rejimda qo‘llash)

v) ishlab chiqarishdagi yetishmovchiliklar oqibatida kelib chiqqan buzilishlar (sifatsiz materiallardan foydalanish, texnologiyani buzilishi)

g) ishlatish (foydalanish yo‘riqnomasiga amal qilmaslik oqibatida kelib chiqqan buzilishlar).

5. Uzoq davr xizmat qilish – tizimning xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash qoidalarida ko‘rsatilgan davrgacha ishga layoqaytlilik xolatini saqlab qolish.

6. Ta’mirlanishga yaroqlilik – tizimning buzilishlarini topish va bartaraf etishga moslashtirilganligi hamda buzilishlarini olidini olish hususiyati.

Ishonchlilik - buzilmay ishlash va ta’mirlanishiga yaroqlilik extimollik ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi. Shu bilan birga ta’mirlanishga yaroqlilik nosozlikni topish uchun ketgan vaqt va mablag‘ uni bartaraf etish va oldini olish xizmat ko‘rsatuvchilarining malakasi bilan ham tavsiflanadi.


7. Saqlanish tizimi – buzilmay ishlashini, uzoq vaqt xizmat qilishini, ta’mirlanishga yaroqlilik ko‘rsatkichlarini ishlatilishdan oldingi saqlanish davrida yo‘qotmasligi.

8. Mahsulotni ishlash davri.

Har qanday mahsulotni ishlash davri 3 ga bo‘linadi.

1. Boshlang‘ich davri (elemetrlarning ko‘p sonli ishdan chiqish, bunda kamroq ishonchlilikka ega bo‘lganlari buziladi, ya’ni ishlab

chiqarishdagi yig‘ish va montaj vaqtida berkingan xatoliklar namoyon bo‘ladi). Shu sababli boshlang‘ich davrni mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlatish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunga erishish uchun mahsulotni uzoq vaqt ishlatib keyin yig‘ish va montajga yuboriladi. (46-rasm).



**46-rasm. Mahsulotlarni buzilish intensivligini vaqtga bog’liqlik grafigi.**

2. Me’yoriy ishlash davri. Bu davr uzoq davom etadi. Bunda sinash jarayoni tugallangan bo‘lib, eskirish jarayoni esa boshlanmagan bo‘ladi:

3. Eskirish davri.

### **3.Elektron qurilmalarni ishonchlilik ko‘rsatkichlarini umumiylar xarakteristikalarini**

Oldingi bobda ishonchlilik ko‘rsatkichlari faqat sifatini belgilovchi ishonchlilik ko‘rsatkichlardir. Ular ishonchlilik to‘g‘risida to‘liq ma’lumot beradi, lekin mahsulot ishonchliligi haqida sonli qiymatlarni qamrab olmaydi. Mahsulot ishonchliligin analiz qilishda va taqqoslashda ishonchlilikni hisoblashda, tizimni to‘g‘ri ishslash ehtimolligini oshirishda va ta’mirlash muddatlarini aniqlashda, hamda texnik va moliyaviy hisoblashlarda ishonchlilikni sonli qiymatlarini baholash zarur.

Ishonchlilik ko‘rsatkichlarini to‘rtta guruhga ajratish mumkin:

1. Elektron qurilmalarni buzilmaslik tavsiflarini hisoblash uchun ishonchlilik ko‘rsatkichlari;
2. Uzoq muddat xizmat qilishini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichlar;
3. Saqlanish va ta’mirlanishga layoqatlilikni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar;

4. Mahsulotni buzilmasligi va ta'mirlanishga layoqatlilagini tavsiflovchi kompleks ko'rsatkichlar.

Buzilmay ishslash ehtimolligi – ta'mirlanadigan va ta'mirlanmaydigan Maxsulotlar uchun R(t) buzilmay ishslash ehtimolligi umumiy ko'rsatkich bo'lib sodir bo'lmasligini bildiradi.

U quyidagicha aniqlanadi:

$$P(t) \approx \frac{N(t)}{N_0}$$

bu yerda N(t) - oxirgi oralig'ida buzilmay ishlayotgan mahsulotlar soni:

t, No – boshlang'ich vaqt oralig'ida buzilmay ishlayotgan mahsulotlar soni.

Misol:

Berilgan: t=1500 soat No=200, N(t)=190

P(t) ni aniqlang.

Echim

$$P(1500) \approx \frac{190}{200} = 0,95$$

Ta'mirlanmaydigan maxsulotlarni buzilmaslik tavsifini hisoblashda, yana ikkita ko'rsatkichdan foydalaniladi: buzilish intensivligi (xafliligi) va birinchi buzilishgacha bo'lgan o'rtacha ishslash vaqt.

Buzilish intensivliligi (xafliligi) ( $\lambda$ ) deb buzilgan maxsulotlar sonnini vaqt birligi buzilmay ishlayotgan maxsulotlar o'rtacha soniga aytiladi.

U quyidagcha ifodalanadi:

Bu yerda

$$\lambda \approx \frac{\Delta n}{N_m \Delta t}$$

$$N_{o.m} = \frac{N_i + N_{i+1}}{2}$$

$\Delta t$  - vaqt oralig'ida buzilmay ishlayotgan maxsulotlar soni.

$N_i - \Delta t$  vaqt oralig'inining boshlanishida buzilmay ishlayotgan maxsulotlar soni;

$N_{i+1} - \Delta t$  vaqt oralig'inining oxirida buzilmay ishlayotgan maxsulotlar soni;

$\Delta n$  - vaqt mobaynida buzilgan maxsulotlar soni;

$\Delta t$ - buzilishlar aniqlanadigan vaqt oralig'i;

Misol: 1600 ta maxsulot ishlayotgan edi  $\Delta t=200$  soat ichida 200 tasi ishdan chiqdi.

Buzilish intensivligini aniqlang.

Echim:

$$\lambda \approx \frac{\Delta n}{N_{\text{y.m}} \Delta t} = \frac{100}{1500 * 200} = 3,3 * 10^{-4} \frac{1}{\text{coam}}$$

Buzilish intensivligi elementlar sifatini to'liq tavsiflaydi, u sinovlar orqali yoki ishlatish mahsulotlariga ko'ra aniqlanadi.

Birini buzilishgacha bo'lgan ishlash vaqtini  $T_{o^{\circ}\text{rt}}$ -ta'mirlanmaydigan mahsulatlarni birinchi buzilishgacha bo'lgan o'rtacha vaqtini.

U quyidagi ifoda orqali ifodalanadi:

$$T_{o^{\circ}\text{.m}} = \frac{\sum_{i=1}^n T_i}{n}$$

Bu yerda  $T_i$  - i-elementlarning buzilishgacha bo'lgan ishlash vaqtini,

$$T_{o^{\circ}\text{.m}} = \int_0^{\infty} P(t) dt, \quad T_{o^{\circ}\text{.m}} = \frac{1}{\lambda}$$

Tizim ishonchlilagini tadqiqot qilishda quyidagi buzilmay ishlash extimolligining taqsimlash qonunidan foydalaniladi; ishlatish vaqtidagi, meyoriy, Relle, Gamma – Veybun va xakozolar. Kengroq tarqalgan qonun bu ishlatish vaqtini (ekspluatatsion). Bu qonun uchun buzilish intensivligi doimiydir  $\lambda=\text{const}$ . Amaliyotda buzilmay ishlash ehtimolligini aniqlash uchun ( $T_{o^{\circ}\text{.m}}$  hisobga olib) quyidagi tenglamadan foydalaniladi:

Misol:  $t_p=160$  soat,  $T_{o^{\circ}\text{rt}}=2000$  soat. Mahsulotni buzilmay ishlash ehtimolligini aniqlang.

Echim:  $P(t) = e^{-t/T_{\text{y.p.m}}} = e^{-160/2000} = 0,9231$

Ta'mirlanadigan mahsulotlarni buzilmay ishlashini tavsiflashda va hisoblashda buzilmay ishlash extimolligidan tashqari, buzilish ko'rsatkichlari oqimi ( $\Omega$ ) va buzilishgacha ishlash vaqtini ko'rsatkichlaridan ham foydalaniladi. Buzilish ko'rsatkichlari oqimi ( $\Omega$ ) – a'mirlanadigan mahsulotlarni vaqt mobaynidagi o'rtacha

buzilishlar soni (qurilayotgan vaqt uchun olinadi). U quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\omega = \frac{\Delta n}{N_0 * \Delta t}$$

$\omega$  ni hisoblayotganda, buzilgan mahsulotni t vaqt mobaynida ta'mirlanishi hisobga olinadi.

Unda  $N_0=N(t)$  bo'ladi. Buzilishgacha ishlash vaqtini ( $T$ )-ta'mirlanadigan mahsulotlarning buzilishdan buzilishgacha bo'lgan o'rtacha ishlash vaqtining qiymati.

U quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$T_{o'rti} = \frac{\sum_{i=1}^n T_{jpmi}}{n}$$

Bu yerda,  $T_{o'rti}$  – i-mahsulotni buzilishgacha bo'lgan o'rtacha ishlash vaqtining qiymati;  $n$  - signalayotgan mahsulotlar soni.

$T_{o'rti}$  ni ifoda orqali aniqlanadi:

$$T = \frac{\sum_{i=1}^m T_{ij}}{m}$$

Bu yerda,  $T_{ij}$  – i -mahsulotni j - 1 va j+1 vaqt oralig'idagi to'g'ri ishlashtining o'rtacha vaqtini,  $m$  - i- mahsulotni buzilishlar soni.

Misol: birinchi mahsulot 200 soat, mobaynida buzilmay ishlagan bo'lsin, keyin buzilib ta'mirlansin. Ikkinci buzilishgacha 100 soat, uchinchisigacha 80 soat, turtinchisigacha 100 soat ishlasin. Ikkinci maxsulot birinchi buzilishgacha 250 soat, ikkinchisiga 120 soat, uchinchisiga 150 soat va to'rtinchisiga 100 soat ishlasin. Ikkala maxsulot uchun buzilishgacha ishlashni aniqlang.

Echim: xar bir mahsulotni buzilishgacha ishlashni o'rtacha vaqtini formulaga asosan

$$T_{o'rti1} = (200 + 100 + 80 + 100) / 4 = 120 \text{ soat}$$

$$T_{o'rti2} = (250 + 120 + 150 + 100) / 4 = 155 \text{ soat}$$

bo'ladi. Qidirilayotgan buzilishgacha ishlash vaqtini formulaga asosan

$$T_{o'rti} = \frac{\sum_{i=1}^n T_{jpi}}{n} = (120 + 155) / 2 = 137,5 \text{ soat bo'ladi.}$$

### **Nazorat savollari.**

1. Ishonchlilik deb nimaga aytildi?
2. Buzilish deb nimaga aytildi?

3. Texnik xujjatlar bilan aniqlanuvchi, parametrlarni birortasiga to‘g‘ri kelmaydigan mahsulot holati qanday?
4. Ishning qaysi davrida eng ko‘p elementlar ishdan chiqadi?
5. Ishonchlilik fanini boshqa fanlar bilan aloqasini ko‘rsating.
6. Tizimni ko‘p ishlovchanligi nima?
7. Mahsulotning eng ko‘p ishlash davri qaysi?
8. Berilgan sharoitlarda ma’lum vaqt oralig‘ida tizimni ishlash hususiyatini saqlash – bu ... ?

## **2.5. SUYUQLIKLARNING ZICHЛИGINI O‘LCHASH. ZICHLIKNI O‘LCHASH BO‘YICHA ASOSИY MA’LUMOTLAR.**

### **Asosiy ma’lumotlar va klassifikatsiyasi**

Moddalarning zichligi texnologik mahsulotning sifatini ba’zi hollarda esa tarkibini ham xarakterlovchi asosiy parametrlardan hisoblanadi. Zichlikni avtomatik o‘lhash asboblari kimyo, oziq-ovqat va boshqa sanoat tarmoqlaridagi bir qator jarayonlarni avtomatlashtirishdagi muhim vositalardan hisoblanadi. Masalan, bug‘latuvchi qurilmalar, absorber, distillyatsion, rektifikatsion va boshqa uskunalarini nazorat qilish hamda boshqarishda zichliklarni uzluksiz o‘lchab turilishini talab qiladi. Ba’zi ishlab chiqarishda suyuqliklarning zichligi erigan modda konsentratsiyasini aniqlash maqsadida o‘lchanadi.

Modda massasining hajmiga nisbati zichlik deyiladi, ya’ni

$$\rho = m / V, \quad (1)$$

bu yerda  $\rho$  - zichlik,  $\text{kg/m}^3$ ,  $m$  - moddaning massasi,  $\text{kg}$ ;  $V$ - moddaning hajmi,  $\text{m}^3$ .

Suyuqlikning zichligi temperaturaga bog‘liq va normal ( $20^\circ\text{S}$ ) temperaturada quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\rho_{20} = \rho_t [1 - \beta(20 - t)], \quad (2)$$

bu yerda  $\rho_t$  - suyuqlikning ish temperaturasidagi zichligi,  $\text{kg/m}^3$ ;  $\beta$ -cuyuqlik hajmiy kengayishining o‘rtacha koeffitsienti  $1/\text{S}$ ;  $t$ - suyuqlikning temperaturasi,  $^\circ\text{S}$ .

Sanoatda suyuqlikning zichligini o'lhash uchun qalqovichli, vaznli, gidrostatik va radioizotopli zichlik o'lchagichlar eng ko'p qo'llaniladi.


### **Qalqovichli zichlik o'lhash asboblari**

Qalqovichli zichlik o'lchagichlarda Arximedning qalqovichga ta'sir etuvchi itarib chiqaruvchi kuchining suyuqlik zichligiga bog'liqligidan foydalaniladi. Bu asboblar suzib yuruvchi va batamom cho'kadigan qalqovichli bo'ladi. Biripchi tur asboblarda zichlikni o'lhash sifati qalqovichning cho'kish chuqurligiga bog'liq bo'ladi. Ikkinchi tur asboblarda qalqovichning cho'kish chuqurligi o'zgarmaydi, faqat uning itaruvchi kuchi o'lchanadi, bu kuch esa suyuqlikning zichligiga proporsional bo'ladi. Birinchi tur zichlik o'lchagichlarda qalqovichning og'irlik kuchi qalqovichga zichligi  $\rho$  bo'lgan, tekshirilayotgan muhit tomonidan, ham suyuqlik yuzasida bo'lgan, zichligi  $\rho_0$  bo'lgan muhit tomonidan ta'cir etadigan itaruvchi kuch bilan muvozanatlashadi. Qalqovich muvozanatda turganida itaruvchi kuch qalqovichning og'irlik kuchiga teng bo'ladi. Bunda tekshirilayotgan muhit zichligining har bir qiymatiga qalqovichning ma'lum botish chukurligi mos keladi.

O'zgarmas kesimli qalqovich uchun itaruvchi kuch ifodasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$F = \rho g s x. \quad (2)$$

47-rasmda suzib yuruvchi qalqovichli zichlik o'lhash asbobining prinsipial sxemasi kursatilgan.



**47-rasm. Suzib yuruvchi qalqovichli zichlik o'lchagich**


47-rasmda suzib yuruvchi qalqovichli zichlik o'lhash asbobining prinsipial sxemasi ko'rsatilgan. Asbob qalqovich 2,

o'lhash idishi 1 dan iborat. Suyuqlik asbobga tarnov 3 orqali kelib, tarnov 4 orqali chiqib ketadi. Oqimning tezligi doimiy kesimli drossel 5 yordamida aniqlanadi. Plastinalar 6 qalqovichni uyurmalaridan saqlaydi.

Suyuqlik zichligrining o'zgarishi qalqovich va u bilan bog'liq bo'lgan o'zak 7 ning siljishiga olib keladi. O'zak differensial-transformator o'zgartkich g'altagida siljiydi. Ikkilamchi (ko'rsatuvchi yoki qayd qiluvchi) asbob zichlik birligida darajalanadi. Haroratning kompensatsiyasi ikkilamchi asbobning o'lhash sxemasiga ulangan qarshilik termometri yordamida amalga oshiriladi. Zichlik o'lchagichlar korroziyaga chidamli materiallardan tayyorlanib, aggressiv suyuqliklar zichligini o'lhashda ham ishlatalishi mumkin.

Oraliqdagi o'zgartkichning turiga qarab zichlik o'lchagich elektrik yoki pnevmatik unifikatsiyalangan chiqish signaliga ega bo'lishi mumkin.

48-rasmda qalqovichchi batamom cho'kadigan zichlik o'lchagichning prinsipial sxemasi ko'rsatilgan. Bu asbobda pnevmatik o'zgartkich ishlataligan. Ventil yoki boshqa toraytirish qurilmasi hosil qilgan bosimning pasayishi ta'sirida suyuqlik quvur 13 dan halqa taqsimlagich orqali o'lhash kamerasi 1 ga keladi va chiqarma quvurchalar yordamida quvur 14 dan asosiy quvurga uzatiladi. Suyuqlikning bunday yo'nalishi oqim tezligining qalqovich 2 ga ko'rsatilgan ta'sirini yo'qotadi. Qalqovich zoldiropodshipnikda turgan va silfon 10 dan o'tadigan koromislo uchiga o'rnatilgan. Koromislo posangi 11 orqali muvozanatlashadi. Posangi shunday rostlanganki, qalqovich eng kichik zichlikka ega bo'lgan (o'lhash asbobining pastki chegarasi) suyuqlikda pastga siljiy boshlaydi. Zichlik ko'payishi bilan qalqovich ko'payuvchi, itaruvchi kuch ta'sirida ko'tariladi va tizimdagi muvozanat buziladi.



**48-rasm. Cho'kadigan qalqovichli pnevmatik o'zgartkichli zichlik o'lchagichning sxemasi.**

Pnevmatik o‘zgartkich yordamida muvozanat qaytadan tiklanadi. Buning uchun asbobga filtr, reduktor va drossel 7 orqali havo uzluksiz kelib turadi va soplo6 bilan koromislo3 uchiga o‘rnatilgan to‘sinq 5 oralig‘idan atmosferaga chiqib ketadi. Qalqovich ko‘tarilganda, to‘sinq soplo tomon siljiydi, natijada soplodan siqilgan havoning atmosferaga chiqishi kamayadi va membranalni kuchaytirgich 8 da havo bosimi oshadi. Bu yerda, membranadan itaruvchi richag 9 ga uzatiladigan kuch oshadi va rolik 4 orqali koromisloning o‘ng uchi yuqoriga ko‘tariladi, natijada to‘sinq soplodan uzoqlashadi. Membranaga ta’sir etgan havo bosimi qalqovichning itaruvchi kuchiga mutanosib bo‘lib, suyuqlik zichligining o‘lchovi hisoblanadi va ikkilamchi asbob 12 orqali o‘lchanadi. O‘lchashning pastki chegarasi( $50 \text{ kg/m}^3$ ) rostlagich posangisi 11 ni siljitish yo‘li bilan rostlanadi. O‘lchashning yuqorigi chegarasi qalqovich hamda membrana gabaritlariga yoki ularning koromislo o‘qiga nisbatan burilish masofasiga bog‘liq. Asbobdan o‘tgan havo sarfi o‘zgarmas kesimli drossel7 yordamida amalga oshiriladi. Batamom cho‘kadigan qalqovichli zichlik o‘lchagichlarning turli tuzilishlari mavjud. Ular bir-biridan qalqovichining tuzilishi, muvozanatlovchi qurilma, ko‘rsatishlarni masofaga uzatuvchi mexanizmning usullari, avtomatik harorat kompensatsiyasi usuli va boshqalar bilan farq qiladi.

Kimyo, oziq-ovqat va boshqa sanoat tarmoqlarida keng tarqalgan zichlik o‘lchagichlar bir-birlaridan qalqovichning shakli, ko‘rsatishlarni masofaga uzatish usuli bo‘yicha farq qiladi. Qalqovichli asboblar  $1000\dots1400 \text{ kg/m}^3$  chegaradagi suyuqlik zichligini $\pm2\%$  aniqlik bilan o‘lchaydi.

## Nazorat savollari.

1. Zichlikga qanday ta’rif beriladi?
2. Suzib yuradigan qalqovichli zichlik o‘lchagichning ishlash prinsipi qanday?
3. Batomom cho‘kadigan qalqovichli zichlik o‘lchagichning ishlash prinsipi qanday?
4. Qalqavichli zichlik o‘lchagichlarning o‘lchash oralig‘i qancha?


## 2.6. ZICHLIK O'LCHAGICH ASBOBLARINING TURLARI.

### Vaznli zichlik o'lchagichlar


Vaznli zichlik o'lchash asboblarining ishlash prinsipi nazorat qilinayotgan suyuqlikning ma'lum bir doimiy hajmining vaznini uzluksiz o'lchab turishga asoslangan.

Toza suyuqliklar zichligi o'lchashdan tashqari vaznli zichlik o'lchagichlar suspenziya va tarkibida qattiq moddalar bo'lgan suyuqliklar zichligini o'lchashda ham ishlatiladi.

49-rasmda pnevmatik o'zgartkichli vaznli zichlik o'lchagichning prinsipial sxemasi keltirilgan. Suyuqlik rezina tarnov va metall silfonlari bo'lgan sirtmoqsimon quvur 1 dan o'tadi. Sirtmoqsimon quvur pnevmoo'zgartkichining to'sig'i 2 bilan bog'liq. Suyuqlik zichligi oshganda sirtmoqsimon quvurning vazni ortadi va u pastga harakatlanadi, soplo 3 bilan to'siq 2 oralig'i kichrayadi, o'zgartkichdagi bosim ko'tariladi.



49-rasm. Pnevmatik  
o'zgartkichli vaznli zichlik  
o'lchagichningsxemasi



50-rasm. Membrana–  
vaznli zichlik  
o'lchagichning sxemasi.

Unifikatsiyalangan pnevmatik signal kuchaytirgich 4 orqali silfon 5 ga uzatiladi(teskari aloqa). Silfondagi bosim suyuqlik zichligining o'zgarishiga mutanosib o'zgaradi va shkalasi zichlik birligida darajalanganikkilamchi asbob bilan o'lchanadi. Asbob suyuqlikning zichligini sirtmoqsimon quvur to'ldirilayotgan paytdagi amaliy haroratda o'lchaydi.

Vaznli zichlik o'lchagichlarning afzalligi sirtmoqsimon quvur kesimining doimiyligi va quvurdan suyuqlikning katta tezlikda o'tishidir. Bu esa suyuqlik tarkibidagi qattiq jismlarning sirtmoqsimon quvur tubiga (devorlariga) cho'kishiga yo'l qo'yaydi. Sanoatda  $500\ldots 2500 \text{ kg/m}^3$  o'lchash chegaralariga mo'ljallangan vaznli zichlik o'lchagichlar chiqariladi: O'lchashdagi asosiy xatolik  $\pm 2\%$ .

50- rasmda Toshkent davlat texnika universiteti professor-o'qituvchilari yaratgan zichlik o'lchagichning sxemasi keltirilgan. U korpus va o'lchash asbobi 2 dan iborat. Korpus nazorat qilinayotgan suyuqlik solingan kamera 3, bufer suyuklik bilan to'ldirilgan oraliq kamera 4 va pnevmoo'zgartkich vazifasini bajaradigan kamera 5 dan iborat. Zichligi o'lchanayotgan suyuqlik kamera 3 ga kirish shtutseri 6 orqali to'xtovsiz kelib turadi va undan chiqish shtutseri 7 orqali chiqib ketadi, bu esa kamerada suyuqlikning bir sathda turishini ta'minlaydi. Oraliq kamera 4 idish 3 tubi 8 ning siljishini kuzatish uchun mo'ljallangan, u bikr markazli elastik membrana 9 dan iborat, markaz kamera 4 ning tubida o'rnatilgan. Kamera 5 soplo 10 bilan jihozlangan. Siqilgan havo naycha 11 orqali kamera 5 ga doimiy drossel 12 orqali kiradi. Membrananing bikr markazi soplo 10 ning to'sig'i rolini o'ynaydi. Membrana 8 ning suyuqlik vazni(zichligi) ga bog'liq bo'lganciljishi oraliq kamera 4 orqali membrana 9 ga beriladi, bu membrana siljib soplo 10 ni berkitadi. Kamera 5 dagi havo bosimi o'lchash asbobi 2 yordamida nazorat qilib turiladi va suyuqlikning zichlik o'lchovi bo'lib xizmat qiladi.

Membrana-vaznli zichlik o'lchagich o'lchash sezgirligi va aniqligini oshirishga imkon beradi.

### **Gidrostatik zichlik o'lchagichlar**

Gidrostatik zichlik o'lchagichlar o'zgarmas balandlikdagi suyuqlik ustunining bosimini o'lchashga asoslangan.

Gidrostatik zichlik o'lchagichlar keng tarqalgan, chunki bu asboblar sodda tuzilgan va tahlil qilinayotgan suyuqlikka o'rnatiladigan datchiklarda harakatlanadigan qismlar yuq Ularning ishslash prinsipi quyidagicha.

Suyuqlik sirtiga nisbatan N chuqurlikdagi R bosim quyidagicha ifodalanadi:

$$P = \rho \cdot g \cdot H, \quad (1)$$

Bu yerda  $\rho$  — suyuqlikning zichligi,  $\text{kg/m}^3$ ;  $g$  — og‘irlik kuchining tezlanishi,  $\text{m/s}^2$ .

Suyuqlik ustunining balandligi  $N$  o‘zgarmas bo‘lsa, bosim  $\rho$ suyuqlik zichligining o‘lchovi bo‘ladi. Gidrostatik zichlik o‘lchagichlarda suyuqlik ustunining bosimi, odatda, suyuqlik orasidan inert gaz(havo) ni uzlusiz haydab o‘lchab turiladi. Bu gaz(havo) ning bosimi suyuqlik ustuni bosimiga mutanosib bo‘ladi. Suyuqlik ustunining bosimini bu usulda o‘lchash(pezometrik zichlik o‘lchagichlar) ko‘rsatishlarni masofaga uzatish imkoniyatini beradi. Haydaladigan inert gaz suyuqlik xususiyatlariga ko‘ra tanlanadi. Haydaladigan gaz sarfi katta bo‘lmay, doimiy bo‘lishi shart, chunki sarfning o‘zgarib turishi o‘lchashda qo‘srimcha xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Odatda, suyuqlikning turli balandlikdagi ikkita ustunidagi bosimlar farqi o‘lchanadi(differensial usul). Bu esa o‘lchanayotgan zichlikning


aniqligiga ta’sir ko‘rsatadigan sath o‘zgarishlarini yo‘qotadi, (1) ifodadan

$$P_1 - P_2 = (H_1 - H_2) \cdot \rho \cdot g \text{ yoki } \Delta P = \Delta H \cdot \rho \cdot g, \quad (2)$$

bu yerda  $R_1$  va  $R_2$  — suyuqlik ustunlarining bssimi, Pa;  $N_1$  va  $N_2$  — suyuqlik ustunlari sathi, m.

Havo(inert gaz) uzlusiz haydaladigan pezometrik differensial ikki suyuqlikli zichlik o‘lchagichda (2-rasm) tekshirilayotgan suyuqlik idish 1 dan uzlusiz oqib o‘tadi, bu idishda suyuqlik sathi doimiy saqlanadi.

Doimiy sathli idish 2 ma’lum zichlikli etalon suyuqlik bilan to‘ldirilgan bo‘ladi. Inert gaz naycha 3 orqali tekshirilayotgan suyuqlik qatlami orqali o‘tadi va asbobdan chiqib ketadi. Xuddi shu inert gaz naycha 4 orqali etalon suyuqlik qatlamidan o‘tadi, keyin qo‘srimcha naycha 5 orqali tekshirilayotgan suyuqlikning ma’lum qatlamidan o‘tib asbobdan chiqadi. Pezometrik naychalarning chuqurligi va etalon suyuqlikning zichligi ma’lum bo‘lsa, differensial manometr6 ning ko‘rsatishi tekshirilayotgan suyuqlik zichligining o‘lchovi bo‘ladi. (52-rasm).



## 52 – rasm. Pezometrik zichlik o‘lchagichning sxemasi.

(2) ifodaga muvofiq difmanometrning ko‘rsatishi quyidagicha bo‘ladi:

$$\Delta P = h_1 \cdot \rho \cdot g - (h_2 \rho + h_0 \rho_0)g = (h\rho - h_0 \rho_0)g. (3)$$


Etalon suyuqlikning zichligi tekshirilayotgan suyuqlikning zichligiga yaqin qilib tanlanadi. U holdah<sub>0</sub>= h bo‘lsa, bosimlar farqi  $\Delta R = 0$ . Unda tekshirilayotgan suyuqlikning zichligi minimal. bo‘ladi. Agar tekshirilayotgan suyuqlikning zichligi maksimal bo‘lsa, bosimlar farqi maksimal qiymatga ega bo‘ladi. Asbobda etalon suyuqlikli idish<sub>2</sub> tekshirilayotgan suyuqlikli idish 1dan yuqoriroqda joylashgan. Etalon va tekshirilayotgan suyuqlikning harorat koefitsienti bir xil bo‘lib, ularning harorati teng bo‘lsa, harorat kompensatsiyasi avtomatik ravishda ta’milanadi. Gidrostatik zichlik o‘lchagichlar sanoatda 900...1800 kg/m<sup>3</sup> o‘lchash chegarasiga mo‘ljallab chiqariladi.

Bu asboblarning asosiy xatoligi  $\pm 4\%$ . Silfonli, tenzometrik, ximotron va boshqa zichlik o‘zgartkichlari gidrostatik zichlik o‘lchagichlarning turlaridir.

3- rasmida tenzometrik zichlik o‘lchagichning sxemasi keltirilgan. Nazorat qilinayotgan suyuqlik idish 1 ga shtutser 2 orqali uzluksiz tushib turadi va undan shtutser 3 orqali chiqib ketadi, bu esa idishda doimo bir xil sath bo‘lishini ta’minalaydi.

Asosiy idish 1 ning ichida etalon suyuqlik bilan to‘ldirilgan idish 4 joylashtirilgan bo‘lib, uning zichligi nazorat qilinayotgan suyuqlikning minimal zichligiga teng bo‘lishi kerak. Etalon suyuqlik tuynuk 5 orqali kiradi, ortiqchasi esa to‘kish naychasi 6 orqali chiqib ketadi. Bu bilan sathning doimiyligiga, ballast bosimning va harorat o‘zgarishlarining kompensatsiya qilinishiga erishiladi. Nazorat qilinayotgan suyuqlik zichligi ozgina o‘zgarishi bilan elastik element 8 ning markaziga yelimlab yopishtirilgan tenzodatchik 7ning qarshiligi o‘zgaradi. Zichlik o‘lchagichi sifatida elektron avtomatik ko‘prik 9 qo‘llanilgan bo‘lib, uning yelkalarining biriga tenzodatchik 7 ulangan. Ko‘prik shkalasi zichlik birliklarida darajalangan. (53-rasm).

O‘lchashning pastki chegaralari ko‘prik shkalasini darajalashda idishlar 1 va 4 ni zichligi tekshirilayotgan suyuqlikning minimal zichligiga teng bo‘lgan suyuqlik bilan to‘ldirishda aniqlanadi.



53-rasm. Radioizotopli zichlikni o‘lchash asbobi.

### **Radioizotopli zichlik o‘lchagichlar**

Radioizotopli zichlik o‘lchagichlarning ishlash prinsipi radioaktiv manbaj-nurlarining suyuqlikdan o‘tishida yutilishiga asoslangan. Bular suspenziya, pulpa, agressiv va katta bosimli suyuqliklarning zichligini o‘lchashda ishlatalishi mumkin. O‘lchash vositalari o‘lchanayotgan muhit bilan kontaktsiz bog‘langan. Bu esa bunday asboblarning afzalligiga kiradi.

46-rasmida PJR-2 tipidagi suyuqlik zichligini o‘lchash radioizotopli asbobning bloksxemasi keltirilgan.

Suyuqlik o‘tadigan truboprovod 2 da radioaktiv nurlanish manbai 1 va nurlanish priyomnigi 3 o‘rnatilgan. Nurlatkich sifatida radioaktiv izotoplар ( $\text{So}^{60}$ ,  $\text{Cs}^{137}$ ) ishlataligan.

Gamma nurlar truboprovod devorlari va nazorat qilinayotgan suyuqlik katlamidan o‘tib, nurlanish priyomnigiga keladi.

O‘lchanayotgan zichlikning funksiyasi bo‘lgan priyomnikning elektr signali blok 4 da shakllanadi va elektron o‘zgartkich 5 kirishiga uzatiladi. Manba 9 dan chiqqan nurlar kompensatsion pona 10 dan o‘tib, priyomnik 11 ga keladi va blok 12 da ishlangan elektr signali hamda yuqorida aytilgan elektron o‘zgartkich 5 ga keladi. Manba 9 priyomnik 11 va blok 12, manba 1 priyomnik 3 va blok 4 ga o‘xhash. Signallar farqi elektron o‘zgartkich orqali kuchaytiriladi va reversiv dvigatel 6 ga uzatiladi. Reversiv dvigatel kompensatsion pona 10 va ikkilamchi asbob 8 ning differensial transformatorli datchigidagi plunjer 7 bilan bog‘liq

Signalning kattaligi va ishorasiga qarab reversiv dvigatel ponani signallar farqi nolga tenglashguncha siljitadi. Ko‘rsatuvchi asbob bilan bog‘langan pona siljishining qiymati suyuqlik zichligining o‘zgarishiga proporsional.

PJR-2 zichlik o‘lchagichining o‘lchash diapozoni 600 - 2000 kg/m<sup>3</sup>, asbobning o‘lchash xatoligi + 2%.

Sanoat radioizotopli zichlik o‘lchagichlardan PJR-2, JR-2N, PJR-5, PR-1024 va boshqalar.

### **Nazorat savollari.**

1. Vaznli zichlik o‘lchagichning ishslash prinsipi qanday?
2. Vaznli zichlik o‘lchagichning qalqovuchligisiga nisbatan qanday afzalliklari mavjud?
3. Gidrostatik suv ustuni nima?
4. Qanday hollarda radioizotopli zichlik o‘lchagichdan foydalangan ma’qul.

## **2.7. SUYUQLIKLARNING QOVUSHQOQLIGINI O‘LCHASH. QOVUSHQOQLIKNI O‘LCHASH BO‘YICHA ASOSIY MA’LUMOTLAR.**

### **Suyuqliklarning qovushoqligini o‘lchash**

Suyuq muhitlarning qovushoqligini o‘lchash sanoatda TJABT ni joriy qilishda eng murakkab muammolardan biridir. Jarayonlarning

ko‘pchiligi dispers tizimlar, suspenziyalar, kolloid eritmalar va plastik massalarni qayta ishlash bilan bog‘liq.

Sanoatda viskozimetrlarning qo‘llanilishi qovushoqlikni o‘lchash uslublarining konstruktiv-texnik kamchiliklari yoki viskozimetrlarning o‘zicha ishlatish sharoitlarini yaratish qiyinligi sababli juda ham cheklangandir.

Sanoatning bir qancha tarmoqlarida, masalan, sun’iy tolalar, sintetik smolalar, kauchuk eritmalar, buyoqlar, surkov moylari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda qovushoqlik mahsulot tarkibi va sifatini aniqlovchi kattalik hisoblanadi. Shuning uchun ko‘pgina hollarda qovushoqlikni avtomatik tarzda uzluksiz o‘lchab turish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Suyuqliklarning sirpanish yoki siljishga qarshilik ko‘rsatish hususiyati **qovushoqlik** deyiladi.

Berilgan oqimda suyuqlik ikki qatlaming siljishida tangensial kuch vujudga keladi. Shu kuch Nyuton qonuniga ko‘ra quyidagicha aniqlanadi:

$$F = \mu S (dv/dn) \quad (1)$$

bu yerda  $F$  - ciljish kuchi,  $N$ ;  $\mu$ - dinamik qovushoqlik yoki qovushoqlik koeffitsienti,  $Pa\cdot c$ ;  $S$  ichki ishqalanish yuzasi,  $m^2$ ;  $dv/dn$  - harakatdagi qatpam qalinligi bo‘yicha tezlik gradienti (siljish tezligi),  $l/c$ ;  $v$ - katlam oqimining tezligi,  $m/s$ ;  $n$ -harakatdagi katlam kalinligi,  $m$ .

(6.1) tenglamadan dinamik qovushoqlikni aniqlaymiz:

$$\mu = F [S (dv/dn)]^{-1} \quad (2)$$

SI sistemasida dinamik qovushoqlik birligi kilib, suyuqlik oqimining shunday qovushoqligi qabel qilinganki, bu oqimda  $1\text{ N/m}^2$  siljish bosimi ta’sirida chiziqli tezligining gradienti siljish tekisligiga perpendikulyar bo‘lgan  $1\text{ m}$  masofada  $1\text{ m/s}$  bo‘ladi. Dinamik qovushoqlikning bu birligi  $N\text{ s/m}^2$  yoki  $Pa\cdot s$  o‘lchash birligiga ega.

Amalda ko‘pincha dinamik qovushoqlikning suyuqlik zichligi  $\rho$  ga bo‘lgan nisbatida ifodalanuvchi kinematik qovushoqlikdan foydalaniлади, ya’ni:

$$v = \mu / \rho \quad (3)$$

Kinematik qovushoqlik SI sistemasida  $m^2/s$  birligiga ega. Tajribada, shuningdek, puaz ( $P$ ) va santipuaz qovushoqlik birliklarida

o‘lchanadi. Bu birliklar SI sistemasidagi qovushoqlikning birligi bilan quyidagicha boglangan:

$$1 \text{ P} = 0,1 \text{ Pa s}.$$

Qovushoqlikni o‘lchash paytida temperaturaning ta’sirini e’tiborga olib, tegishli tuzatishlar kiritish lozim.

Hozir suyuqlik qovushoqligini o‘lchaydigan bir qator asboblar mavjud. Bu asboblar ishlash prinsipi jihatidan kapillyar, sharikli, rotatsion va tebranishli asboblarga (viskozimetrlarga) bo‘linadi.

## Kapillyar viskozitmetrlar

M. P. Volarovichning ma’lumotlariga ko‘ra qovushoqlikni o‘lchashning taxminan 80% i kapillyar asboblar bilan o‘tkazilib, ular nazariy jihatdan eng ko‘p ishlab chiqilgan va amalda tadqiq kilingan.

Kapillyar viskozimetrlar o‘lchash aniqligining yuqoriligi, o‘lchashning katta diapazoni va nisbagan soddaligi tufayli keng tarqalgan. Keyingi yillarda texnologik jarayonning . o‘tishidagi qovushoqlikni avtomagik tarzda nazorag qilish va rostlashga mo‘ljallangan kapillyar viskozimetrlar yaratiladi. Bu asboblar nisbatan toza va bir jinsli suyuqliklar qovushoqligini nazorat qilishda ishlatiladi.

Kapillyar viskozimetrlarning ishlash prinsipi Puazeyl kapillyar naychidan suyuqlikning oqib chiqish qonuniga asoslangan. Bu qonun quyidagicha ifodalanadi:


$$Q = \pi d^4 \Delta P / (\mu l). \quad (4)$$

bu yerda  $Q$  naychadan oqib chiqadigan suyuqlikning hajmiy sarfi,  $\text{m}^3/\text{c}$ :  $d$ - naycha diametrn, m;  $l$  naychaning uzunligi, m;  $\Delta R$  naycha uchlarida bosimlar farqi. Pa.

Agar  $Q$ ,  $d$ ,  $l$  kattaliklarning qiymati doimiy bo‘lsa, qovushoqlikni aniqlovchi formula quyidagi ko‘rinishga keladi:


$$\mu = K \Delta R. \quad (5)$$

Shunday qilib, suyuqlik qovushoqligini o‘lchash suyuqlik o‘tadigan kapillyar naycha uchlaridagi bosimlar farqini o‘lchashdan iborat. Bunda suyuqlikning yumaloq kesimli tirqishlardan oqib chiqishi og‘irlik kuchi bosimi yoki tashqi bosim ta’sirida sodir bo‘lishi mumkin.



**54-rasm. Kapilyar viskozimetr sxemasi.**

54-rasmda kapillyar viskozimetr sxemasi keltirilgan. Shesternyali nasos 1 tahlil qilinayotgan suyuqlikning mutlaqo doimiy miqdorini kapillyar naycha 3 ga uzatadi. Kapillyar naychaning kirishi va chiqishidagi bosimlar farqi sezgir difmanometr 2 orqali o'lchanadi. Difmanometrning shkalasi qovushoqlik birligida darajalanadi. Kapillyar naychaning diametri  $d$  va uzunligi  $l$  o'lhash chegaralari va o'lchanayotgan suyuqlik turiga qarab tanlanadi. O'zgarmas haroratni ta'minlash uchun viskozimetr naychasi odatda, haroratni avtomatik rostlovchi termostatga ulanadi. Kapillyar viskozimetrning o'lhash chegaralari  $0,001\dots 10$  Pa s. Laboratoriya asboblarida o'lhash xatoligi  $\pm 3\dots 5\%$ .




**55 – rasm. Avtomatik kapillyar viskozimetrxemasi.**

55-rasmda avtomatik kapillyar viskozimetrning tuzilishi bir oz o'zgargan prinsipial sxemasi keltirilgan. Nazorat qilinayotgan suyuqlik o'zgarmas sarf bilan dozalovchi nasos 1 yordamida kapillyar naycha 2 orqali so'rib olinadi. Naychadagi bosimning pasayishi difmanometr 3 bilan o'lchanadi, uning shkalasi qovushoqlik birliklarida darajalangan. Viskozimetr termostat 4 ra

o‘rnatilgan. Odatda, asbob diametri va uzunligi turlicha bo‘lgan kapillyarlar komplekti bilan ta’minlangan bo‘ladi. Kapillyarning diametri va uzunligi o‘lchash chegaralariga qarab tanlanadi.

Ishlash prinsipi o‘z og‘irligi ta’sirida suyuq mahsulotlarning oqib chiqishiga asoslangan viskozimetrlar eng ko‘p tarqalgan. Ularning asosiy qismi datchik bo‘lib, u past tomonidan kalibrangan naycha bilan tugaydigan sig‘imdan iborat. Sig‘imga uzlusiz ravishda suyuqlik beriladi, uning sarfi doimo bir xilda saqlab turiladi. Sig‘imdagи suyuqlik sathi uning qovushoqligiga mutanosib ravishda o‘zgaradi. Sathni o‘lchab, qovushoqlikning qiymati topiladi. Bu asboblarning boshqa turlarida, aksincha, suyuqlik sathi bir xilda ushlab turiladi, lekin qovushoqlikka bilvosita bog‘liq bo‘lgan boshqa parametr(masalan, suyuqlik sarfi, kapillyarning siljishi, kapillyarning diametri yoki uzunligi va hokazo) o‘lchanadi. Birinchi tur asboblar o‘zgaruvchan sathli viskozimetrlar deb, ikkinchi tur asboblar esa o‘zgarmas sathli viskozimetrlar deb ataladi.

Toshkent davlat texnika universiteti professor- o‘qituvchilari tomonidan suyuq mahsulotlarning erkin oqib chiqishiga asoslangan pnevmatik va elektrik viskozimetrlarning har xil turlari yaratilgan. Erkin oqib chiqishga asoslangan viskozimetrlardan o‘zgaruvchan sathli asboblar keng qo‘llanilmoqda.



**56 – rasm. Membranali pnevmatik viskozimetr sxemasi.**

56-rasmida membranali pnevmatik viskozimetrning sxemasi keltirilgan. Tekshiriladigan suyuqlik nasos-dozator 1 yordamida so‘rib olinadi va issiqlik almashgich 2 orqali silindrik idish 3 ga

haydaladi, u yerdan kapillyar 4 orqali sig‘im 5 ga oqib chiqadi. Kapillyar 4 idish 3 ning yon devorida joylashgan bo‘lib, gidravlik kamera 7 ning yuqorigi membranasi 6 shu idishning tubi bo‘lib xizmat qiladi. Gidravlik kamera ostida chiqarish soplasi 9 bilan pnevmatik kamera 8 joylashgan. Havo pnevmatik kameraga ma’lum 0,14 MPa bosim bilan doimiy drossel 10 orqali beriladi. Asbob aralashtirgichli dvigatel 12 bilan ta’minlangan termostat 11 da joylashgan.

Tekshirilayotgan suyuqlikning qovushoqligi o‘zgarganda uning idish 3 dagi sathi o‘zgaradi. Buning natijasida gidravlik kameraning yuqorigi membranasi egiladi va u o‘z navbatida qapqoq vazifasini bajaruvchi membrana 6 ni egilishga majbur etadi. Natijada sopo 9 ning ochilish yoki yopilish darajasini o‘zgartiradi, bu sopo pnevmatik kamera 8 ni atmosfera bilan tutashtirib turadi, bu yerda, kamera 8 da havo bosimi o‘zgaradi va bu o‘zgarish o‘lhash asbobi 13 yordamida o‘lchanadi. uning shkalasi bevosita kinematik qovushoqlik birliklarida darajalangan.

Kapillyar viskozimetrlar ikki katta gruppaga bo‘linadi: laboratoriya viskozimetrlari va avtomatik ishlaydigan viskozimetrlar. Keyingi viskozimetrlarga bosim ostida suyuqlik oqib chiqadigan va erkin oqib chiqadigan asboblar kiradi.

Suyuqlik erkin oqib chiqadigan asboblar o‘z navbatida ikki klassga:

- \* sath o‘zgaradigan;
- \* sath o‘zgarmaydigan asboblarga bo‘linadi.

Kapillyar viskozimetr quyidagicha tuzilgan. Shesternyali nasos analiz qilinayotgan suyuqlikning mutlaqo doimiy miqdorini kapillyar naychaga uzatadi. Kapillyar naychaning kirishi va chiqishidagi bosimlar farqi sezgir difmanometr orqali o‘lchanadi.

Difmanometrning shkalasi qovushoqlik birligida darajalanadi. Kapillyar naychaning diametri d va uzunligi l o‘lhash chegaralari va o‘lchanayotgan suyuqlik turiga qarab tanlanadi. O‘zgarmas temperaturani ta’minalash uchun viskozimetr naychasi odatda, temperaturani avtomatik rostlovchi termostatga ularadi. Kapillyar viskozimetrning o‘lhash chegaralari 0,001 - 10 Pa c. Laboratoriya asboblarida o‘lhash xatoligi 0,3, avtomatik asboblarda o‘lhash xatoligi +3.. . 5%.

## Nazorat savollari.

1. Qovushoqlik deganda nimani tushunasiz?
2. Qovushoqlikning qanday turlari mavjud?
3. Qovushoqliknini o'lhash asboblarini nima deb ataladi?

## 2.8. VISKOZIMETRLARNING TURLI XIL TEXNOLOGIK JARAYONLARIDA QO'LLANISHINING AHAMIYATI.

### Zoldirli viskozimetrlar

Zoldirli viskozimetrlar suyuqliklarning qovushoqligini o'lchaqda keng ishlatiladi.

Qovushoqliknini erkin tushuvchi jism usuli bilan o'lhash Stoks qonuniga asoslangan. Bu qonunga muvofiq erkin tushuvchi jismning suyuqlikdagi tezligi shu suyuqlik qovushoqligi bilan bog'rlangan. Bu bog'glanish quyidagicha ifodalanadi:

$$\mu = K (\rho_1 - \rho_2) g r^2 v_{-1} \quad (1)$$


bu yerda  $\rho_1$  va  $\rho_2$  sharik materialining va suyuqlikning zichliklari,  $\text{kg/m}^3$ ;  $g$ - og'irlik kuchining tezlanishi,  $\text{m/s}^2$ ;  $r$ - sharikning radiusi, m;  $v$ - sharikning bir meyorda tushishi tezligi,  $\text{m/s}$ ;  $K$ - qabel qilingan o'lchovga bog'liq bo'lgan sonli doimiy koeffitsient.

Stokc qonuni bir jinsli suyuqlikning mutlaqo sferik sharikka nisbatan laminar harakatida ishlatilishi mumkin. (1) formuladan ma'lumki, tekshirilayottan suyuqlikning qovushoqligini o'lhash suyuqlikdagi sharikning tushish tezligini yoki sharikning belgilangan masofadan o'tish vaqtini o'lchashdan iborat.

Qovushoqlikning sharikni tushish vaqtiga bog'liqligi quyidagicha ifodalanadi:

$$\mu = K \tau \quad (2)$$

bu yerda  $K$ - asbob doimiysi.  $\tau$ - sharikning belgilangan masofadan o'tish vaqtisi, s.



57 – rasm. Erkin tushuvchi sharchali avtomatik viskozimetrning sxemasi.

Qovushoqlikni sharchaning erkin tushish vaqtini bo'yicha aniqlaydigan avtomat qurilmada suyuqlik oqimi sharikni boshlang'ich holatga shesternyali nasos yordamida ko'taradi. (57-rasm). Bu shesternyali nasos elektr dvigateliga ega.


Suyuqlik oqimi zoldir 1 ni boshlang'ich holatga shesternyali nasos 2 yordamida ko'taradi. Bu shesternyali nasos elektr dvigatel3 ga ega. Zoldirni ko'tarish bilan birga nasos suyuqlikdan namuna olib, uni sinaydi. Zoldir yuqorigi cheklovchi to'rga yetgach, nasos to'xtaydi, zoldir harakatsiz muhitda erkin pastga tushadi. Induksion g'altaklar 7 orqali zoldirning belgilangan yo'l 1 dan o'tish vaqtini hisoblanadi. Zoldirning induksion g'altaklardan o'tishida nomuvozanatlik signallari hosil bo'ladi va bu signal elektron kuchaytirgich6 orqali kuchaytiriladi. Shesternyali nasosning avtomatik ravishda ulanishi va vaqtning hisoblanishi rele bloki 4 va o'lchash asbobi 5 yordamida bajariladi.

Asbobning o'lchash chegaralari induksion g'altaklar orasidagi masofa 1 va zoldir diametrining o'zgarishi bilan tanlanadi. Bunday asboblarda 100 Pa's chegaradagi suyuqlik qovushoqligini o'lchash mumkin. Asboblarning o'lchash aniqligi  $\pm 2\%$ .

58-rasmda zoldirli pnevmatik viskozimetrning sxemasi keltirilgan. Pnevmodamerani atmosfera bilan tutashtiruvchi zoldirli klapanning qo'llanilishi juda yuqori aniqlikda o'lchashni ta'minlaydi.


Suyuqlikning qovushoqligini o'lchashda uning kapillyar 2 li idish 1 dagi sath o'zgaradi. Qovushoqlikning ortishi suyuqlikning gidravlik bosimi hisobiga membrana 3 ning pastga egilishiga sabab bo'ladi. Natijada zoldirli membrana bilan biriktirilgan zoldirli klapan 4 havo bilan to'ldirilgan pnevmokamera5 ning yuqorigi qismidagi konussimon teshikni berkitadi. Havo pnevmokameraga magistral havo yo'lidan doimiy drossel 7 yordamida 0,14 mPa bosimda beriladi. Bosim suyuqlik sathin balandligining o'zgarishiga 3 mutanosib ravishda ortadi, bunga prujina 12 ning siljishi natijasida erishiladi. Qovushoqlik kamayganda zoldirli klapan ko'tariladi va havo teshik8 orqali atmosferaga chiqib ketadi. Kapillyar 2 dan oqib chiqadigan suyuqlik sig'im 9 ga tushadi, u yerdan shesternyali nasos 10 yordamida so'rib olinadi, nasosni reduktorli sinxron dvigatel 11 harakatga keltiradi. Nasos tekshirilayotgan suyuqlikni termostat orqali so'rib oladi(chizmada ko'rsatilmagan). Ikkilamchi asbob6 sifatida o'ziyozar PV4-E yoki

manometr dan foydalanilgan bo‘lib, ularning shkalalari qovushoqlik birliklarida darajalangan bo‘ladi. O‘lhash chegaralari ( $212 - 938 \cdot 10^3$  Pa·s ni, nisbiy keltirilgan xatolik  $\pm 2\%$  ni tashkil qiladi.



**58 – rasm. Zoldirli pnevmatik viskozimetrning sxemasi.**

59- rasmda halqali viskozimetrning prinsipial sxemasi keltirilgan. Xalqasimon kamera 3 ning tayanch oyoqlari yordamida o‘z geometrik markaziga osib qo‘yilgan. Halqaning pastki qismiga yuk 4 mahkamlab qo‘yilgan. Suyuqlik termostat orqali halqasimon kamera 3 ga so‘rib olinadi va kapillyar naycha 5 dan idish 6 ga oqib chiqadi. Suyuqlikning qovushoqligi o‘zgarganda aylantiruvchi moment hosil bo‘ladi, uning ta’sirida halqasimon kamera strelkasi bilan tayanch nuqta atrofida aylanishga teskari ta’sir etuvchi moment bilan muvozanatlashmagunga qadar buriladi. SHkala 1 bevosita qovushoqlik birliklarida darajalangan. Qovushoqliknini o‘lhash chegaralarini yuk 4 og‘irligini oshirish yoki kamaytirish yo‘li bilan o‘zgartirish mumkin. Asbobning maksimal xatoligi tajriba yo‘li bilan aniqlangan bo‘lib,  $\pm 1,5\%$ ni tashkil qiladi, xalqaning maksimal burilish burchagi  $60^\circ$ , o‘lhash chegarasi esa  $20 \text{ mPa}\cdot\text{s}$ .



**59 – rasm. Halqali viskozimetrning sxemasi.**

## Rotatsion viskozimetrlar

Suyuqliklar qovushoqligini o‘lchashda hamda ularning reologik hususiyatlarini o‘rganishda rotatsion viskozimetrlardai foydalanish qulay. Bu asboblar tekshirilayotgan suyuqlik hosil kiluvchi qarshilik momentlari va aylantiruvchi momentlarni o‘lchashga asoslangan.


Qovushoq suyuqlikda jism aylaniganida qovushoqlik qarshiligi teskari ta’sir etuvchi moment hosil qiladi. Agar jism doimiy tezlik bilan aylansa, bu moment suyuqlik hosil qiladigan aylantiruvchi momentga teng va dinamik qovushoqlikka proporsional bo‘ladi:

$$M = K \mu \omega \quad (3)$$

bu yerda  $M$ - aylantiruvchi moment, Nm;  $K$ - asbob doimiysi;  $\mu$ - dinamik qovushoqlik. Pas;  $\omega$ - aylanuvchi jismning burchak tezligi, 1/s.

Rotatsion viskozimetrlar aylanuvchi jism shakli va aylantiruvchi momentni o‘lchash usuliga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Boshqa asboblarga nisbatan koaksial silindrli, aylanuvchi jism va tahlil qilinayotgan suyuqlikka cho‘ktiriladigan aylanuvchi parallel diskli asboblar ko‘proq ishlatiladi. 60 - rasmda rotatsion viskozimetrlarining principial sxemalari ko‘rsatilgan.

Koaksial silindrli viskozimetrlar (60-rasm, a) tashqi silindr tahlil qilinayotgan suyuqlik bilan to‘ldirilgan ikki silindr dan iborat. Tashqi silindr 2 o‘zgarmas tezlik bilan aylanganda dvigatel 1 ta’sirida suyuqlik statsionar aylanish holatiga keladi va aylantiruvchi momentni ichki silindr 3 ga uzatadi. Bu silindrni tinch holatda saqlash uchun silindrga kattaligi teng, lekin teskari ishorali kuch momenti ta’sir qilishi kerak. Bu kuch, rasmda ko‘rsatilganidek, kalibrlangan yuk 4 yordamida hosil qilinadi.



60 – rasm. Rotatsion viskozimetrlar.


Tekshiriladigan suyuqlikka cho'ktiriladigan aylanuvchi jism (60- rasm, b) sharsimon yoki silindrik rotor1 kabi ishlaydi. Bu rotor dvigatel 2 yordamida o'zgarmas aylanishlar chastotasi bilan aylantiriladi. Suyuqlikning rotor aylanishiga ko'rsatilgan qarshiligi maxsus qurilma 3 yordamida o'lchanadi.

Aylanuvchi diskli viskozimet (60- rasm, v) tekshirilayotgan suyuqlikka cho'ktirilgan ikki parallel disk 2 va 3 dan iborat. Disk 2 dvigatel 1 yordamida ravon aylanadi. Tekshirilayotgan suyuqlikning qovushoqlik xususiyati tufayli disk3 ga aylantiruvchi moment uzatiladi. Bu aylantiruvchi moment suyuqlik qovushoqligiga mutanosib bo'lib, hisoblash asbobi bilan bog'langan silindrik prujina 4 yordamida muvozanatlanadi. 60-rasm.Rotatsion viskozimet. Aylanuvchi diskli viskozimetrlardan suyuqliklarning qovushoqliginiuzluksiz o'lchashda ham foydalanish mumkin. Rotatsion viskozimetrlarning o'zgarmas koeffitsientlari analitik ravishda yoki etalon suyuqliklar bo'yicha tajriba yo'li bilan aniqlanadi. Rotatsion viskozimetrlarning o'lchash chegarasi 0,01...1000 Pa s.

## **Tebranishli viskozimetrlar**

Keyingi yillarda katta o'lchash diapazoniga, yuqori sezgirlikka va aniqlikka ega bo'lgan, shuningdek, har xil sharoitlarda turli muhitlarni analiz qiluvchi umumiy afzallikkarga ega bo'lgan tebranishli viskozimetrlar keng tarqalmoqda.

Tebranishli viskozimetrlarning ishlash prinsipi nazorat qilinayotgan muhitga cho'ktirilgan sezgir element tebranishi so'nish darajasining shu muhit qovushoqligiga bog'liqligiga asoslangan. Konstruktiv jihatdan tebranishli asboblar elektromagnitli va ultratovushli bo'ladi. Elektromagnitli (past chastotali) viskozimetrlar 1 kGts gacha va ultratovushli asboblar 10-1000 kGts chastotalarda ishlaydi. Elektromagnit tebranishli viskozimetrning ishslash prinsipi quyidagicha: (61-rasm).



61-rasm.  
Ultratvushli  
Viskozimetr sxemasi

Idishdagi nazorat qilinayotgan suyuqlikka sezgir element po'lat plastinkaning bir uchi tushiriladi. Uning yuqorigi qismi maxsus qisqichli asbobga mahkamlangan. Idish termostatlovchi qurilmaga o'rnatiladi. Elektromagnit yordamida po'lat plastinka rezonans tebranishli harakatga keltiriladi. Tekshirilayotgan suyuqlikning qovushoqligini o'lchashda po'lat plastinka tebranishlarining amplitudasi o'zgaradi. Bu o'zgarish elektromagnit datchiklar yordamida qabul qilinadn. Datchiklarda induksiyalangan kuchlanish to'g'rilanib, o'lchash asbobiga uzatiladi, asbob qovushoqlik birligida darajalangan. Ular qovushoqlikni +3 ...5% xatolik bilan o'lchaydi.

Ultratvushli viskozimetrlar eng universal hisoblanadi. Bu asboblar katta o'lchash diapozoni, yuqori aniqlik, nnersiyasizlik, harakatlanuvchi qismlarining yuqligi kabi afzallikkarga ega. Lekin bu asboblar murakkab elektron qurilmalardan iborat bo'lganligi sababli ularning ishlatilishi cheklangan.

Ultratvushln viskozimetrlar ultratvushlarning muhit qovushoqligiga qarab yutilishnga asoslangan. 60-rasmda ultratvush tebranishlarining so'nish tezlnagini o'lchaydigan ultratvushli viskozimetrnning sxemasi ko'rsatilgan.

Magnitostriksion materialdan ishlangan plastina gilzaga mahkamlangan. Plastinannng pastki kismi qovushoqligi o'lchanayotgan suyuqlikka tushirilgan. Gilzada Impulslar generatoridan ta'minlanadigan uygotish galtagi bor. G'altakka uzunligi 20 mks ga ya'ni Impuls yuboriladi, natijada plastinada bo'ylama tebranishlar yuz beradn.

Tebranishlar chastotasi plastina geometriyasi orqali, so‘nish amplitudasi esa suyuqlik qovushoqligi orqali aniqlanadi. Impulsnn yuborish bilan bir vaqtda kuchaytirish va detektorlash operatsiyasi kuchaytirgich va detektorda bajariladi, natijada trigger generatori berkitadi. Plastinaning tebranishida teskari magnitostriksion effekt tufayli g‘altakda plastinaning tebranish chastotasiga teng bo‘lgan kuchlanish (EYuK) hosil bo‘ladi.

Shunday qilib, so‘nish intensivligining o‘lchovi Impulslar generatorining ketma-ket uygonishidagi vaqt oralig‘i kattaligidan iborat suyuqlik qovushoqligi qancha katta bo‘lsa, Impulslar orasidagi vaqt oraligi shuncha kichik bo‘ladi. O‘lchash signali detektordan ikkilamchi asbobga keladi.

Qovushoqlik birligida darajalangan o‘lchash asbobi Impulslar intervalining o‘rtacha qiymatini o‘lchaydi. Asbobning o‘lchashdagi xatolik +1%.

Ultratovushli viskozimetrlar texnologik oqimlardagi turli suyuqliklarni uzlusiz nazorat qilish uchun ishlatiladi. Bu viskozimetrlarning o‘lchash diapozoni 0,0001...100 Pa. s.

Tebranishli, ayniqsa, ultratovushli viskozimetrlarning qo‘llanilish sohasi nyuton suyuqliklari bilan cheklab qo‘yiladi, bu suyuqliklarning qovushoqligi mexaniq ta’sir intensivligiga bog‘liq bo‘lmaydi. Nyuton suyuqliklarda ular kamaytirib kursatadi, bu holda ham ulardan faqat qovushoqlik indikatorlari sifatidagina foydalanish mumkin.

---

### **Nazorat savollari.**

1. SHarikli viskozimetrning ishslash tartibi qanday?
2. Rotatsion viskozimetrlarning qanday turlarini bilasiz?
3. Rotatsion viskozimetrlarning ishslash tartibi.
4. Tebranishli viskozimetrlarning alohidaligini qaerdan bilasiz?

## **2.8.GAZLARNING TARKIBINI ANALIZ QIDISH Asosiy tushunchalar**

Gaz analizatorlari tekshirilayotgan gaz aralashmasidagi komponent yoki komponentlar yig‘indisi konsentratsiyasi, haqida ma’lumot beradigan qurilmalardir. Gaz analizatorlari sanoatning

barcha sohalarida va ilmiy-tadqiqot ishlarida keng ishlatiladi. Gazlarning tarkibini uzluksiz avtomatik nazorat qilish asosida metallurgiyada, koks-kimyo sanoatida, neftni qayta ishlashda, gaz sanoatida va boshqa joylarda gaz hosil qilish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kimyoviy texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarish amalga oshiriladi. Masalan, issiqlik elektr stansiyalarida organiq yoqilgilarni yoqishda yonish jarayonini nazorat qilish va kerakli havo miqdorini (ortiqcha miqdorini) aniqlash uchun avtomatik gaz analizatorlari ishlatiladi. Texnologik ob'ektlarning xavfsiz ishlashini ta'minlovchi sistemalarda ishlatiladigan gaz analiz qilish asboblari ham katta aqamiyatga ega. Keyingi yillarda atrof-muhitni muhofaza qilishga katta e'tibor berilayotganligi munosabati bilan sanoat korxonalari chitsindilarn tarkibidagi zararli qo'shilmalar miqdorini, ishlab chiqarish xonalari va atmosferadagi zararli qo'shilmalar miqdorini nazorat qilishga mo'ljallangan gaz analizatorlari ishlab chiqarish va ulardan foydalanish keskin kengaydi. Aholi yashaydigan punktlar havosining sifatini nazorat qilish uchun havoni ifloslantiradigan is gazi, azot qo'shoxsid, chang va boshqa shu kabi moddalar konsentratsiyasi o'lchanadi.

Texnologik jarayonlarni nazorat qilishda va avtomatlashtirishda turli sharoitlarda bo'lgan (temperaturalari, bosimlari va hokazolari turlicha bo'lgan) aralashmalarni analiz qilishga, gaz analizatorlarining turli-tuman xillarini aniqlashga to'g'ri keladi.

Sanoatda ishlatiladigan avtomatik gaz analizatorlarining ko'pchiligi gaz aralashmalaridagi bitta komponentning konsentratsiyasini o'lchanash uchun mo'ljallangan. Bu holda gazlarning aralashmalari binar deb qaralib, undagi aniqlanadigan komponent o'lchanayotgan aralashmaning fizikkimyoviy xossalariiga ta'sir qiladi, qolgan komponentlar esa, ularning tarkibi va konsentratsiyasidan qat'i nazar, ularning xossalariiga ta'sir qilmaydi va aralashmaning ikkinchi komponenti hisoblanadi. Ko'p komponentli gaz aralashmalarining turli tashkil etuvchilarini analiz qilish uchun mo'ljallangan gaz analizatorlari ham mavjud.

Gaz analizatorlari ishlash prinsipi (analiz qilish usuli), analiz qilinayotgan muhitning xossalari, aniqlanadigan komponentlar soni, ishlanish turi, chiqish signalini unnfikatsiyalash usuli va o'lchanash natijalarini berish usuli kabi belgilariga ko'ra klassifikatsiyalanishi mumkin.

Eng oddiy holda namunani o'zgartirmasdan analiz qilish mumkin, bunda analiz qilinayotgan aralashma tarkibi to'g'risida o'lchanayotgan parametrga qarab bevosita xulosa chiqariladi. Analiz qilishda namunani o'zgartirish analitik o'lhash tanlanuvchanligini oshirish imkonini beradi. Namunani o'zgartirish uchun fizik usullardan ham, kimyoviy usullardan ham foydalanish mumkin. Agar namunaga ta'sir qilish uning fizik xossalari tubdan o'zgartirib yuborsa, bunday o'zgartirish fizik o'zgartirish deb ataladi. Agar namunaga ta'sir qilish uning tarkibining tubdan o'zgarishiga olib kelsa, u kimyoviy o'zgartirish deb ataladi.

Gaz analizatorlari hajmiga nisbatan % larda.  $\text{g}/\text{m}^3$ ,  $\text{mg}/\text{l}$  larda darajalanadi.

Birinchi birlik ancha qulaydir, chunki gaz aralashmalari komponentlarining protsent hisobidagi miqdori temperatura va bosim o'zgorganida doimiyligicha qoladi.

Gaz analizatorlari komplektiga datchik va chiqish signallarini o'lchagichdan tashsari, asbobning normal ishlashini ta'minlovchi bir qancha uzellar ham kiradi. Asosiy yordamchi uzellar gaz aralashmasi namunasini tanlovchi, tozalovchi, uzatuvchi va analizga tayyorlovchi qurilmalardir.

Gaz analizatorlarining mavjud klassifikatsiyasi aralashmaning aniqlanadigan komponentlarining konsentratsiyasini o'lhashga asos qilib olingan fizik-kimyoviy xossalarga asoslanadi.

Gazlarni avtomatik analiz qilish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi: (klassifikatsiya GOST 1332081 bo'yicha): namunani oldindan o'zgartirmasdan termokonduktometrik, termomagnit, absorbsion-optik (infraqizil va ultrabinafsha nur yutiladigan), pnevmatik usullar: namuna oldindan o'zgartirnladigan usullar elektro-kimyoviy (konduktometrik, kulonometrik, polyagrafik, potensiometrik) termokimyoviy, fotokolorimetrik, alanga-ionlashuv, aerozol-ionlashuv, xromatografik. massaspektrometrik usullar. Quyida sanoatda eng keng tarqalgan usullar va asboblar ko'rib chiqilgan.

### **Elektr-kimyoviy gaz analizatorlari**

Elektr-kimyoviy usullardan gazlarni va bug'larni uzlusiz tarzda avtomatik tahlil qilishda foydalaniladi. Ayniqsa bu usullar havodagi mavjud zaharli gazlarning mikrokonsentratsiyasini, toza gazlar ishlab chiqarishda ifoslantiruvchi gazlar konsentratsiyasini,

shuningdek, suyuqliklarda erigan gazlar konsentratsiyasini aniqlash uchun keng qo'llaniladi.

**Elektr-kimyoviy gaz analizatorlarida** biror komponentning konsentratsiyasi aniqlanayotgan komponent bilan reaksiyaga kirishgan gaz aralashmasining elektr-kimyoviy xossalaring o'zarishiga qarab aniqlanadi. Quyida eng ko'p tarqalgan asboblar ko'rib chiqiladi.


**Konduktometrik gaz analizatorlari** gaz aralashmasining o'lchanadigan komponentini absorbsiyalovchi yutuvchi eritmalarning elektr o'tkazuvchanligini o'lchashga asoslangan. Kontakli konduktometrik usullar shu bilan xarakterlanadiki, yutuvchi eritma o'lhash yacheysining elektrodlari bilan bevosita kontaktlashadi. Bu asboblar murakkab qurilmalar bo'lishni talab qilmaydi, ko'rsatishlarni bevosita hisoblab borishga imkon beradi, tayyorlanishi va ishlatilishi sodda. Yutuvchi eritma sifatida, odatda, shunday eritma tanlanadiki, u tahlil qilinayotgan komponent bilan qaytmas reaksiyaga kirishadi.

Dissotsiatsiyalangan molekulalar soni kamayishi natijasida eritmaning elektr o'tkazuvchanligi yutilgan komponent miqdoriga mutanosib ravishda kamayadi. Yutuvchi eritmalar tahlil qilinayotgan komponent bilan qaytmas reaksiyaga kirishi natijasida asbob kanalchalarining devorlarida hamda o'lhash elektrodlarida cho'kmalar hosil bo'ladi, bu esa o'lhash natijalarini xato ko'rsatadi va komponentlarning mikrokonsentratsiyalarini aniqlashda gaz analizatorlaridan foydalanishni cheklab qo'yadi.

Konduktometrik o'lhashlar uchun o'lchanayotgan komponent absorbsiyasining qaytar reaksiyalaridan ham foydalanish mumkin; ularning afzalliklari: reaksiyalarda cho'kmalar absorbsiyalanmaydi va yutuvchi eritmalarning regeneratsiyalanish imkonibor. Biroq, ko'pgina hollarda bunday yutuvchi eritmalarning tanlash darajasi kam bo'ladi.

63-rasmda konduktometriya prinsipida ishlaydigan gaz analizatorning sxemasi keltirilgan. Tahlil qilinadigan gaz kapillyar naycha 1 orqali o'tadi va reaksiya boradigan idish2 hamda chulg'amli naycha 3 ga beriladi, u yerda aniqlanadigan komponent o'zgarmas tezlikda berib turiladigan elektrolit eritmasi bilan absorbsiyalanadi. Shundan keyin elektrolit eritmasi bir juft elektrodlari5 turgan

o'lhash yacheysidan o'tadi, gaz fazasi esa gaz analizatoridan naycha6 orqali chiqariladi. Taqqoslash elektrodlari 7 naychada turadi, bu naycha orqali elektrolitning yangi eritmasi beriladi.



63– rasm. Konduktometrik gaz  
Analizatorining sxemasi.


Shunday qilib, gaz analizatorlarida elektrolit eritmasining elektr o'tkazuvchanligi o'lchanayotgan komponent absorbsiyalanguncha va absorbsiyalangandan keyin o'lchanadi. O'tkazuvchanlik qiymatlaridagi farqlar aniqlanadigan komponentning ikkilamchi asbob8 yordamida o'lchanadigan konsentratsiyasiga mutanosib bo'ladi. Elektroliz vaqtida cho'kmalar hosil bo'lishining oldini olish uchun yacheyska elektrodlariga o'zgaruvchan kuchlanish beriladi, keyin bu kuchlanish to'g'rilanadi. Elektr o'tkazuvchanlikni o'lhashga asoslangan gaz analizatoridan  $O_2$ ,  $CO_2$ ,  $H_2S$ ,  $SO_2$ ,  $NH_3$ , suv bug'i va boshqa komponentlarni tahlil qilishda foydalanish mumkin.

### **Termokimyoviy gaz analizatorlari**

Bu gaz analizatorlarining ishlashi kislorodning boshqa gazlar bilan katalizatorlar ishtirokida o'tadigan reaksiyasining issiqlik samarasini o'lhashga asoslangan. Mazkur asboblarning ikki guruhi keng tarqalgan. Asboblarning birinchi guruhida yonish katalistik aktiv bo'lgan platina tolada sodir bo'ladi, bu tola ayni bir vaqtda sezgir element— o'lhash ko'prigining yelkasi hisoblanadi. Bu guruhdagi

asboblarda tahlil qilish aniqlanadigan komponent yonganida haroratning ortishini o'lchashga asoslangan.

Ikkinci guruh asboblarda oksidlanish reaksiyasi katalizator qatlamida sodir bo'ladi, reaksiyaning issiqlik samarai esa qarshilik termometri yoki shu katalizatorda joylashtirilgan termobatareya bilan o'lchanadi.



64 – rasm. Termokimyoviy gaz analizatorining sxemasi.

Birinchi guruh termokimyoviy gaz analizatorlarining prinsipial sxemasi 64-rasmda keltirilgan. Gaz analizatorining o'lhash sxemasi o'zgarmas yoki o'zgaruvchan tokda ishlaydigan muvozanatlashmagan ko'priidan iborat. Ish yachevkasi deb yuritiladigan oqim o'lhash yachevkasi ko'priknинг bitta yelkasi R1 ni hosil qiladi. Qo'priknинг R2 yelkasini hosil qiladigan taqqoslash yachevkasi o'z parametrlari va tuzilishi jihatidan ish yachekasiga ekvivalent bo'lib, havo to'ldirilgan bo'ladi. Qo'priknинг R3, R4 yelkalari o'zgarmas qarshiliklar bo'lib, ular manganindan tayyorlangan. Ko'priki sxemaning noli reostat R5 bilan o'rnatiladi. Tahlil qilinayotgan komponentning yonishida haroratning ortishi bilan platina tolsi elektr qarshiligining o'zgarishi o'lhash ko'pri muvozanatining buzilishiga olib keladi. Muvozanat buzilgandagi tok kuchi gaz aralashmasidagi komponent miqdoriga mutanosib bo'ladi. O'lhash asbobi tahlil— nazorat qayta ulagichi yordamida sxemaga kiritilgan mahsus o'zgarmas rezistorga ulanadi asbobning strelkasi R5 peostat strelkasi bilan talab etilgan reper(tayanch) nuqtaga qo'yiladi. Millivoltmetrning shkalasida platina tolasini qizdiradigan, turli komponentlarni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan tok kuchini qo'yadigan uchta tayanch nuqta bor.

Bu turdag'i asboblar asosan havodagi yonuvchi(metan, benzin bug'lar'i va h.) gazlarning portlash xavfini yuzaga keltiradigan konsentratsiyasining indikatorlari va analizatorlari sifatida ishlataladi. Ular ko'pincha ko'chma (ko'tarib yuradigan) turda chiqariladi. O'lchash xatoligi taxminan  $\pm 10\%$ . Sanoat binolari xonalari havosining yonuvchi gazlar bilan ifloslanishini avtomatik nazorat qilish uchun yonuvchi gazlarga mo'ljallangan SGS turidagi, metanga mo'ljallangan CMC turidagi, benzinga mo'ljallangan GPB turidagi va boshqa signalizatorlar chiqariladi.

### **Nazorat savollari.**

1. Gazoanalizator nima?
2. Kimyoviy va fizikaviy gazoanalizatorlar orasidagi farq nimadan iborat?
3. Fizikaviy gaz analizatorlarining qanday turlari mavjud?
4. Termokimyoviy gaz-analizatorlarining ishlash prinsipini tushuntiring.

## **2.10.TERMOKONDUKTOMETRIK GAZ ANALIZATORLARI, TERMOMAGNIT GAZ ANALIZATORLARI, OPTIK GAZ ANALIZATORLARI**

### **Termokonduktometrik gaz analizatorlari**

Termokonduktometrik gaz analizatorlarining ishlash prinsipi gaz aralashmasi issiqlik o'tkazish qobiliyatining tekshirilayotgan komponent konsentratsiyasiga bog'liqligiga asoslangan. Agar binar aralashmadagi komponentlarning issiqlik o'tkazuvchanligi har xil bo'lsa, bu usulni qo'llash qulay. Ko'p komponentli gaz aralashmasini tahlil qilishda yuqoridagi usulni qo'llash mumkin, lekin aniqlanmaydigan komponentlarning issiqlik o'tkazuvchanligi bir-biridan uncha farq qilmay, aniqlanayotgan komponentning issiqlik o'tkazuvchanligi ulardan ancha farq qilishi kerak.

Ko'pchilik gaz aralashmalarining issiqlik o'tkazuvchanligini quyidagi ifoda bilan aniqlash mumkin:

$$\lambda = \frac{C_1}{100} \lambda_1 + \frac{C_2}{100} \lambda_2 + \frac{C_3}{100} \lambda_3 + \dots + \frac{C_n}{100} \lambda_n , \quad (1)$$

bu yerda  $S_1, S_2, S_3, \dots, S_p$  — issiqlik o'tkazuvchanligi tegishlicha  $\lambda_1, \lambda_2, \lambda_3, \dots, \lambda_p$  bo'lgan komponentlar mikdori(bu yerda,  $S_1 + S_2 + S_3 + \dots + S_p = 100\%$  bo'lishi shart).

Aniqlanmaydigan komponentlarning yig'indi konsentratsiyasi  $S_v$  (1) ga ko'ra mos keladigan issiqlik o'tkazuvchanligi  $\lambda_v$  bo'lgan aralashmaning issiqlik o'tkazuvchanligi quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$\lambda = \frac{C_A}{100} \lambda_A + \frac{C_B}{100} \lambda_B, \quad (2)$$

bu yerda  $S_A$  — issiqlik o'tkazuvchanligi  $\lambda_A$  bo'lgan aniqlanadigan komponent miqdori.  $S_v + S_A = 1$  bo'lganligi uchun aniqlanadigan komponent konsentratsiyasi  $S_A$  ning aralashmaning o'lchanadigan issiqlik o'tkazuzchanligi  $\lambda$  ga bog'liqligi, aniqlanmaydigan va aniqlanadigan komponentlarning issiqlik o'tkazuvchanliklari ma'lum bo'lganida, quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$CA = (\lambda - \lambda_B) \cdot (\lambda_A - \lambda_B). \quad (3)$$

Gaz aralashmasining issiqlik o'tkazuvchanligini o'lchash uchun tahlil qilinayotgan aralashma bilan to'ldirilgan kameraga joylashtirilgan qizdiriladigan o'tkazgichdan foydalaniladi. Agar o'tkazgichdan kamera devorlariga faqat issiqlik o'tkazuvchanlik tufayligina issiqlik berilsa, quyidagi ifoda to'g'ri bo'ladi:

$$Q = 2\pi \cdot l \cdot \lambda (t_p - t_s) / l p (D/d), \quad (4)$$


bu yerda  $Q$  — o'tkazgich 1 sekundda beradigan issiqlik miqdori;  $l, d$  — o'tkazgichning uzunligi va diametri;  $D$  — kamera diametri,  $\lambda$  — gaz aralashmasining issiqlik

o'tkazuvchanligi;  $t_p, t_s$  — o'tkazgich va kamera devorlarining harorati.

O'tkazgich beradigan issiqlik  $Q$  va kamera devorlarining atrof-muhit haroratiga bog'liq bo'lgan haroratits o'zgarmas bo'lganida gaz aralashmasining issiqlik o'tkazuvchanligi o'tkazgichning haroratini, binobarin, uning o'tkazuvchanligini bir xil qiymatda aniqlaydi.

O'tkazgich sifatida elektr qarshiligining harorat koeffitsienti yuqori va kimyoviy jihatdan chidamli metall simdan foydalaniladi; platina ko'proq, volfram, nikel, tantal kamroq ishlatiladi.

Termokonduktometrik gaz analizatorlarining o'lchash elementlari o'zi qiziydigan qarshilik termometri rejimida ishlaydigan, platina tola joylashgan kamera shaklidagi o'zgartkichdan iborat. Gaz aralashmasi tarkibining o'zgarishi uning issiqlik o'tkazish qobiliyatini o'zgartiradi, natijada qizigan tola va gaz aralashmasi o'rtaida o'zaro issiqlik almashuvining jadalligi ham o'zgaradi. Tolaning elektr qarshiliqi tekshirilayotgan komponent konsentratsiyasini bildiradi. (65-rasm).



**65 – rasm. Termokonduktometrik gaz analizatori.**


Bu turdag'i sanoat gaz analizatorlarida o'lchashning differensial usuli qo'llaniladi, bu yerda, tekshirilayotgan va namuna gaz aralashmalarining issiqlik o'tkazuvchanligi ishlovchi va solishtirma kameralar yordamida solishtiriladi. Ishlovchi kamera oqib o'tadigan qilib ishlanadi, solishtirma kamera esa tarkibiga konsentratsiyasi o'lchashning pastki, o'rta va yuqorigi chegarasiga mos keladigan o'lchanayotgan komponent kirgan gaz aralashmasi bilan to'ldiriladi.

O'lchash sxemalari bevosita hisoblash yoki avtomatik muvozanatlash prinsipiga ko'ra quriladi. 1-rasmida ko'rsatilgan termokonduktometrik gaz analizatori konsentratsiyani muvozanatlashgan ko'priq yordamida o'lchaydi. Doimiy sarfga ega bo'lgan tekshirilayotgan gaz aralashmasi  $R_{t1}$  ishlovchi kameralarga keladi. Ko'priknинг qolgan yelkasiga etalon aralashmali  $R_t$  2 yordamchi kameralar ulangan. Sezgir elementning tolalari ko'priq sxemasining ta'minlash toki (STM— stabillashgan ta'minlovchi

manba) hisobiga qiziydi. Ko‘prik sxemasi R3 reostat orqali sozlanadi. Bu turdagи sanoat gaz analizatorining o‘lchash asboblari standart avtomatik kompensator asosida bajariladi.

Termokonduktometrik gaz anlizatorlarida xato, asosan, quyidagi sabablarga sodir sodir bo‘ladi.

- a) atrof-muhit haroratining o‘zgarishi, bu yerda, o‘lchash kameralarining devorlaridagi harorat o‘zgaradi;
- b) o‘lchash ko‘prigi ta’minlovchi manba kuchlanishining o‘zgarishi;
- v) gaz aralashmasining kameralar(yacheykalar) orasida o‘tish tezligining o‘zgarishi;
- g) ikkilamchi tekshirilmayotgan komponentlarning(xususan, suv bug‘lari) mavjudligi.



**66 – rasm. TP turidagi avtomatik gaz tahlilatorining sxemasi.**

O‘lchash blokini termostatlash va stabillashgan ta’minlash manbalaridan foydalanish zarurati asbobni murakkablashtiradi va qimmatlashtiradi. Havodagi yoki gaz aralashmalaridagi(vodoroddan tashqari tarkibida SO, SO<sub>2</sub>, SN<sub>4</sub>, N<sub>2</sub> va O<sub>2</sub> bo‘lgan) vodorod miqdorini, shuningdek, ko‘p komponentli aralashmalarda SO<sub>2</sub> miqdorini aniqlash uchun TP turidagi termokonduktometrik gaz analizatorlaridan foydalaniлади (66- rasm).

Sxema muvozanatlasmagan ikkita A va B ko‘priklardan iborat bo‘lib, ular o‘zgaruvchan tok manbaidan transformator orqali ta’minlanadi. Ko‘priklarning yelkalari platina simlardan tayyorlangan va shisha balloonchalarga joylashtirilgan. O‘lchash

ko‘prigining ikkita ish yelkasi 1 va 3 ning atrofidan tahlil qilinayotgan gaz

o‘tib turadi. Qolgan ikkita yelkasi 2 va 4 gaz muhitida turadi, bu gazning tarkibi asbob shkalasining boshlanishiga mos keladi. Taqqoslash ko‘prigi B ning ikkita yelkasi 6 va 8 gaz muhitida turadi, uning tarkibi asbob shkalasining boshlanishiga mos keladi, yelkalar 5 va 7 esa tarkibi shkala oxiriga mos keladigan gaz muhitida turadi. Taqqoslash ko‘prigi B ning diagonaliga reoxord  $R_P$  ulangan, uning surmasi va A ko‘priknning uchi elektron kuchaytirgich EK ning kirishiga ulangan. Reversiv dvigatel RD reoxordning surmasini va asbobning ko‘rsatkich strelkasinia va v ko‘prik uchlaridagi shkalada to kuchlanish surmaning reoxorddan oladigan kuchlanish bilan muvozanatlashmaganiga qadar suradi. Gaz analizatorining ko‘rsatishi ta’minlash manbai kuchlanishining o‘zgarishiga va atrof-muhit haroratining o‘zgarishiga bog‘liq emas.


TP turidagi gaz analizatorlari bir nechta rusumlarda chiqariladi: TP 1120—binar va ko‘p komponentli gaz aralashmalarida vodorod miqdorini aniqlash uchun; TP7102—havodagi geliy miqdorini aniqlash uchun; TP4102—havodagi azot va geliy miqdorini aniqlash uchun. Tahlil qilinayotgan gaz turi va o‘lchash chegaralariga ko‘ra asosiy xatolik  $\pm 2,5$ ;  $\pm 4,0$ ;  $\pm 10\%$  bo‘ladi. Gaz aralashmasining hajmiy sarfi  $12 \text{ sm}^3/\text{s}$ , bosim 70—130 kPa. Ko‘rsatishlarni aniqlash vaqtiga dan 110 s gacha. CHiqish signallari 0—5 mA; 0—100 mV; 0—10V.

### Termomagnit gaz analizator

Gazlar orasida kislorod alohida paramagnetizm xususiyatiga ega. Kislorod magnit maydonga boshqa gazlarga nisbatan ko‘proq tortiladi. Uning bu xossasi murakkab gaz aralashmalaridagi kislorod konsentratsiyasini o‘lchashga imkon beradi. Barcha (kislorodni tahlil qiladigan) magnitli gaz analizatorlari termomagnit va magnitonexanik asboblarga bo‘linadi.

Kislorodning harorati o‘zgarganda uning magnit xossalaring o‘zgarish samaraiga asoslangan termomagnit usuli keng tarqalgan. Bu usul termomagnit konveksiya hodisasiga asoslangan. Agar tok bilan qizdirilgan o‘tkazgich bir jinsli bo‘lmagan magnit maydonga o‘rnatilsa, gaz aralashmasining xossasi kamayadi, shu sababli o‘tkazgich atrofida magnit maydonning kuchli yerlaridan kuchsiz

yerlariga tomon aralashmaning harakati boshlanadi. Haroratning ko‘tarilishi sababli gazning magnit xossasi kamayadi, natijada gaz aralashmasining ichki oqimi vujudga keladi. Bu oqimda qizigan gaz aralashmasi termomagnit konveksiya hodisasi sababli uzlucksiz siqib chiqariladi.



67– rasm. Termomagnit gaz analizatorining sxemasi.

67-rasmda termomagnit gaz analizatorining prinsipal sxemasi keltirilgan. Tekshirilayotgan gaz aralashmasining harorati issiqlik almashtirgich 1 yordamida turg‘unlashadi. Aralashma sarfining doimiyligi o‘lchash o‘zgartkichi 2 ni rotametr 3 orqali shuntlash yo‘li bilan ta’minlanadi. Shu sababli tizim kirishidagi gaz sarfining tebranishlari o‘zgartkichdan o‘tish tezligiga ta’sir qilmaydi, chunki a va b nuqtalar orasidagi bosimlar farqi doimiy bo‘lib qoladi. O‘zgartkichning gazli bo‘shtag‘i ko‘ndalang kanalli halqa kamera 4 shaklida diamagnit materialdan ishlanadi. Kanalning kirish qismi doimiy magnit maydon orasiga joylashadi, uning ichida esa  $Rt3$ ,  $Rt4$  ikki sekxiyali platina chulg‘amlar o‘rnataladi, bu chulg‘amlarning qarshiligi nomuvozanat ko‘prikning ikki yelkasini hosil qiladi. Agar boshlang‘ich aralashmada kislorod bo‘lmasa, ko‘ndalang kanalda harakat bo‘lmaydi. Aralashmada kislorod bo‘lsa, uning molekulalari magnit maydoniga yo‘nalib, kanalga tortiladi.  $Rt$  chulg‘amlar o‘lchash sxemasi manbaining toki ta’sirida  $100\dots200^\circ S$  gacha qizdirilgani sababli kanal 4 ga kelgan kislorod ham qiziy boshlaydi. Harorat ko‘tarilishi bilan magnitning kislorodga ta’siri kamayadi, shuning uchun gazning yangi qismi magnit maydon xududiga tortilib, qizigan kislorodni xalqa kameraga itaradi.

Gazning hosil bo‘lgan konveksion oqimi issiqlikni asosan chulg‘amdan oladi, shuning uchun seksiyalar harorati har xil bo‘lib qoladi. Rt 3 vaRt 4 qarshiliklarning tekshirilayotgan gaz konsentratsiyasiga mutanosib o‘zgarishi natijasida, ko‘prikning o‘lhash diagonalida nobalanslik signali paydo bo‘ladi. Bu signal shkalasi kislorodning foiz miqdorida darajalangan avtomatik potensiometr orqali o‘lchanadi. O‘lhash ko‘prigi stabillashgan ta’minlash manbaidan(STM) ta’minlanadi. Qarshilik R5 ko‘prik manbaining tok kuchini o‘rnatish uchun xizmat qiladi; R1 vaR2 doimiy manganin qarshiliklar. O‘lhashning termomagnit usulida xatolar, asosan, quyidagi sabablarga ko‘ra sodir bo‘ladi:

- a) atrof-muhit haroratining o‘zgarishi natijasida gaz aralashmasining magnitlanishi o‘zgaradi;
- b) sezgir element issiqligining o‘zgarishi(o‘lhash ko‘prigi manbai kuchlanishining o‘zgarishi);
- v) tekshirilayotgan gaz aralashmasi yoki atmosfera bosimining o‘zgarishi;
- g) magnitlarning eskirishi natijasida magnit maydoni kuchlanishining o‘zgarishi.

Sezgirlikni oshirish va xatoliklarni kamaytirish uchun sanoatda foydalaniladigan gaz analizatorlarida o‘lhash va taqqoslash ko‘priklarining tegishli yelkalariga ulangan ikkita halqali kompensatsion o‘lhash sxemalari qo‘llaniladi. Tahlil qilinayotgan gaz harorati va bosimining o‘zgarishi, shuningdek, o‘lhash sxemasini ta’minlovchi kuchlanishning o‘zgarishi har qaysi ko‘prikning o‘lhash diagonalollaridagi kuchlanishiga bir xilda ta’sir etadi, shuning uchun gaz analizatorining ko‘rsatishlariga bu o‘zgarishlar ta’sir qilmaydi. Tutun gazlaridagi kislorod miqdorini uzluksiz aniqlash uchun MN 5106-1 turidagi termomagnit gaz analizatori ishlataladi, uning o‘lhash chegaralari bir nechta bo‘lib, ularidan eng maksimali  $0-10\%$ . Yuqorigi o‘lhash chegarasining asosiy xatoligi  $\pm 2\%$ . MN5130-1 rusumli gaz analizatori ikki yoki uch komponentli gaz aralashmalaridagi kislorod konsentratsiyasini uzluksiz o‘lhash va standart elektr signallari berish uchun mo‘ljallangan. Signal berish qurilmasi bilan jihozlangan. O‘lhash natijalarini ko‘rsatish va yozish uchun gaz analizatori bilan birgalikda ikkilamchi o‘ziyoza asbobdan foydalaniladi.

Kislородни о'лчаш chegaralari 0—0,5 dan 80— 100% gacha. Asosiy xatolik $\pm$ 2dan10% gacha(o'лчаш chegaralariga qarab). Gaz aralashmasining hajmiy sarfi  $12 \text{ sm}^3/\text{s}$ , bosimi 90—105 kPa. O'лчаш vaqtı 120 s. CHiqish signallari 0-5 mA, 0—100 mV.


## Absorbsion-optik gaz analizatorlari

Optik gaz analizatorlarida optik zichlik, sindirish koeffitsienti va boshqa optik xossalarning tekshirilayotgan komponent konsentratsiyasiga bog'liqligidan foydalaniladi. Elektromagnit nurlanish jadalligining pasayishi yoki nurlanish oqimining tekshirilayotgan gaz spektorining infraqizil, ultrabinafsha yoki ko'rindigan qismlaridagi yutilishini o'лchashga asoslangan absorbsion-optik usul ko'proq tarqalgan. Vodorod, ammiak, metan kabi gazlar infraqizil nurlarni, xlor, ozon, simob bug'lari esa ultrabinafsha nurlarni yutadi. Shuning uchun tahlil qilinayotgan komponent turiga qarab bunday gaz analizatorlarida infraqizil yoki ultrabinafsha nurlanishdan foydalaniladi. Spektrning infraqizil sohasida ishlaydigan gaz analizatorlarida nurlatkichlar sifatida  $700—800^\circ\text{S}$  gacha qizdirilgan sim spirallaridan foydalaniladi. Spektrning ultrabinafsha sohasida ishlaydigan gaz analizatorlarida esa gaz ryazryad lampasi nurlanish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Optik-absorbsion gaz analizatorlarining ko'pi differensial sxema bo'yicha qurilgan (68-rasm). Manba 1 dan olinadigan nurlanish oqimi yo'lida yorug'lik filtrlari 2 orasidan tekshirilayotgan gaz aralashmasi o'tadigan ishlovchi kamera 3 va aniqlanayotgan komponent qo'shilmagan gaz aralashmasi bilan to'ldirilgan taqqoslash kamerasi 4 o'rnatiladi. Qabul qilgich 5 ish va taqqoslash kameralaridagi nurlanish jadalligi farqini qabul qiladi, aniqlanayotgan komponent miqdoriga mutanosib bo'lgan nobalanslik signali esa kuchaytirgich 6 da kuchayib, o'лchash asbobi 7 da qayd qilinadi.

Odatda optik gaz analizatorlari kompensatsion sxema bo'yicha ishlanib, o'лchash sxemasi optik, gaz yoki elektr usullar yordamida muvozanatlanadi. Optik konpensatsiya usulida teskari aloqa signali to'siq yoki optik pona siljishiga aylantiriladi. Bu esa taqqoslash kanalida nurlanish jadalligini tegishlicha o'zgartiradi. Ikkinci holda, taqqoslash kanalida nurlanish oqimi yo'lida kompensatsiyalovchi

aralashma qatlaming qalinligi o‘zgaradi. Ba, nihoyat, elektr kompensatsiyalash usulida zanjirda elektr bilan ta’minlash kuchlanishi o‘zgartiriladi. (68-rasm).



68 – rasm. Optik– absorbtion gaz analizatorining blok– sxemasi.

Infraqizil nurlanishli gaz analizatorlarida qoldiq energiya tekshirilayotgan komponent bilan to‘ldirilgan nur qabul qilgichlarida yutiladi. Uzlukli nurlanishdan foydalanilganda nur qabul qilgichda energiyaning yutilishi sababli haroratning o‘zgarishi, shu bilan birga bosimning o‘zgarishi vujudga keladi. Bu tebranishlarni tegishli o‘lhash asbobi bilan olingan nur kabi qabul qilgich mikrofonining membranasi qabul qiladi.

Bunday nur qabul qilgichda gaz bosimining pulslanishi akustik samara nomini olgan. Bunday gaz analizatorlari esa optik-akustik asboblar deyiladi. Bu asboblarning afzalligi ularning universalligidadir, chunki ko‘pchilik moddalarning infraqizil yutilish sfektri bir-biridan farq qiladi.

Optik-akustik gaz analizatorlari gaz va bug‘larning ma’lum to‘lqin uzunlikdagi infraqizil nurlarni(0,76 dan 750 mkm gacha) tanlab yutishiga asoslangan. Bu gaz analizatorlarida, odatda, faqat to‘lqin uzunligi 2,5—25 mkm bo‘lgan nurlardangina foydalaniladi. Agar gaz qatlami orqali infraqizil nurlar o‘tkazilsa, ulardan faqat tebranish chastotasi gaz molekulalarining xususiy tebranish chastotalariga teng bo‘lgan nurlargina yutiladi. Bu yerda, yutilgan nurlarning energiyasi molekulalarning kinetik energiyasini ko‘paytirishga sarflanadi va issiqlik tarzida tarqaladi. Molekulalarning tebranish chastotasidan farq qilinadigan chastotadagi nurlar esa gazdan o‘zgarmasdan o‘tadi. Har qaysi

gaz o‘ziga xos spektrlar sohasidagi ma’lum xossali radiatsiyani yutadi, masalan, uglerod oksidi<sup>4,7</sup>

mkm qiyatdagi, uglerod qo‘shoksidida—2,7 va 4,3 mkm qiyatlardagi, metan—3,3 va 7,65 mkm qiyatdagi radiatsiyalarini yutadi. Bu esa optik-akustik usullar bilan gazlarni tahlil qilishni tanlab o‘tkazishga imkon beradi.

Sanoatda foydalaniladigan infraqizil yutilishli optik- akustik gaz analizatorlarida vaqtি-vaqtি bilan infraqizil nurlar o‘tkazib turiladigan kyuvet bo‘yicha yo‘naltirib turiladigan murakkab gaz aralashmasi tekshirilayotgan gaz namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu yerda, nurlarning bir qismi yutiladi, bir qismi esa ikkinchi asbob bilan bog‘langan sezgir elementga tushadi.


Nurlar namunadan o‘tganidan keyin integral nurlanishlar farqini o‘lchaydigan sezgir element sifatida tanlovchi nur qabul qilgichidan foydalaniladi. Bu qabul qilgich tahlil qilinadigan komponent bilan to‘ldirilgan kameradan iborat bo‘lib, infraqizil nurlar o‘tishi uchun tuynuk bilan jihozlangan. Agar nur 1 qabul qilgichiga vaqtি-vaqtি bilan infraqizil nurlar tushib tursa, u holda kamerada turgan gaz vaqtি-vaqtি bilan isib sovib turadi.

O‘zgarmas hajmli kamerada turgan gaz haroratining o‘zgarishi natijasida uning bosimi ham o‘zgaradi, bosimning bu o‘zgarishini nur qabul qilgich ichida turgan membrana qabul qiladi. Hyp qabul qilgich bitta gaz bilan to‘ldirilgani uchun nur energiyasini yutish jarayoni tanlovchi bo‘ladi va u bilan bog‘liq bo‘lgan harorat hamda bosim o‘zgarishlari nur qabul qilgichni to‘ldirib turgan gazning yutish spektriga mos keluvchi ma’lum to‘lqin uzunligidagina sodir bo‘ladi. Gaz aralashmasi o‘tkaziladigan kyuvetda, aniqlanayotgan komponentning konsentratsiyasiga qarab, nur energiyasi oqimi susayadi, shuning uchun nur qabul qilgich kamerasida harorat va bosimning o‘zgarish amplitudasi bu komponentning gaz aralashmasidagi miqdoriga teskari mutanosib ravishda o‘zgaradi.

O‘lhash sxemalariga ko‘ra optik-akustik gaz analizatorlari ikki guruhga: kompensatsion va bevosita o‘lhash analizatorlariga bo‘linishi mumkin.

69- rasmda optik-akustik gaz analizatori OA-2209 ning prinsipial sxemasi ko‘rsatilgan, u gaz aralashmalarida uglerod qo‘shoksidini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Gaz analizatori

uzluksiz ishlaydigan avtomatik asbob bo‘lib, qabul qilgich bloki va ikkilamchi asbob KSU2 dan iborat.



**69- rasm. Optik–akustik kompensatsion gaz analizatoriningsxemasi.**

Gaz aralashmasidagi tahlil qilinayotgan komponentning miqdori kompensatsion usul bilan o‘lchanadi. Elektr toki qizdiradigan ikkita nixrom spiral 3 infraqizil nurlanish manbai bo‘lib xizmat qiladi. Nurlarning yo‘nalgan oqimini hosil qilish uchun har qaysi spiral qaytargich 2 ning fokusiga joylashti rilgan. Infracqizil nurlar oqimi qizigan spirallardan ayni bir vaqtida obtyurator 4 Yordamida 5 Gts chastota bilan uziladi va ikki optik kanalga yoenaltiriladi, obtyuratori sinxron dvigatel 1 aylantiradi. O‘ng kanalda infraqizil nurlarning uzlukli oqimi filtrlash kamerasi 5 va ish miqdori kompensatsion usul kamerasi 6 dan ketma-ket o‘tib, qaytaruvchi plastina 7 ning ortiga tushadi va undan nur qabul qilgich 9 ning o‘ng silindri 8 ga yo‘naladi. CHap kanalda infraqizil nurlarning uzlukli oqimi filtrlash kamerasi 5 va kompensatsiyalovchi kamera 13 dan o‘tib, nur qabul qilgich 9 ning chap silindriga tushadi. Faqat o‘lchanmaydigan komponent bilan to‘ldirilgan filtrlash kameralari 5 gaz analizatorlarning xatoligini qo‘sishma ravishda kamaytirishga imkon beradi, bu xatoliklarga gaz aralashmasida o‘lchanmaydigan komponentlar miqdorining o‘zgarishi sabab bo‘ladi. Kompensatsiyalovchi kamera 13 chap kanaldagi infraqizil nurlar oqimining yo‘lida gaz aralashmasi qatlaming qalinligini o‘zgartirish, shuningdek, bu oqimning yo‘nalishini o‘zgartirish uchun xizmat qiladi. Tekshirilayotgan gaz aralashmasi ish kamerasi 6 orqali uzluksiz o‘tib turadi. Agar aralashmada tahlil qilinayotgan komponent

bo‘lmasa, u holda nur qabul qilgichning kamerasiga infraqizil nurlarning bir xil oqimlari keladi, membrana tebranmaydi va nur qabul qilgichdan signal chiqmaydi. Agar gaz aralashmasida izlanilayotgan komponent bo‘lsa, u holda ish kamerasi 6 da infraqizil nurlarning qisman yutilishi natijasida nur qabul qilgichning o‘ng silindriga ularning zaiflashgan oqimi, chap silindriga esa zaiflashmagan oqimi kiradi. Bu esa silindrлardagi gaz harorati va bosimining farqlari hosil bo‘lishiga olib keladi. (69-rasm).

Obtyurator uzluksiz nur chiqarib turganida nur qabul qilgich silindrларидаги gaz soviydi va bosim kamayadi, natijada silindrлarda bosimning vaqtı-vaqtı bilan pulsatsiyalanishi yuz beradi. Gaz analizatorning ko‘rsatishlari aniqligini oshirish uchun silindrларига inert gazlari qo‘shilgan tahlil qilinayotgan gaz to‘ldiriladi. Hyp qabul qilgichning silindrлари faqat tahlil qilinayotgan komponent va infraqizil nurlarga inert bo‘lgan azot bilan to‘ldirilgani uchun bosimning pulsatsiyalanishi faqat tahlil qilinayotgan gaz yutadigan nurlanish spektri hisobigagina vujudga keladi. Shunday qilib, asbobda tanlab yutishga va tahlil qilishga erishiladi. Hyp qabul qilgich9 da bosimning o‘zgarishi kondensatorli mikrofon 10 da o‘zgaruvchan tokka aylanadi. Bu tok kuchaytirgichida kuchaytirilib, reversiv dvigatel 12 ga beriladi va uning rotori aylana boshlaydi. Bu yerda, kompensatsiyalovchi kamera13 ning qaytaruvchi porsheni biror tomonga surilib, yutuvchi qatlamning qalinligini oshiradi yoki kamaytiradi. Nur qabul qilgich silindrларига tushayotgan nur oqimlari bir-biriga teng bo‘lib qolgan paytda nur qabul qilgichdan chiqayotgan elektr signali yo‘qoladi va dvigatel to‘xtaydi. Shunday qilib, kamera 13 porshenining vaziyati doimo tahlil qilinayotgan komponent konsentratsiyasiga mos keladi. Porshenning bu vaziyati o‘z navbatida reoxord 14 orqali ikkilamchi asbob 15 bilan qayd tiladi. Uglerod qo‘shoksidini o‘lchash chegaralari 0—1 dan O—100% gacha. Asosiy xatolik  $\pm 2,5\%$ . Gaz aralashmasi sarfi  $8,3 \text{ sm}^3/\text{s}$ , bosim  $0,3 \text{ kPa}$ . Ko‘rsatishlarni aniqlash vaqtı 30 s. CHiqish signali 0—5 mA.

### Nazorat savollari.

1. Termomagnit gaz analizatorlarining ishlashi nimalarga asoslangan?.
2. Xromatografiyaning mohiyatini tushuntirib bering.
3. Xromatograf nima?.

4. Statsionarnoy i nostatsionar xromatografiyalar haqida ma'lumotlar bering.
5. Xromatograflarda (diagrammadagi) cho'qqichalar nimani bildiradi?
6. Xromatogafning ishlash prinsipi qanday?
7. O'ziyozar asbobning funksiyasi nimadan iborat?
8. Xromatograflarning o'lhash xatoligi qay darajada?
9. Masspektrometr nima?
10. Masspektrometrlarning afzallik va kamchiliklari.

## **2.11. FOTOKALORIMETRIK GAZ ANALIZATORLARI, XROMATOGRAFIK GAZ ANALIZATORLARI, MASS- SPEKTROMETRIK GAZ ANALIZATORLARI.**

### **Fotokalorimetrik gaz analizatorlari**


Bu gaz analizatorlarida erigan moddaning konsentratsiyasi eritma yoki lentaning jadal bo'yاليshiga qarab aniqlanadi. Suyuqlikli va lentali fotokalorimetrik gaz analizatorlari gazlarning mikrokonsentratsiyasini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu gazlar( $H_2S$ ,  $SO_2$ ,  $NH_3$ ,  $Cl_2$ ,  $NO$ ,  $NO_2$ ) maxsus tanlangan reaktivlar bilan rangli reaksiyaga kirishadi. Bu asboblarning fizikaviy asosi Buger—Lambert—Ber qonunidir. Bo'yalgan komponentlar (yoki reaksiyaga kirgan gaz massasi) ning konsentratsiyasi quyidagi ifoda buyicha aniqlanadi:

$$C = D_\lambda / (\varepsilon_\lambda \cdot l_\lambda) \quad (1)$$

bu yerda  $D_\lambda$ — optik zichlik;  $\varepsilon_\lambda$ — yutilish koeffitsienti;  $l_\lambda$ — kyuvetning uzunligi.

Fotokalorimetrik tahlil qilish usuli yuqori sezgirlikka va tanlovchanlikka ega. Bu usul sezgirligining yuqoriligi tahlil qilinadigan komponentni eritmada yoki indikator lentasida yig'ish imkoniyati borligi bilan belgilanadi. Usulning tanlovchanligi yuqoriligidagi tahlil qilinayotgan komponent bilan reaktiv-indikator o'rtaсидаги reaksiya sabab bo'ladi.

70-rasmda eritma yoki gaz davriy ravishda uzatiladigan FKG turidagi fotokalorimetrik gaz analizatorining sxemasi ko'rsatilgan. Asbobda ikki optik kanal: ish va taqqoslash kanallari bo'lib, ularning ichida ish kyuveti 4 va taqqoslash kyuveti 12 joylashtirilgan. Absorbsiyalovchi eritma bak 15 dan nasos yordamida



**71-rasm.Alanga-ionli gaz-analizatori sxemasi.**

taqqoslash kyuveti orqali dozator6 ga haydaladi. Dozatorda to'kish naychasi 7 bor bo'lib, u orqali ortiqcha eritma bakka qaytib qo'yiladi. Buyruq beruvchi rele belgilaydigan teng vaqt oraliklarida elektromagnit klapan 3 ishga tushadi, u kyuvet4 dagi ishlab bo'lgan eritmani bakka chiqarib yuboradi, bu yerda eritma regeneratsiyalanadi. Kyuvetlar bo'shatilganidan keyin klapanlar 5 va 8 ishga tushib, dozator ular yordamida eritma beruvchi quvurchadan uzeladi va ayni bir vaqtida kyuvet4 bilan birlashib, unga eritmaning o'lchangan hajmini quyadi. Klapanlar 5 va 8 dozatorni yangi eritma bilan to'ldirish uchun dastlabki vaziyatlariga qaytadi. Kyuvet 4 da eritmaning yangi berilgan porsiyasi orqali tekshirilayotgan gaz chiqib ketganidan keyin rangli reaksiya sodir bo'ladi. Ma'lum vaqt tutib turilganidan keyin buyruq relesi klapan 3 ni ochadi va navbatdagi sikl boshlanadi. Har ikkala kyuvet orqali yoritish lampasi 2 dan linza 1 orqali yorug'lik oqimi o'tadi. Kyuvetlarning orqasida fotoelementlar 9 va 14 joylashgan bo'lib, ular kyuvetlardagi eritmalardan o'tgan yorug'lik oqimlarini differensial tarzda ulangan bo'lib, u ikki fotoelementning signallari farqini kuchaytiradi. Kuchaytirilgan signal reversiv dvigatel 11 ning boshqaruvchi chulg'amiga keladi, dvigatel kompensatsiyalovchi optik pona 13 ni kyuvet 12 ning optik kanalida har ikki fotoelement bir xildigi yoritilganlikka ega bo'lganiga qadar kerakli yo'nalishda siljitadi. Optik ponaning surilish kattaligi va u bilan bog'liq bo'lgan asbob ko'rsatkichining surilish kattaligi

tekshirilayotgan gazdagi aniqlanadigan komponent konsentratsiyasining o‘lchovi bo‘ladi.

Ishlab chiqarish xonalari havosidagi xlor qoldiqlarini o‘lchash diapazonidan  $\pm 20\%$  xatolik bilan aniqlashga imkon beradigan gaz analizatorlaridan sanoat FKG-ZM turidagi fotokalorimetrik analizatorlarni chiqaradi.


Axbobsozlik sanoati FSL turidagi fotokalorimetrik gaz analizatorlarini chiqaradi. Uning ishlashi kimyoviy reaksiya natijasida hosil bo‘lgan lentadagi dog‘dan qaytgan yorug‘lik oqimini etalon yorug‘lik oqimi bilan taqqoslashga asoslangan.

FSL turidagi lentali gaz analizatorlarining boshqa rusumlari ishlab chiqarish xonalari va texnologik liniya havosidagi fosgen, vodorod sulfid, sianid kislotani aniqlash uchun chiqariladi. Ishlab chiqarish xonalarining havosidagi ammiak miqdorini  $0—3 \cdot 10^{-3}$  va  $0—3 \cdot 10^{-2}$  % chegarasida aniqlash uchun FSL1, 107 turidagi fotokalorimetrik gaz analizatorlari chiqariladi. Lentali fotokalorimetrik gaz analizatorlari uchun ish eritmasi sarfining juda kamligi va u bilan bog‘liq bo‘lgan yuqori sezgirlikka erishish osonligi xarakterlidir, chunki gazlarning reaksiyaga kiruvchi miqdori bilan erigan miqdorining nisbati juda katta bo‘lishi mumkin. Biroq lentaning sirti bir jinsli bo‘lmaganligi va boshqa bir qancha omillar ta’siri tufayli lentali fotokalorimetrik gaz analizatorlarining xatoligi suyuqlikli fotokalorimetrik gaz analizatorining xatoligidan yuqoridir.

Ionli gaz analizatorlaridan havodagi zararli moddalarni aniqlashda, shuningdek, portlash xavfi bor gaz aralashmalarini nazorat qilishda foydalaniladi. Ular ishslash prinsipi bo‘yicha ikki guruh: alangali-ionli va aerozolli-ionli gaz analizatorlariga bo‘linadi.

**Alangali-ionli gaz analizatorlari** organik moddalarning vodorod alangasida ionlashuviga asoslangan. Alangali-ionli o‘zgartkich elektr maydonga joylashtirilgan vodorod gorelkasidan iborat. Sof vodorod yonganida ionlar deyarli hosil bo‘lmaydi, shuning uchun sof vodorodning elektr o‘tkazuvchanligi juda ham past bo‘ladi. Organik moddalarning alangasi paydo bo‘lganida ularning ionlashuvi sodir bo‘ladi va alanganing elektr o‘tkazuvchanligi keskin ortadi.

Bu gaz analizatorining prinsipial sxemasi 71-rasmda keltirilgan. O‘lchash elektrodlaridan biri gorelka 1 bo‘lib, unga manba 4 dan 60—300 V li o‘zgarmas kuchlanish beriladi, gorelka korroziyabardosh



**70 – rasm. Fotokolorimetrik gaz-analizatorlari.**

po'lat yoki titandan tayyorlanadi. Ikkinci(kollektorli deb yuritiladigan) elektrod o'rnida yupqa devorchali silindr xizmat qiladi, u gorelka 1 bilan.o'qdosh bo'lib, nodir metallar(platina, oltin, titan)dan tayyorlanadi. O'zgartkichning ionizatsiya kamerasiga yonishni saqlab turish va vodorodning yonish mahsuloti bo'lgan suvning kondensatsiyalanishining oldini olish uchun havo kiritib turiladi. O'zgartkich zanjirida ionizatsiya tokining paydo bo'lishiga reaksiya davomida elektrodlarda musbat va manfiy zaryad eltuvchilarining hosil bo'lishi sabab bo'ladi. Ionizatsiya tokining kuchi  $10^{-7} — 10^{-8}$  A dan oshmaydi. Shu munosabat bilan o'zgartkichning tok signali o'zgarmas tok kuchaytirgichi 5 ga beriladi. Kuchaytirilgan signal ikkilamchi asbob6 ga(masalan, avtomatik potensiometrga yoki signalizatsiya qurilmasiga) keladi, bu qurilma konsentratsiya berilgan qiymatidan ortib ketganida signal chiqaradi.

**Aerozolli-ionli gaz analizatorlari** gazni tahlil qiladigan radioizotopli asboblarga taalluqli bo'lib, ularda gaz muhitining fizik parametri— gazlarning elektr o'tkazuvchanligi, ionizatsiyalovchi nurlanish ta'sirida bo'lgan gazlarning elektr o'tkazuvchanligi o'lchanadi. Bu asboblarda gazning ayoki  $\beta$  aktiv izotop ko'rinishidagi ichki ionizatsiya manbaiga ega bo'lgan ionizatsion tok kamerasi sezgir element bo'lib xizmat qiladi. Muhitning nazorat qilinayotgan komponenti konsentratsiyasining o'lchovi bo'lib kameraning elektrodlari orasida ularga kuchlanish berilganda, hosil bo'ladigan ionizatsiya toki xizmat qiladi. Bu gaz analizatorlarining xususiyati shundan iboratki, ularda nazorat

qilinayotgan komponent oldin aerozol holatiga keltiriladi. Bu yerda, hosil bo‘ladigan aerozol zarralari soni nazorat qilinayotgan komponent konsentratsiyasiga mutanosib bo‘lib, ionizatsiya tokining o‘lchanayotgan kuchining o‘zgarishini aniqlaydi.

$$I=I_0 e^{-CN\tau r} \quad (2)$$


bu yerda  $I_0$  — kamerada aerozol zarralari bo‘lmagandagi boshlang‘ich tok kuchi;  $N$  — Brikard doimiysi bo‘lib, uni gaz ionlarining aerozol zarralarga o‘tirish ehtimoli borligi nuqtai nazaridan aniqlanadi;  $S$  — gazdagi aerozol zarralarining konsentratsiyasi;  $\tau$  — gazonlarining kamera ichida «yashash» vaqtি bo‘lib, uni ionizatsiya kamerasining tuzilishi va elektr maydonning kuchayishiga qarab aniqlanadi;  $r$  — aerozol zarralarining o‘rtacha radiusi.

## Xromatografik gaz analizatorlari

Gaz analizatorlarining ko‘rib o‘tilgan hamma turlari gaz aralashmasidagi faqat bitta komponentning konsentratsiyasini aniqlashga imkon beradi. Xromatografik gaz analizatorlari (xromatograflar) ulardan farqli ravishda gaz aralashmasini to‘la tahlil qilishga, ya’ni bu aralashmani tashkil etuvchi hamma gazlarning konsentratsiyasini aniqlashga imkon beradi. Xromatografik ajratish yo‘li bilan ko‘p komponentli gaz aralashmalarini tahlil qilish uchun mo‘ljallangan asboblar xromatograflar deb ataladi. Ularning prinsipial sxemasi 64-rasmda keltirilgan. O‘lhash jarayoni xromatografda ikki bosqichda o‘tadi: oldin aralashma alohida komponentlarga ajratiladi, so‘ngra aralashmadagi har qaysi komponentning miqdori o‘lchanadi. Gaz aralashmasini ajratish kolonkasi 2 da sodir buladi. Bu kolonka yupqa naychadan iborat bo‘lib, o‘z sirtidagi gazlarni ushlab olish va tutib turish xususiyatiga ega bo‘lgan modda — sorbent bilan to‘ldirilgan bo‘ladi. Tahlil qilinayotgan gazning dozator 1 da o‘lchab olingan porsiyasi davriy ravishda eltuvchi gaz deb ataladigan yordamchi gazning uzluksiz oqimiga berib turiladi. Kolonka orqali aralashma porsiyasi haydalganida tegishli komponentlarga ajraydi. Ajralish gazlarning turlicha absorbsiyalanishi tufayli yuz beradi. Absorbsiyalanish qancha yuqori bo‘lsa, eltuvchi gaz molekulalarini sorbent sirtidan shuncha qiyinlik bilan ajratib oladi. Shuning uchun

eltuvchi gaz kolonkaga to‘xtovsiz kirib turib, undan komponentlarni navbat bilan siqib chiqaradi: oldin aralashmaning kuchsiz absorbsiyalanadigan komponenti, so‘ngra qolganlarini. Shunday qilib, kolonkadan haqiqatan olganda binar aralashma chiqadi, uning komponentlardan biri eltuvchi bo‘lib, boshqasi tahlil qilinayotgan aralashma bo‘ladi. Binap aralashmalar detektor 3 yordamida tahlil qilinadi. Detektorlarning eng ko‘p tarqalgan turlaridan biri termokonduktometrik gaz analizatorlaridir. Detektorning chiqish signali qayd etuvchi asbob 4 ga beriladi.

Gazlarni tahlil qilish uchun gaz absorbsion va gaz taqsimlash xromatografiya usullari eng ko‘p tarqalgan. Bularning birinchisida harakatchan faza— gaz va qo‘zg‘almas faza— maydalangan qattiq modda bo‘ladi. Ikkinci xil asboblarda harakatchan faza— gaz va qo‘zg‘almas faza— g‘ovak asosga surkalgan suyuqlik bo‘ladi. Gaz-absorbsion xromatograflarda komponentlarning ajralishiga ularning qo‘zg‘almas qattiq faza sirtiga turlicha absorbsiyalanishi, gaz taqsimlash xromatograflarda esa qo‘zg‘almas suyuq fazada turlicha erishi sabab bo‘ladi.



72 – rasm. Gaz aralashmasini komponentlarga xromatografik tarzda ajratishning absorbtion sxemasi.

72-rasmda gazlar aralashmasining komponentlarga gaz absorbsion usulda xromatografik ajralishining prinsipial sxemasi ko‘rsatilgan. Gaz aralashmasining uchta A, B, va V eltuvchi gaz yordamida uzun yupqa naycha-ajratish kolonkasi komponentlaridan tarkib topgan namunasi (3-rasm, a) orqali siqib chiqariladi, naycha spiral tarzida bukilgan va absorbent bilan to‘ldirilgan bo‘ladi. Aralashma komponentlari turlicha absorbsiyalangani ularning kolonkada harakatlanishi turlicha sekinlashadi. Ayni komponent molekulalari qancha ko‘p adsorbsiyalansa, ularning kechikishi shuncha katta bo‘ladi, va aksincha. Uning uchun aralashmaning

ayrim komponentlari kolonkada turlicha tezlikda harakatlanadi. Ma'lum vaqt dan keyin( 3-rasm, b) birinchi bo'lib kam absorbsiyalangan V komponent, undan keyin komponent B va nihoyat, eng ko'p absorbsiyalangan va shu sababli boshqalariga qaraganda sekinroq harakatlanadigan A komponent ketadi. Keyingi vaqt oraliqlarida komponentlarning harakatlanish tezligi turlicha bo'lganligi.tufayli komponentlar to'la ajraydi (3-rasm, v) va xromatografik kolonkadan ketma-ket yo eltuvchi gaz yoki eltuvchi gaz— komponentdan iborat binar aralashma chiqadi. Ko'p komponentli gazni tahlil qilishda komponentlar kolonkadan ularning molekulyar massalari ortib borishi tartibida chiqadi. Komponentlar ajralishining ma'lum o'zgarmas sharoitlarida(harorat, eltuvchi gazcapfi, absorbentning xossalari va h.) har qaysi komponentning ayni xromatografik kolonkadan o'tish vaqt, binobarin, uning chiqish vaqt o'zgarmaydi Shuning uchun har qaysi komponentning chiqish vaqt xromatografik tahlilning. sifat ko'rsatkichi hisoblanadi. Gaz-absorbsion xromatografiyada eltuvchi gaz sifatida azot, geliy, havo va boshqa gazlardan foydalaniladi: absorbent sifatida esa aktiv ko'mir, silikagel, alyumogel, magniy oksid va boshqalardan foydalaniladi.

## **Massa-spektrometrik gaz analizatorlari**

Massa-spektrometrler gazlarni tahlil qilishda eng takomillashgan asboblardandir. Ular kimyoviy va fizik xossalardan qat'iy nazar, moddalarning izotop va molekulyar tarkibini aniqlashga mo'ljallangan. Massa-spektrometrik usul murakkab aralashmalardagi ko'p-komponentlarning miqdorini aniqlashga imkon berib, bu yerda, tahlilni juda tez o'tkazishni ta'minlaydi.

Tahlil qilishda tahlil qilinayotgan moddaning molekulalari qizigan katod emitterlaydigan elektronlar yordamida ionlanadi, elektr linzalar tizimi vositasida tor dasta tarzida fokuslanadi, tezlatuvchi elektronning elektr maydonida tezlatiladi va elektronlar kollektorida tutib qolinadi. Ion dastaning tarkibi tahlil qilinayotgan gaz aralashmasining molekulyar tarkibiga mos keladi. Ko'ndalang magnit maydoni ta'sirida oqim ionlar massasining ularning zaryadlariga nisbati bilan farq qiladigan ion nurlariga ajraladi, bular keyin kollektorga keladi. Kollektor zanjirida massalari turlicha

ionlar elektr toki hosil qiladi va bu toklar oldin kuchaytirilganidan keyin o‘lchanadi va elektron qayd etuvchi qurilma yordamida yozib qo‘yiladi. Magnit maydonining kuchlanganligi asta-sekin o‘zgartirib borilganida, tekshirilayotgan gazning molekulyar tarkibini xarakterlovchi ion toklari spektri yoki massaspektrlari yoziladi. Miqdoriy tahlil o‘tkazish uchun massa-spektrometrni tekshirilayotgan moddada bor deb taxmin qilingan har qaysi komponent bo‘yicha oldindan darajalanadi.

Massa-spektrometrlarning tuzilishi analistik va o‘lhash qismlaridan iborat. Analistik qismda ion dastalari massalari bo‘yicha hosil qilinadi, shakllantiriladi va ajratiladi. O‘lhash qismi ionlar manbaini va ishga tushirish tizimining stabillashgan kuchlanish bilan ta’minlash, ion toklarini o‘lhash va qayd etish, vakuum tizimida bosimni o‘lhash, massa sonlarini indekslash va hokazolar uchun mo‘ljallangan. Massa-spektrometrlar uchta turga: kimyoviy tarkibni tahlil qilish uchun — MX; moddaning strukturasi va xossalari tekshirish uchun— MS; izotop tahlil qilish uchun— MI turlarga bo‘linadi. MS turidagi massa-spektrometrlar laboratoriya sharoitlarida o‘tkaziladigan ilmiy tadqiqotlar uchun mo‘ljallangan.

Asbobsozlik sanoati kimyoviy tarkibini tahlil qiladigan MX- 7201, MX-7304, MX-1320 va izotopni tahlil kiladigan MI-1201B massa-spektrometrlarini chiqaradi. MX-7201 massa-spektrometri metallarda va ularning qotishmalarida N<sub>2</sub>, O<sub>2</sub>, N<sub>2</sub>, S<sub>2</sub> gazlari va ularning gaz hosil qiluvchi qo‘shilmalari miqdorini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Tekshirilayotgan materialdan gaz ajralib chiqishi vakuumda suyuqlantirish yuli bilan yoki grafitli tigelda amalga oshiriladi. Gazsimon qo‘shilmalarning tarkibini aniklash monopolyar(bir qutbli) massa-spektrometr yordamida amalga oshiriladi. Massa sonlari bo‘yicha o‘lhash chegaralari 2—60.

Magnitsiz MX-7304 massa-spektrometri so‘rib (tortib) olish tizimlari bilan ta’minlangan vakuumli tizimlarda qoldiq gazlarni sifat jihatidan tahlil qilish uchun mo‘ljallangan. Massa sonlari bo‘yicha o‘lhash chegaralari 2—200, tahlil qilish xatoligi  $\pm 2,5\%$ .

MX-1320 massa-spektrometri gaz aralashmalarini, suyuqliklarni va 400°S gacha haroratda gazsimon holatga o‘tadigan qattiq moddalarni miqdor va sifat jihatidan tahlil qilish uchun mo‘ljallangan. Massa sonlari bo‘yicha o‘lhash chegarasi 1—4000, tahlil qilish xatoligi  $\pm 5 \cdot 10^{-6}\%$ .

MI-1201B massa-spektrometri gazlarning va qattiq moddalarning izotop tarkibini sanoat sharoitida tahlil qilish uchun mo‘ljallangan. Natijalarini SM1 bazaviy hisoblash kompleksi yordamida amalga oshiriladi. Massa sonlari bo‘yicha o‘lchash chegaralari 2—720, tahlil qilish xatoligi  $\pm 0,15\%$ .

### **Nazorat savollari.**

11. Termomagnit gaz analizatorlarining ishlashi nimalarga asoslangan?
12. Xromatografiyaning mohiyatini tushuntirib bering.
13. Xromatograf nima?
14. Statsionarnoy i nostatsionar xromatografiyalar haqida ma'lumotlar bering.
15. Xromatograflarda (diagrammadagi) cho‘qqichalar nimani bildiradi?
16. Xromatogafning ishslash prinsipi qanday?
17. O‘ziyoza asbobning funksiyasi nimadan iborat?
18. Xromatograflarning o‘lchash xatoligi qay darajada?
19. Masspektrometr nima?
20. Masspektrometrlarning afzallik va kamchiliklari.

## **2.12. SUYUQLIKLARNING TARKIBINI ANALIZ QILISH. ASOSIY MA’LUMOTLAR**

### **Suyuqliklarning tarkibini analiz qilish**

Texnologik jarayonlarni temperatura, bosim, sarf va sath kabi parametrlarga ko‘ra boshqarish, ko‘pincha, talab etilgan sifatdagi mahsulotlar olishga kafolat bera olmaydi. Ko‘pgina hollarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tarkibini avtomatik tarzda nazorat qilish zarurati tug‘iladi.

Texnologik jarayonlar mobaynida qayta ishlanayotgan moddalarning tarkibi va ularning xossalari o‘zgaradi. Bu parametrlarni nazorat qilish jarayon rejimi to‘g‘risida bevosita fikr yuritishga imkon beradi. chunki ular olinayotgai mahsulotlarning sifatini ifodalaydi, shuning uchun suyuqliklarning tarkibini nazorat qilish ishlab chiqarishni boshqarish har kanday sistemasining majburiy elementlaridan biridir.

Avtomatlashtirishning rivojlanishi va ayniqsa, ximiya, gaz va neft-ximiya, energetika, oziq-ovqat va boshqa sanoat turlarining

kompleks avtomatlashtirilishi texnologik potokni analiz qilish uchun yaroqli usullarni hamda asboblarni ishlab chikishni talab etadi. Shu munosabat bilan keyingi yillarda analitik asbobsozlikning jadal rivojlanishi sodir bo‘lmokda.

Umumiy holda suyuqliklar tarkibinya analiz qilish deyilganda ularning elementar, funksional yoki molekulyar tarkibini aniqlash tushuniladi. Tarkibni aniqlaydigan asboblar analizatorlar deb ataladi. Muhitda faqat bitta komponentning miqdorini aniqlash uchun mo‘ljallangan analizatorlarni ba’zan konsentratomerlar deb yuritiladi. Suyuqliklar konsentratsiyasini o‘lhash uchun quyidagi o‘lhash birlklari eng ko‘p tarqalgan;  $\text{mg/sm}^3$ ,  $\text{g/sm}^3$ , massasi yoki hajmi bo‘yicha; %.

Temperatura, bosim va shu kabi faktorlarning o‘lhash natijalariga kuchli ta’sir etishi analitik o‘lhashlarning o‘ziga xos hususiyatlaridan biridir. Bu faktorlar ayniqsa o‘lhash aniqligiga ta’sir qiladi. Shuning uchun avtomatik analizatorlar, odatda, namunalar tanlab olish, ularni analizga tayyorlash, o‘lhash sharoitlarini stabillash yoki tuzatishlarni avtomagik kiritish va hokazolar uchun qo‘srimcha murakkab jihozlar bilan ta’minlangan bo‘ladi.

Analiz qilinadigan suyuqliklarning turli-tumanligi va ularning tarkibi hamda xossalaring keng diapazonda bo‘lishi analiz qilish usullari turlicha bo‘lgan avtomatik asboblar ishlab chiqarishni taqozo etdi. Asbobsozlik sanoati xilma-xil suyuqliklarni analiz qiluvchi xilma-xil avtomatik analizatorlar ishlab chiqaradi.

Suyuqliklarni analiz kilishning sanoatda eng ko‘p tarkalgan usullariga konduktometrik, potensiometrik, optik, titrometrik va radioizotopli usullar kiradi.

### **Eritmalarini analiz qilishning konduktometrik usuli**

Elektrolit eritmalarining konsentratsiyasini ularning elektr o‘tkazuvchanligiga ko‘ra o‘lhash (konduktometriya) laboratoriya sharoitida ham, sanoat sharoitida avtomatik nazorat qilish uchun ham keng qo‘llaniladi. Konduktometrik konsentrumerlarning ishlashi eritmalar elektr o‘tkazuvchanligining ular konsentratsiyasiga bog‘liqligiga asoslangan.

Arrenius nazariyasiga ko‘ra elektrolitlar suvda eritilganida molekulalar ionlarga dissotsiatsiyalanib, shu ionlarning eritmada mavjud bo‘lishi eritmaning elektr o‘tkazuvchanligiga sababdir. Dissotsiatsiyalanish darajasiga ko‘ra kuchli va kuchsiz Elektrolitlar

bo‘ladi. Kuchli elektrolitlar deyarli batamom ionlarga dissotsiatsiyalangan bo‘ladi, kuchsiz elektrolitlarning eritmalarida esa ma’lum miqdorda dissotsiatsiyalanmagan molekulalar ham bo‘ladi.

Turli moddalar eritmalarining elektr o‘tkazuvchanligini baholash uchun Kolraush ekvivalent elektr o‘tkazuvchanlik tushunchasini kiritdi, u  $1\text{sm}^3$  eritmada  $1\text{g}\cdot\text{ekv}$  modda bo‘lgan eritmaning elektr o‘tkazuvchanligi sifatida aniqlanadi:

$$\lambda = \sigma / \eta \quad (1)$$

bu yerda  $\lambda$  - eritmaning ekvivalent elektr o‘tkazuvchanligi;  $\sigma$  - eritmaning solishtirma elektr o‘tkazuvchanligi,  $\text{Sm/sm}$ ;  $\eta$  erigan moddaning ekvivalent konsentratsiyasi,  $\text{g}\cdot\text{ekv}/\text{em}^3$ .

Barcha elektrolitlar uchun ekvivalent elektr o‘tkazuvchanlik dissotsiatsiyalanish kuchayishi natijasida eritma suyula borishi bilan ortadi. Eritma to‘da dissotsiatsiyalanganda (ya’ni eritma cheksiz suyulganida) u eng katta qiymatiga erishadi. Eritmaning solishtirma elektr o‘tkazuvchanligi bilan suyultirilgan elektrolitning tabiatи hamda uning konsentratsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik Kolraush qonuni bilan aniqlanadi:

$$\sigma = \alpha \cdot \eta (\nu_k - \nu_a) \quad (2)$$

bu yerda  $\alpha$  - elektralitik dissotsiatsiyalanish darajasi;  $\nu$  - ionlar (kationlar  $\nu_k$  va anionlar  $\nu_a$ ) ning eritma cheksiz suyulgandagi qo‘zg‘aluvchanligi, ya’ni ularning kuchlanish gradienti  $1\text{V/sm}$  bo‘lgan elektr maydonidagi siljish tezligi,  $\text{Sm/s}$  bilan ifodalanadi.

Ko‘pgina hollarda konduktometrik usuldan bir komponentli eritmalarini nazorat qilish uchun foydalaniladi.


Elektr o‘tkazuvchanlikni o‘lhash uchun mo‘ljallangan asboblarga konduktometrlar, tuz o‘lchagichlar, konsentratomerlar kiradi. Bu asboblarning birinchisi elektr o‘tkazuvchanlik birliklarida darajalangan, ikkinchisi shartli tuz miqdori birliklarida, odatda NaCl ning miqdorini ko‘rsatuvchi protsentlarda darajalangan bo‘ladi. Konsentratomerlar analiz qilinayotgan moddaning protsent hisobidagi miqdorlarida darajalanadi.

Eritmalarning konsentratsiyasini ularning elektr o‘tkazuvchanligiga ko‘ra o‘lhash uchun elektrodlı va elektrodsiz usullar qo‘llaniladi. Elektrodsiz o‘lhash usulidan asosan kislota, ishqorlarning konsentratsiyasini o‘lhashda foydalaniladi. (73-rasm).


Elektrodli konduktometriyada ikki elektroddan iborat o'lchash yacheykalaridan foydalaniladi, elektrodlar nazorat kilinayotgan zritma solingan idishda birbiridan ma'lum masofada o'rnatilgan bo'ladi. O'lchash yacheykasi (65-rasm) elektr qarshiligi bilan xarakterlanadi. Bu qarshilikning kagtaligi quyidagi teng (0m hisobida)

$$R = (1/\sigma) (L/S) \quad (3)$$

bu yerda:  $\sigma$  - eritmaning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi; Cm/sm, L- elektradlar orasidagi masofa, sm; S- elektrodlarning o'ziga, sm<sup>2</sup>.



73-rasm. Ikki elektrodli konduktometr



74-rasm. To'rt elektrodli konduktometr

Konduktometrik o'lchashlar amaliyotida L/S nisbat o'lchash yacheykalarining tajribada aniqlanaligan konstantalari degan nom oldi. Buning uchun yacheyka etalon eritma bilan to'ldiriladi (bu eritma sifatida, odatda, kaliy xloridning eritmasidan foydalaniladi), yacheykaning qarshiligi o'lchanadi va quyidagi tenglamadan K ning kattaligi aniqlanadi:

$$K = R \sigma_1 \quad (4)$$

bu yerda R - elektrodlar orasidagiga o'lchanan qarshilik, 0m:  $\sigma_1$  - etalon eritmaning ma'lum solishtirma elektr o'tkazuvchanligi, Sm/sm.

Elektr o'tkazuvchanlikni o'lchashda sanoat chastotasidagi yoki chasgotasi oshirilgan o'zgarmas tokdan ham, o'zgaruvchan tokdan ham foydalanish mumkin

Ikki elektrodli o'lchash yacheykasi bilan bir qatorda to'rtta elektrodi bor yacheykalardan ham foydalaniladi (74-rasm). Tok eritmada ikki tashqi elektrodlar 1 va 4 orasida o'tadi, bu elektrodlar kuchlanish manbunga ulangan bo'ladi. Rezistor R ning cheklovchi


qarshiligi kattaligi tufayli yacheyka zanjiridagi tok kuchi, eritmaning qarshiligi o‘zgarishidan qatiy nazar, o‘zgarmasdan qoladi. Ikki ichki elektrod 2 va 3 potensiometr vazifasini bajaradi va eritmada kuchlanish tushuvini o‘lhash uchun mo‘ljallanadi:

$$\Delta U_{2,3} = I R_{Y_a} \quad (5)$$

bu yerda  $R_{Y_a} = K/\sigma$  elektrodlar 2 va 3 orasidagi eritmaning qarshiligi ( $K$  to‘rt elektrodli o‘lhash yacheykasining konstanti, u elektrodlar 2 va 3 ning oralig‘iga va ular sirgining yuziga bog‘liqdir).

Shunday qilib, elektrodlar 2 va 3 orasidagi potensiallar farqi nazorat qilinayotgan eritmaning konsentratsiyasi bilan bir qiymatda aniqlanada. O‘lchanadigan kattalik muvozanatlovchi ko‘prikning uchlaridagi potensiallar ayirmasi bilan taqqoslanadi.

O‘lhashdagi temperatura xatoliklarini avtomatik kompensatsiyalashni muvozanatlovchi ko‘prikning yelkalaridan biriga ulagan metall qarshilik termometri bajaradi. Nazorat qilinayotgan eritmaning temperaturasi o‘zgorganida qarshilik ham o‘zgaradi, buning natijasida potensiallar ayirmasi ham o‘zgaradi.



**75-rasm. Termokompensatorli konduktometr**

Eritmalarining elektr o‘tkazuvchanligi temperaturaga juda bog‘liq. Eritma temperaturasi  $1^{\circ}\text{S}$  ga ortsa, uning solishtirma elektr o‘tkazuvchanligi 1,5-2 % ga oshadi.

Eritmalarining temperaturasi amalda juda keng chegaralarda o‘zgaradi, shuning uchun konduktometrik konsentratometrlap temperatura o‘zgarishining o‘lhash natijalariga ta’sir qilishini bartaraf qiluvchi avtomatik kompensatorlarga ega bo‘lishi kerak,

75-rasmda termokompensatsiya qiluvchi shunt qarshiligi konduktometr chizmasi keltirilgan. Shunt qarshiligi kichik temperatura koeffitsientiga ega bo‘lishi kerak (masalan manganindan qilingan bo‘ladi) va u o‘lchanayotgan uchastkaga parallel ulanadi. Eritmaning temperatura koeffitsienti termoo‘arshilikning temperatura koeffitsientiga yaqinlashadi, dekin u teskari ishoraga ega bo‘ladi. Shu sababdan zanjirning umumiy qarshiligi deyarli bir xil bo‘lib qoladi.

Ximiya sanoatida avtomatik temperatura kompensatorlari keng tarqalgan. Bunga misol qilib suyuqlikli kompensatorlarni olishimiz mumkin.

Suyuqlikli kompensator parametrlari o‘lhash yacheykasining paramegrlariga o‘xhash elektrod datchikdan iboratdir. Kompensator elektr o‘tkazuvchanlik temperatura koeffitsienti nazorat qilinayotgan suyuqlikning temperatura koeffitsientiga taxminan teng bo‘lgan etalon suyuqlik bilan to‘ldiriladi. Kompensator nazorat qilinayotgan suyuqlikka konsentratorning o‘lhash yacheykasi bilan birlgilikda kiritiladi. Kompensator ko‘priklı o‘lhash sxemasining yelkasiga ulanadi. Etalon va nazorat qilinayotgan suyuqlikning temperaturalari bir xil bo‘lganligi va temperatura koeffitsientlari bir-biriga yaqin bo‘lganligi sababli temperaturalar o‘zgarganida o‘lhash yacheykasi qarshiligining o‘zgarishini suyuqlikli kompensatorning qarshiligining o‘zgartirish yo‘li bilan to‘la kompensatsiyalash mumkin.

Elekogradli kondukgeometrarning eng katta kamchiligi elektrodlarning qutblanishi va elektrodlar sirtida sodir bo‘ladigan zlektrokimyoviy reaksiyalarda hosil bo‘ladigan moddalar bilan ifloslanishi, shuningdek, eritmadiagi mavjud mahsulotlar bilan ifloslanishidir.

Kontaktsiz kondukgeometrarda o‘lchanayotgan muhit bilan bevosita kongaktga ega bo‘lмаган birlamchi o‘zgartkichlar bo‘ladi, shu sababli ularda bunday kamchiliklar bo‘lmaydi. Ta’minlovchi kuchlanishning chastotasiga qarab kontakgsiz konduktometrlar past chastotali (1000 Gts gacha bo‘lgan sanoat va tovush chastotasidagi) va yuqori chastotali (1 kGts dan ortiq) turlarga bo‘linadi.


Past chastotali kontaktsiz kondukgeometrarda analiz qilinayotgan eritma berk halqa hosil qiluvchi trubalarda oqadi. Truba dielektrik materialdan tayyorlangan. Trubaga tashqi tomondan ikki transformator uygotuvchi Tr1 va o‘lhash transformatorlari Tr2 ning (69-rasm) chulg‘amlari o‘ralgan bo‘ladi. Tr1 transformatorning

birlamchi chulgami o'zgaruvchan tok manbaiga ulangan. Elektrolit eritmasi trubada hosil qilgan berk suyuqlik o'rami transformator Tr1 ning ikkilamchi chulg'ami vazifasini bajaradi. Suyuqlik o'ramidagi elektromagnit ta'sirlashuv natijasida EYuK induksiyalanadi.

Tok kuchi ikkinchi transformator Tr2 bilan o'lchanadi. Suyuqlik o'rami uning uchun birlamchi chulg'am bo'lib xizmat qiladi. O'lchash transformatori Tr2 ning ikkilamchi chulg'amida hosil bo'ladigan EYuK ning kattaligi konsentratsiyaga proporsional bo'ladi. Ko'pgina hollarda uni kompensatsion usulda o'lchanadi, buning uchun transformator Tr2 ning qo'shimcha chulg'amidan foydalaniladi, bu transformatorning amper-o'ramlari soni eritmaning amper-o'ramlariga ko'ra hisoblanadi. Kompensatsiya sharti:

$$I_K w_1 = I_P w_2 \quad (6)$$

Kompensatsiyalovchi chulg'am orqali o'tadigan tok kuchini o'lchash uchun reversiv dvigatel RD dan foydalaniladi, u surilgichni siljitadi. Reoxord surilgichining va asbobning u bilan bog'langan strelkasining vaziyati nazorat qilinayotgan eritma konsentratsiyasiga proporsional bo'ladi. O'lchashdagi temperatura xatoliklarini kompensatsiyalash uchun qarshilik termometri Rt mo'ljallangan, u ko'prik sxemaga ulangan bo'lib, nazorat qilinayotgan eritma ichida turadi.




76-rasm. Kontaktsiz past chastotali

Kontaktsiz past chasgotali konduktometrlardan solishtirma elektr o'tkazuvchanligi  $1-10^{-6}$  Sm/sm chegarasida bo'lgan elektrolitlarning konsentratsiyasini nazorat qilishda foydalaniladi. (76-rasm).

KK seriyasidagi konduktometrlarda  $10^{-2}$  dan 1 Sm/sm gacha bo‘lgan elektr o‘tkazuvchanlikni o‘lchash KK-8 va KK-9 konduktometrlari bilan bajariladi.

Yuqori chastotali konduktometrlarda analiz qilinayotgan eritmaning konsentratsiyasini o‘lchash eritmaning unga bog‘liq bo‘lgan reaktiv qarshilikini nazorat qilish yuli bilan bajariladi.

Yuqori chastotali kontaktsiz konduktometrlarning birlamchi o‘zgartkichlari o‘lchanadigan reaktiv qarshilikning turiga qarab sig‘imli va induktivli xillarga bo‘linadi. Har ikki turdag‘i o‘zgartkichlarning sxemasi 77-rasmda ko‘rsatilgan.



77-rasm. Kontaktsiz konduktometrlarning yuqori chastotali o‘zgartkichlari

Eritmaning konsentratsiyasi bilan o‘zgartkichlarning chiqish parametrlari  $S_x$  va  $L_x$  o‘rtasida murakkab bog‘liqlik mavjud bo‘lganligi sababli (bu bog‘liqlikka eritmaning tabiatidan tashqari o‘zgartkichning geometriyasi va materiali, ta’minlash chastotasi va boshqalar ta’sir qiladi) ularning darajalanish xarakteristikalari har qaysi konkreg o‘zgartkich va eritma uchun tajriba yuli bilan aniqlanadi.

Yuqori chastotali konduktometrlarning o‘lchash o‘zgartkichlari sifatida yuqori chastotali generatorlardan ta’minlanadigan ko‘prikli va rezonansli sxemalardan foydalaniladi. Rezonansli sxemalarda rezonans konturining birlamchi o‘zgartkich induktivli yoki sig‘imli qarshiliklariga bog‘liq bo‘lgan xususiy tebranishlari o‘lchanadi.

### Nazorat savollari.

1. Suyuqliklarni analiz qilishda keng tarqalgan qanday usullarni bilasiz?

2. Konsentratsiya nima?
3. Potensiometr nima uchun xizmat qiladi?
4. Konduktomatriya atamasining ma'nosini izohlab bering.
5. Arrenius nazariyasi nima?
6. Ekvivalent elektr o'tkazuvchanlik nimani bildiradi?
7. Dissotsiatsiya nima?
8. Klraush qonuning ifodalanishi qanday?
9. Konduktometrning konsentratormetrdan farqi qanday?
10. Elektr o'tkazuvchanlikni o'lhashda qanday tok ishlatiladi, o'zgaruvchanmi yoki o'zgarmasmi?

## **2.13.ANALIZ QILISHNING POTENSIOMETRIK USULI.**

### **Analiz qilishning potensiometrik usuli**

Potensiometrik usul muayyan indikator elektrodlar hosil kilgan EYuKni o'lhash yuli bilan ionlar konsentratsiyasini aniqlashga asoslangan. Bunda konsentratsiyani bevosita potensiallar farqini o'lhash bilan aniqlash mumkin.

Texnologik tekshirishlarda eritma konsentratsiyasi, ko'pincha  $rN$  ning qiymati bo'yicha o'lchanadi. Agar  $rN < 7$  bo'lsa kislotalar,  $rN = 7$  bo'lsa neytral,  $rN > 7$  bo'lsa, ishqorli eritma bo'ladi.

Avtomatik asboblarda  $rN$ ni o'lhash uchun elektr usuldan foydalaniladi, u tekshirilayotgan eritmaga botirilgan, shishadan tayyorlangan o'lhash elektrodining eritma  $rN$  qiymatiga ko'ra elektrod eritma chegarasida potensiallar farqini o'zgartirishiga asoslangan. Birok faqat bitta elektrod va eritma o'rtasidagi potensiallar farqini o'lhab bo'lmaydi, chunki o'lhash asosi ulanganida asbobni eritmaga ulaydigan o'tkazgich bilan eritma orasida ham potensiallar farqi hosil bo'lib, u ham eritmadagi vodorod ionlari konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli elektrod potensiallarini o'lhashda o'lhash elektrodi bilan bir katorda yordamchi elektroddan ham foydalaniladi, uning potensiali o'zgarmas bo'lib, eritmaning xossalariiga bog'liq bo'lmaydi. Yordamchi elektrod sifatida kalomel yoki kumush xlorid qoplangan elektrodlar ishlatiladi.

Har ikki elektrod galvanik element hosil qiladi. Suvli eritmalarga tadbiq etiladigan Nernst tenglamasiga ko'ra bunday galvaniq

elementning EYuKi, agar yordamchi elektrodning potensiali nolga teng bo‘lsa, quyidagi ifodadan aniqlanadi:


$$E = -2,3 (RT/F) \text{ pH} \quad (1)$$

bu yerda R-universal gaz doimiysi; T-eritmaning absolyut temperaturasi, K;  
F- Faradey soni.

(1) tenglama shuni ko‘rsatadiki, shisha elektrodning EYuK i eritmaning rN miqdoriga va uning temperaturasiga bog‘liq ekan. Eritmaning temperaturasi o‘zgarmas bo‘lganida shisha elektrodning EYuK i faqat eritmaning rN miqdori funksiyasidan iborat bo‘ladi. Bu tenglamaga R, T va F ning son qiymatlarini qo‘yib, 20°S uchun shisha elektrodning potensiali qiymatini (V hisobida) topamiz.

$$E = -0,05 81rN \quad (2)$$

Eritmaga tushirilgan shisha va kalomel elektrodlar vositasida eritmaning rN miqdorini o‘lchash mobaynida ularda hosil bo‘lgan potensiallar farqi eritmaning rN miqdoriga proporsional bo‘lib, potensiometr bilan o‘lchanadi.



**78-rasm. Shisha va kalomel elektrodlari bo‘lgan rN-metrning sxemasi.**

78-rasmda tekshirilayotgan eritma 10 ga tushirilgan shisha 1 va kalomel elektrodlar 7 dan foydalanilgan holda eritmaning rN miqdorini o‘lchash sxemasi ko‘rsatilgan. Ulardan hosil bo‘lgan potensiallar farqi eritmaning rN miqdoriga mutanosib bo‘lib, potensiometr 4 bilan o‘lchanadi. SHisha elektrod shisha naychadan iborat bo‘lib, uchi elektrod shishasidan yasalgan yupqa devorli(0,1—

0,2 mm) ichi kavak zoldir kavsharlab qo‘yilgan. Zoldirga rN miqdori ma’lum bo‘lgan eritma3 to‘ldirilgan bo‘lib, eritmaga esa kumush xlorid qoplangan kontaktli yordamchi elektrond2 botirilgan, u zoldirning ichki sirtida potensiallar farqini olish uchun xizmat qiladi. SHisha elektrodlarning xususiyati shundan iboratki, ularning ichki elektr qarshiligi juda katta bo‘lib, 20°S da100—200 mOm ga yetadi.

Kalomel elektrond 7 dielektrikdan tayyorlangan, ichiga kimyoviy toza simob 5 to‘ldirilgan bo‘ladi. Uning ustida yomon eriydigan kalomel pastasining qatlami6, to‘yintirilgan kaliy xlorid eritmasi 8 joylashtirilgan. Elektr kontakt hosil qilish uchun kam o‘tkazadigan to‘sinq 9 o‘rnatilgan bo‘lib, u orqali kaliy xlorid astasekin sizib o‘tadi va bu bilan tekshirilayotgan eritmadan yordamchi elektrondga chet ionlar o‘tib qolishining oldini oladi. Shunday qilib, shisha va kalomel elektrodlardan iborat rN- metrning elektr zanjiri ketma-ket ulangan elementlar qatoridan tashkil topgan bo‘lib, ularning potensiali o‘lhash asbobi qayd etadigan yig‘indi EYuK ni beradi:

$$E = Ye_1 + Ye_2 + Ye_3 + Ye_X \quad (3)$$

bu yerda  $Ye_1$  - kumush xlorid qoplangan elektrond bilan Xlorid kislota orasidagi potensialning sakrashi (o‘zgarishi);  $Ye_2$  - xlorid kislota bilan shisha elektrond sharigi iski yuzasidagi potensial;  $Ye_3$  - simob bilan kalomel o‘rtasidagi yordachi elektroddagi potensial;  $Ye_X$  - shisha elektrond sharigi tashqi sirti bilan tekshirilayotgan eritma o‘rtasidagi potensial.

$Ye_1$ ,  $Ye_2$  va  $Ye_3$  kattaliklar nazorat qilinayotgan eritmaning tarkibiga bog‘liq bo‘lmaydi va faqat haroratga qarab o‘zgaradi. SHisha elektrond zoldirsining tashqi yuzasida.hosil bo‘ladigan elektr yurituvchi kuch  $Y_{eX}$  eritmaning rN miqdori va temperatirasi bilan aniqlanadi hamda (1) tenglama bilan hisoblanishi mumkin. Binobarin, pH-metr elektr zanjirining yig‘indi EYuK ma’lum harorat uchun tekshirilayotgan eritmadagi vodorod ionlari aktivligining funksiyasidan iboratdir. Bu EYuK ni o‘lchab tekshirilayotgan eritma uchun pH kattalikni topish mumkin.

Hozirda ishlab chiqarilayotgan rNmetrlarning eng ko‘p tarqalgan turlariga pH201 va pH261 xillari kiradi. Ularning o‘lhash o‘zgartkichlari o‘zgarmas kuchlanish bo‘yicha 0-50 mV va tok bo‘yicha 0-5 mA chiqish signallariga ega bo‘ladi. Bu esa ularning


avtomatik potensiometrlar, nazorat qilish va rostlash kurilmalari bilan komplektda ishlashiga imkon beradi.

pHmetrning komplekti rN201 eritmalardagi vodorod ionlari aktivligini o'lhash, qayd etish hamda rostlash uchun mo'ljallangan. pH-metrning komplektiga oqar suvda turadigan datchik-sezgir element DM-5M shisha va kumush xlorid qoplangan elektrodpar bilan, yuqori chastotali sanoat o'zgartkichi P201 va uziyozar potensiometr KSP kiradi.

Sanoat pH- metrlarida o'lhash elektrodi va yordamchi elektrod bita korpusda joylashtiriladi va sig'implarda o'rnatiladigan, botirib qo'yiladigan datchiklar tarzida yoki quvurlarda o'rnatiladigan, oqar suvda turadigan datchik tarzida tayyorlanadi. pH zanjirning EYuKini o'lhashda odatda kirish qarshiligi katta bo'lgan avtomatik potensiometrlardan foydalaniladi, ularning shkalasi pH birliklarida darajalanadi. Tekshirilayotgan eritmalarining harorati keng chegaralarda o'zgarib turganida o'lhash tizimida eritma haroratlarining o'zgarib turishini avtomatik kompensatsiyalovchi qurilma bo'lishi kerak.

Asbobsozlik sanoatida ishlab chiqariladigan pH- metrlarning eng ko'p tarqalgan turlariga pH-201 va pH-261 xillari kiradi. Ularning o'lhash o'zgartkichlari o'zgarmas kuchlanish bo'yicha  $-50$  mV va tok bo'yicha  $-5$  mA chiqish signallariga ega bo'ladi. Bu esa ularning avtomatik potensiometrlar, nazorat qilish va rostlash qurilmalari bilan birqalikda ishlashga imkon beradi.

pH- metrning komplekti pH-201 eritmalarida vodorod ionlari aktivligini o'lhash, qayd etish hamda rostlash uchun mo'ljallangan. pH-metriga oqar suvda turadigan datchik—sezgir element DM-5M shisha va kumush xlorid qoplangan elektrodlar bilan, yuqori chastotali sanoat o'zgartkichi P-201 va o'ziyozar potensiometr KSP-2 kiradi. Sanoat o'zgartkichi P-201 rN larni o'lhashda qo'llaniladigan elektron tizimlarining sezgir elementlari EYuK ni unifikatsiyalangan o'xshash elektr signallariga o'zgartirish uchun mo'ljallangan. O'zgartkich ko'rsatuvchi asbob MI730 A (yoki M325) bilan jihozlangan. O'zgartkich chiqish toki bo'yicha manfiy teskari aloqa bilan qamrab olingan o'zgarmas tok kuchaytirgichidan iborat, bu esa katta chiqish qarshiliklari olishga imkon beradi. P-201 o'zgartkichi bilan elektron tizimining EYuK ini o'lhash sxemasi 79-rasmda ko'rsatilgan.



**79– rasm. Elektrod tizimi EYUK ni o‘zgartkich P-201 bilan elektrad tizimining EYUK ini o‘lchash sxemasi.**

Elektrod tizimining o‘lchanadigan EYUk Yex teskari ishorali Uchik kuchlanish bilan taqqoslanadn. Bu kuchlanish rezistorR dan kuchaytirgichning chiqish toki *Ichik* o‘tayotganida kuchlanish tushuvi natijasida hosil bo‘ladi. Binobarin, elektron kuchaytirgich EK ning kirishiga Ukip= Ex-Uchik kuchlanishlar ayirmasi beriladi; bu yerda, n

$$E\Sigma = U_{\text{chik}} + U_{\text{kir}}$$

Elektron kuchaytirgichning kuchaytirish koeffitsienti (u kuchaytirgich chiqish kuchlanishining kirish kuchlanishi nisbatiga teng) qiymati ancha katta bo‘lganida Uchik >> Ukip bo‘ladi, shuning uchun Ukip ning qiymatini hisobga olmasa ham bo‘ladi. U holda

$$E\Sigma = U_{\text{chik}} = I_{\text{chik}} \cdot R.$$

Shunday qilib, rezistor orqali o‘tayotgan tok kuchi amalda elektrod tizimida hosil bo‘ladigan EYUk ga mutanosib bo‘ladi. Uning kattaligini o‘lchab, Yex ning va binobarin, eritma rN miqdorini aniqlash mumkin. O‘zgartkichda o‘lchash chegaralari 10 dan 100 mV gacha bo‘lgan o‘ziyozar potensiometrlarni ulash uchun kuchlanish va tok bo‘yicha chiqishlari bor. Harorat kompensatsiyasi 0 dan 100°S gacha. Sezgir elementdan o‘zgartkichgacha yo‘l qo‘yiladigan eng katta masofa 150 m. CHiqish signallari o‘zgarmas

tok bo'yicha 0—5 mA; o'zgarmas tok kuchlanishi bo'yicha 0 dan(10—100) mV gacha. Ko'rsatishlarni aniqlash vaqtiga 10 s. rN-201 asbobida rN sonlarini o'lchashning besh chegarasi bor: 1; 2,5; 5; 10; 15. Elektr chiqish signallari bo'yicha asosiy xatolik  $\pm 1\%$ . ko'rsatuvchi asbob bo'yicha  $\pm 2\%$ .

### **Nazorat savollari.**

1. Konsentratsiyani o'lchash birliklari qanday?
2. Konsentratsiya nima?
3. Konsentratsiyani o'lchash uchun qanday keng tarqalgan usullarni bilasiz?
4. To'rt elektrodli o'lchash yacheykalarining qanday afzalliklari mavjud (ikki elektrodliga nisbatan)?
5. Kontaktsiz konduktometrlar haqida nimalarni bilasiz?
6. Kolorimetr nima?

## **2.14. ANALIZ QILISHNING OPTIK USULI, RADIOIZOTOPLI USULLARI.**

**Tayanch iboralar. Titrlash, titrant, konsentratsiya, radioizotop, nurlanish, obtyurator, etalon suyuqlik  
Suyuqlik tarkibini analiz qilishning optik usuli**

Optik analizatorlarda analiz qilinayotgan suyuqlik tarkibi bilan shu suyuqlik orqali yorug'likning tarqalish qonunlari o'rtasidagi bog'lanishdan foydalaniladi.

Eritmalarni analiz qilishning optik usullari suyuqliklar optik xossalaring sindirish va qaytarish koeffitsienti, optik zichligi, qutblanish burchagi va boshqa ko'rsatkichlarining tekshirilayotgan modda konsentratsiyasiga bog'liqligiga asoslangan. Eng ko'p tarqalgan optik analizatorlarga fotoelektrik refraktometrlar, fotoelektrik kolorimetrlar, fotoelektrik nefelometrlar va fotoelektrik polyarimetrlar kiradi.

Refraktometrlarda analiz uchun yorug'likning bir muhitdan ikkinchi bir muhitga o'tishida (bu muhitparning optik xossalari turlicha bo'lganligi sababli) o'z yo'nalishini o'zgartirish hususiyatidan foydalaniladi. Agar muhitlardan birining optik xossasi o'zgarmasdan qolsa (etalon muhit), ikkinchisining xossasi esa suyuqlikdagi

komponentlarning konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘lsa, u holda yorug‘lik nurining chetga chiqishi bo‘yicha bu komponentning konsentratsiyasini o‘lchash mumkin.

Yorug‘lik nurining chetga chiqishini (sinish ko‘rsatkichini) aniqlashning bir nechta usuli mavjud bo‘lib. Ulardan asosiyлари spektrometrik va to‘la ichki qaytarish usullaridir.

Spektrometrik usul yorug‘lik oqimining nazorat qilinayotgan shisha prizmalarda eng kam chetga chiqish burchagi bo‘yicha yorug‘likping sinish ko‘rsatkichini aniqlashga asoslangan.


Avtomatik refraktometrda analiz qilinayotgan eritma ikki kyuvetdan iborat differential kyuvet orqali o‘tkaziladi. Har ikki kyuvet umumiy devorchaga ega prizmadan iborat. 1-kyuvet orqali analiz qilinayotgan eritma o‘tkaziladi, 2-kyuvetda esa etalon suyuqlik turadi. (80-rasm).

Yorug‘lik manbadan linza va diafragma yordamida yorug‘lik polosasi "a"ga o‘zgaradi, u ikkala kyuvetdan o‘tib, qo‘shaloq fotorezistorga tushadi. Agar kyuvetlardagi suyuqliklarning optik xossalari bir xil bo‘lsa, chiqayotgan yorug‘lik oqimi "b"ning yo‘nalishi yorug‘lik oqimi "a" ning yunalishi bilan bir xil bo‘ladi. Bu holda har ikki fotorezistor bir xilda yoritilgan va ularning qarshiliklari teng bo‘ladi.

Analiz qilinayotgan suyuqlikning optik xossalari o‘zgarganida yorug‘lik oqimi o‘z yo‘nalishini ikki marta o‘zgartiradi: etalon kyuvetga kirishda va undan chiqishda. Nurning "b" yunalishida siljishi natijasida pastki rezistorning yoritilganligi oshadi, yuqorigi fotorezistorni esa kamayadi. Fotorezistorlar qarshiligining o‘zgarishi ko‘prik sxema yordamida o‘lchanadi.


Yana bir keng tarqalgan gruppalaridan biri avtomatik refraktometrlar bo‘lib, ularning ishlashi to‘la ichki qaytarish hodisasiga asoslangan.

**Spektrometrik usul** yorug‘lik oqimining nazorat qilinayotgan shisha prizmalarda eng kam chetga chiqish



80-rasm. Avtomatik refraktometrning sxemasi

burchagi bo'yicha yorug'likning sinish ko'rsatkichini aniqlashga asoslangan. 80-rasmida avtomatik refraktometrning prinsipial sxemasi ko'rsatilgan bo'lib, unda tahlil qilinayotgan eritma ikki kyuvet 4 va 6 dan iborat differential kyuvet orqali o'tkaziladi. Har ikki kyuvet umumiy devorcha 5 ga ega prizmadan iborat. Kyuvet 4 orqali tahlil qilinayotgan eritma o'tkaziladi, kyuvet 6 da esa etalon suyuqlik turadi. Yorug'lik manba 1 dan linza 2 va diafragma 3 yordamida yorug'lik polosasi a ga o'zgaradi, u ikkala kyuvetdan o'tib, qo'shalok foterezistor 7 ga tushadi. Agar 4 va 6 kyuvetlardagi suyuqliklarning optik xossalari bir xil bo'lsa, chiqayotgan yorug'lik oqim b ning yo'nalishi yorug'lik oqimia ning yo'nalishi bilan bir xil bo'ladi. Bu holda har ikki foterezistor bir xilda yoritilgan va ularning qarshiliklari teng bo'ladi. Tahlil qilinayotgan suyuqlikning optik xossalari o'zgorganida yorug'lik oqimi o'z yo'nalishini ikki marta o'zgartiradi: etalon kyuvet 6 ga kirishda va undan chiqishda. Nurning v yo'nalishda siljishi natijasida pastki rezistorning yoritilganligi oshadi, yuqorigi foterezistorniki esa kamayadi. Foterezistorlar qarshiligining o'zgarishi ko'prik sxema yordamida o'lchanadi.



**81 – rasm. Ikki kanalli fotokalorimetrning sxemasi:** 1 – yorug'lik manbai; 2 – yorug'lik filtri; 3 – prizma; 4 – ko'zgu; 5 – o'lchash.

